O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УЎК: 811.512.133’276.6:61(043.3)

Фируза АБДУЛХАИРОВА,
Андижон давлат тиббиёт институти доценти
E-mail: feruza_3018@mail.ru

ТДЎТАУ профессори, ф.ф.д. А.Ш.Собиров тақризи асосида

STRUCTURAL ANALYSIS OF MEDICAL TERMS-METAPHORS

Annotation

According to various encyclopedic sources, there are more than 300 thousand words and phrases in the field of medicine. Among them, a significant part is occupied by medical terms-metaphors. Basing on more than 1000 examples, the structural analysis of medical terms-metaphors are deeply analyzed in this article, and also presents the author's conclusions.

Key words:medical metaphor-term,semantics of terms, medical metaphor structure.

СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ МЕДИЦИНСКИХ ТЕРМИНОВ-МЕТАФОР

Аннотация

По данным разных энциклопедических источников в сфере медицины насчитывается более 300 тысяч слов и словосочетаний. Среди них значимую часть занимают медицинские термины-метафоры. В данной статье на основе более чем 1000 примеров глубоко проанализирован структурный строй медицинских терминов-метафор, а также представлены выводы автора.

Ключевые слова: медицинский термин-метафора, семантика термина, компоненты медицинской метафоры.

ТИББИЙ ТЕРМИН-МЕТАФОРАЛАРНИНГ ТАРКИБИЙ ТАҲЛИЛИ

Аннотация

Турли энциклопедик манбаларда берилишича, тиббиётга оид 300 мингдан зиёд сўз ва сўз бирикмалари мавжуд. Уларнинг ичида тиббий термин-метафоралар улкан қисмни эгаллайди. Ушбу мақолада тиббиётга оид термин-метафораларни таркибий қисмлари 1000дан ортиқ мисоллар асосида чуқур таҳлилга тортилган ва муаллифнинг хулосалари келтирилган.

Калит сўзлар: Тиббий термин-метафора, термин семантикаси, тиббий метафораларнинг компонентлари.

Кириш. Тиббий термин-метафораларнинг тилда пайдо бўлиши ва мустаҳкам ўрин тутиб қолиши ўта мураккаб жараён саналади. Бир томондан олиб қараганимизда, улар умумий тил қоидаларига тўла бўйсунади: маъно ва грамматик жиҳатдан бириккан тил бирликлари шаклида бўлади. Иккинчи томондан уларда фан тилига оидлик – алоҳида хос қолипларда юзага чиқиш имконияти бўлади. Тиббий термин-метафораларни ташкил қилувчи қисмлар маъноси реал ҳолатдаги маънога тенг бўлмаслиги мумкин. Масалан:

Кўз туби – кўз ички пардалари (тўрпарда, томирпарда) ва кўрув нервининг диски кўз туби деб аталади.

Сариқ доғ – марказий кўриш хусусиятига эга бўлган кўз тўр пардасининг сезувчан нуқтаси.

Саратон дури – баъзи бир ясси ҳужайрали, шохланувчи саратон тўқимаси орасида бўладиган дур каби кўп қаватли шохланган тўқима.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили.Тиббиёт терминологияси нафақат лексик жиҳатдан бой, балки энг қадимги илмий йўналишлардан бири ҳисобланади. Тиббиёт терминологиясининг тарихи ва шаклланиши ўзбек тилшунослигида Ҳ.Дадабоев, А.Мадвалиев, А.Ҳусанов, Н.Қосимов, З.Мираҳмедова, Й.Тўрақулов; рус тилшунослигида О.Зубкова, М.Озингин, В.Татаринов; лексик-семантик хусусиятлари Г.Абрамова, И.Бушин, Л.Динес, В.Прохорова, Л.Рудинская ва бошқалар томонидан тадқиқ этилган. Аммо, мазкур тадқиқот ишлари асосан анъанавий аспектда бажарилгани боис, уларда тиббиёт терминларининг систем-структур жиҳатларига, хусусан, тиббий метафораларнинг эвристик функцияларига тўла аҳамият берилмаган. Шунга кўра ушбу мақолада ўзбек тилида тиббиёт терминологиясининг метафорик таркиби илк бор тадқиқ этилаётгани билан аҳамиятлидир.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқотда дефиницион, когнитив ва лингвокултурологик, шунингдек этимологик, аналитик, компонент таҳлил усуллардан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар. Терминлар семантикаси учун асосий манба умумий лексика ҳисобланади. Бунга яққол мисол сифатида қуйидагиларни келтириш мумкин: ғалтак нерв – тузилишидан юқори қия мушак атрофида ипни ўраб қўйганга ўхшайди; мия оёқчалари – маънони антропоцентрик қўчиши, мия асосидаги, одам танасининг қисми – оёқларга ўхшаган, бир жуфт структура; сайёр нерв – бош-мия асаблари ичида, деярли бутун тана бўйлаб ўтувчи (сайр қилувчи), энг узун асаб ҳисобланади. Эътибор бериб қаралса, барча метафорик терминларда икки асосий нарсага урғу берилаётганини кўриш мумкин. 1.Тиббий нарса, жараён ва ҳ.к. (масалан, нерв, мия, томир, ичак каби)ларга. 2. Уларга ўхшаш инсон танаси ёки табиат ҳодисалар(ғалтак, сайр, тож, кўр)ига. Тиббий метафоралар шу икки жиҳатнинг қўшилишидан юзага келади.

Тиббий метафораларнинг таркибий таҳлили учун тиббиёт қомусий луғатлари, ўқув қўлланмалар, тиббиётга оид адабиётлар, интернет каталоглари ва маълумотномалардан, танлаб олиш методи орқали 500та термин ажратиб олинди. Тадқиқотимиз натижалари сифатида тиббий метафоралар ҳосил бўлишининг асосий усули терминологик сўз бирикмаларини кўрсатди. Бироқ, камроқ фоизда бўлса-да, бир компонентлик термин-метафоралар ҳам учрайди. Танлаб олинган 500та терминдан 99таси, яъни деярли 20 фоизи бир компонентли терминларга тўғри келди.

Бир компонентли термин-метафораларнинг таҳлили қуйидаги хулосаларни кўрсатди. Сўзларни адабий дискурсдан тиббиёт лексикасига метафора усули орқали ўтказишда уларнинг семантик маъноси фойдаланувчилар онгида дастлабки манбадан деярли ўзгармайди. Бу эса янги термин-метафорани қисман янги маънода, яъни тиббий ракурсда қабул килинишини қийинлаштиради. Айтиш лозимки, улар муҳим бўлган сифатлар киритилганлик (умумий қабул қилинганлик, фойдаланишлик)га эга. Шу боис, ушбу термин-метафоралар тиббиёт терминологиясида ўз ўрнини эгаллашга муваффақ бўлган, аммо мутахассисларнинг ўзаро суҳбатида ёки тематик дискурслар чегарасида самаралироқ қўлланилади. Номутахассис, масалан, бемор билан мулоқот мобайнида фойдаланилганда қўшимча изоҳ талаб қилади. Бунга қуйидагиларни мисол қилиб келтириш мумкин:

1. Парда – организмдаги бўшлиқларни қоплаб турувчи юпқа парда.

2. Пирамида – буйрак мағизсимон моддасини ҳосил қилувчи конуссимон тузилмалардан бири.

3. Йўлдош – кулча шаклидаги аъзо; ҳомила уч ойлик бўлгач, мукаммал етилади ва ҳомила туғилгач бачадон деворига ёпишиб туради.

Термин-метафораларнинг ҳосил бўлишидаги энг муҳим жиҳат шуки, термин учун асос бўлаётган нарсадаги бош сифат унга кўчирилади. Мисол учун парданинг қайси материалдан тикилиши, нима учун тўсиқ бўлиши, қаерга илиниши, ранги ва шу каби семалари эмас, айнан бирон нарсани тўсиб туриш семаси эътиборга олинган. Пирамида термин-метафорасида шакл семаси биринчи ўринга чиқарилган. Таъкидлаш лозимки, тиббиёт тилида бир компонентли термин-метафоралар икки ва уч компонентлилардан анча камроқ ишлатилса-да, уларнинг деярли барчаси кўп компонентли терминларнинг ҳосил бўлиш занжирида бошланғич бўғин саналади. Масалан: Чечак ва унинг турлари: чечаксимон моддача; оқ чечак; сув чечак; қора чечак.

Эътиборли томонларидан яна бири шуки, бир компонентли тиббий метафоралар ҳар доим ҳам илмий термин мақоми талабларига тўлиқ жавоб бера олмайди. Биринчи навбатда, терминнинг бир маъноли бўлиши шарт ёки қўллаш соҳасини аниқлашда қийинчилик туғдирмаслиги керак. Уларнинг маъноси бевосита контекстга боғлиқ. Бу бир компонентли метафораларнинг барча фойдаланиш ҳолларида кузатилади. Ушбу метафоралар лаконик, стилистик нейтрал ва экспрессиядан ҳоли ва бу уларга тиббий дискурсда илмий термин мақомида қолишга имкон беради.

Икки, уч ва ундан кўп компонентли термин-метафораларнинг таркибий таҳлили (3, 4, 5 - иловалар) бизга қуйидаги статистик маълумотларни берди:

Танлаб олинган 500 термин-метафорадан 306таси икки компонентли –(61%), 80таси уч компонентли – (16%), 14таси тўрт компонентли – (3%) ва 2таси беш компонентли – (0,4%)дир.

2.1-расм Таркибий таҳлил диаграммаси



Ушбу сўз бирикмали атамалардан битта ёки иккита сўз тиббиёт лексикасидан олинган бўлиб, бошқалари кунлик мулоқот дискурсидан олинган. Бу ўз навбатида ушбу термин-метафораларнинг маъносини англашни семантик ва психологик жиҳатдан осонлаштиради. Тиббиёт соҳасида мутахассис бўлмаган инсонга умуман нотаниш сўз ва сўз бирикмаларини эшитиш, олинган маълумотни тушуниш ва адъекват қабул қилиш қийин кечади. Бу нафақат матннинг маъносини англамаслик, балки психологик дискомфортни ҳам ҳис қила олмасликка олиб келади. Тиббий термин-метафораларни оддий тиббий терминлар билан қиёслаб кўрайлик:

Тиббий метафоралар:

Озиқлантирувчи артериялар

Сўрғичсимон ўсиқлар

Оддий терминлар:

Конъюктива – кўз оқини қоплаб турувчи, қовоқнинг ички тарафидаги нозик, ҳимояловчи парда.

Абсцесс – бошқа тўқимадан ажралган, ичи йирингга тўлган бўшлиқ.

Биринчи гуруҳ терминлари компонентида умумхалқ тилидан олинган лексема иштирок этаётгани учун хира бўлса-да маъноси англашилмоқда. Иккинчи гуруҳдаги терминлар содда бўлса-да, соф мутахассислик доирасига оид ва унинг маъноси ҳаммага тушунарли бўлавермайди. Кўринадики, тиббий метафоралар, мутахассис-шифокорларга ташхис қўйиш ва кўзда тутилаётган даволаш методларини беморлар ва уларнинг қариндошларига тушунтиришни анча осонлаштиради. Айнан икки, уч ва ундан кўп компонентли метафоралар мижозга маънони қабул қилиш, тушуниш ва англаш жараёнини осонлаштиради. Ушбу фактор тиббий дискурсда икки ва ундан кўп компонентли термин-метафоралардан фойдаланиш афзаллигини белгилашда асосий мезондир. Ундаги ягона манфий жиҳат сифатида атаманинг қисқа номланмагани туфайли эслаб қолиш имконияти чекланганидадир.

Тиббий метафоралар қайси сўз туркумларидан ташкил топганига кўра қуйидаги гуруҳларга бўлинади: икки компонентли термин-метафоралар:

сифат + от (133та термин-метафоралар; 43%)

от + от (153та термин-метафоралар; 50%)

от + ҳаракат номи (12та термин-метафоралар; 4%)

ҳаракат номи + от (6та термин-метафоралар; 2%)

сифат + ҳаракат номи (2та термин-метафоралар; 0,6%)

уч компонентли метафоралар:

от+от+от (18та термин-метафоралар; 23%)

сифат + от + от (23та термин-метафоралар; 29%)

от + сифат + от (8та термин-метафоралар; 10%)

бошқалар (31та термин-метафоралар; 38%)

тўрт ва ундан кўпроқ компонентли терминлар: кўпроқ қуйидаги қолипда тузилади:

от+сифатдош+от+ҳаракат номи (5та термин)

бошқалар (11та термин)

2.2-расм Тиббий метафораларнинг сўз туркумига кўра таснифи

Таркибий моделлар	Мисоллар	Икки компонентлилар	
		306тадан	%
От+от	Айиқ панжа	153	50
Сифат+от	Сариқ иситма	133	43
От+ҳаракат номи	Совуқ уриши	12	4
Ҳаракат номи+от	Кўриш ўқи	6	2
Сифат+ҳаракат номи	Шартсиз тормозланиш	2	1

Таркибий моделлар	Мисоллар	Уч компонентлилар	
		80тадан	%
от+от +от	Кўз ёши қопчаси	18	23
сифат+от+от	“Ўлик бармоқ” синдроми	23	29
от+сифат+от	Тилнинг ипсимон сўрғичлари	8	10
бошқалар	Илдиз олган хорион	31	38

Таркибий моделлар	Мисоллар	Тўрт ва ундан кўп компонентлилар	
		16тадан	%
от+сифатдош+от+ҳаракат номи	Ўрдакка ўхшаб қадам ташлаш	5	31
бошқалар	Гуруч қайнатмасига ўхшаш нажас	11	69

Хулоса ва таклифлар. Демак, метафораларни ҳосил бўлишида кўпроқ от ва сифат сўз туркумлари қўлланилади. Шунингдек, терминларни ҳосил қилишда ҳаракат номи ҳам кўп учрайди, деган хулосага келишимиз мумкин. Бизнинг фикримизга кўра, бу энг аввало, терминларнинг атамавий характери, манба ёки предметнинг манбасини, унинг сифатлари, хусусиятлари ва ҳолатини аниқлашдан келиб чиқади. Масалан: чечаксимон моддача; қора қусуқ; кўкимтир бола; руҳий травма; нотекис пульс; узунчоқ мия; ковак веналар; ялтироқ тоғай; цилиндрик бўғим ва ҳ.к.

Ҳаракат номи сўз туркуми эса кўпроқ диагностика ва даволаш методини аниқлаш ёки йўриқномаларни бажариш терминлари номинациясида кўпроқ қўлланилади: қинни ювиш; ичакнинг тозаланиши; йўл очиш; кўзгуда акс этиш; эт жимирлаши; ўпканинг “жигарлашуви” каби. Бирикмали метафоралар соҳавий терминологияда миқдори бўйича биринчи ўринларда туради ва махсус номларни ҳосил қилишнинг анъанавий усули сифатида замонавий ўзбек тилининг терминологик лексикасида асосий ўринни эгаллайди. Бирикмали метафораларнинг афзаллиги аталувчи тушунчанинг ўзига керакли хос хусусиятларини тўлиқ ҳолда акс эта олишидадир. Бирикмали термин-метафоралар ёрдамида термин ҳосил қилиш бошқа сўз ясовчи (масалан, аффикслар) воситалардан кўра классификация категорияларини аниқлаш ва ўтказишда анча осонроқдир. Шунингдек, бирикмали метафоралар ёрдамида номутаҳассис-реципиент томонидан маълумотни семантик ва психологик англаш ва қабул қилинишини осонлаштириш мумкин.

АДАБИЁТЛАР

1. Синельников Ю. Г. / Метафора как средство образования медицинских терминов (на материале французской прессы) / Ю. Г. Синельников, Я. С. Подорванова // Науч. ведомости Белгор. гос. ун-та. – Б., 2014. – Т. 21, №6 (177) –116–121 с.
2. Алексеева Л.М. Метафора в научном общении // Человек Коммуникация - Матн. – Барнаул, 1998. 2. Ч. 1. – 179 с.
3. Битокова С.Х. Метафора в контексте когнитивной лингвистики // Вестник КБИГИ и КБНЦ РАН. – Нальчик, 2006. – 354 с.
4. Величковский Б.М. Когнитивная наука: Основы психологии познания: в 2 т. – Т. 2. – М.: Смысл; Академия, 2006. – 365 с.
5. Гак В.Г. Языковые преобразования: Некоторые аспекты лингвистической науки в конце XX века: От ситуации к высказыванию / В.Г. Гак. – М.: Едиториал УРСС, 2009. – 474 с.
6. Гогоненкова Е. Еще раз о месте метафоры в научном дискурсе: постнеклассический подход // Выс. образ-е в России. – М., 2005. -№1. – 247 с.
7. Дадабоев Ҳ. Ҳозирги ўзбек тили қурилишида терминологиянинг ўрни \ Тилшуносликнинг долзарб масалалари – Тошкент, 2015. – Б. 224.
8. Дадабоев Ҳ. Ўзбек терминологияси/Ўқув қўл.“Нодирабегим”.–Т. 2020
9. Залевская А.А. Общенаучная метафора «живое знание» и проблема значения слова // Вестник Тверского государственного университета. – Серия «Филология». – Т., 2007. - № 12. – Вып. 7 «Лингвистика и межкультурная коммуникация», – 233 с.
10. Brown T. L. Making Truth. The Roles of Metaphor in Science. Urbana - Chicago: University of Illinois Press, 2003. - p. 232.
11. Coulson S. Blending Basics // Cog. Ling. – N.Y., 2000. II. - № 3/4. -P. 296.
12. Kovecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. 2nd ed. – New York: Oxford University Press, 2010.
13. Tercedor Sanchez, M. Urena Gomez Moreno, J. M. & Prieto Velasco, J. A. Grasping metaphoric and metonymic processes in terminology. Journal of Specialized Translation, – S., 2012. – P. 452.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:81-26(575.1)

Durdona ABDURAYIMOVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti magistranti
E-mail: Abdurayimovadurdona21@gmail.com

filologiya fanlari doktori Sh.Gulyamova taqrizi asosida

SHAXSIY YOZISHMALARNING FONETIK VA FONOGRAFOLOGIK XUSUSIYATLARINING GUMONDOR SHAXSNI ANIQLASHDAGI O‘RNI

Annotatsiya

Shaxsiy yozishmalarning fonetik xususiyatlarini o‘rganishda Milomning tillararo milliy tilni farqlash metodidan foydalanilgan bo‘lib, Milom bu metodni sakkiz til doirasida qo‘llagan bo‘lsa, bu maqolada u bir til ichidagi turli xil fonetik hodisalarda iste’foda qilingan, shuningdek, bu maqola fonografologik tahlil hamda uning qo‘llanilish, uning lingvistik ekspertizadagi ahamiyati, shu bilan birga, Shaxsiy yozishmalarni tahlil qilayotganda ularning audio yoki qo‘lyozma shakllari uchun alohida-alohida jadvallar berildi.

Kalit so‘zlar: shaxsiy yozishma, fonetika, lengvistik ekspertiza, audio, fonografologik

THE ROLE OF PHONETIC AND PHONOGRAPHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PERSONAL WRITINGS IN IDENTIFYING A SUSPECT PERSON

Annotation

In studying the phonetic features of personal correspondence, Milom's method of distinguishing interlinguistic national language was used, and Milom used this method within eight languages. phonographic analysis and its application, its importance in linguistic expertise, as well as separate tables for their audio or manuscript forms in the analysis of personal correspondence.

Keywords: personal correspondence, phonetics, linguistic expertise, audio, phonographology

РОЛЬ ФОНЕТИЧЕСКИХ И ФОНОГРАФОЛОГИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК ЛИЧНЫХ ПИСЬМОВ В ИДЕНТИФИКАЦИИ ПОДОЗРЕВАЕМОГО ЛИЦА

Аннотация

При изучении фонетических особенностей личной корреспонденции использовался метод межъязыковой межъязыковой дифференциации Милома, при этом Милом применил этот метод в рамках восьми языков, в данной статье он применил его к разным фонетическим явлениям в рамках одного языка, как а также в данной статье фонографологический анализ и его применение, его значение в лингвистической экспертизе, при анализе личной переписки даны отдельные таблицы для их аудио- или рукописной формы.

Ключевые слова: личная переписка, фонетика, лингвистическая экспертиза, аудио, фонографология

Kirish. Insoniyat yaratilibdiki, u o‘z fikrlarini imo-ishoralar, tovushlar va harflar yordamida ifodalashga harakat qilib kelmoqda. Biz o‘rganishimiz rejalashtirilgan qismi shaxsiy yozishmalarning fonetik xususiyatlari bo‘lib, taraqqiy etayotgan asrda sud ekspertizasi uchun muhim sanaladi. Shaxsiy yozishmalarni o‘rganar ekanmiz, undagi fonetik hodisalar ham muhim ahamiyatga egadir, chunki biz yozishmada aks etgan fonetik o‘zgarishlardan yozishma egasi qaysi hudud, soha, tabaqa vakili kabilarga javob olishimiz mumkin va bu ekspertik tahlilda qidiruvdagi shaxslarni aniqlashga va ayibdor deb topilgan shaxslarga hukum chiqarayotganda xolis yondashish uchun soha egalariga katta yordam beradi. Yozishmalardagi fonetik xususiyatlarni o‘rganishda psixologiya fanining ham ahamiyati katta, chunki talaffuzga qarab notiqning ruhiy holati aniqlanadi.

Mavzuga oid mabalar tahlili. Psixologik konstantlarning tildagi aksi bo‘lgan emotsional konseptlar Jeneva tilshunoslik maktabining eng yorqin namoyondalaridan bo‘lgan Sh.Balli tilda affektiv faktorning o‘rniga e’tibor bilan qaragan. Unin fikricha, insonlarning ko‘pchiligida hissiyot aqldan ustun turadi va bu holat nutqda, albatta, aks etadi, tilda affektiv faktor 2 maqsadga xizmat qiladi:

1. Insoning subyektiv dunyosini aks ettiradi.
2. Kommunikatsiyaning boshqa a’zolariga ta’sir ko‘rsatadi.

Har bir fraza “ikki qavatli” bo‘lib, birinchi qavat axborot, ikkinchisi esa subyektning informatsiyaga munosabatidir. Aslini olganda, Qadimgi Yunoniston tilshunoslari aniqrog‘i, stoiklar nutqni ikkiga: tashqi nutqqa va ichki nutqqa bo‘lib o‘rgandilar (Ramishvili, 1959, 3-bet). Yozishmalarning fonetik xususiyatlari noma’lum muallifning yoki ma’lum bo‘lgan muallifning xususiy belgilarini ochishga xizmat qiladi, chunki fonetika orqali shaxslarning ruhiy holati, ma’lumoti, yashash hududi kabilar tadqiq qilinishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Shaxsiy yozishmalarda fonetika ham o‘ziga xos tadqiq qilinishi lozim bo‘lgan obyektdir, chunki yozishmada fonetika ikki xil ko‘rinishda adabiy me’yor qoidalaridan chiqishi mumkin:

Ongli ravishda;
Ongsiz ravishda.

Fonetik hodisalar – og‘zaki va yozma nutqda uchraydigan turli tovush o‘zgarishlaridir. So‘zlar tarkibida tovush ortishi, tushishi va tovushlarning o‘zaro o‘rin almashinuvi, o‘zaro muvofiqlashuvi kabi hodisalardir (Barnoyeva, 2016, 33-bet). Masalan: o harfini a tarzida, ya’ni opani apa, olmani alma kabi talaffuz qilish. Bu so‘zlarda o harfi a ga almashinuvi yuz bergan, yoki ayrim shevalarda eshik so‘zini yeshik, elak so‘zini esa yelak tarzida talaffuz qilish kuzatilib, bunda so‘z boshida tovush ortishi hodisasini kuzatamiz. Nutqda so‘z, frazema, gaplar o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. Ular unli va undosh tovushlarsiz yuzaga chiqa olmaydi. Tovushlar esa turli fonetik jarayonlarga uchrab, o‘zining hududiy xarakterini shakllantiradi. Demak, insoniyat borki, nutqiy jarayon va undagi noadabiy fonetik hodisalar uchrab turadi. Zero, fonetik jarayonlar nutqning ixchamligi, aniq va ravonligini ta’minlab turuvchi bir vositadir. Shaxsiy yozishmalardagi noadabiy unsurlar yozuvchining individual xususiyatlarini aniqlashda ancha qo‘l keladi. Bu borada jahon

tilshunosligida noadabiy unsurlar tahlil asosida anonim yozishmalar muallifini aniqlashda qator tadqiqotlar amalga oshirilgan (Koppel&Schler&Zigdon, 2005, 624-628-bet). Bu esa lingvistik ekspertizada qator masalalarning yechimiga sabab bo‘lishi mumkin. O‘zbek tilshunosligida bu yangi soha bo‘lib, qator muammoli masalalar o‘z yechimini kutmoqda. Nodabiy fonetik hodisalar misolida shaxsning intelektual salohiyati, ijtimoiy va hududiy mansubligi, mentaliteti kabi xarakterli jihatlarini aniqlab olsa bo‘ladi.

Nutqdagi fonetik hodisalarning o‘ziga xos tomoni shundaki, ayrim fonetik hodisaga uchragan so‘zlar yozuvda aks etishi va me’yor darajasiga ko‘tarilishi mumkin. Bu jarayon imloviy tamoyillar (fonetik, morfologik, shakliy va tarixiy-differensial)ning yuzaga kelishiga zamin hozirlagan (Otamirzayeva, 2014, 103-bet).

“D.Kristalning “Lingvistika va fonetika lug‘ati”da paronimiya “ba’zan semantik tahlilda bir o‘zakdan olingan so‘zlar o‘rtasidagi munosabatni bildirish uchun ishlatiladigan atama” …“ba’zan semantik tahlilda bir ildizga ega bo‘lgan so‘zlarning munosabatini bildirish uchun qo‘llaniladigan atama”…, shundan xulosa qilish mumkinki, ekspertiza mualliflari semantik tahlil elementlaridan foydalanadilar. shuningdek, da’vogarning ismiga mos keladigan bayonot va taxmin qilingan yozuv o‘rtasidagi o‘xshash elementlarni aniqlash uchun fonetik tahlil qilishdir (Ворошилова, 2016, 55-bet).

Tahlil va natijalar. Shaxsiy yozishmalarda uchraydigan fonetik hodisalarni o‘rganishda biz adabiy me’yor darajasiga chiqqan hodisalarga emas, balki me’yor buzilgan holatlarga e’tiborimizni qaratamiz va bu ekspertlar uchun anonim yozishmalarni o‘rganishda juda muhim (shaxsiy yozishmalarning o‘rganishda uning og‘zaki va yozma shakllari borligini ham inobatga olish lozim). Shaxsiy yozishmani o‘rganayotganda areal lingvistika, matn tilshunosligi va konteks juda ham ahamiyatli, ya’ni tilshunoslikning tarmog‘i hisoblangan areal lingvistikada fonetika hududiy jihatdan o‘rganiladi hamda matn tilshunosligi so‘zlar yordamida shaxsning portretini chizishga yordam beradi. Quyida V.Milomning tillararo milliy tilni farqlash metodidan foydalanib shaxsiy yozishmalardagi fonetik xususiyatlarning katoligini yaratamiz. Quyida yozishmalardan misollar keltiramiz. Ushbu yozishma telegram tarmog‘idan olingan.

Nimaga bulani familiyasi keyingi bosqichga o'tganlani orasida yo' digan savol berishdan oldin. 50 ta testti qanaqqilib 1 minut ichida ham savollani o'qib chiqib ham to'g'ri javoblani belgilab ham bittayam xato qimasli mumkin? Digan kichkinagina savolga javob qidirib ko'rish keremikin))

Yuqoridagi Shaxsiy yozishmaning fonetik xususiyati katalogi				
	Xususiyat	Xato turi	Xato turning tavsifi	Misollar
1	Qo‘shimchada	Yozuv	r tovushi tushishi	Nimaga bulani …
2	Qo‘shimchada	Yozuv	r tovushi tushishi	…o‘tganlani…
4	O‘zakda	Yozuv	q tovushi tushishi	… yo‘…
5	O‘zakda	Yozuv	e o‘rnida i farqlanmagan	…digan …
6	Qo‘shimchada	Yozuv	Assemilatsiya	testti
7	O‘zakda	Yozuv	Eliziya, q tovushi tushgan	qanaqilib
8	Qo‘shimchada	Yozuv	r tovushi tushishi	savollani
9	Shaklda	Yozuv	Eliziya	bittayam
10	O‘zakda va qo‘shimchada	Yozuv	k tovushi tushishi	qimasli
11	O‘zak	Yozuv	e o‘rnida i farqlanmagan	digan
12	O‘zak va qo‘shimchada	Yozuv	Assemilatsiya, a o‘rnida i farqlanmagan	keremikin

“Sud-huquq tizimi va tilshunoslikning integratsiyalashuvi natijasida yurislingvistika yuzaga keldi. Dastlab, xorijiy mamlakatlarda og‘zaki nutqning lingvistik tahlili rivoj topdi va bu jarayon bevosita fizika, fiziologiya fanlarining huquq tartibot sohalari bilan hamkorligini yuzaga keltirdi” (Баранов, 2007, 592 с). Haqiqatdan ham sud-ekspertizasi lingvistika sohasi bilan aloqadorlikda ishlay boshlagandan so‘ng u fizika sohasi va lingvistika sohasiga birdek murojaat qiladigan vaziyatlar ham kuzatila boshladi, ya’ni audio va vedio yozuvlarni tahlil qilishda lingvistika sohasi bilan birgalikda fizikaning akustika tarmog‘i bilan ovoz shaklidagi yozuvlar tahlil qilina boshladi. Keyinchalik qo‘lyozma matnlar, sms xabarlar, Whats up, Wiber, Telegram, Instagram ijtimoiy tarmoqlaridagi sud jarayoni uchun muammoli shaxsiy yozishmalarning lingvistik tahlili rivoj topdi va bu o‘zining ijobiy natijalariga ega muhim soha sifatida rivoj topgan (Голев, 1999, 7-38-bet).

Shaxsiy yozishmalardagi fonetika va fonologiya ekspertik tahlil qilinayotganda gumonlanuvchi shaxsning ovozi yozib olinishi zarur, shundan so‘ng lingvistik ekspertizaning tarkibiga kirgan fonografologik tahlilda gumondor va namuna uchun berilgan audio solishtirilib tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida o‘rganilish uchun berilgan ovozli yozuv fizik jihatdan tahlil qilinadi, shu bilan birga gumondor shaxsdan 45 minutlik audio yozib olinib, uning xususiy belgilari o‘rganiladi, eng muhimi audio yozuv erkin mavzuda berilishi shart. 45 minut davomida yozib olingan audioda gumonlanuvchi ovozidagi xususiy belgilar namayon bo‘ladi. Audio hamda vedio yozuvlar shu shaklda tahlil qilinadi, buning sababi muallif yoki ijrochi ovozini o‘zgartirgan bo‘lsa, so‘zlashuv uchun berilgan daqiqada u ovozidagi xususiylikni yashira olmaydi.

Fonografologik tahlilda ovozli yoki vedio yozuvlar monatj qilingan yoki montaj qilinmaganligi ham o‘rganiladi hamda shu yozuvlar necha minut bo‘lsa ularnig barchasi ko‘rib chiqiladi. Yozuvlar umumiy o‘rganilib chiqilgandan so‘ng xulosa qismida ovozli yozuv muallifi kim ekanligini to‘rtta toifada ko‘rsatiladi, bu xulosada ovozli namuna hamda gumondor shaxsning ovozlari fizik tahlilda necha foizga mos yoki mos emasligi asos qilib olinadi. Quyida shu 4 toifani keltiramiz:

U (85% dan 100% gacha);
U bo‘lishi mumkin (80% dan 85%gacha);
U bo‘lmasligi mumkin (75% dan 80% gacha);
U emas (75% dan past bo‘lganda).

Bunday shaklda ekspertik xulosa chiqarish ovozlarning to‘g‘ri yoki to‘g‘ri kelmasligi foizlar hisobiga, hamda appart tahlili natijasida amalga oshiriladi.

Professor N. Mahmudovning fikriga ko‘ra, “‘Tilni faqat va faqat kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin etish insonning tabiiy tilini, bu murakkab va muhtasham hodisani, eng kami , jo‘nlashtirishdan, aniq bir milliy qiyofa

yoki milliy-ruhiy zamindan mosuvo bo’lgan sun’iy tilga (masalan, esparanto kabi) tenglashtirishdan. Yo‘l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli “til”ga baravarlashtirishdan boshqa narsa emas… Holbuki, odamlar til vositasida tuyg‘u va kechinmalari, quvonch va qayg‘ulari, hayrat va hayronliklari, qalbdagi huzurlari kabi xilma-xil sezgilarni ham ifodalaydilarki, bular hamisha ham sof kommunikativ maqsadlarni ko‘zda tutmaydi” (Mengliyev, 2013, 10-bet).

Shaxsiy yozishmalarni tahlil qilishda uning fonetik xususiyatlari ham muhim hisoblanadi, har bir shevada o‘ziga xos fonetik xususiyatlar mavjud va ular asosan ovozli yozishmalarda nomoyon bo‘ladi. Har bir hududning o‘ziga xos unli va undosh tovushlari mavjud, yozishmalarda bularni o‘rganish noma’lum muallifning qaysi hudud vakili ekanligini aniqlash hamda uning yosh belgilarini taxminiy ijtimoiy kelib chiqishini ham aniqlash mumkindir. Yozishmaning fonetika tizimini o‘rganayotganda adabiy me’yorlardan chiqish holatlari aynan yozishma muallifining xususiy belgilarini ochishga xizmat qiladi. Nicci MacLeod va Tim Grantlar tasnifiga ko‘ra qisqa yozishmalarda fonetik jihatlar uslub hamda tovush almashinishi bosqichida o‘rganilgan:

Tovush almashinishi:
Unli;
Undosh.
Uslub:
Urg‘u, intonatsiya, ritm;
Unli yoki undoshning qo‘sh kelishi.

Unli yoki undoshning almashinishi hamda urg‘u, intonatsiya, ritm va unli yoki undoshning qo‘sh kelishi kabilar ham qisqa shakldagi yozishmalarni o‘rganish uchun asos sifatida olingan, bu tahlil jarayonining mukammal bo‘lishi uchun bir muallifdan kelgan qisqa yozishmalarni barchasini jamlab tahlil qilish kerak. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, yozishmalarni tahlil qilishda faqatgina harflar tizimigina emas, balki audio yozuv bo‘lsa, yozishmaning ohangi ham uni o‘rganishdagi ahamiyatli xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shaxsiy yozishmalarning fonetik xususiyatlarini quyidagi jadval asosida o‘rganishni tavsiya qilamiz.

Shaxsiy yozishma		
Og‘zaki(Audio, vedio)		Yozma (sms, chat, qo‘l yozma)
	Ohang	Tovush almashinishi
	Urg‘u	Unlilarning qavatlanishi
	Ritm	Undoshlarning qavatlanishi

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ikki xil shakldagi yozishmalarni o‘rganishda ularning moddiyatga ko‘chishiga qarab tahlilga tortish lozim deb hisoblaymiz. Shaxsiy yozishmalarni o‘rganishda yozishmaning fonetik xususiyatlari ham alohida e’tibor talab qiladi, chunki fonetik hodisalarda muallifning yashash hududi, fiziologik holati hamda u shu yozishmani yozishdan bo‘lgan maqdsadi, qabul qiluvchiga bo‘lgan munosabati, shu yozishma matnidan kelib chiqib o‘sha holatga bo‘lgan his tuyg‘ulari uning ohangidan ma’lum bo‘ladi. Yozishmalarni fonetik tahlil qilish ekspertizaning bir qismi bo‘lib, bu tekshiruv yozishmalarning barcha shakllari uchun birdek muhim hisoblanadi. Shaxsiy yozishmalarning vedio va audio shakllaini o‘rganish fonografialogiya bo‘limida amalga oshirilishi gumondorning haqitdan shu yozishma mullifi yoki yo‘qligini ovozlarning o‘xshashlik foiziga qarab apparat yordamida aniqlash ekspertizaning oson borishiga imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Mengliyev B. (2013.15-may). Tilda imkoniyat va voqelik mushtarakligi. (7,9,10-bet). Ma’rifat gazetasi.
2. Голев, Н.Д. (1999). Юридический аспект языка в лингвистическом освещении Юрислингвистика: проблемы и перспективы : Межвуз. сб. научных трудов / Под ред. Н.Д. Голева. – Барнаул.: Изд-во Алт. ун-та,. – С. 7-38.
3. Голев, Н.Д. (2004). Антиномии русской орфографии. (160с) / Н.Д. Голев. – М.: Едиториал УРСС.
4. Баранов, А. Н. (2007). Лингвистическаяэкспертизатекста: теорияипрактика [Текст] (33с) : учеб. пособие / А. Н. Бара-нов. — М. : Флинта : Наука.
5. Ворошилова М. Б. (2016). Лингвистическая экспертиза задачник часть . (3с)1. Экспертиза конфликтного текста Екатеринбург.
6. Ramishvili.D.I. (1959). Nutq psixologiyasi nuqtayi nazaridan til belgisi muammosi. (3-bet) “Psixologlar jamiyati I syezdida ma’ruzalar tezislari”. 1-chiqishi, –M.
7. Barnoyeva Z.S. 2016. XVII-XIX asr nazmida fonetik hodisalar va fonetik qonunyatlar (33-bet). mag…diss. – Buxoro.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК:82.УЗ ББК 83.3(5 Ўзб)2 А-21

Нормурод АВАЗОВ,
Тошкент давлат санъат ва маданият институти доценти, ф.ф.н
normurod.avazov.63@mail.ru

Тошкент давлат юридик университети профессори, ф.ф.д. Ш.Кўчимов тақризи асосида

BEHBUDIY AND FITRAT: INTERPRETATION OF A POEM DEDICATED TO THE MEMORY OF THE FATHER OF THE PEOPLE

Annotation

The article deals with the activities and creativity of the progressive Mahmudhoji Behbudi and Fitrat. The poem “I was looking for the saga of Behbudi”, written by Fitrat on the occasion of the death of Mahmudhoja Behbudi, was mainly analyzed. The poem of Abdurauf Fitrat, dedicated to the memory of Behbudi, can be considered a direct continuation of his previous poems. That is, it conveys to the reader that the idea of Fitrat's poems "Sorrow for the country", "Sharq", "Snow" is also reflected. in a memory poem. Also, the famous Uzbek writer Abdurauf Fitrat left a rich legacy in various fields of literature, art and science. The research shows the special educational value of the poem "I searched for Behbudi's saga" written in memory of Behbudi.
Keywords: nation, advanced, creativity, national, memory, poem, Turkestan, history, activity, student.

БЕХБУДИЙ И ФИТРАТ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОЭМЫ, ПОСВЯЩЕННОЙ ПАМЯТИ ОТЦА НАРОДА

Аннотация

В статье рассматривается деятельность и творчество прогрессивных Махмудходжи Бехбуди и Фитрата. В основном анализировалось стихотворение «Я искал сагу о Бехбуди», написанное Фитратом по случаю смерти Махмудходжи Бехбуди. Поэму Абдурауфа Фитрата, посвященную памяти Бехбуди, можно считать прямым продолжением его предыдущих стихотворений. То есть доносится до читателя, что отражена и идея стихотворений Фитрата «Печаль о стране», «Шарк», «Снег». в стихотворении памяти. Также, известный узбекский писатель Абдурауф Фитрат оставил богатое наследие в различных областях литературы, искусства и науки. Исследование показывает особую воспитательную ценность стихотворения «Я искал сагу о Бехбуди», написанного в память о Бехбуди.
Ключевые слова: нация, передовой, творчество, национальный, память, поэма, Туркестан, история, деятельность, ученик.

БЕҲБУДИЙ ВА ФИТРАТ:МИЛЛАТНИНГ ОТАСИ ХОТИРАСИГА БАҒИШЛАНГАН БИР ШЕЪР ТАЛҚИНИ

Аннатоция

Мақолада тараққийпарвар Маҳмудхўжа Беҳбудий ва Фитрат фаолияти ҳамда ижоди тадқиқ этилган. Асосан, Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг вофоти муносабати билан Фитрат томонидан ёзилган “Беҳбудийнинг сағанасини изладим” шеъри таҳлилга тортилган. Абдурауф Фитратнинг Беҳбудий хотирасига бағишланган шеъри ҳам унинг олдинги ёзган шеърларининг бевосита давоми сифатида баҳолаш мумкин. Яъни, Фитрат “Юрт қайғуси”, “Ким деяй сени”, “Бир оз кул”, “Яна ёндим”, “Шарқ”, “Қор” шеърларидаги ғоя хотира шеърида ҳам ўз аксини топганлиги ўқувчига етказилади. Шунингдек, атоқли ўзбек адиби Абдурауф Фитрат адабиёт, санъат ва илм – фаннинг турли соҳаларига оид бой мерос қолдирган. Тадқиқотда Беҳбудий хотирасига ёзилган “Беҳбудийнинг сағанасини изладим” шеърининг ҳам алоҳида тарбиявий аҳамияти кўрсатилади.
Калит сўзлар: миллат, тараққийпарвар, ижод, миллий, хотира, шеър, Туркистон, сағана,фаолият, ўқувчи.

Кириш. Туркистон ўлкасида жадидлар Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг “миллат озод бўлиб, ўзининг мустақил давлатини ўрнатмагунича, ижтимоий адолатни тиклаб бўлмайди” деган хулосасига қўшилган эдилар. Миллатнинг келажаги учун кураш миллий ғояси жадид адабиётининг бошқа вакиллари асарларида ҳам яққол намоён бўлганлигини кўрамиз. Улар ҳам Беҳбудийнинг ғояси тарғибочилари ҳамда бевосита давомчилари ҳисобланадилар.

Ўзбек жадид адабиётида миллат тақдири ва унинг келажаги ҳамда тараққиётини ўзида акс эттирган шоир ва ёзувчиларимиз орасида Абдурауф Фитратнинг асарлари алоҳида ажралиб туради. Фитрат ўзбек жадид адабиётида шеърлари, насрий, драматик, адабий-танқидий, публицистик асарлари билан катта ҳисса қўшган.

Фитрат ижодининг мазмунида миллат тақдири, истиқлол мавзуси, юрт қайғуси, Ватан туйғуси ётадиди. Жадид адабиётининг етук вакили ҳисобланган Фитрат гўзал шеърлари билан бармоқ вазнига асос солган. Унинг “Юрт қайғуси”, “Юрт қайғуси (сочма)”, “Юрт қайғуси (бир ўзбек тилидан)”, “Юрт қайғуси (Темур олдинда)”, “Ким деяй сени?”, “Бир оз кул”, “Аччиғланма деган эдинг”, “Миррих юлдузига”, “Овунчоқ”, “Яна ёндим”, “Шоир”, “Беҳбудийнинг сағанасин изладим”, “Ўгит”, “Шарқ”, “Ўқитувчилар юртига”, “Қор”, “Менинг кечам”[1] шеърлари шулар жумласидандир.

“Фитрат шеърияти фақатгина дардманд, ўтли шеърлар мажмуаси бўлибгина қолмади. Унинг замондошлари тўғри таъкидлаганларидек, у ўзбек шеъриятида янгича тизим, бармоқ вазнидаги шеър шаклларига йўл очди. Шеърият бошқа миллатлардан ўзлаштириб олинган вазнлардагина эмас, балки турк улусининг руҳиятидан отилиб чиққан, миллатнинг нутқ ва талаффуз товушларига мос бўлган, оғзаки адабиётда жуда кўп қўлланиш баробарида чархланиб, синовлардан ўтган шеър тизими – бармоқ вазнини ўзлаштиргандагина, юксак парвозларга чиқиши мумкин эканлигини ўз адабий тажрибаси орқали кўрсатди”[2].

Тадқиқот методологияси. Айни даврда миллатнинг бонийси бўлган Беҳбудий ижодини хорижда ва мамлакатимизда ўрганишга бугунги кунда қизиқишлар ортиб бормоқда. Олимларимиз томонидан тараққийпарвар ижодининг турли жиҳатлари ёритиб борилмоқда. Шунингдек, С.Қосимов, Б.Қосимов, Ш.Турдиев, А.Алиев,

Э.Каримов, Н.Каримов, С.Аҳмедов, Ҳ.Саидов, З.Мирзаева, З.Ахарова, З.Абдурашидов, Ш.Ризаев, Н.Авазов, Г.Нишоноваларнинг китоб, рисола ва матбуот саҳифаларида эълон қилинган ва қилинаётган ишларида масаланинг турли томонларини ёритишга қаратилмоқда. Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг икки жилдлик асарларининг эълон қилиши ҳам катта ҳодиса бўлди[3].Шунингдек, Абдурауф Фитрат ва унинг ижоди тўғрисида ҳам А.Саъдий, М.Шермуҳамедов, Л.Климович, О.Шарафиддиноа, Ҳ.Болтобоев, Н.Каримов, Э.Каримов, Б.Назаров, И.Ҳаққулов, Ш.Турдиев, И.Ғаниев, И.Балдауф каби олимларимиз томонидан Фитрат ижоди кенг ўрганилди. Фитратнинг ҳам заҳматкаш олимларимиз томонидан тўрт жилдлик танланган асарларининг эълон қилинганлиги катта ҳодиса бўлди[4].Аммо, ўзбек адабиёти тарихида Беҳбудий ва Фитрат ижодининг қиёсий ўрганилиши долзарб масалалардан саналади.

Мақолада Фитрат Беҳбудийнинг вафотидан қаттиқ таъсирланиш натижасида шеър дунё юзини кўрган. Миллатнинг бонийсига бўлган шоирнинг эҳтироми бадиий тасвирларда намоён бўлиши ўрганилиб, тавсифлаш, қиёслаш методларидан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар. Фитратнинг “Беҳбудийнинг сағанасини изладим” шеъри миллатнинг отаси ва фидойиси Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг вафоти муносабати билан ёзилган[5]. Бу хотира шеъргача ҳам Фитратнинг миллат тақдирини акс эттирувчи шеърлари дунё юзини кўрган эди. Жумладан, унинг “Ўгут” шеърида ҳам ўлкадаги аҳволни очиқ – ойдин тасвирлайди. Яъни:

Оғир йигит, сенинг гўзал, нурли кўзингда
Бу миллатнинг саодатин, бахтин ўқудим.
Ўйлашингда, туришингда ҳамда ўзунгда
Бу юрт учун қутулишнинг борлигини кўрдим.
Турма – югур, тинма – тириш, букилма-юксал,
Ҳуркма –кириш, қўрқма-ёпиш, йўрилма-қўзғал,

деб миллатнинг келажаги учун курашга чорлайди.

Беҳбудий хотираси шеъри қўйидагича:

Чўкмишди ер узра олам тўсуғи,
Ўксуклик бойқуши қанот қоқарди.
Ботувда қизариб турган булутдан
Эзилган кўнглима мотам ёғарди, мисрлар билан бошланган.

Шоир айтадики, бутун олам ер юзига чўккан, кўнглимда ўксук, ғамгинлик ҳукмрондир. У бойқуш каби қанот қоқади, яъни бойқушдай жойлашиб олган. (Ҳаммамиз биламизки, бойқуш ёмонлик хабарчиси). Кўнглимнинг тўрларида озгина бўлсада қолган (бўлган) умиддан яъни у ҳам ботиб кетаётган булутдай, эзилган кўнглимга янада мотам бўлиб ёғилади.

Ҳақсизлик шаҳрининг қон ҳиди ели
Армоним гулидан бир япроқ узуб,
Баҳорсиз чўлларга совуриб қўйди.
Ул нозли япроғим сўлиб, сарғайиб,
Йўқсул қолғанлардай ҳар ён югурди.

Мустабид тузумнинг ҳақсизлигидан қон ҳидлари сезилиб турибди, дунё қадар бўлган ишончимнинг катта бир қисмини узиб ташлади. Бу армонимни гулсиз, қуруқ чўлларга айлантирди. Кўнглимдаги нозик бўлган ўша япроғим сўлиб, сарғайди. Унинг ўзи ёлғиз қолганидан ҳар тамонга ўзини ўриб, югуради, чопди.

Золимлар, мазлумлар, зулумларинг-да,
Қайғулар, аламлар, ўлумларинг-да
Барига учради, барчасин кўрди,
Ўз йўқотқонин излади, сўрди.
Бир дарак топмагач, бирдан бир тикилди.

Миллий зулмга учраган миллатга нисбатан мустабид тузумнинг кўрсатган золимликлари, мазлумларга нисбатан уларнинг кўрсатган таққирликлари, улар миллатнинг жонидан ўтказиб юборган қайғуларининг барчасини кўрди, барига чидади, ҳатто, миллатнинг ўлимларини ҳам бошдан ўтказди(1898 йилги Дукчи эшон қўзғолони;1916 йил Жиззах қўзғолони). Аммо, ўзи йўқотганин яъни миллат ҳақни-ҳуқуқни излади, қидирди, сўради, топди, курашди. Миллатдан бир мадад келмади, Мухториятда ҳам ҳақиқат амалга ошмаганидан кейин аросатда бир нуқтага тикилди. Нажотни тополмай тўхтади, турди. Золим мустамлаканинг зулмидан тўйди.

Бор кучини тўплади.
Золимнинг тахтини титратган бир товуш
Қичқирди:
- Отамнинг қабрини қай ерга ёшурдинг?!
Бот сўйла!..
Кирли тож кўб қўрқди ботур товушдан,
Сесканиб, титраб ..ёшрунди
Бир жавоб бермасдан.

Ич-ичидан бор кучини йиғди, тўплади. Вужудлари жунбушга келди. Мустамлакачи золимга қарши, унинг тахтига қарши, уни юқотмоқчи бўлган зулмга мағрур овоз билан бақирди, қичқирди. Миллатнинг отаси қабрини қаерларга беркитдинг?!Нега яширдинг?!Нега уни йўқотдинг! Жавоб бер, золим ҳукумат!

Шоир уни кирли тож деб атади. Унинг бир оғиз “кирли” сўзи – бу золим мустамлаканинг ўлкада олиб бораётган ваҳшиёна сиёсати эди. Бу кирли тож дунёларни ларзага солувчи бу ботир товушдан сесканиб кетди, бир титраб олди. Жимликларга бурканиб, секин яшринди. Ҳеч қандай жавоб бермасдан, орқада турган, етилиб келаётган миллатдан қўрқди.

Абдурауф Фитратнинг шеърларида миллатнинг тақдири, озор чеккан миллат, миллий зулим, юртнинг қайғуси ўзига хос равишда тасвирланади.Унинг “Юрт қайғуси (сочма)”, “Юрт қайғуси (бир ўзбек тилидан)”, “Юрт қайғуси (Темур олдинда)”[6] шулар жумласидандир.

“Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти”(2004)[7] да: “шеърлар рукннинг сарлавҳасидан кўриниб турганидек, юрт – Ватан қайғусига бағишланган. Замон инқилоблар замони эди. Чор ҳукумати қулади. Эпчил миллатлар дарҳол истиқлол режаларири кўра бошладилар. Туркистоннинг тақдири қандай бўлди?Айниқса сўнги асрларда залолатга ботган, дунёдан узилиб, фисқу фужурга қўмилган, ўз қиёфасини йўқота бошлаб, ўзга миллат етовига тушган Туркистоннинг. Фитратни қийнайдиган дард – шу!”.

Онам! Сени қутқармоқ учун жонми керакдир?
Номусми, виждон била имонми керакдир?
Темур била Чингиз қони тошди томиримиздан,
Айтгил! Сени қутқармоқ учун қонми керакдир?
Ёв суқғали келгач қиличини юрагингга,
Туш олдига, ол кўксуми – қалқонми керакдир?
Боқ, боқ, мана турк тенгизи тошқун қила қолди,
Турон ёвини қувғали тўфонми керакдир?
Турон, йигитинг, барчага боқ, қалқди оёққа,
Юртда қоровул қўйғали арслонми керакдир?

“Миллий уйғониш ўзбек адабиёти”да бу шеър тўғрисида: “Шеърда мухторият ғалабасининг нашъу намоси балқиб турибди. Уйғонган халқ билан биргалик туйғуси, оталар шарафи ва улар руҳи олдидаги бурч, эл-юрт хизмати сурури яхши ифодаланган”[8].Қўшимча қилиб айтиш лозимки, лирик қаҳрамон онаси яъни бу-Туркистон. У мустабидликда, қарамликда. Уни қутқармоқ учун миллатнинг жони, номуси, виждони, имони керак. Лирик қаҳрамон миллатга қарата айтадики, менинг томирларимда Темур ва Чингизларнинг қони оқмоқда, тошмоқда. Мен миллат учун жасорат қилишга шайланганман.Туркистонни қутқариш учун қон зарур бўлса, қон беришга яъни курашиб улмоққа ҳам розиман. Агар сени кўксингга душман ўз қиличини юрагингга ургани келган бўлса, мен унга кўксимни тутаман, қалқон бўламан.

Эй, миллат атрофингга боқ, душман Туркистон дунёсини, унинг сабр-косасини денгиздай тўлдириб, тошқинлатиб юборди. Ўлкада ўрнашиб олган бундай душманни йўқотиш, уни йўқ қилиш учун тўфон каби катта куч бўлиши лозим. Туркистоним миллатинг чор атрофига қарасин, оёққа турсин, курашга отлансин. Юртни, ўлкани душмандан ҳимоялаш, тозалаш учун бутун юртни қўриқлайдиган арслони бўлиши керак!

Абдурауф Фитратнинг ижодида насрий ва драматик асарлари ҳам миллат тақдирини кўрсатувчи, ёритиб берувчи томонлари билан ҳам алоҳида ажралиб туради. Унинг “Ҳиндистонда бир фаранги ила бухороли мударрисниг жадид мактаблари хусусинда қилган мунозараси” муаллифнинг қайд этишича, 1909 йили ёзилган[9].

Муаллиф асарнинг муқадимасида: “Бухоронинг нажиб (ёруғ) миллати бўлган ватандошларим, бирмунча вақтдан бери жадид ва қадим ўртасида ихтилоф чиққани баъзи миллат хоинларининг хато ва фасодларидан бошқа нарса эмасдир. Муққадас ватанимизни парчалаб, унинг аҳли жамоасини жадид ва қадим унвонлари остида икки фирқага ажратиб, уларнинг бирини иккинчисига душман қилиб қўйдилар”[10].

Шунингдек, Фитратнинг “Чин севиш”, “Ҳинд ихтилочилари” асарлари даврнинг воқеалари атайлаб бошқа мамлакатга кўчириб қаламга олинади. Аммо, асарнинг руҳи ва мазмунидаги ички кечинмалар, ботиний маъно, Туркистонда миллатнинг кўзини очишга йўналтирилади. Муаллифнинг “Абулфайзхон”, “Шайтоннинг тангрига исёни” асарларида ҳам воқеалар яъни ҳаракатлар ўтмишга кўчирилиб, ўтмишдаги воқеаларни миллатга кўрсатиш орқали Туркистон ўлкасида ўрнатилган ижтимоий – сиёсий тузум яъни аҳвол ёритиб кўрсатилади.

Беҳбудий айтган “Мозий – истиқболнинг тарозисидур” машҳур ибораси, А.Қодирийнинг “Мозийга қайтиб иш кўриш хайрлик, дейдилар” ибораси ўртасида боғлиқлик бу тасоддиф эмас, аксинча бу икки ашроф зотларнинг келажакка бўлган мурожаатлари эди. Шу жиҳатдидан Беҳбудий ва Фитрат каби сиймоларнинг ижодига мурожаат қилиш, уларни ўрганиш ва таққослаш хайрлик ишдир. Қолаверса, ҳар бир қалам тебратувчида мамнуният ҳиссини ўйғотади ёки фарз ва қарз деган хулосаларни кўз олдингизда жонлантиради.

Хулоса ва таклифлар. Беҳбудийнинг орзу армонларини юзага чиқариш учун Фитрат бутун дунёсини бағишлади. Унинг публицистикаси, шеърлари, ҳикоялари, қиссалари, драмалари билан ўзбек адабиёти тамойилларини белгилаб берди. Юрт учун, миллатнинг келажаги учун ижод қилди, амалий ишлари билан ўзини кўрсатди. Биргина Фитратнинг “Беҳбудийнинг сағанасини изладим” хотира шеърининг ўзи ҳам бунинг яққол исботидир. Беҳбудий ва Фитрат ижодининг қиёсий ўрганилиши янада долзарб ҳисобланади. Келгусида бу масалага қайтиш ва тадқиқот олиб бориш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР

1. Фитрат А. Танланган асарлар. – Тошкент: “Маънавият”, 2000. - Б.31-45.
2. Болтабоев Ҳ. Фитрат ва истиқлол маънавияти. Фитрат. Танланган асарлар. – Тошкент: “Маънавият”, 2000. –Б. 13.
3. Беҳбудий М. Танланган асарлар.Биринчи ва иккинчи жилдлар. – Тошкент: “Академнашр”, 2018. – Б.310.
4. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар.- Тошкент: “Маънавият”, 2000-2005. – Б.256.
5. Фитрат А. Беҳбудийнинг сағанасини изладим. Танланган асарлар. – Тошкент: “Маънавият”, 2000. – Б. 40.
6. Фитрат А. Юрт қайғуси. –Танланган асарлар. Биринчи жилд. – Тошкент: “Маънавият”, 2000. – Б. 32-33
7. Қосимов Б, Юсупов Ш, Долимов У, Ризаев Ш, Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Дарслик. – Тошкент: “Маънавият”, 2004. – Б.368.
8. Қосимов Б. Юсупов Ш, Долимов У, Ризаев Ш, Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Дарслик. – Тошкент: “Маънавият”, 2004. – Б.369.
9. Фитрат А.Танланган асарлар. Биринчи жилд. – Тошкент: “Маънавият”, 2000. – Б. 46-93.
10. Фитрат А.Танланган асарлар. Биринчи жилд. – Т.: “Маънавият”, 2000. – Б.46.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК:811.161

Эльвина АЛИЕВА,
к.ф.н., доцент кафедры русского языкознания НУУз
E-mail: alieva.elvina@rambler.ru

на основании отзыва д.ф.н., профессора Шереметьевой А.Г.

КОНВЕРГЕНЦИЯ ЭКСПРЕССИВНЫХ СИНТАКСИЧЕСКИХ СРЕДСТВ НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗА Г. ПРЯХИНА «ИНТЕЛЛИГЕНЦИЯ И ЖЕСТОКОСТЬ»

Аннотация

В данной статье впервые представлен анализ конвергенции экспрессивных средств синтаксиса в языковой структуре ранее не привлекаемого для лингвистического исследования произведения российского журналиста, писателя, издателя Г.В. Пряхина. Рассказ «Интеллигенция и жестокость» представляет собой интерес не только своей проблематикой и изображением современной действительности, но и своеобразием языковой организации. В языковой структуре данного произведения используется большое количество разнообразных экспрессивных средств синтаксиса, которые вступают в различные отношения и взаимодействия друг с другом. Анализируются различные комбинации и типы конвергенции экспрессивных средств синтаксиса в реализации художественных целей автора.

Ключевые слова: экспрессивность, экспрессивный синтаксис, экспрессивные средства синтаксиса, конвергенция, парцеллированные конструкции, парцеллят, вводные и вставочные, усеченные конструкции, вопросительные структуры, метафора

G. PRYAXINNING “ZIYOLILAR VA SHAFQATSIZLIK” HIKOYASI MATERIALI BO'YICHA EKSPRESSIV SINTAKTIK VOSITALARNING KONVERGENTSIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ilk bor rus jurnalisti, yozuvchisi, nashriyotchisi G.V.Pryaxinning hikoyasining til materialida, ilgari lingvistik tadqiqotlar uchun foydalanilmagan, sintaksisning ekspressiv vositalarining konvergentsiyasini tahlil qilindi. “Ziyolilar va shafqatsizlik” qissasi nafaqat muammolari, zamonaviy voqelikni tasvirlashi, balki til tashkilotining o‘ziga xosligi bilan ham qiziqish uyg‘otadi. Ushbu asarning til tuzilishida sintaksisning juda ko'p turli xil ifoda vositalaridan foydalaniladi, ular bir-biri bilan turli munosabatlar va o'zaro ta'sirlarga kiradi. Muallifning badiiy maqsadlarini ro'yobga chiqarishda sintaksisning ifodali vositalarining turli birikmalari va yaqinlashuv turlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ekspressivlik, ekspressiv sintaksis, sintaksisning ifodali vositalari, konvergentsiya, bo‘lak konstruksiyalari, bo‘lakchalar, kirish va oraliq konstruksiyalar, kesilgan konstruksiyalar, so‘roq tuzilmalari, metafora.

CONVERGENCE OF EXPRESSIVE SYNTACTIC MEANS ON THE MATERIAL OF G. PRYAKHIN'S STORY "INTELLIGENTSIA AND CRUELTY"

Annotation

This article for the first time presents an analysis of the convergence of expressive means of syntax in the language structure of the work of the Russian journalist, writer, publisher G.V. Pryakhin. The story "Intelligentsia and cruelty" is of interest not only for its problems and depiction of modern reality, but also for the originality of the language organization. In the language structure of this work, a large number of various expressive means of syntax are used, which enter into various relationships and interactions with each other. Various combinations and types of convergence of expressive means of syntax in the realization of the author's artistic goals are analyzed.

Keywords: expressiveness, expressive syntax, expressive means of syntax, convergence, parcel constructions, parcels, introductory and insert constructions, truncated constructions, interrogative structures, metaphor.

В современной лингвистической науке актуальность приобретают работы, в которых исследование строится на выявлении сближения и взаимодействия экспрессивных средств и их конвергентного потенциала. О возможности взаимодействия языковых единиц еще отмечал В.В. Виноградов [6]. Отдельные наблюдения по данному вопросу на материале русского языка отражены в работах А.П. Сковородникова [11], И.В. Пекарской [9], Н.А. Боженковой [5], Э.М. Береговской [2], Э.А. Цумарева [12], имеются исследования и на материале иностранных языков. К фундаментальным и интересным работам, посвященным комплексному описанию конвергенции стилистических фигур, относятся работы Г.А. Копниной [7] на материале русского языка, С.А. Кузьменко [8] на материале английского языка и Ю.В. Богоявленской на материале русского и французского языков [3, 4].

В работе Г.А. Копниной «Конвергенция стилистических фигур в современном русском литературном языке: на материале художественных и газетно-публицистических текстов» [7] представлено описание конвергенции различных стилистических фигур с точки зрения структуры и функциональных особенностей. На анализе конкретного языкового материала Г.А. Копнина выявила различные типы конвергенции стилистических фигур: по характеру расположения компонентов конвергенции в тексте (сосредоточенная, рассредоточенная и текстовая); по критерию однородности/неоднородности стилистических фигур (гомогенная, гетерогенная, смешанная); по наличию/отсутствию отношений субординации между стилистическими фигурами (деривативная, эквиполентная); по способу взаимодействия конвергирующих фигур (наложение, соединение, вставка, синкретизм способов). Помимо этого, она, анализируя типы конвергенции на материале художественных и газетных текстов, отметила общую (создание выразительности речи) и частные функции конвергенции стилистических фигур (изобразительная, характерологическая, эмоционально-выделительная, оценочно-

характеристическая, актуально-выделительная, интонационно-ритмическая, приемоактуализирующая, рекламная, аргументативно-риторическая) [7].

С.А. Кузьменко в работе «Лингвопрагматические свойства конвергенции стилистических средств», анализируя типы конвергенции на материале художественных текстов, помимо указанных, выделила: по принадлежности к языковым уровням (фонетический, лексический и синтаксический и комбинированный), по критерию наличия доминант (однополюсный и многополюсный) и по функциональному критерию была установлена коммуникативно-прагматическая специфика конвергенции (были выделены основная – прагматическая, и частные – эмоционально-выделительная, изобразительная, оценочно-характеризующая, характерологическая, актуально-выделительная, интонационно-ритмическая, функции) [8: 9-13].

Полагаем, что анализ семантико-функционального потенциала экспрессивных средств синтаксиса окажется полным при выявления их конвергентного потенциала, под которым, вслед за Г.А. Копниной и Ю.В. Богоявленской, понимаем способность экспрессивных синтаксических средств взаимодействовать друг с другом, а также и с другими экспрессивными средствами в рамках языковой структуры произведения для выполнения единой функции.

Рассказ Г. Пряхина «Интеллигенция и жестокость» [10] имеет подзаголовок «полемические заметки» и интересен не только своей тематикой и проблемами, которые поднимает автор, но и своеобразием языковой структуры. В его языковой структуре используется большое количество экспрессивных синтаксических конструкций, с помощью которых повествователь выражает свои интенции и субъективные отношения к сообщаемому. Анализ позволил установить активное использование самых разнообразных по структуре, семантике, функциям парцеллированных (50 ед.), вставных (22 ед.) и вводных (18 ед.), вопросительных (12 ед.), неполных и усеченных конструкций (13 ед.), а также повелений, второго лица местоимений и глаголов. Данные экспрессивные синтаксические средства используются во взаимодействии друг с другом и другими экспрессивными средствами, комбинации их многочисленны и разнообразны.

Рассмотрим примеры комбинации приемов речевого взаимодействия и определим типы конвергенции.

В речевой структуре данного произведения одним из эффективных контактов является взаимодействие парцелляции с эпитетами, характеризующиеся образностью, и метафорой, которая обладает яркой внутренней формой, эмотивностью и образностью, а также является одной из моделей непрямой (вторичной) номинации. Приведем пример: В нём тяжко, лоснясь и взблёскивая на солнце, переливалась, как-то по животному копошилась – кровь. Чёрная, но со зловещим золотистым, масляным исподом. В предложении заключена развернутая метафора, реализующаяся как в основной (базовой) части, так и в парцелляте. Парцеллят выражен согласованным распространенным определением, в котором заключена информация, помогающая изобразить страшную картину случившегося. В данном случае применена сосредоточенная многокомпонентная лексико-синтаксическая гетерогенная эквиполентная конвергенция по способу соединения.

Взаимодействие парцелляции с вставной конструкцией. Например: И я, не останавливаясь, проскочил сенцы, «переднюю» комнатку, где и нам с матерью и ещё двумя малышами иногда, когда сапожник в очередной раз впадал в неистовую дурь, давали угол на ночь, пока тот не проспится и сам не явится туда просить у матери прощения, как униженно просят руки у богатой вдовы, - в самую дальнюю и самую чистую, горницу. И сразу увидал мать. Не в гробу – в гробу мне ещё предстоит её увидать, не так уж не скоро. Живую. В данном примере три парцеллята: первый выражен распространенным согласованным сказуемым, второй – обстоятельством места, осложненным вставочной конструкцией «в гробу мне ещё предстоит её увидать, не так уж не скоро»; третий – нераспространенным согласованным определением, дистанцированным от опорного слова «мать» вторым парцеллятом «Не в гробу». Каждый парцеллят акцентирует внимание читателя на заложенной в нем информации, передает эмоциональное отношение повествователя. Во втором парцелляте и во вставке заключен ответ повествователя на возможное предположение внешнего адресата – читателя. Это создает эффект его присутствия и непосредственного контакта повествователя с ним, а также эффект живой речи. В данном случае представлена сосредоточенная синтаксическая двухкомпонентная гомогенная эквиполентная конвергенция по способу соединения.

В следующем отрывке сложное бессоюзное предложение, осложненное повтором, вводной конструкцией, оформлено в многозвенную парцеллированную конструкцию. В первый парцеллят оформлено распространенное сказуемое и вторая часть бессоюзного предложения; второй парцеллят – нераспространенное приложение и третий – распространенное сказуемое. Третий парцеллят представляет собой эллиптическую часть, так как в нем отсутствует дополнение «звуками», «словами»: Самого процесса, самой трагедии я, тогда, кажется, десятилетний, не видал, не наблюдал. Собирал в степной лесополосе «ничейные» первые абрикосы и уже трусцой возвращался в село: тут, на полпути, на выгоне, меня и перехватил, «перестрел» как выражались в Николе, соседский мальчишка Вовка Литвин. Заика. И, заикаясь ещё отчаяннее, восторженно, одиночными, выпалил: - Б-е-е-г-и к нам!.. Т-в-о-ю мамку зарезали!.. Данный пример иллюстрирует сосредоточенную синтаксическую многокомпонентную гетерогенную деривативную конвергенцию по способу синкретизма.

Конвергенция парцелляции, градации, вводной и вставной конструкций. Совместно с градацией парцелляция выводит в фокус внимания члены ряда, расположенные по нарастающей смысловой или эмоциональной значимости. Каждый парцеллят выделяет новый значимый элемент эмоционально насыщенной, транслирующей субъективно-оценочные смыслы, градационной цепочки: Мать пытался зарезать мой отчим. Сапожник. Лучший не только в Николе, но и во всей нашей округе. Бронебойщик – тоже, наверное, лучший, о чём свидетельствовала жестяночка из-под дорогих, медных кованых сапожных гвоздиков, заполненная позвякивающими, когда трясёшь, медалями и даже одним орденом – «Красной Звезды». Контуженный – у бронебойщиков контузии даже похлеще, пострашнее, чем у их потенциальных жертв, танкистов. Фронтовик… Всего четыре парцеллята: первый парцеллят, выражен согласованным приложением, второй – согласованным определением – для него базовой частью является предшествующий парцеллят, третий – согласованное приложение – дистанцирован от базовой части и осложнен вводным словом и расчлененной присоединительной придаточной частью, четвертый – также согласованное приложение – осложнен вставной конструкцией. Выделенные в абзац, данные конструкции акцентируют внимание читателя на вложенной в них дополнительной информации о персонаже и выполняют

экспрессивно-характерологическую функцию. Помимо этого, оформленные в парцелляты приложения частями поэтапно вводят информацию о персонаже, как бы последовательно уточняя свойства объекта описания. Участие субъективно-окрашенной, оценочной лексики приводит к наращиванию эмоциональной оценочности. Данный пример демонстрирует рассредоточенную синтаксическую многокомпонентную гетерогенную эквиполентную конвергенцию по способу синкретизма.

Конвергенция вопросно-ответной структуры, форм второго лица глагола и местоимения, восклицательного высказывания и парцелляции повышает диалогизацию, создает иллюзию непосредственного общения субъекта речи с внешним адресатом – читателем: Читали, как убили иранского генерала? Ракетой? Что вы, куда гуманнее! То была просто пудовая болванка, летящая со скоростью четырёхсот километров в час. Без боевого заряда. Чтобы меньше, гуманнее был радиус поражения. Вопросно-ответная структура, поддерживаемая несколькими экспрессивными средствами синтаксиса, приобретает особую эмоциональную напряженность и выражает богатый набор субъективно-модальных значений. С помощью взаимодействия данных синтаксических средств фокусируется внимание читателя на ответной части структуры, в которую автором включены яркие эпитеты, выражающие его иронию. Конвергенция позволяет эффективно воздействовать на восприятие читателя, заставляет задуматься о поднятой автором проблеме. Данный пример иллюстрирует рассредоточенную синтаксическую многокопонентную гетерогенную деривативную конвергенцию по способу синкретизма.

В следующем отрывке наблюдается такой же тип конвергенции вопросно-ответной структуры с парцелляцией, усеченной конструкцией, вопросом-предположением, метафорой: Похвалил, но сам, про себя, грешен, подумал: ну, и за какие же такие прегрешения отвечает мой пока ещё совершенно безвинный ангел мужского пола? Семейные? Родовые?.. Четвертуют… Рубят руки… Теперь, вон, похоже, учат летать с подоконников, с айпадом в руках. Эх… Может, и там где-то, наверху-наверху, тоже уже научились эвфемизмам? И, равнодушно, равноудалённо, привычно сводя дебет с кредитом, щёлкают: нейтрализованно… Данным отрывком автор завершает свой рассказ. Многоком-понентной лексико-синтаксической гетерогенной деривативной конвергенцией повествователь добивается высокой экспрессивности текста.

Таким образом, анализ языковой структуры рассказа «Интеллигенция и жестокость» показал не только активное использование экспрессивных средств синтаксиса, но и выявил различные типы их конвергенции. Функционально-прагматический анализ конвергенции позволил выделить: 1) по характеру расположения компонентов в тексте сосредоточенный и рассредоточенный типы, которые способны выступать и на текстовом уровне; 2) по критерию однород-ности/неоднордности гомогенный и гетерогенный типы; 3) по количественному параметру двухкомпонентный и многокомпонентный (сила прагматического воздействия многокомпонентного типа выше, что обусловливает ее появление в содержательно значимых отрезках текста); 4) по наличию отсутствию субординации деривативный и эквиполетный (чаще возникает деривативный); 5) по способу взаимодействия соединение и синкретизм. В языковой структуре данного произведения в конвергенцию вступают как синтаксические, та и лексические средства: парцелляция, вводные, вставные, усеченные, эллиптические, восклицательные конструкции, вопросительные структуры, повтор, градация и метафора, эпитеты. Для конвергенции экспрессивных средств синтаксиса в рамках произведения характерны следующие стилистические функции: изобразительная, характерологическая, эмоционально-выделительная, оценочно-характеристическая и актуально-выделительная.

Конвергенция помогает сосредоточить внимание читателя на подаваемой информации, помогает выделить наиболее существенную и тематически значимую, подать ее в диалогичной форме, что отвечает подзаголовку рассказа. Следовательно, с помощью конвергенции экспрессивных средств синтаксиса Г.В. Пряхин будучи автором-публицистом в первую очередь манипулирует сознанием читателя. Писатель использует приемы конвергенции в актуализирующих экспрессивных целях, для того чтобы с одной стороны, обозначить наиболее существенные черты поведения повествователя-героя, оттенков его эмоционального состояния, отношения к описываемым событиям и особенности его речевой манеры, с другой – активизировать семантический компонент высказывания, подчеркнуть информацию и воздействовать на мысли и чувства читателя, акцентировать его внимание на насущных проблемах современной действительности.

ЛИТЕРАТУРА

1. Алиева Э.А. Конвергенция субъектно-экспрессивных средств синтаксиса в создании субъективизации повествования // XVI Виноградовские чтения сборник научных статей ежегодной научной международной конференции филологов-русистов – Ташкент, 29 мая 2020 г. – С. 7-10
2. Береговская Э.М. Экспрессивный синтаксис: Учеб. пособие к спецкурсу. – Смоленск, 1984. – 92 с.
3. Богоявленская Ю.В. Конвергенция парцелляции и лексического повтора во французских и русских медиатекстах // Вестник Томского государственного университета. Филология. 2015. № 3 (35) – С. 5-15 [Электронный ресурс]. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/konvergentsiya-partsellyatsii-i-leksicheskogo-povtora-vo-frantsuzskih-i-russkih-mediatekstah/viewer (дата обращения: 04.05.22)
4. Богоявленская Ю.В. Теория и методология сопоставительного когнитивно-семиотического корпусного исследования парцелляции во французских и русских печатных СМИ: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Екатеринбург, 2016. – 50 с. [Электронный ресурс]. URL: https://www.dissercat.com/content/teoriya-i-metodologiya-sopostavitelnogo-kognitivno-semioticheskogo-korpusnogo-issledovaniya (дата обращения: 04.05.22)
5. Боженкова Н.А. Стилистические фигуры и типологические аспекты исследования: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – М., 1998. – 17 с.
6. Виноградов В.В. О языке художественной прозы. М.: Наука, 1980. – 360 с.
7. Копнина Г.А. Конвергенция стилистических фигур в современном русском языке: На материале художественных и газетно-публицистических текстов: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Красноярск, 2001. – 27 с. [Электронный ресурс]. URL: https://www.dissercat.com/content/konvergentsiya-stilisticheskikh-figur-v-sovremennom-russkom-literaturnom-yazyke-na-materiale (дата обращения 19.10.21)

8. Кузьменко С.А. Лингвопрагматические свойства конвергенции стилистических средств: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Ставрополь, 2006. – 24 с. [Электронный ресурс]. URL: https://www.dissercat.com/content/-lingvopragmaticheskie-svoistva-konvergentsii-stilisticheskikh-sredstv/read (дата обращения 10.08.22)
9. Пекарская И.В. К проблеме разграничения контаминации и конвергенции в области тропов и фигур // Проблемы грамматической стилистики. Материалы Всерос. науч. конференции / Отв. ред. Л.В. Баскакова. Вып. 2. Ростов н/Д, 1997. – С. 12-14.
10. Пряхин Г.В. Интеллигенция и жестокость // Звезда востока. Литературно-художественный журнал. – Ташкент, 2020. № 5. – С. 5-11
11. Сковородников А.П. Экспрессивные синтаксические конструкции современного русского литературного языка. Опыт системного исследования. Томск: ТГУ, 1981. – 225 с.
12. Цумарев А.Э. Парцелляция в современной газетной речи: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – М., 2003. – 26 с. [Электронный ресурс]. URL: https://www.dissercat.com/content/partsellyatsiya-v-sovremennoi-gazetnoi-rechi (дата обращения 10.08.22)

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 82.03

Sarvinoz ALIMOVA
Samarqand shahar 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
E-mail: alimovas@bk.ru

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali T.Quchqarov taqrizi asosida

POLYSEMANTISM OF “HEAD” SOMATISM AS WELL AS ITS IMPORTANCE IN THE EXPRESSION OF THE LINGUISTIC PICTURE OF THE UNIVERSE

Abstract

Semantic derivation is a way of forming new meanings of words, which is also characteristic of somatisms. The article analyzes the semantic structure of the somatism “head” and considers the range of its various semas in the context of somatic codes used to represent the linguistic picture of the universe. The analysis shows that the primary and secondary semas of this lexeme are formed on the basis of its prime meaning, the difference of which occurs in contextual positions expressed in various processes in speech.

Keywords: somatism, polysemancy,semantic structure, semantic derivation, somatic code.

“BOSH” SOMATIZMINING POLISEMANTLIGI HAMDA OLAMNI LISONIY MANZARASINI IFODALASHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Semantik derivatsiya so‘zlarning yangi ma’nolarini hosil qilish yo‘li bo‘lib, bu somatizmlarga ham xosdir. Maqolada “bosh” somatizmining semantik strukturasi tahlil qilinib, uning turli xil semalari qatori olamni lisoniy manzarasini ifodalashda qo‘llanadigan somatik kodlari xususida fikr yuritilgan. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, mazkur leksemaning birlamchi va ikkilamchi semalari uning bosh ma’nosi asosida shakllanib, ularning farqi nutqdagi turli jarayonlarda ifodalanayotgan kontekstual pozitsiyalarda yuzaga chiqadi.

Kalit so‘zlar: somatizm, polisemantlik,semantik struktura, semantik derivatsiya, somatik kod.

ПОЛИСЕМАНТИЧНОСТЬ СОМАТИЗМА “ГОЛОВА” И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ПРЕДСТАВЛЕНИИ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЫ МИРА

Аннотация

Семантическая деривация – это способ образования новых значений слов, что также характерно для соматизмов. В статье анализируется семантическая структура соматизма “голова” и рассматриваются его соматические коды, которые, наряду с различными семами, используются для представления языковой картины мира. Анализ показывает, что первичные и вторичные семемы данной лексемы формируются на основе ее общего значения, различие которого проявляется в контекстуальных позициях, выражаемых в различных процессах речи.

Ключевые слова: соматизм, полисемантичность,семантическая структура, семантическая деривация, соматический код.

Kirish. Har bir tilning leksik qatlami dinamik bo‘lib, u morfologik hamda semantik derivatsiya jarayonida boyib boradi.Semantik derivatsiya natijasida so‘zlarning yangi ma’nolari struktura va vazifalardagi o‘xshashlik evaziga hosil qilinadi. Semantik derivatsiya hodisasi somatizmlarga ham xos bo‘lib, ularning polisemiyasi antropomorfizm tamoyili natijasida shakllangan hisoblanadi.Bu tamoyilga ko‘ra inson obyektiv reallikni tasvirlashda u yoki bu predmetni tilga olar ekan, u ,avvalo, o‘z tanasiga murojaat qiladi, ya’ni narsalarni nomlashda o‘z tanasining tashqi va funksional o‘xshash-liklariga asoslanadi. Shunisi muhimki, somatizmlarni o‘rganishda ularni birgina kishi yoki hayvon tanasining a’zolari sifatida emas, balki o‘zida bir necha somatik kodlarni hamda xilma-xil semalarni mujassamlashtirgan nominativ birliklar sifatida qarash ularning olamning lisoniy manzarasi tasvirlashdagi ahamiyatini belgilab beradi.

Adabiyotlar tahlili. Polisemantik somatizmlarning turli jihatlari qator tillarda tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Ular orasida tilshunos olimlar T.M.Aliyevning “Полисемантизм соматической лексики в разносистемных языках”, M.N.Jadeykoning “Антрополингвистические аспекты полисемии соматизмов”,R.Yu.Muguning “Полисемантизм соматической лексики (на материале русского и немецкого языков)” kabi asarlarini ta’kidlash mumkin.

O‘zbek tilida somatizmlarni tadqiq qilish borasida ularning frazeogizmlarning komponenti sifatida o‘rganish bo‘yicha A.Isayevning “Соматические фразеологизмы узбекского языка”,Sh.R.Usmonovaning “Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар” kabi qator tadqiqot-larni sanashimiz mumkinki, ularning barchasi mavzuni yoritishda asqotadi.Zeroki, jahondagi ko‘pchilik tillar frazeologiyasining asosiy qismini somatik frazeologizmlar tashkil etadi.

Tadqiqotlar metodologiyasi. Tadqiqotning asosiy metodlari o'rganilayotgan somatizmning semantikasidagi umumiy va o'ziga xos xususiyatlarni umumlashtirish va aniqlashga imkon beradigan tavsiflovchi va qiyosiy usullardir.

Avvalo, bosh somatizmining etimologiyasini tahlil qilishda, uning deyarli barcha turkiy tillarda bash shaklida bo‘lganini , hozirda ham shu shaklda ishlatilishini anglaymiz[7]. O‘zbek tilida esa cho‘ziqlik belgisi yo‘qolib, a unlisi o unlisiga almashishi natijasida bosh shaklida talaffuz qilinishini kuzatishimiz mumkin[8].

Bosh leksemasi hozirgi o‘zbek adabiy tilida quyidagi ma’nolarni anglatishini ko‘rib chiqar ekanmiz, bunda biz “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”[9] dan hamda leksikografik kuzatuvlarimizdan foydalandik:

1) inson yoki biror bir hayvonning boshi (qizimning boshi, ho‘kizning boshi)

2) inson, jon ma’nosida: Do‘stsiz boshim – tuzsiz oshim.(Maqol)

3) hayvonlar sonini hisoblash birligi(besh bosh qoramol terisi)

4) boshliq, rahbar (yurt boshi, davraning boshi)

5) aql-hush,miya(boshing bilan ishla)

6) qobiliyat, imkoniyat(yosh boshi bilan)

7) lavozim, mansab jihatidan katta(bosh shifokor)

8) ulkan, katta,asosiy(bosh sovrin, bosh harf)

9) eng muhim, asosiy yetakchi(bosh sabab, bosh gap)

10) eng birinchi, oldingi(bosh farzand)

11) tik narsalarning tepa qismi , uchi(tog‘ boshi, maysa boshi)

12) biror bir jarayonning boshlanish qismi(to‘y boshi, ko‘rsatuvning boshi)

13) yon, old, tomon(do‘stingning boshiga bor)

14) biror bir o‘rinning bosh qo‘yiladigan yuqori tomoni (qabrning boshi,karavotning boshi)

15) ba’zi otlar birikkan holda shu predmetning o‘zi yoki uning atrofini bildirishi(o‘choq boshi)

16) uzun va davomli maydon, obyektlarning boshlanishi(daryo boshi)

17) biror bir voqea-hodisaga sabab bo‘lgan narsa(baxtsizlikning boshi)

18) ba’zi o‘simliklar hisobi(bir bosh uzum)

19) ba’zi o‘simliklarning dumaloq shakldagi hosili, mevasi(bir bosh karam)

20) sanoq sonlar bilan kelganda karra ma’nosida(besh bosh qilib olish)

21) inson, jon (sanash)ma’nosida: (odam boshi bittadan non berish)

22) kishilarga hamroh, birga inson (bosh ega)

Bosh somatizmining yuqorida berilgan barcha semalari yillar davomida uning markaziy semasi (inson va hayvonlarning boshi) atrofida paydo bo‘lib, uning deyarli barcha ma’nolari umumturkiy tillar leksikasini tashkil qiladi[4].

Tahlil va natijalar. Ushbu leksemani struktur jihatdan tahlil qilishda uning bir qancha sememalari o‘rtasidagi bog‘liqlik va funksional-semantik munosabatni kuzatamiz. Shu jihatdan uning ma’nolarini 3 yirik turga ajratishimiz mumkin:

1.Bosh somatizmining substantiv funksiyalarni bajaruvchi sof leksik ma’nolari

2.Turli variatsiyalardagi aniqlovchi ma’nolar

3.Bosh leksemasining so‘zlardan keyin kelgan holatlardagi funksional ma’nolari

Polisemantik so‘zning semantik birligi uning asosiy va ikkilamchi ma’nolari o‘rtasidagi ma’lum bir bog‘liqlik orqali aniqlanadi. "Polisemantik so‘zning alohida ma’nolari, ularning xarakteristik majmuyi bir-biriga butunlay to‘g‘ri kelmaydi: bu kompleksning faqat alohida tarkibiy qismlari mos kelishi mumkin"[5].

Polisemantning ikkilamchi ma’nolari bir-biri bilan o‘zaro umumiy sememalari yordamida bog‘liq holda yoki ular bizning ongimizda aks ettirilgan alohida shaxslar narsalar, hodisalar, faktlar orasidagi turli xil assotsiatsiyalarga asoslangan holda yuzaga keladi. Masalan, tadqiq etilayotgan somatizm “odam” antroponimik ma’nosiga asoslanib, quyidagi ikkilamchi ma’nolar yuzaga keladi:

inson, jon (odamlarni sanashda)

boshliq, rahbar (urug‘, jamoa, biror bir hududda ustunlik, “oqsoqol”, xizmat ko‘rsatish holatlarida boshqalardan ustun turadigan shaxs)

turmush o‘rtoq, er (so‘zning eskirgan holatida)

ong, aql

fikr, qobiliyat, iste’dod

Shuningdek , bosh somatizmi insonning eng asosiy organini bildirib kelishi jihatidan u anatomik kodning cho‘qqisi ham hisoblanadi. Ushbu leksema o‘zida bir necha somatik kodlarni saqlab keladiki, uning yuqorida keltirilgan birlamchi va ikkilamchi semalari kishilar nutqida ifodalanuvchi aynan shu kodlar orqali yuzaga kelishi mumkin. Jumladan, inson tanasining vertikal kesimi bizni o‘rab turgan olamning yaratilishini takrorlaydi:bosh osmon bilan tenglashtirilsa, oyoqlar – yer, tuproq, kindik(tananing markazi) – yerning markazi (dunyoning kindigi) sifatidagi qarashlar[3] nuqtayi nazaridan nutqimizda qo‘llanadigan “boshdan oyoq”, “bosh adaq”,”boshdan adog‘” aniqlov birliklari mazkur somatizmning semantik strukturasiga “boshlang‘ich nuqta”, “debocha” semasini qo‘shadi.

Qadimgi turklar chaqaloqlar tug'ilishi bilan birga uning umayi(baxti) paydo bo'ladi, u bolaning aynan boshida miya liqildog‘i ostida yoki kindik ichakchasida joylashib oladi, deb hisoblashgan. Bunda turkiy xalqlar mifologiya-sidagi Umay kultiga murojaat etiladi. Aynan bosh sohasidagi liqildoqda “insonning ruhi – bekasi” Umay joylashadi, deyiladi[2]. Shu jihatdan insonning baxti uning boshida joylashishiga kelsak, xalqimiz nutqida keng tarqalgan “baxt qushi boshiga qo‘ndi” frazeologizmidagi bosh somatik komponentining ahamiyatini sezishimiz mumkin.

Muqaddas islom dinida bosh somatizmiga murojaat holatlarini kuzatar ekanmiz, “Qur’oni karim”da insonning o‘zini yolg‘onchi va gunohkor sifatida emas, balki uning boshining old qismi yolg‘onchi va gunohkor sanalishi haqidagi fikrni uchratamiz. “Payg‘ambar Muhammadga (s.a.v.) Ka’bada ibodat qilishni taqiqlagan iymonsizlardan biri haqida Alloh shunday dedi: “Yo‘q! Agar u to‘xtamasa, biz uni peshona sochidan (boshning old qismi), o‘sha yolg‘onchi, adashgan(kimsaning) peshona sochidan tortarmiz!”[10]. Anatomik qarashlar jihatidan miyaning old qismi yaxshi va yomon xatti-harakatlarni rejalashtirish, rag‘batlantirish uchun hamda yolg‘on va rost nutqi uchun javobgardir. “Anatomiya va fiziologiyaning asosiy elementlari” deb nomlangan kitobda bu soha haqida shunday deyilgan: “Harakatlarni rejalashtirish va boshlash uchun motivatsiya va oldindan ko‘rish prefrontal sohaning old qismida paydo bo'ladi. Bu miya yarim korteksining assotsiatsiya sohasi ...”.Shunday qilib, Qur’onda aytilganidek, kimdir yolg‘on gapirsa yoki gunoh qilsa, boshning old qismini yolg‘onchi va gunohkor deb ta’riflash adolatli deyish mumkin. Bu nuqtayi nazardan insonning bosh qismi uning nafaqat aqliy faoliyati, balki uning tog‘ri yoki noto‘g‘ri xatti-harakatlari uchun javob beruvchi baza sifatida qaralsa, “bebosh” frazemasi, xiyonatkorlik, ikkiyuzlamachilik xarakterlariga ega inson sifati deb hisoblanishini keltirish mumkin.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining nodir namunasi hisoblangan “Alpomish” dostonidagi bosh komponentli birliklarni kuzatish jarayonida esa mazkur somatizmni inson umriga nisbat sifatida ishlatilishini kuzatishimiz mumkin: “Bino bo‘lmasin-da boshim,keksaribdi endi yoshim” yoki “Avvalo bunday bo‘lmasin-da boshim, qo‘limdan uchib ketgan olg‘ir qushim”[11]. Dostondagi bu frazeologizmlar aynan “dunyoga kelmasaydim”, “tug‘ilmasaydim”, ya’ni hayotidan, turmush tarzidan norozi insonning kechinmalari ifodalash uchun xizmat qilgan. Bu iboralar jonli nutqimizda ham uchrab, bosh somatizmi qatnashgan semantik strukturaning yana bir jihatini ko‘rsatishda ishlatiladi.

Ushbu somatizm orqali “umr, insonning hayoti” degan mazmunning ifodalanishi “boshi bilan javob berish”, ya’ni qilayotgan ishining kafolati uchun nutq egasining joni tikilishi orqali namoyon bo‘ladi. Boshning holati uning emotsional holatini ko‘rsatishda ishlatiladi. “Boshi baland”lik ko‘tarinki kayfiyat, mag‘rurlikmi bildirsa, “boshi egilgan”, “boshi xam” kishilar odatda tushkun, xafa bo‘lishadi. Nutq jarayonidagi tasdiq yoki inkor pozitsiyalari esa boshni qimirlatish orqali ham ko‘rsatilishi mumkin: Rozilik bildirib, boshini qimirlatdi.

Xulosa. Demak, “bosh” somatizmini tahlil qilish jarayonida shuni ko‘rishimiz mumkinki, u o‘zida polisemant-lik namoyon etgan holda, birlamchi va ikkilamchi semalarni mujassamlashtiradi. Ikkilamchi semalar,asosan, metaforik, metonimik, sinonimik hamda vazifadoshlik asosidagi ma’no

ko‘chishlarida yuzaga keladi. Leksema bildirib kelayotgan somatik kodlar esa insonni va atrofdagi voqea-hodisalarini tushunish va o‘zlashtirishning milliy an'analarini o'zlashtirgan tilning universalligi va o'ziga xosligini aniq namoyish etadi.

ADABIYOTLAR

1. Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка: Дисс.канд.филол.наук.-Т., 1976. -146 с.
2. Потапов Л.П. Умай – божество древних тюрков в свете этнографических данных // Тюркологический сборник,1972. – Москва: «Наука»,1973.– С.265-266
3. Состав человеческий: Человек в традиционных соматических представлениях русских.-СПб.:«Петербургское Востоковедение».2001.С.14.
4. Система значений полисеманта баш «голова» в тюркских языках. Гаджиахмедов Н.Э., Асельдерова Б. Журнал «Современная наука: актуальные проблемы теории и практики».С.116.
5. Три заметки о смысловых пересечениях // Сокровенные смыслы: Слово. Текст. Культура. Шведова Н.Ю. М.: Языки славянской культуры, 2004. С. 242-254.
6. Усманова Ш.Р. Ўзбек ва турк тилларида соматик фразеологизмлар:
7. ф.ф. н. дисс. – Тошкент,1998. 136 б.
8. Этимологический словарь тюркских языков.Составитель Дибо А.В.-Астана :ТОО”Prosper Print”,2013.-С.315.
9. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Раҳматуллаев Ш.-Тошкент : “Университет”,2000.Б.60.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати I жилди. А. Мадвалиев таҳрири остида.-Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006.Б.332-339.
11. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири/ таржима ва тафсир муаллифи: Шайх Абдулазиз Мансур.Тошкент. “Movarounnahr”, 2020.Б.597.
12. Alpomish. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi – 2018. 368.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 826.367

Manzura ASQAROVA
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: asqarovam53@gmail.com

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali dotsenti L.Sindorov taqrizi asosida

ARXAIKLASHGAN LEKSEMALARNING KOGNITIV-SEMANTIK XUSUSIYATLARI (SALOHIDDIN TOSHKANDIYNING “TEMURNOMA” ASARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Maqolada tarixiy asarlar leksikasi, til xususiyatlari, bugungi davr uchun iste'molda eskirgan, arxaiklashgan ayrim leksemalarning kognitiv-semantik xususiyatlari Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asari misolida tadqiq etilgan.
Kalit so’zlar: Tarixiy leksika, arxaik so’zlar, atamalar, eskirish jarayoni (arxaiklashish), zamonaviy leksika, uslubiy xoslanish va hok.

COGNITIVE-SEMANTIC PROPERTIES OF ARCHAIC LEXEMES(ON THE EXAMPLE OF "TEMURNAME" BY SALOKHIDDIN TASHKENDI)

Annotation

The article examines the lexicon of historical works, language features, cognitive-semantic features of some obsolete, archaic lexemes in modern consumption on the example of Salokhiddin Tashkendi's work "Temurnoma".
Keywords: Historical lexemes, archaic words, terms, obsolescence, modern lexicology, methodological adaptation, etc.

КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА АРХАИЧНЫХ ЛЕКСЕМ (НА ПРИМЕРЕ «ТЕМУРНОМА» САЛОХИДДИНА ТАШКЕНДИ)

Аннотация

В статье рассматривается лексика исторических произведений, языковые особенности, когнитивно-семантические особенности некоторых устаревших, архаичных лексем в современном употреблении на примере произведения Салохиддина Ташкенди «Темурнома».
Ключевые слова: исторические лексемы, архаичные слова, термины, устаревание, современная лексика, методологическая адаптация и др.

Kirish. O’rta Osiyoda qudratli markazlashgan davlatni qaror toptirgan, birgina nomining o’zi jahonning ko’plab hukmdorlarini tahlikaga solgan sohibqiron Amir Temurga dunyo muarrixlari qiziqish bilan qaraganlar. Olamga mashxur buyuk sarkarda va siyosatchi, adolatli shaxs , mumtoz siymo Amir Temur haqida qanchadan-qancha rivoyatlar to’qilgan, asarlar bitilgan. Amir Temurning hayoti, siyosiy va jangovor faoliyati haqida hikoya qiluvchi minglab kitoblar mavjud. Shulardan biri Mullo Salohiddin xoja eshon qalamiga mansub “Temurnoma” (“Jangnomai Amir Temur ko’ragon”) asaridir.

XX asrning oxirlarida vujudga kelgan antroposentrik paradigma tilshunoslikda tub burulish sifatida baholandi[8], bir necha tadqiqot obyektlari yaratildi. Endilikda matnga nafaqat semantik, stilistik nuqtayi nazardan balki, pragmatik, kognitiv, lingvokulturologik, sotsiolingvistik, psixolingvistik va genderolingvistik kabi fanlar kesishuvida yuzaga kelgan neolingvistik yo’nalishlarda ham munosabat bildirilmoqda. Jumladan kognitiv tilshunoslik, matnni kognitgiv-semantik jihatdan tahlil qilish bugungi sinxron tilshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardandir. Kognitiv tilshunoslik atamasining mazmuni inglizcha “cognitive- bilishga oid” so‘zi bilan bog‘liq[4].

Demak, bilim olish va saqlash (kummilyativ), undan amaliyotda foydalanish, uzatish manbayi(kommunikativ), shuningdek, uni shakllantiruvchi vosita bo‘lgan til tizimi, shubahasiz, kognitiv tahlil obyektidir. Ammo bu borada qarashlar jahon tilshunosligida ham, o‘zbek tilshunosligida ham bahs -munozaralarga boy. Kognitivlikning til orqali namoyon bo’lishi R. Nordquist tomonidan 1-rasmda tasvirlangan. Demak, kognitivlikka ongda mavjud bilim, ko’nikma, tasavvurning botiniy olamdan zohiriy olamga ko’chishi, uning til orqali namoyon bo’lish hodisasi sifatida qarash mumkin.

1- rasm (Richard Nordquist’s photo) kognitivlikning til orqali namoyon bo‘lishi

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Tafakkur murakkab jarayon bo’lib, voqelikning to’g’ridan-to’g’ri ongda aks etishini ta’minlovchi kognitsiya (bilish) faoliyati bilan chambarchas bog’liq. U inson uchun shu xususiyati bilan asosiy qurol deb qaralsa, til esa voqelikni idrok etish va bilish vositasidir. S. D. Kasnelson fikriga ko’ra “ Til- nafaqat muloqot quroli, balki fikr va g’oyani shakllantiruvchi hamda uni ifodalovchi quroldir ” [6] deydi. Falsafada vujudga kelgan kognitsiya, kognitivlik, kognitiv ong avval mustaqil mikro soha kognitologiya sifatida rivojlandi. Bugungi kunga kelib deyarli barcha sohada kognitsiya atamasi keng qo’llanmoqda. Tilshunoslikda kognitiv lingvistika sinergetik fan tarmog’i vujudga keldi. Jahon tilshunosligida kognitiv tilshunoslik XXI asrning dastlabki choragidayoq tadqiqotchilar nazariga tushdi. Xususan, Demyankov V.Z.[8], Professor Azim Hojiyev[7], Shahriyor Safarov[5] Abdulhamid Nurmonov[8] kabilar kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifalari, til va kognitivlikning bog’liqligi, shuningdek bu soha oldida turgan muammolarni ham ko’rsatib o’tishgan.

Natija va muhokamalar. Hozirda mavjud (zamonaviy) narsa-hodisalarning eskirib qolgan atamalari arxaizmlar (arxaik so‘zlar) deyiladi. Arxaizmlar o‘z o‘rnini boshqa bir so‘zga bo‘shatib, o‘zi lug‘atlarda saqlanadi[4].

Masalan, ulus (xalq), hukamo (donishmand), kent (katta qishloq), ilk (qo‘l).Eskirgan so‘zlar bildiradigan narsa-hodisalar hozirgi hayotda bor bo‘lganligi sababli, o‘z-o‘zidan tilda ularni ataydigan zamonaviy so‘zlar ham bo‘ladi. Yuqoridagi misollarda qavs ichida berilgan so‘zlar ana shunday so‘zlar hisoblanadi. Demak, tilda eski so‘zlarning zamonaviy sinonimlari bo‘ladi. Bu fakt shuni ko‘rsatadiki, tilda narsa-hodisani bildiruvchi birdan ortiq so‘zlar bo‘lsa, til taraqqiyoti qonunlari talablariga javob beradigan iste’molda qolib boshqasi asta-sekin iste’moldan chiqa boshlaydi va o‘z sinonimiga nisbatan eski so‘zga aylanadi. So‘zlarning eskirishi (arxaiklashishi)ni sababi ana shu. Tilda bo‘ladigan o‘zgarishlarning birdaniga yuz bermasligi ma’lum. So‘zlarning eskirishi (arxaiklashishi) jarayoni ham birdaniga emas, balki asta-sekin sodir bo‘ladi. Arxaizmlarning eskirish darajasi ham shu jarayon bilan bog‘liqdir. Ularning ayrimlarida eskilik darajasi kuchsiz, ba’zilarida esa nisbatan ortiqroq bo‘ladi. Eskirgan so‘zlarning hozirgi davr kishilari tushunish va qo‘llanilish darajasining har xilligi shu bilan izohlanadi[1].

“Temurnoma” asarida ko‘pgina so‘zlar bugungi kun uchun eskirgan (arxaik) so‘z hisoblanadi. Ular asar yratilgan davr nuqtayi nazaridan olib qaralsa o‘sha davr uchun zamonaviy leksikaga tegishli. Biroq, hozirda bu so‘zlar eskirgan so‘zlardir: Andin keyin xon siroj kamarini elchilarga yo‘ldosh qilib atrofdagi kentlarni axtardilar. (“Temurnoma”dan 52-bet). Kent so‘zi katta qishloq ma’nosini ifodalaydi. Ammo bu hozirda bu so‘z katta qishloq o‘rnida qo‘llanmaydi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, kent so‘zi tilimizda zamonaviy so‘zlar tarkibida qo‘llanadi. Bu so‘zlar ko‘proq o‘rin joy nomlari (toponimlar)dir. Masalan, Toshkent, Navkent, Zarkent, Kumushkent. Demak, garchi kent so‘zi bugungi nutqimizda toponimlarni tarkibida uchrasa-da, ammo, bu so‘z yolg‘iz holda eskirgan so‘z hisoblanadi: Shul sababdan avval Xuroson musaxxira bo‘lur. (“Temurnoma”dan 52-bet). Musaxxira so‘zi “zabt qilingan” ma’nosini beradi.Ammo roviylar andag‘ rivoyat qilurlarki, Amir Sohibqiron 12 yoshga keldi. (“Temurnoma”dan 53-bet). Roviy so‘zini boshqa tarixiy yoki badiiy asarlarda ko‘p uchratish mumkin. Zero, roviy so‘zi hikoyachi ma’nosida qo‘llangan. Bu bechorayi begunohni ilkidin tuting. (“Temurnoma”dan 52-bet). Ilk so‘zi hozirda qo‘l so‘zining eski qatlamga mansub sinonimidir. Uluslari ul vaqt qolmabdurlar. (“Temurnoma”dan 60-bet). Ulus so‘zi xalq so‘zining sinonimi bo‘lib, u ham tarixiy va badiiy asarlar uchun xosdir. Badiiy va tarixiy asarlar tarkibida uchraydigan arxaizmlarni qo‘llanishi va tushunilishiga ko‘ra guruhlarga ajratish mumkin.

“Temurnoma” asari tarkibidagi arxaizmlarni ham xuddi shunday guruhlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Birinchi guruhga ko‘pchilikka tushunarli bo‘lgan arxaik so‘zlarni kiritish mumkin. Quyida “Temurnoma”dagi arxaizmlarni bir guruhga mansublarini ko‘rsatib o‘tamiz: Qo‘ng‘ir otlig‘ yigirma yigit maydonga kirib bir-bir ellik qalmoqni jonin tamug‘ xazormasiga yubordi. (“Temurnoma”dan 92-bet). Ushbu gapdagi tamug‘ so‘zi do‘zoh ma’nosini ifodalaydi. Bu so‘z faol leksikaga xos bo‘lmasa-da, ma’nosini anglash mumkin. Xon amir qildikim, hukamolar masjidi jome’ga kelsinlar. (“Temurnoma”dan 52-bet). Hukamo so‘zi donishmandlar so‘zining arxaik sinonimidir. Ammo uning ma’nosi ko‘pchilikka tushunarlidir. Anda ahli islom forig‘bol, yarog‘ aslahalari yo‘q erdi. (“Temurnoma”dan 69-bet). Forig‘bol so‘zi ham zamonaviy qatlamga mansub hotirjam so‘zining arxaik sinonimidir. Shoh Mansur oldig‘a bularni tirik yubormoq lozim bo‘ladi, deb bul besh kishini ikki butog‘liq ayri yig‘ochga mahkam bo‘yinlaridan bog‘lab, otlariga mindurib, bir necha muvakkillar bila mashhad sari yuzlandi. (“Temurnoma”dan 117-bet). Yig‘och so‘zi yog‘och so‘zining arxaik shakli, muvakkil so‘zi esa vakil so‘ziga sinonim, bu so‘z zamonaviy qatlamga, ya’ni faol leksikaga mansub bo‘lmasa ham, ularni og‘zaki va yozma nutq jarayonida tez-tez qo‘llab turiladi. Bu holat esa o‘z navbatida arxaizm bo‘lgan bu so‘zlarning tushunarli bo‘lishiga olib keladi. “Temurnoma” asari tarkibidagi arxaizmlarning ancha qismi, asosan, ko‘pchilik uchun tushunarli bo‘lgan so‘zlardan iborat. Eski qatlamga xos so‘zlarning bunday xususiyatga ega bo‘lishi asar tilining ravon va tushunarli bo‘lishini ta’minlagan.Haligi ikki kishi chog‘ir ichib, bularga aydilar, sizlar sababingizdan tomoshadin qolduk. (“Temurnoma”dan 115-bet). Bu gapda ham bugungi leksika uchun arxaizm bo‘lgan chog‘ir so‘zi mavjud bo‘lsa ham, uning ma’nosini anglash qiyin emas. Zero, bu so‘z may ma’nosini bildirishini bilamiz. Yana misollarga murojaat qilamiz. Mirzo Sayfiddin Amirni anda o‘ziga shafe’ qildi.(“Temurnoma”dan 117-bet). Bu gapdagi shafe’ so‘zi vositachi ma’nosida qo‘llangan. Hofizlarni ovozi, zokirlarni sayhasi chiqadur. (“Temurnoma”dan 118-bet). Bu gapdagi sayha so‘zi qichqiriq ma’nosida kelgan.Nosir bir go‘shaga borib yovliq solib ayturkim, manga Jabroil vahiy kelturur, fath va nusratdin xabar berur. (“Temurnoma”dan 70-bet). Fath – zabt etish, nusrat – zafar, g‘alaba. Xon ul turk bila mazlumag‘a kishi yuborib, kelturdi. (“Temurnoma”dan 76-bet). Mazluma – zum ko‘rgan ayol. Yana hokimg‘a aydi: ey otajonim, jarchig‘a ayting, har yerda shatranj o‘ynaguvchi bo‘lsa kelsun. (“Temurnoma”dan 76-bet). Bu gapdagi shatranj so‘zi shahmat ma’nosini bildiradi.Alqissa, Amir munojoti qoziyul hojat qilub turardi, cho‘l tarafdin g‘ubor ko‘rundi. (“Temurnoma”dan 129-bet). Bu gapdagi munojot so‘zi yalinish, yolvorish ma’nosini bildiradi. Shayx aydilar: bu asoni ushlanglar, kimning bo‘yiga muvofiq kelsa, agarchi podachi bo‘lsa ham, xon qilinglar. (“Temurnoma”dan 41-bet). Aso – xassa degan ma’noni bildirgan.

Yuqoridagi misollarni asos qilib aytish mumkinki, arxaizmlar garchi o‘tmish davri uchun xoslangan bo‘lsa ham ularning ma’nosini aniqlash qiyin emas. Shafe’, sayha, fath, nusrat, mazluma, shatranj, munojot, aso, sayd so‘zlarini ma’nosi bilan, aniqrog‘i, zamonaviy qatlamga mansub sinonimi bilan bergan bo‘lsak-da aslida ularning ma’nosini lug‘atsiz ham bemalol tushunish mumkin. Demak, ular arxaizmlarning ko‘pchilikka tushunarli bo‘lgan so‘zlar guruhi xususidagi fikrimizga dalil bo‘la oladi.Arxaizmlarning ikkinchi guruhini esa ko‘pchilikka tushunari bo‘lmagan so‘zlar tashkil etadi. “Temurnoma” asarida bu guruhga mansub so‘zlarni ham uchratish mumkin. Ularni alohida guruh sifatida qayd etish zaruriyatini tug‘dirgan xususiyat shuki, ular ma’nosini lug‘atlar vositasida o‘rganishdir. E’tibor bering: Sohibqiron aning takovarini minib, attordan necha pulga taryop kelturdi. Takovar so‘zi ko‘pchilik uchun bir oz tushunarsizdir. Hozirda bu so‘z nutqda deyarli uchramaydi. “Chopog‘on ot” ma’nosini bildiruvchi bu so‘zni lug‘atlardagina uchratishimiz mumkin. Yoki: Har jonibga qarab bozi qilur. (“Temurnoma”dan 59-bet). Jonib so‘zini asar davomida juda ko‘p uchratish mumkin. Biroq uning dunyo “tomon”laridan biri ekanligini ko‘pchilik bilmasa kerak. Quyida “Temurnoma”da qo‘langan, ko‘pchilikka tushunarlli bo‘lmagan arxaizmlardan bir qanchasini keltirib o‘tamiz: Amir Temur aydi: “Qullik rasani bo‘ynimda, taqozoi mansab qilmasman. Rasan – arqon. Halo, o‘n yil bo‘lubdur, shu ishg‘a ma’murdurman. (“Temurnoma”dan 76-bet). Ma’mur – biror ishga amr etilgan, buyurilgan kishi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Temurnoma” asaridagi arxaizmlar hozirda mavjud narsa-hodisalarning o‘tmishidagi shaklidir. Ularning bugungi kunda zamonaviy leksikada sinonimlari mavjud. Asardagi arxaizmlar tilning leksik boyligi hisoblanadi. Shu bilan birga ular nominativ, stilistik vazifa bajargan. Arxaizmlar asarning uslubida o‘ziga xoslikni yuzaga keltiruvchi vosita bo‘lib xizmat qilgan. “Temurnoma” asarining leksik qatlamini tahlil qilish jarayonida o‘zbek tili leksikasi qadimiy va lug‘aviy boy tillardan biriligi, eskirgan so‘zlar o‘zbek tili leksikasining muhim qatlamini tashkil etishi,“Temurnoma” lisoniy jihatdan

mukammal, rang-barang va serqirraligi bilan ajralib turishi, asarning ma’lum qismini bugungi kun uchun eski leksikaga aylangan so‘zlar tashkil qilishi bilan birgalikda asar tarixiylik xususiyatiga ega bo‘lganligi uchun uning tarkibida istorizmlar ko‘p uchrab, aksariyati, asosan, shaxs va narsa-buyumlarni ifodalovchi so‘zlardan iborat ekanligini xulosalash mumkin.

Har bir tilning tilning muhim vazifalaridan biri o‘tmish bilan kelajakni bog‘lashdir.O‘zbek tilida, xususan “Temurnoma”da eskirgan so‘zlar qatlami bu vazifasini amalga oshiruvchi asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan.Eskirgan so‘zlar xalq tarixi va til tarixidan ma’lumot beruvchi muhim manbaa sifatida ham chuqur tadqiq qilishga muhtoj. Demak, eskirgan so‘zlar nafaqat tilning leksik boyligi, balki o‘tmishi bilan kelajakni bog‘lovchi mustahkam rishta hamdir.

ADABIYOTLAR

1. Шоабдураҳмонов Ш. ва бошқалар Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1980.
2. Салоҳиддин Тошкандий., Темурнома. – Тошкент: Чўлпон, 1990.
3. Ирисқулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1992.
4. Абдураҳмонов Ғ., Рустамов Ҳ. Она тили дарслиги 10-11 синфлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
5. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах, 2006. Б.-10.
6. Кацнельсон С.Д. Типология языка и речевое мышление. –Л.: Наука, 1972. С. -110
7. Ҳожиев А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти. 2006, № 3. 26-30 б.; №5. 30-39 б.
8. Нурмонов А. Мустақиллик даврида ўзбек тилшунослиги тараққиёти / Танланган асарлар. 3 жилдлик. – Тошкент, 2012. 3-жилд. Б.-38.
9. (Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода // Вопросы языкознания, 1994. № 4. С.17-33.)

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК: 81′1:81′37[=512.133]

Дилдора АХМЕДОВА
БухДУ докторанти (DSc), филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

БухДУ доценти,(PhD) М.Б.Аҳмедова тақризи асосида

ЭНЦИКЛОПЕДИК ЛУҒАТЛАРДАН СЕМАНТИК КЕНГАЙТМАНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ФОЙДАЛАНИШ

Аннотация

Ушбу мақолада ЎТИЛ ва ЎзМЭдаги изоҳлар таркиби қиёсланган ҳамда ЎзМЭда тушунчалар кенгроқ изоҳланиши мисоллар ёрдамида таҳлил қилинган, бу эса семантик кенгайтманинг мукаммал маълумот беришини таъминлаши далилланган. ЎТИЛда омонимлиги белгиланмаган сўзларга омоним сўз эканлиги ҳақида ахборот берувчи тег бириктириш мақсадга мувофиқлиги кўрсатиб ўтилган. Хулоса сифатида ЎзМЭ семантик кенгайтма ишлаб чиқишда ЎТИЛдаги маълумотларни бойитишга хизмат қилиши таъкидланган.

Калит сўзлар: энциклопедик луғат, луғат мақола, жилд, корпус, семантик кенгайтма, маълумотлар базаси, изоҳли луғат, помета, иллюстратив мисоллар, сема, лингвистик маълумотлар, омонимлик.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭНЦИКЛОПЕДИЧЕСКИХ СЛОВАРОВ ПРИ ФОРМИРОВАНИИ СЕМАНТИЧЕСКОГО РАСШИРЕНИЯ

Аннотация

В этой статье сравнивается содержание аннотаций в ТСУЯ и НЭУ и анализируется более широкая интерпретация понятий в НЭУ на примерах, что доказывает, что семантическое расширение обеспечивает совершенную информацию. В заключение подчеркивается, что НЭУ служит для обогащения информации в ТСУЯ при развитии семантического расширения.

Ключевые слова: энциклопедический словарь, словарная статья, том, корпус, смысловое расширение, база данных, толковый словарь, помета, иллюстративные примеры, сема, лингвистическая информация, омонимия.

USING ENCYCLOPEDIC DICTIONARIES IN FORMING SEMANTIC EXTENSION

Abstract

This article compares the content of annotations in UED (Uzbek explanatory dictionary) and UNE (Uzbekistan National Encyclopedia) and analyzes the wider interpretation of concepts in UNE using examples, which proves that semantic extension provides perfect information. As a conclusion, it is emphasized that UNE serves to enrich the information in UED in the development of semantic extension.

Key words: encyclopedic dictionary, dictionary article, volume, corpus, semantic extension, database, explanatory dictionary, illustrative examples, sema, linguistic information, homonymy.

Кириш. Ўзбек тилида кўплаб энциклопедик луғатлар нашр этилган. Ўзбекистон миллий энциклопедияси (ЎзМЭ) – Ўзбекистон Республикасининг биринчи универсал миллий энциклопедияси. Тошкентда “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти томонидан нашр этилган. 1996 йил 4 сентябрда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси “Ўзбекистон Республикаси Қомусини нашр этиш тўғрисида” қарор қабул қилган. Шу қарор асосида универсал энциклопедиянинг соҳа сўзликларини тузишга киришилган, мезонлар ишлаб чиқилган. Вазирлар Маҳкамасининг 1997 йил 20 мартда “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриётини ташкил этиш тўғрисида”ги 154-қарори қабул қилингач, бу ишни амалга ошириш учун барча шарт-шароитлар юзага келди. Қарорда 12 жилдли универсал ЎзМЭнинг илмий-назарий ва ғоявий-сиёсий йўналиши белгилаб берилди. ЎзМЭнинг мазмун-мундарижасини белгилашда жаҳон қомусчилиги анъаналари, мамлакатимизда орттирилган ижобий тажрибалардан фойдаланилган.

ЎзМЭнинг умумий ҳажми 1600 нашриёт ҳисоб табоғини ташкил этиб, қарийб 50000 мақолани ўз ичига олади. ЎзМЭда тасдиқланган йўналишга кўра, энциклопедияда Ўзбекистон Республикаси ҳақида материаллар билан биргаликда умумбашарий маълумотлар ҳам берилган; ижтимоий (60%) ва табиий (40%) фанлар мутаносиблиги сақланган. Ҳамма универсал энциклопедияларда бўлгани каби, унга барча замонлар ва халқларга мансуб машҳур шахслар, кашфиётчилар, сайёҳлар, фан, техника, адабиёт ва санъат намояндалари, таниқли давлат ва сиёсат арбоблари тўғрисида мақолалар кирган (бу борада тегишли мезон ишлаб чиқилган).

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти ўтган давр мобайнида 60 дан ортиқ номда турли фан соҳалари бўйича энциклопедия, изоҳли луғат, маълумотнома, луғат ҳамда оммабоп китоблар нашр этган. Булар орасида «Ўзбекистон Республикаси», «Тошкент» (рус ва ўзбек тилларида), «Пахтачилик» (2 жилдли, рус тилида), «Уй-рўзғор», «Саломатлик энциклопедиялари», «Болалар энциклопедияси» (3 марта нашр этилган), «Хотин-қизлар энциклопедияси» (3 марта нашр этилган), «Ислом энциклопедияси», «Буюк ипак йўли» (рус тилида), «Ўзбекистон Республикаси» (рус, ўзбек ва инглиз тилларида) ва бошқалар ўзбек тили корпусларининг семантик кенгайтмасини ишлаб чиқишда ахборот манбаи вазифасини бажара олади.

Таъкидлаш жоизки, ушбу луғатларнинг барчаси қоғоз луғат шаклида бўлиб, уларнинг электрон варианти сифатида фақат pdf формати мавжудлигини инобатга олмасак, улардан автоматик маълумот олишнинг имкони йўқлиги ойдинлашади. Луғат маълумотлари фақат хомашё сифатида хизмат қилади. Луғат маълумотларига қўлда ишлов бериш, улардан семантик кенгайтманинг маълумотлар базасини ишлаб чиқишда фойдаланиш учун қўл меҳнати талаб этилади. Луғатларнинг сўзлиги таҳлил қилиниб, улардаги корпусга киритиш мумкин бўлган бирликлар танланади, уларнинг изоҳи оптимал-

лаштирилади, шундан сўнг бу бирликлар ва уларнинг изоҳи семантик кенгайтма маълумотлар базасига жойлаштирилиши мумкин.

ЎзМЭда изоҳли луғатларда учрамайдиган ёки ЎТИЛда учраса-да, изоҳи етарли даражада мукаммал бўлмаган бирликларнинг изоҳи берилган. Қуйида ЎзМЭ таркиби, ЎзМЭ луғат мақолаларининг ЎТИЛ луғат мақолаларидан фарқи, ЎзМЭ сўзлигини ташкил этувчи бирликлар ҳамда уларнинг ЎТИЛ сўзлиги изоҳларидан фарқини таҳлил қиламиз.

ЎТИЛ луғат мақоласи

ЎзМЭ луғат мақоласи

БАВОСИР [а. – касаллик номи] тиб. Тўғри ичакнинг ва орқа чиқарув йўли веналарининг кенгайиши ҳамда тугунчалар ҳосил бўлиши натижасида пайдо бўладиган касаллик. Сурункали бавосирга янтоқ аралашмасидан тайёрланган малҳам қўлланилади. «Фан ва турмуш». Бавосирни мутахассис врач даволайди. “Саломатлик”.

БАВОСИР, геморрой – тўғри ичакнинг пастки қисми, хусусан орқа чиқарув йўли веналарининг тугун-тугун бўлиб кенгайиши. Интоксикация, аллергия, механик таъсиротлар: веналарнинг ўсма, аёлларда ҳомилали бачадон билан эзилиши, узоқ муддат оёқда юриб ёки ўтириб ишлаш, овқатга ружу қилиш, алкоголизм, сурункали қабзият, шунингдек, ички аъзоларнинг турли касалликлари ва б. сабаб бўлади. Б. авж олишида ирсий мойиллик ҳам маълум аҳамиятга эга. Кечишига кўра ўткир, сурункали, қайталайдиган, тугунлар орқа чиқарув тешигида жойлашишига қараб ташқи, ички ва аралаш хиллари тафовут қилинади. Орқа чиқарув йўли соҳасида бирор нарса тиқилгандек оғирлик, ачишиш, қичишиш, баъзан ҳожат чоғида оғриқ кузатилади; кейинчалик геморроидал қон кетиши мумкин (нажасда қон бўлади). Агар Б.да геморроидал тугунлар тиқилиб қолса ёки яллиғланса, қаттиқ оғриқ беради, ҳарорат кўтарилади, қабзият кузатилади. Вақтида олди олинмаса, узоқ вақт қон кетиб юриши – камқонликка, ички геморроидал тугунлар тушиши ёки қисилишига олиб келади. Б.ни даволашда ванна қабул қилиш, оғриқ қолдирувчи шамча қўйиш тавсия этилади, парҳез буюрилади. Оғирроқ ҳолларда жарроҳлик усули қўлланилади. Б.нинг олдини олиш учун қабзиятга йўл қўймаслик; ҳожатдан кейин орқа чиқарув тешиги соҳасини илиқ сув б-н ювишга одатланиш, кам ҳаракат кишилар бадантарбия б-н шуғулланишлари лозим.

БОВУРЧИ, бавурчи мар. Ўрта асрларда Ўрта Осиё ва Яқин Шарқда подшоҳ (хон)нинг баковулдан кейин турувчи хусусий ошпази. Овқат тайёрлаш вақтида бовурчилардан бошқа ҳеч ким подшоҳ ошхонасига киритилмаган. «ЎзМЭ». Бовурчи қўлида паринг юлдирар. «Юсуф ва Аҳмад»

БАВУРЧИ, бовурчи – ўрта асрларда туркий халқлар сарой мансабларидан бири. 14-а.дан бошлаб туркий манбаларда қайд этила бошлаган. Ошпаз, баковул маъносида ҳам қўлланилган. Ҳукмдор ошхонасида хизмат қилган Б.нинг баковулдан бир поғона паст мансаб ҳисобланганлигини Бобурнинг сўзларидан билиш мумкин: «Бавурчилиқ мартабасидин бакавуллуқ мартабасига еткуруб эрдим» («Бобурнома», 210). Б. истилоҳи форс тилида ҳам қўлланган.

БАДАВИЙ [саҳро кишиси, саҳрода яшовчи] Арабистон яриморoли ва Шимолий Африкада яшовчи кўчманчи ва яримкўчманчи араб қабилалари; саҳройи, кўчманчи. Саҳрода арабларнинг бадавий деган ёввойи тоифаси бор экан. Ўшалар ҳажга келган-кетганларни талар экан, – деди Ҳожи хола. М.Исмоилий, Фарғона т.о. Бадавий ғазабдан титраб ногаҳон, Тик боққан кўзларга

БАДАВИЙ (араб. – саҳройи, кўчманчи) – Арабистон я.о. ва Шим. Африка чўлларида яшайдиган кўчманчи, ярим кўчманчи араб қабилалари. Б.лар Судан ва Шим. Африка, Марказий Арабистон, Сурия, Иордания, Ироқ, Миср ва б. жойларда яшайдилар. Араб тарихчилари (8-а.) тузган шажарага кўра, Б. қабилалари иккита асосий гуруҳга бўлинган: Жан. Арабистон, яъни Яман қабилалари (бану Тайй, бану Хамдон, бану Мазҳиж, бану Омил, бану Жузам, бану Лахм, бану Хассан, бану Кинд, бану Азд, бану Хазраж, бану Химяр ва б. қабилалар) ва Шим. Арабистон қабилалари (бану Қайс, бану Сулайм, бану Ғатафон, бану Ҳилол, бану Қушайр, бану Мурра, бану Тамим, бану Асад, бану Абдулқайс, бану Бакр, бану Тағлиб ва б. қабилалар). Б.ларда бир неча оила (бешинчи авлодгача) бирикиб аҳлни (байт, фаха, хомула), кўп сонли оила уруғни (батн, фирқа, ошира), уруғлар эса қабилаларни ташкил этади. Ривожланиб келаётган янги ижтимоий муносабатлар Б. ҳаётига ҳам таъсир қилиб бормоқда, бу қабилалар тобора ўтроқлашмоқда. Б.лар ўртасида уруғ-қабилачилик муносабатлари ҳоз. ҳам бир қадар сақланиб қолган. Б. лар асосан чорвачилик (туячилик, айниқса, йилқичилик ва қўйчилик), овчилик ва киракашлик б-н шуғулланади. Йўловчи савдогарлардан олинадиган бож ҳам Б.ларнинг тирикчилик манбаларидан бири ҳисобланади (қ. Араблар).

Бавосир/бавир, бовурчи/бавурчи, бадавий каби бирлик (лексема ва тушунча)лар изоҳларининг фарқини кузатамиз.

ЎТИЛ бирлиги изоҳи ЎзМЭ бирлиги изоҳи

Лексема изоҳланади Тушунча изоҳланади

Лексик маъноси: ўз, кўчма маънолар, мисоллар берилади Тушунча ҳақида кенг маълумот берилади

Изоҳ ҳажми кичик Изоҳ кенг

Тадқиқот методологияси. ЎТИЛ ва ЎзМЭда бирликларнинг изоҳига қарайдиган бўлсак, ЎзМЭдаги айрим мақолаларнинг ЎТИЛ каби семаларга ажратган ҳолда изоҳланиши кузатилади:

БАДАЛ (араб.) – 1) бирор нарса эвазига тўланадиган ҳақ, нарсанинг қийматига мувофиқ келадиган, ўрнини боса оладиган бошқа бирор нарса; 2) бирор ташкилот, жамият ва ш.к.га аъзо бўлган шахснинг мазкур ташкилот, жамиятта тўлаган ёки даврий тўлаб турадиган пули, аъзолик ҳақи.

БАДАЛ [а. – алмаштириладиган буюм; эваз] 1 Бирор нарсанинг ўрнига, эвазига бериладиган ҳақ ёки нарса, нарсанинг қийматига тенг келадиган бошқа бирор нарса; эваз. Аммо бунинг бадалига, юқоридаги моллардан ташқари бир таноб ердан олтмиш пуд пахта олиб, нақд пул бараварига ҳукуматга топширади. А.Қодирий, Ғирвонлик Маллавой.

2. Бирор ташкилот (жамият, уюшма) аъзосининг шу ташкилотга тўлаган ёки даврий тўлаб турадиган пули; взнос. Аъзолик бадали. Партияга аъзолик бадали.

3. Бадал (эркаклар исми).

Бирлик изоҳларининг семаларга ажратилиши иккала ахборот манбаида умумийликни ташкил этса, ЎТИЛ ҳар бир семанинг иллюстратив мисоллар билан бойитилиши ҳамда сўзнинг бирикувчиларини келтириши билан фарқланади.

Умуман олганда, бу икки ахборот манбаида бирликларнинг умумий изоҳланиш картинаси шундай. Аммо омоним сўзларнинг изоҳланишида ЎТИЛ ва ЎзМЭда нисбатан фарқлар намоён бўлади.

ЎТИЛда изоҳланиши ЎзМЭда изоҳланиши

БАДАН [а. – тан, тана] 1 Тананинг, гавданинг сирти, сиртқи қисми. Орқада келган Пўлағур манглай рўмоли билан яланғоч баданини артиб, терини қуритди. А.Қодирий, Ғирвонлик Маллавой. Ёмғирданми, терданми бутун бадани шалаббо, ҳўл. А.Мухтор, Чинор.

2 Тана, гавда, вужуд. Қўнжи тўла сув, кийимбош жиққа ҳўл, совуқдан бадан қалт-қалт титрайди. Ойбек, Қуёш қораймас. Кечаси Жаҳонгирнинг баданида оғриқ

турди. «Шарқ юлдузи». Йигитнинг лаблари қўлига текканда, Маҳвашнинг аъзойи бадани жимирлаб кетди. Т.Ашуров, Оқ от.

БАДАН, мўғул чойи (Bergenia crassikolia) – тошёрдошлар оиласига мансуб кўп йиллик ўт. Ўрта Осиёда бир неча тури бор. Сурхондарё вилояти тоғларида B. hissarica тури учрайди. Гуллари чиройли, қизил ёки бинафша ранг. Манзарали ўсимлик сифатида экилади. Илдизи ва поясида 28% гача ошловчи моддалар, арбутин глюкозиди ва бўёқ моддалар бор. Илдизпоясидан олинадиган экстракт стоматит, колит, энтероколит ва гинекологик касалликларни даволашда ишлатилади.

Масалан, шаклан бир хил бирлик бу икки луғатда икки хил изоҳланган, яъни улар омоним сифатида юзага чиқади. Ваҳоланки, юқоридаги жадвалдаги изоҳлар солиштирилса, бу сўзнинг омоним эканлиги аниқланади. Бундай ҳолатларда ахборотни мувофиқлаштириш лингвистик маълумотлар базаси тузувчисига тушади. Хулоса сифатида айтиш мумкинки, бу каби ЎТИЛда омонимлиги белгиланмаган сўзларга омоним сўз эканлиги ҳақида ахборот берувчи тег бириктириш мақсадга мувофиқ.

Таҳлил ва натижалар. Бошқа бир ҳолатни кузатамиз. ЎТИЛ ва ЎзМЭдаги сўзларнинг изоҳи ҳажми ва мазмунидаги фарқдан ташқари ЎзМЭда сўз маъносининг термин сифатида ихтисослашиш ҳолати ҳам кузатилади. Бундай ҳолатда бу икки ахборот манбаидаги маълумотни алоҳида-алоҳида олиш мақсадга мувофиқ бўлади. Бу ҳолатни қуйидаги бирликлар изоҳида таҳлил қиламиз.

ЎзМЭда БАДАРҒА сўзи қуйидагича изоҳланади:

БАДАРҒА – 1) 19-20-а. бошларида чор Россиясида шахсни суд орқали ёки маъмурий тартибда бирор шаҳар ёхуд муайян губернадан узоқлаштириш. Бунда ўша шахсга мазкур жойдан ташқарида истиқомат қилиш жойини танлаш ҳуқуқи берилган ёки бундай ҳуқуқ берилмаган. Б. қилинганлар полиция назоратида бўлган; 2) жазонинг бир тури. Маҳкумни унинг истиқомат жойидан узоқлаштириб, муайян жойларда яшашини ман этиш. Ўзбекистонда 18 ёшга тўлган шахслар содир этган жиноят учун асосий ёки қўшимча жазо тарзида 1995 й. 1 апр.гача амалда бўлган қонунларда Б. кўзда тутилган ва 5 й.гача муддатга қўлланилган. Б. қилинган шахс бўлиши таъқиқланган вилоят, шаҳар ёки туманга борган тақдирда маъмурий тартибда жазоланар, бундай қилмишни такрорласа, бир ярим йилгача озодликдан маҳрум этилар эди. Б. инсонпарварлик руҳига зид ва самарасизлиги сабабли бекор этилган.

ЎТИЛда БАДАРҒА сўзи қуйидагича берилади:

БАДАРҒА [ф. – кузатиш; кузатиб борувчи] 1 Ўз ватани (юрти)дан бошқа жойга сурилиш, ҳайдалиш, қувғин. Айрилиқ устига энди бадарғаси ҳам чиқди. С.Абдулла, Мавлоно Муқимий.

Бадарға бўлмоқ Бирор сабаб, мажбурият билан ўзга юртларда сурилиб юрмоқ; ўз жойидан бошқа жойга ҳайдалмоқ. Отаси бечора бўлса, қанча вақт эл-халқдан номус қилганидан аллақандай шаҳарларга бадарға бўлиб, яқинда келди. Ҳамза, Паранжи сирлари. Бадарға бўп чиқдик юрту қалангдан, Туташиб ўт чиқар сенинг танангдан... «Эрали ва Шерали».

Бадарға қилмоқ Ўз жойидан бошқа жойга ҳайдаб юбормоқ, қувғин қилмоқ. Кўп халқлар ўз ватанидан бадарға қилинди. «Шарқ юлдузи».

2 ҳуқ. Суд ҳукми билан бошқа ерга юбориш; кўчириш, сургун.

Кўринадики, ҳуқ. пометаси билан берилган бадарға қилмоқ сўзигина ЎзМЭда берилган изоҳ маъноси билан уйғунлашади. Бундай ҳолатда семантик кенгайтмани ЎТИЛдаги изоҳ билан бирга ЎзМЭдаги изоҳ билан тўлдириш лозим бўлади. Семантик кенгайтмада эса ЎзМЭдан олинган ахборот эканлиги ҳам кўрсатилиши мақсадга мувофиқ. Буни семантик кенгайтмада қуйидагича кўрсатамиз:

БАДАРҒА *[ф.* – кузатиш; кузатиб борувчи] **1** Ўз ватани (юрти)дан бошқа жойга сурилиш, ҳайдалиш, қувғин.
Бадарға бўлмоқ Бирор сабаб, мажбурият билан ўзга юртларда сурилиб юрмоқ; ўз жойидан бошқа жойга ҳайдалмоқ. *Бадарға бўп чиқдик юрту қалангдан, Туташиб ўт чиқар сенинг танангдан...* «Эрали ва Шерали».
Бадарға қилмоқ Ўз жойидан бошқа жойга ҳайдаб юбормоқ, қувғин қилмоқ.
2 *ҳуқ.* Суд ҳукми билан бошқа ерга юбориш; кўчириш, сургун... кўпроқ

Семантик кенгайтманинг асосий қисми ЎТИЛдаги изоҳ асосида тўлдирилади. Кўпроқ... ҳаволаси билан кўрсатилган сўзнинг устига босилганда, ЎзМЭдаги изоҳ очилади, бу қуйидаги кўринишда бўлади:

Хулоса ва таклифлар. Хулоса сифатида айтиш жоизки, ЎТИЛ ва ЎзМЭдаги изоҳлар таркиби, хусусан, ҳажмини қиёслар эканмиз, ЎзМЭда тушунчалар кенгроқ изоҳланишини кўрамиз. Бу эса семантик кенгайтманинг мукаммал маълумот беришини таъминлайди, шунингдек, ЎТИЛда омонимлиги белгиланмаган сўзларга омоним сўз эканлиги ҳақида ахборот берувчи тег бириктириш мақсадга мувофиқ. Хуллас, ЎзМЭ семантик кенгайтма ишлаб чиқишда ЎТИЛдаги маълумотларни бойитишга хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР

1. ЎТИЛ, 1-ж. 132-б.
2. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Б ҳарфи. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. – 878 б. – 4-б. // www.ziyouz.com кутубхонаси

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

Хуршида ДЖАЛИЛОВА,
Ўзбекистон Миллий университети доценти, ф.ф.н.
E-mail:khurshida_@mail.ru

ЎзДЖТУ доценти, ф.ф.д. М.Ю.Умарова тақризи асосида

DESCRIPTION OF A REAL JOURNEY IN THE WORKS OF TOBIAS SMOLLETT

Abstract
This article analyzes the work "Travels through France and Italy" (1766), created on the basis of a real journey by Tobias Smollett, a representative of English literature of the 18th century. As a result of the analysis, the artistic features of the work, genre, structural features, themes were studied, as well as scientific works on this topic were revealed, theoretical and practical conclusions were provided.
Key words: travel, theme, genre, letter, epistolary genre, non-fiction, author, image, enlightenment.

ОПИСАНИЕ РЕАЛЬНОГО ПУТЕШЕСТВИЯ В ТВОРЧЕСТВЕ ТОБАЙАСА СМОЛЛЕТА

Аннотация
В данной статье анализируется произведение «Путешествие по Франции и Италии» (Travels through France and Italy, 1766), созданное на основе реального путешествия Тобайасом Смоллеттом, представителем английской литературы XVIII века. В результате анализа были изучены художественные особенности произведения, жанр, особенности структуры, тематика а также исследованы научные работы по данной теме, сделаны теоретические и практические выводы.
Ключевые слова: путешествие, тема, жанр, письмо, эпистолярный жанр, нон-фикшн, автор, образ, просвещение.

ТОБАЙАС СМОЛЛЕТ ИЖОДИДА РЕАЛ САЁҲАТ ТАФСИЛОТЛАРИ

Аннотация
Мазкур мақолада XVIII аср инглиз адабиёти вакили Тобайас Смоллет (Tobias Smollett) ижодида ва унда реал саёҳат асосида яратилган «Франция ва Италия бўйлаб саёҳат” (Travels through France and Italy, 1766) асари таҳлил қилинган. Таҳлил натижасида ушбу асарнинг бадиий хусусиятлари, жанри, структурасининг ўзига хос жиҳатлари, кўтарилган мавзулар аниқланиб, тадқиқотчиларнинг илмий ишлари ўрганилган, назарий ва амалий хулосалар берилган.
Калит сўзлар: саёҳат, мавзу, жанр, мактуб, эпистоляр жанр, нон-фикшн, муаллиф, образ, маърифатчилик.

Шотландия адиби – шоир, ёзувчи, драматург, таржимон, журналист Тобайас Жорж Смоллет (Tobias George Smollett, 1721-1771) ўзининг “Родерик Рендом саргузаштлари” (The Adventures of Roderick Random) ва “Перегрин Пикл саргузаштлари” (The Adventures of Peregrine Pickle) каби пикареск романлари билан машҳур бўлиб, уларда одатда яхши ниятли, бироқ муғомбир, дайди одамларнинг саргузаштлари орқали ижтимоий ҳаёт хажвий тарзда тасвирланади.

Смоллет инглиз романчилигининг олтин даврида, яъни XVIII асрда инглиззабон ёзувчилар Европанинг бошқа худудларига нисбатан жуда кўп бадиий асарлар яратиб, роман шаклининг қисқа муддатда шубҳасиз ҳайратланарли даражада ривожлантириб, такомиллаш-тирган бир даврда ижод қилган[1].

Смоллет Глазго университетида тиббиёт соҳасида ўқиганлигига қарамай, омадини синаш учун Лондонга драматуг сифатида ўзининг "The Regicide" трагедияси билан келади. Бироқ унинг ушбу асари саҳналаштирилмайди. Шунда Смоллет кемада жарроҳ сифатида денгиз оша саёҳатга йўл олади. Тобайаснинг ёшлигидан саёҳатга иштиёқи катта бўлган. Йигирма ёшларда у кема шифокори сифатида жуда кўп экзотик мамлакатларда бўлган, уммонлар оша экспедицияларда қатнашиб, Ямайкага ҳам боради. Кейинчалик адиб ўз кўзи билан кўрган мамлакатлар ва воқеаларни ўзининг романларида акс эттирган.

Унинг биринчи нашр этилган асари Куллоден жанги ҳақидаги “Шотландиянинг кўз ёшлари” (The Tears of Scotland, 1746) деб номланган илк достони адибнинг китобхонлар орасида танилишига сабаб бўлди. 1750 йилда Смоллет Шимолий Шотландиядаги Абердинда тиббиёт соҳасида докторлик даражасига эришади. Францияга саёҳати чоғида 1753 йилда ўзининг иккинчи романи “Фердинанд граф Фатомнинг саргузаштлари” (The Adventures of Ferdinand Count Fathom)ни нашр эттиради. 1755 йилда эса Мигел де Сервантеснинг машҳур “Дон Кихот” асарининг таржимасини чоп эттирди. 1756 йилда эса “The Literary Review” (Адабий шарҳ) журналининг муҳаррири сифатида фаолият олиб боради. Шундан сўнг Смоллет ўзининг энг муҳим асари деб билган “Англиянинг батафсил тарихи” (A Complete History of England) асари устида 1757-йилдан 1765-йилгача астойдил ишлайди. Ушбу вақт оралиғида, қисқа муддат, тухмат туфайли озодликдан ҳам маҳрум бўлиб, 1760 йилда “Сер Ланселот Гривснинг ҳаёти ва саргузаштлари” (The Life and Adventures of Sir Launcelot Greaves) романини ёзади. “Having suffered the loss of his only child in 1766, he severed all connections with the literary community and went abroad with his wife, the result of which was a travelogue, Travels through France and Italy, which remains a rather popular work of eighteenth-century non-fiction” [1]. 1766 йил ёлғиз фарзандидан жудо бўлган адиб адабий жамоатчилик билан барча алоқаларни узиб, рафиқаси билан хорижга сафарга йўл олади ва натижада “Франция ва Италия бўйлаб саёҳат” асарини яратади. Ушбу саёҳат асари (travelogue) ҳанузгача ўн саккизинчи асрнинг машҳур хужжатли асар (non-fiction) намунаси бўлиб келмоқда. 1769 йилда Смоллет “Атом тарихи ва аргузаштлари” (The History and Adventures of an Atom,1769) асарини яратиб, унда адиб япон эртаги ниқоби остида Етти йиллик уруш давридаги инглиз сиёсатига нисбатан ўз қарашларини аллегорик тарзда акс эттиради. Смоллетнинг Шотландияга ташрифи унинг “Хамфри Клинкернинг

саёҳати” (The Expedition of Humphry Clinker) сўнги романининг яратилишига сабаб бўлади. Ушбу роман 1771 йилда, яъни Смоллет вафот этган йили нашр этилади.

Тобайас Смоллетнинг “Франция ва Италия бўйлаб саёҳат” (Travels through France and Italy) [2] асари 1763 йилнинг ноябрь ойидан 1765 йилнинг апрелигача давом этган сафар натижасида юзага келган. Смоллетнинг Франция ва Италия бўйлаб сафарга йўл олишининг сабабларидан яна бири ўз соғлигини тиклаш эди. 1766 йил ёзилган ушбу асар географик, ижтимоий-маданий маълумотларга бой, Франция ва Италия реалиялари кенг жой олган йўл хотираларидан иборат мактублардир. “Франция ва Италия бўйлаб саёҳат” асари қирқдан ошиқ мактублар туркумидан иборат, улар муаллифнинг яқин дўстлари ва шифокорга йўлланган бўлиб, мавзу жиҳатидан бир неча туркумга ажратилади. Биринчи бешта мактубларда Франция шимолида жойлашган Булон шаҳри манзаралари, унинг аҳолиси тасвирланади, 6-12-мактублар Булондан Париж, Лион, Монпелье шаҳарлари орқали Ницца сафарига бағишланган. 13-24-мактубларда Ницца шаҳрининг архитиктура обидалари китобхон кўз олдида гавдаланади, 25-41-мактубларда муаллифнинг Италия ҳақидаги таассуротлари, шунингдек ўз юртига қайтиш жараёни, йўл қийинчиликлари ҳақида баён этилади.

“Франция ва Италия бўйлаб саёҳат” асарида йўл қийинчиликлари, меҳмонхоналарни излаш, уларда қўним топиш, у ерлардаги аҳвол, атрофдаги инсонлар билан мулоқот, муносабатлар ва умуман бошдан кечирган воқеалар баён этилган. Мактубларда французларнинг миллий таомлари, модага бўлган муносабати, диний ва сиёсий масалалар бўйича муаллифнинг фикр-мулоҳазалари ёритилади. Уларнинг бирида Булон шаҳрига кириб келганида бир неча жилдлик китобларини олиб қўйишгани ушбу китобларни қайтариб олиш учун қилган ҳаракатлари тасвирланади.

Ушбу асарнинг биринчи нашри титул варағида “Франция ва Италия бўйлаб саёҳат, аҳлоқ, урф-одатлар, диний, сиёсий, тижорат, санъат ва қадимият, шунингдек, Ниццанинг тасвири ва иқлими кабиларнинг тафсилоти...” деб ёзилган. Смоллет асарида ўз кайфияти, руҳий холатини ҳам бериб боради. Асарда хронологик аниқлик, топографик маълумотлар, харита, тарихий ёдгорликлар, байрам ва маросимлар, флора ва фауна, хатто нарх-наволар ҳам ўз аксини топган.

Смоллетнинг мазкур асари инглизлар томонидан илиқ кутиб олинди. Асарда ёзувчи французлар табиатидаги айрим жиҳатлари, жумладан, французларнинг айрим одатларини, кийиниш маданиятига хос бўлган урф ва умуман аҳлоқий масалалар ҳақида ўз мулоҳазаларини бериб борар экан, атрофдаги воқеаларга маърифатчи сифатида ўткир сатирик нигоҳи билан баҳо беради.

Смоллетнинг «Франция ва Италия бўйлаб саёҳат» асари нашрларининг бирига инглиз ёзувчиси Томас Секкомб (Thomas Seccombe) (1866–1923) батафсил сўзбошисида асарни тадқиқ қилиб, қуйидаги хулосага келади: “Now note another very characteristic feature of these Travel Letters. Smollett went abroad not for pleasure, but virtually of necessity. Not only were circumstances at home proving rather too much for him, but also, like Stevenson, he was specifically "ordered South" by his physicians, and he went with the deliberate intention of making as much money as possible out of his Travel papers” [3]. “Сафар мактублари”нинг яна бир жиҳатига энди эътиборингизни қаратинг. Смоллетт хориж сафарига шунчаки ҳузур-ҳаловат учун эмас, балки мажбурлигидан йўл олган. Унинг нафақат оилавий шароитининг мураккаблиги, балки Стивенсон сингари у ҳам ўз шифокорлари томонидан «Жанубга йўллантирилган»лиги ва ўз сафар очеркларидан имкон қадар кўпроқ пул ишлаш мақсади эди.” Смоллет мактубларида ўз соғлиғи, дардлари ҳақида баён этади. Муаллиф бетоб бўлганлиги сабабли ҳам тасвир объекти бўлган барча нарса, воқеа ва ҳодисалар пессимистик руҳда, танқидий нигоҳ билан тасвирланади. Типик Британиялик фуқаро ўзга муҳитга тушиб қолиши, ўзга инсонлар, ўзга манзара, ўзга товушлар, ўзга таомлар, буларнинг барчаси бетоб ва асаблари чарчаган адибнинг оптимизмдан йироқ субъектив қарашларига таъсир қилмай қолмади. “But one thing we do know, and in these same letters, if confirmation had been needed, we observe the statement repeated, namely, that Smollett was very peevish. A sardonic, satirical, and indeed decidedly gloomy mood or temper had become so habitual in him as to transform the man” [3]. “Дарҳақиқат Смоллетт мактубларида хаддан зиёд асабийлашган, унинг киноя, кесатиш билан суғорилган ўта тушкун кайфияти шу даражада оддий ҳолга айланиб, инсонни эврилишларга олиб келади”. Смоллет сафардаги қийинчиликлар, меҳмонхоналардаги ходимларнинг дангасалиги, хоналарнинг ифлослиги, атрофдаги одамларнинг хасислиги, ёлғончилиги, фирибгарлиги кабиларни ўткир сатираси остига олади. Адибнинг тарихчи, файласуф ҳамда тиббиётдан хабардор эканлиги мактублар орқали сезилиб туради. Смоллет мактубларида Гиппократ таълимотидан иқтибослар келтиради, уларда ўша даврдаги машҳур шифокорлар ҳақида маълумотлар ҳам кўп.

Флоренция ҳақидаги мактубларида Смоллет ўзини тарихчи сифатида кўрсата олади. Смоллет асарида табиат гўзаллиги ҳамда Римга бағишланган саҳифаларда бадиий тасвир воситаларидан кенг фойдаланади. Италия тасвирида Смоллетнинг кайфияти, умуман, ўзгаргани сезилади, баёнга енгил инглиз юмори, хушчақчақлик руҳи киритилади. Айниқса, Пиза тасвирида адиб ўз ҳиссиётларини баён этар экан, уларга кун бўйи тикилиб завқ олишга ҳам тайёрлигига изҳор бўлади.

И.В.Русских Смоллетга бағишланган илмий мақоласида В.Л.Гибсоннинг “Смоллет асарларида санъат ва пул” [4] ва Р.Ж.Жоунсоннинг “Тобаяс Смоллет Маърифатчилик контекстида: Франция, Италия ва Шотландия бўйлаб саёҳат” [5] асарларини таҳлил қилиб, XX аср бошида бошланган анъанани давом эттирган холда Смоллетнинг ушбу асари ва умуман адиб ижодига инглиз маданиятининг муҳим манбаси сифатида баҳо берилиши, ушбу тадқиқотлар Баккнелл университетининг ягона қидирув илмий дастури доирасида бажарилганлиги, унда нафақат инглизлаштириш жараёни олиб борилган даврнинг ёрқин томонларини кўрсатиш устунлик қилганлигини, балки Смоллет истедодининг универсал табиатини кўрсатиш, хайратланарли даражада хилма-хил истеъдодларни ўзида мужассам этган ноёб қобилият эгаси: Д.Юм асарлари билан рақобатлашадиган асарлар яратган таниқли ёзувчи, драматург, шоир, таржимон, шифокор, журналист, тарихчи – буларнинг барчаси Смоллетнинг “Франция ва Италия бўйлаб саёҳатлар”ига қизиқиш ортиб бораётганлигидан далолат бериши таъкидлаб ўтади [1] 269 б Шунингдек, Смоллетнинг ушбу асари кўп йиллар мобайнида фактлар мажмуаси, яъни “тарихий” манба сифатида қаралиб келинганлигини қайд қилиб келинганлиги, охириги йиллар тадқиқотларида эса асар муаллифи аччиқ фикрлайдиган, дунёвий аҳлоқий масалаларга нисбатан танқидий баҳо берадиган, баъзан мактублар муаллифи ва Смоллетнинг позицияси ўртасида тафовут борлигини ҳам англаш мумкинлиги тадқиқ қилинади [6]. “Жаҳон адабиётида пародия асарининг оригинал асарга нисбатан кўпроқ яшаши ва машҳурроқ бўлиши камадан-кам учрайди” [7]. Бундай асарлар сарасига XVIII аср инглиз маърифатчилик адабиётининг яна бир йирик намояндаси Лоренс Стерннинг “Франция ва Италия бўйлаб сентиментал саёҳат” романи мисол бўла олади. Лоренс Стерннинг ушбу асари Тобайас

Смоллетнинг “Франция ва Италия бўйлаб саёҳат” сафар очеркларига пародия сифатида ёзилган. Секкомб мазкур саёҳат асарини ўн саккизинчи аср учинчи чорагида ушбу жанрда ижод қилган инглиз адиблари Филдинг, Жонсон ва Стерн асарлари контекстида таҳлил қилиб, қуйидаги фикрларини билдиради:

“I shall endeavour to show, not without some hope of success among the fair-minded, that the Travels before us are fully deserving of a place, and that not the least significant, in the quartette” [3]. “Мен умид қиламанки, ушбу саёҳат, айниқса, тўртлик ичида сўзсиз ўз муносиб ўрнини эгаллайди”. Тўртлик деб Секкомб айнан Филдинг, Жонсон, Стерн ва Смоллетни назарда тутган. Секкомбнинг таъкидлашича, Смоллетнинг реал саёҳатга асосланган “Франция ва Италия бўйлаб саёҳат” асарига бўлган эътиборнинг камайишига, бир вақтлар ҳатто унитилиб кетишига Лоренс Стерннинг 1768 йил ушбу асарга нисбатан ёзган машҳур “Сентиментал саёҳт” романи маълум бир жиҳатдан сабабчидир. Дарҳақиқиат, Стерн ўз романини Смоллетнинг саёҳатномасига пародия сифатида яратиб, нафақат инглиз, балки Европа адабиёти тарихида янги услубдаги асар муаллифи сифатида жой олади.

Дарҳақиқат, Смоллетнинг «Франция ва Италия бўйлаб саёҳат» тасвир майдони ва масалалар кўламининг кенглиги, услубининг оригиналлиги ва ўзига хослиги билан ажралиб туради. Ушбу асар замонавий китобхонга нафақат XVIII асрнинг Европа маданиятининг кенг манзарасини, балки ўз даври муаммоларидан хавотирдаги маърифатпарвар адиб, воқелик ва ўзгаришларга таъсир ўтказишга интилаётган ислоҳатчи образини ҳам намоён этади. Шу жиҳатдан мазкур асар автобиографик хусусиятга эга эканлиги билан ҳам шубҳасиз қимматли тарихий манба сифатида ҳам хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР

1. New World Encyclopedia New World Encyclopedia /https://www.newworldencyclopedia.org/entry/Tobias_Smollett
2. Smollett T. Travels through France and Italy / https://www.gutenberg.org/ebooks/2311
3. Travels Through France And Italy byTobias Smollett Introduction by Thomas Seccombe / http://www.gutenberg.org/files/2311/2311-h/2311-h.htm
4. Jones R. Tobias Smollett in the Enlightenment: Travels trough France, Italy and Scotland / Lewisburg: Bucknell University Press, 2011.- 221p.
5. Gibson W.L. Art and Money in the Wtitings of Tobias Smollett/ Lewisburg: Bucknell University Press, 2007.- 227p
6. Русских И.В. Поэтика культуры в «Путешествии по Франции и Италии Т.Дж.Смоллета: новые исследовательские версии. / Світова література на перехресті культур і цивілізацій. Вип. 7(2), 2013./https://cyberleninka.ru/article/n/poetika-kultury-v-puteshestvii-po-frantsii-i-italii-t-dzh-s
7. Фрагмент книги «Путешествие по Франции и Италии» Т.Смоллета. Вступление А.Ливерганта // Иностранная литература. 2007. №12.
8. http://magazines.russ.ru/inostran/2007/12/sm17.html /

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК:81'276.6:355.11:342.725

Маъруфжон ДУСТМУРОДОВ,
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти мустақил изланувчиси
E-mail: maruf_dust@mail.ru

ЎзДСМИ профессори, фил.ф.д. Юлдашев М.М. тақризи асосида

TERMS RELATED TO MILITARY – POLITICAL RULE IN URKHUN-ENASOY MONUMENTS

Annotation

The study of military terms and titles of the ancient Turks from a linguistic point of view is of great importance not only for the history of language, but also for the statehood and administrative traditions of the ancient Turks, revealing their social structure and legal system of khanate titles. At the same time, the formation of the system of military terms and titles in the khanate, their origin, the role of this or that position, the semantic-functional and etymological aspects of the terms in general, clarify the statehood traditions of the ancient Turks, as well as the evolution of modern Turkic military terminology. .

Keywords: terminology, military terms, Orkhon-Enasay inscriptions, Turkic Khanate.

ТЕРМИНЫ СВЯЗАННЫЕ С ВОЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИМ УПРАВЛЕНИЕМ В ПАМЯТНИКАХ УРХУН-ЭНАСОЙ

Аннотация

Изучение воинских терминов и титулов древних тюрков с лингвистической точки зрения имеет большое значение не только для истории языка, но и для государственно-управленческих традиций древних тюрков, раскрывая их социальную структуру и правовой строй. ханские титулы. В то же время формирование системы воинских терминов и титулов в ханстве, их происхождение, роль той или иной должности, семантико-функциональные и этимологические аспекты терминов в целом проясняют традиции государственности древних Тюрки, а также эволюция современной тюркской военной терминологии.

Ключевые слова: терминология, военные термины, Орхоно-Енисейские надписи, Тюркское каганат.

ЎРХУН-ЭНАСОЙ БИТИКЛАРИДАГИ ҲАРБИЙ-СИЁСИЙ БОШҚАРУВ БИЛАН АЛОҚАДОР ТЕРМИНЛАР

Аннотация

Қадимги туркийлар ҳарбий термин ва унвонларини лингвистик нуқтаи назардан ўрганиш нафақат тил тарихи, балки қадимги туркларнинг давлатчилиги ва бошқарув анъаналари учун ҳам катта аҳамиятга эга бўлиб, уларнинг ижтимоий тузилиши ва хоқонлик унвонларининг ҳуқуқий тизимини ҳам очиб беради. Шу билан бирга, хоқонликда ҳарбий термин ва унвонлар тизими қандай шаклланганлигини, уларнинг келиб чиқиши, у ёки бу лавозим қандай вазифани бажарганлигини, умуман соҳа терминларининг семантик-функционал ва этимологик жиҳатларини аниқлаш қадимги туркларнинг давлатчилик анъаналарини, қолаверса, ҳозирги туркий тилларнинг ҳарбий терминологияси эволюциясини янада ойдинлаштиради.

Калит сўзлар: терминология, ҳарбий терминлар, Ўрхун-Энасой битиктошлари, Турк хоқонлиги.

Кириш. Ўзбекистон ўз мустақиллигини қўлга киритгач, Республика раҳбарияти томонидан аждодлардан мерос бўлиб қолган турли моддий-маънавий ёдгорликларни тадқиқ этиш ишларини қўллаб-қувватлаш, теран илдизи қадим мозийга бориб тақаладиган ўзбек тилининг мавқеини юқори даражага олиб чиқиш мақсадида улкан ишлар амалга оширилди. Жумладан, Ш.Мирзиёевнинг 2019 йил 21 октябрдаги “Ўзбек тилига давлат мақоми берилганлигининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросим”да сўзлаган нутқи фикрмизни дадиллайди: “Туркий тилларнинг катта оиласига мансуб бўлган ўзбек тилининг тарихи халқимизнинг кўп асрлик кечмиши, унинг орзу-интилишлари, дард-у армонлари, зафарлари ва ғалабалари билан чамбарчас боғлиқдир. Ўзбекистон “Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик кенгаши”га аъзо бўлди. Бу ўз навбатида, нафақат ўзаро иқтисодий ҳамкорликни кучайтиришга, балки туркий тиллар, жумладан, ўзбек тилининг халқаро мақомини юксалтиришга хизмат қилади” [1].

Туркий халқларнинг муштарак тарихида илк ўрта асрларнинг дастлабки даврларида ҳукм сурган, шонли ўтмишнинг таркибий қисми бўлмиш Турк хоқонлиги Марказий Осиё халқлари, жумладан, ўзбек халқи давлатчилиги тарихида муҳим ўрин эгаллайди. Осиё халқлари ўзаро яқинлашув, чуқур интеграциялашув жараёнларини бошдан кечириш билан биргаликда, ўз давлатчилик анъаналарини янада мукаммаллаштиришга интилаётган бир паллада, мазкур минтақанинг катта қисмини ўзида бирлаштирган Турк хоқонлигининг ҳарбий, сиёсий, маъмурий, қолаверса ижтимоий ҳаётини ўзида акс эттирган битиклардаги терминлар тизимини атрофлича ёритиш долзарб масалалардан саналади.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Турк хоқонлигининг ҳарбий давлат тузуми ва унинг терминологик тизимни касб этишини илмий тадқиқ этиш бир қанча тадқиқотчиларнинг ишларида ўз аксини топган. Шаванн, Г.Дёрфер, Г.Ж.Рамстедт, О.Прицак, Н.Бернштам, Л.Н.Гумилев, Н.А.Баскаков, С.Г.Кляшторнй, И.Н.Шервашидзе, Ю.А.Зуев, Б.Огел, А. Бомбачи ва бошқалар ўтган асрда ўз тадқиқот ишларида Турк хоқонлигининг ҳарбий бошқарув тизимини ўзида акс эттирган термин ва унвонларга оид масалалар билан шуғулланган ёки қадимги туркий унвонларнинг айримларини алоҳида кўриб чиққан. Бугунги кунда хоқонлик тарихини ўрганиш билан алоҳида шуғулланаётган замонавий туркий тарихчи олимларнинг тадқиқотларида ҳарбий термин ва туркий унвонларга ҳам маълум даражада эътибор қаратилаётганини кузатиш мумкин. Улар орасида С.Г.Кляшторнй, И.В.Кормушин, А.Донук, Ф.Шумер, С.Гомеча, И.Тоган, Э.Эркоча, Ҳ.Ш.Фойдаланувчи, П.Б.Олтин, Ф.Рйбацкий, Х.Дадабоев, М.Исҳоқов, Ш.Камолиддин, Ғ.Бобоёров ва бошқалар соҳа терминологиясига оид тадқиқотлар олиб

борган. Олимнинг ишига моддий, Бақтрия сўғдий ҳужжатлари етарли даражада жалб қилинган.

Туркий халқлар тарихининг илк тадқиқотчиларидан бўлган В.В.Бартольднинг Турк хоқонлиги тарихини ёритишдаги хизмати каттадир. Олим биринчилардан бўлиб, Ўрхун битиктошларидаги маълумотларни хитой, араб ва бошқа манбалар билан солиштирган ҳолда хоқонлик тарихининг муаммоли жиҳатларини муваффақиятли равишда очиб бера олган. Хусусан, у ўзининг “Қадимги туркий битиклар ва араб манбалари”, “Ўрхун битиклари ҳақида янги тадқиқотлар” [2] каби илмий тадқиқотларидаги баъзи фикрлари Турк хоқонлиги тарихини ёритишда ўзига хос ўрин тутади. Бевосита қадимги туркий тилдаги унвонлар бўйича тадқиқот олиб борган олимлардан В.Рибацкийнинг ишлари ҳам эътиборга молик. У ўзининг бир қанча ишларида Турк хоқонликлари ва Уйғур хоқонлиги, қолаверса мўғуллар давлат бошқарувидаги бир қанча туркий унвон, эпитетларнинг генезиси ва семантик-функционал жиҳатларига кенг тўхталади.

Шунингдек, Турк хоқонлиги тарихи бўйича қарийб 50 йилдан бери шуғулланиб келган С.Г.Кляшторный ва америкалик туркологлар П.Б.Голден, Ж.К.Скэффлар ҳам бу борада сезиларли тадқиқотлар олиб боришган. Шунингдек, шарқлик тадқиқотчилардан япониялик эроншунос олим Ё.Ютака суғдий ва бақтрий тилли ҳужжатлардаги айрим атама ва ибораларни тўғри ўқиб, уларнинг хоқонлик билан алоқадорлигини аниқлади [3]. Хитойлик тадқиқотчилардан Ҳ.Ванг ва Ш.Луонинг тадқиқотлари алоҳида ажралиб туради. Жумладан, Ш.Луо қадимги туркларда қўлланилган унвонлар масаласига бағишланган махсус монографиясида хоқонлик бошқарувига хос айрим унвон ва эпитетларга тўхталиб ўтади [4].

Тадқиқот методологияси. Туркий эл-улуслар тарихда Узоқ Шарқдаги Боҳай денгизидан тортиб Можор даштларига қадар кенг жуғрофияда ҳукмронлик қилган ва бугунги кунда ҳам, деярли ушбу минтақада яшамоқда. Хоқонликнинг ўз вақтида дунёнинг энг йирик давлатларидан бирига айланиши асосида унинг ҳарбий жиҳатдан бошқаларга нисбатан анча устунликка эга бўлганлиги омили ётади. Хоқонликнинг бу хусусияти кўпчилик тадқиқотчилар томонидан эътироф этилган бўлиб, бу борада кўплаб фикрлар билдирилган. Жумладан, Л.Гумилевнинг таъкидлашича, “Туркутлар (Турк хоқонлиги) зафарлари ва дунёнинг ярмига эгалик қилиши тасодифий ҳодиса эмас эди. Улар кўчманчилик савиясидан анча юқори бўлган шундай бир қўшин ва идора тизими яратдиларки, шунга муносиб равишда ғалабаларга ҳам эришди, деб айтиш мумкин” [5]. Шунингдек, Ўрхун-Энасой руник битиклари, хитой ва бошқа тарихчилар қаламига мансуб тарихий асарлар шундан далолат берадики, қадимги туркий қабила ва уруғлар кўпдан-кўп ҳарбий ҳаракатларда бевосита иштирок этган.

Биз қадимги туркийларнинг ҳарбий соҳадаги муваффақиятлари, ҳарбий-сиёсий давлат тузуми, умуман соҳадаги кечмишини тилшунослик нуқтаи назардан илмий асосларда ёритишни ўз олдимизга мақсад қилиб қўйган эканмиз, биз буни бутун бир терминологик тизимда кўриб чиқишга ҳаракат қилдик. Ҳар бир терминнинг семантик-функционал ва этимологик жиҳатларини нафақат Турк хоқонлиги давридаги ҳолатини, қолаверса кейинги туркий ва ғайри туркий сулолалар, шунингдек ҳозирги давр туркий давлатлар ҳарбий лексикаси мисолида кўриб чиқдик. Чунки, “ҳарбий терминология ҳарбий билимнинг, кенгроқ маънода эса ҳарбий ишнинг тушунча аппаратини акс эттирувчи “тилдаги ҳарбий терминларнинг тартибга келтирилган жамланмаси” ва қуролли кучлардан стратегик мақсадларда фойдаланиш, шунингдек ҳарбий бўлимлар, қисмлар ва бўлинмалар, уларни ташкил қилиш, қуроллантириш ва техника билан таъминлаш, оператив-тактик жиҳатдан фойдаланиш, улар билан боғлиқ бўлган жангни олиб бориш шакллари ва усуллари сифатида белгилаб беради” [6]. “Ҳарбий терминология фақат айрим терминларнинг катта қисми ва улар орасидаги муносабатлар жамланмаси эканлигини асослаш учун эмас, балки ҳарбий терминологиянинг айнан тизимда қандай шакллантирилганлигини аниқлашга ёрдам беради” [7].

Таҳлил ва натижалар. Сиёсий-ҳарбий терминлар ҳудудий жиҳатдан кенг территорияни бошқарган давлатлар учун катта аҳамиятга эга. Тарихий ривожланишга эга бўлган жаҳон давлатларида сиёсий-ҳарбий атамалар ҳукмрон табақа ва ҳукмронлик ўртасидаги туб боғлиқликни кўрсатади. Қадимги туркларда давлат тузилиши ҳарбий характерга эга эди. Тошбитиклар, дастлабки ёзма ҳужжатлар сифатида туркларнинг сиёсий ва ҳарбий ҳаётидаги илк намуналардир. Жанговар бошқарувда қўшинларнинг ташкил этилиши, бошқарилишида, жанговар тактиканинг ривожида ҳарбий терминлар муҳим аҳамиятга эгадир. Битиктошлардаги давлатнинг ҳарбий-сиёсий тизими билан алоқадор гуруҳга әл (эл, давлат, халқ); әллиг (эли ва давлати бор қабила ёки халқ); баз (тобе, қарам); бәглик (бек бўлишга лойиқ); ич (махфий(лик); ичрә (махфий маълумот, сиёсий марказ); ичрәки (саройга оид; сиёсий марказ); таш (ташқари) сиёсий марказнинг ташқариси); төрӱ(г) (қонун-қоида, ҳукумат); қанланты (хонли(к) бўлди); қағанлық (хоқонли, хоқони бор, мустақил) каби терминларни киритиш мумкин.

әл – “эл, давлат, халқ”; әллиг – (әл-лиг) “эли ва давлати бор қабила ёки халқ”. Битиклар даври туркий тилида элбилга, элтариш, эл этмиш, элтабар каби унвон ва номларда ушбу сўзни кўришимиз мумкин: элсира – “юртсиз қолмоқ”, элиг (эллиг) – “давлати бор, ҳукмдор”, элли – “давлат ҳолига келтирмоқ, давлат қурмоқ” каби терминлар ҳам ушбу сўздан шаклланган.

Ўрхун-Энасой битиктошларидан маълум бўлишича, қадимги туркларда сиёсий уюшма сифатида “давлат” маъносида эл сўзи ишлатилиб, ушбу сўз остида давлатни ташкил этувчи асосий унсурлар; тўру – ҳокимият/қонун, улуш – мамлакат, будун – халқ тушунилган [8]. Ҳатто, асосий маъноси “давлат” бўлган эл атамаси давлатни ташкил қилувчи ушбу уч унсурнинг ҳар бири билан тенг маъно берувчи синоним сўз сифатида ҳам қўлланилган [9]. Яъни эл ўрни келганда “мамлакат” ёки “халқ” маъносида ҳам ишлатилган. Бироқ Ўрхун битиктошларида ушбу сўз, асосан, “давлат” маъносида қўлланилиб, “халқ” мазмунида доимо будун сўзи қўлланилгани кўзга ташланади [10].

Ушбу сўз тадқиқотларда “мамлакат, ўлка, ватан, давлат тузуми” маъноларида изоҳланган. Термин илк марта Жуан-жуанлар томонидан ишлатилгани ва манбаларда икки ўринда қайд этилган. Бошқа бир манбага кўра, “Кўк туркларга бўйсунган Жуан-жуан устидан қозонилган ғалаба натижасида биринчи Кўк турк хоқонлиги асосчиси (буюк Ябғу Т’у-w’у) Бумин хоқон Или к’о-ҳан (Илиг хоқон – элли, давлатли хоқон) унвонини олади [11]. Ушбу номнинг Кўк турк хоқонлари томонидан қабул қилиниши уларнинг давлат ва давлатчилик борасида мустақил эканлигидан далолат беради[12].

Битиктошларда учрайдиган “давлат” маъносидаги эл сўзи билан боғлиқ қуйидаги маълумотлар учрайди: “Ўтукан йыш олурсар бенгу эл тута олуртачы-сан”; “билгэ Тонйуқуқ бән өзvм Табғач әлингэ қылынтым”; “Турк қара қамуғ будун анча темиш: “эллиг будун эртим, элим амты қаны” [13].

Ушбу сатрлардан маълум бўладики, эл – давлат нафақат ҳукмрон табақа манфаатига хизмат қиладиган

сиёсий ташкилот бўлиб қолмасдан, балки у умумхалққа ҳам тегишли деб билинган. Хусусан, хоқонлар буюртмаси ва хоҳиши билан ёзилган битикларда “Турк фуқароси, барча халқ шундай дебди: “Давлатли халқ эдим, давлатим энди қани?” шаклида жумлаларнинг учраши буни тасдиқлайди [10]. Габаин томонидан “ҳукмдор” деб тушунилган [14] ушбу сўзни Клаусон, даставвал “давлат эгаси бўлган, давлатли”, шунингдек “ҳукмдор, қирол” маъноларида талқин қилган. Сўз XI аср матнларидан ДЛТда ҳам ël-ил – “эл, мамлакат, юрт”; “ҳокимият”; “шаҳар”; ҳамда “икки хоқон ўртасидаги келишув, битишув” маъноларида тилга олинади [15].

Битикларда эллиг сўзи “эл, халқ, давлат, эл-давлатли қабила ёки халқ” маъноларида қўлланилган. Эллиг термини Кўк турк, уйғур, Енисей ва Олтой ёзувларида учрайди. Кул Тегин ва Тўнюқуқ ёзувида қуйидагича тасвирланган: “тәнгри йарлықадуқ vvvn әллилиг әлсирәтмис, қағанлығыг қағансыратмыс йағыг баз қылмыс” [15].

Хоқонликдаги қабилалар иттифоқи, яъни турк қара қамағ будун – “Турк (хоқонлиги) фуқароси” буд (қабила) ва ўғуш (уруғ)лардан ташкил топган бўлиб, сиёсий жиҳатдан “эл”га уюшган эди. Қабила-уруғ уюшмасиқ (будун) ва ҳарбий-маъмурий ташкилот (эл) пухта ва мустаҳкам ижтимоий муносабатлар билан ўзаро бир-бирини тўлдирарди. Ўрхун битиктошларида учрайдиган ибора билан айтганда хоқон “эл (давлат) тутиб турган ва халқни бошқарар” [16] эди.

Сиёсий ташкилот – давлатнинг бошқа бир давлатга сиёсий тобелигини англатган термин баз – “тобе, қарам” истилоҳидир: “тәнгри йарлықадуқ vvvn әллилиг әлсирәтмис, қағанлығыг қағансыратмыс йағыг баз қылмыс” (КТ-15); “бодунуғ қоп баз қылтым” (КТ-30). Баз сўзи ушбу жумлаларда муайян давлатларнинг сиёсий ёки ҳарбий жиҳатдан Турк хоқонлигига қарам бўлгалигини англатмоқда. Шунингдек, Тес битигида ушбу сўзнинг базлан – “тобелан” шакли тилга олинади: “Табғачқа базланмыш – Хитойга тобе бўлибди”. Шунингдек, битикларда тилга олинган Баз хоқон ҳам “Тўққиз Ўғузларнинг тобе хоқони” маъносидадир. Ушбу лексема “Девону луғоти-т-турк” ва “Қутуадғу билиг”да “ажнабий, бегона, ёт” маъноларида қўлланилган: “йат баз йадылды – бегоналар бир-биридан айрилди” [15], “Azaq jat baz ersä ajïtγu keräk – Адашган ёт, бегоналар бўлса, сўраб-суруштириш керак”.

Битиклардаги ич ўзаги билан шаклланган бир нечта терминлар борки, булар ич – “ким ёки ниманингдир ичи; махфий(лик)”; ичрә – (ич-рә) “махфий маълумот, сиёсий марказ”; ичрәки – (ич-рә-ки) “саройга оид; сиёсий марказ” истилоҳларидир. Лексемалар Кўк турк, Уйғур ва Енисей ёзувларида мавжуд. “улайу буйруқ ... ич буйруқи Бег Кул” (БХ-14); “ичрәки бәдvзчиг ыты” (БХ-14); “Табғач қағанынг ичраки бәдизчиг ыт(т)ы” (Т-12). Ушбу манбалардаги ич//ичра лексемалари олий ҳукмдорга алоқадор, асосан саройга оид бўлган тушунчаларга ишора қилмоқда. Ҳ.Ширин, манбаларда қўлланилган ич//ичра терминларининг биринчи маъносини “сирли, давлат, уруш ва махфийликни ўз ичига оладиган”; иккинчи маъносини “сиёсий марказ, маъмурий марказ” сифатида изоҳлайди [17]. Бу ҳақиқатга яқиндир, чунки ундан кейинги айрим туркий давлатларда сиёсий-маъмурий марказ ҳисобланмиш сарой ич(ки), жумладан, Озарбайжон Ширвоншоҳларида ҳукмдор қароргоҳи “Ичеришеҳер” (“Ички шаҳар”), Хива хонлигида эса худди шу ҳудуд “Ичан (ички) қалъа, ундан ташқаридаги ҳудуд “Дишан (диш-таш) қалъа” деб аталган. Усмонлиларда қўлланилган ич ағаси “сарой ичи хизматчилари”, ич оғлани “сарой хизматига олиниб, давлатнинг турли лавозимлари учун тайёрланадиган ёш (йигит)” каби терминларда ҳам ич сўзининг эски туркчадаги маънолари бўртиб турибди. Клаусон таъкидлашича, ич сўз дастлаб “инсон танасининг ички қисми” сифатида ишлатилган бўлса-да, вақт ўтиши билан мавҳум маъноларга эга бўлди ва “ичкарида ёки ичкаридаги нимадир” деган маънони англатган [18].

Тўнюқуқ ёзувида яна қуйидагича тасвир бор: “апа тарқанғару ичрә саб ыдмыш” (БХ-34). Бу ерда ичра ҳарбий термин сифатида юқоридаги фикрларнинг давоми ўлароқ ҳарбий сирни ифодаламоқда. Ўзбек тилида “ичра” сўзи асосан шеърият тилида “ичкарида ва ўртасида” маъносидаги қўмакчи сифатида ишлатилади (ЎТИЛ II, 252). Маҳмуд Кошғарий “ДЛТ”да ич сўзини “ҳар бир нарсанинг ичи” деб таърифлайди (15). Ўзбек туркчасида ич сўзи умумий маънода “бирор кимнинг ёки бирор нарсанинг ўртаси ва ичи” маъноларидадир(ЎТИЛ II, 252). Клаусон ичрә сўзини “яширин ва жисмоний бўлмаган ақлий жараён” деб изоҳлайди [18]. Ғарбий Турк хоқонлигининг марказий бошқарувида сарой амалдорлари – ичраки деб аталган. Хоқонликдаги ташкил этилган мавжуд икки қанот 2 нафар шаҳзода – шад орқали бевосита ябғу/ябғу-хоқон/хоқон бошчилик қиладиган марказий аппарат – ичракига бўйсунарди [10]. Термин ДЛТда икки ўринда тилга олинади: эр ичикти – “одам жангда таслим бўлди ва қарши тарафдаги душман қўшинига қўшилди”; эри ати ичикди – “аскари ва оти таслим бўлди” [15].

ичгер – (ичик-эр) “тобе қилмоқ, қўл остига олмоқ” ҳарбий термини Билга хоқон, Шине Усу, Тарят битикларида (Кул Тегинда учрамайди) тилга олинади: “tvрк бодунуг анта ичгәртим – Турк халқини ўшанда қўлга олдим” (Тар-8). Маҳмуд Кошғарий ушбу лексемани асл маъносини “ичкарига киргизмоқ” ва кўчма маъносини “махфий шикоят қилмоқ” маъносида қайд этади: “ол атын эвке ичгерди – у отни чодирга киргизди”; “ол аны бегке ичгерди – У, уни бекка махфий шикоят қилди”.

Яна бир термин таш – (ташқари) “сиёсий марказнинг ташқариси”дир. Ж.Клаусон “таш” сўзини турк тилларида “ташқари, ташқарида” маъноларида келишини айтади [18]. Маҳмуд Кошғарий ДЛТ-даги таш сўзини “таш, ташқари” деб таърифлайди: таш ерни “очиқ ер ва хорижий ўлка” маъноларида изоҳлайди. Ширин таш сўзини “сиёсий марказнинг ташқариси” деб таърифлайди [17]. Лекин “таш” сўзининг битикларда “сиёсий марказнинг ташқариси” маъносида қўлланилиши ўлароқ, Ўзбекистоннинг давлат тузилишида ҳам мамлакат ички масалаларидан ташқаридаги ҳолатлар “Ташқи ишлар вазирлиги” томонидан амалга оширилади. Шунингдек, битикларда “сиёсий марказ” маъноларида қўлланилган “ич” сўзида ҳам айни шу ҳолатлар билан алоқадордир. Термин Кўк турк, уйғур ва Енисей ёзувларида учраб, Кул Тегин ёзувида қуйидагича тасвирланган: “анча қазғанмыс, әтмис әлимис төрvмиз әрти. Tvрvк оғуз бәгләри бодун, әсидинг! vзә тәнгри басмасар, асра йәр тәлинмасәр, tvрvк бодун, әлингни төрvнгин ким артаты?” (КТ-22). Жумладан кўриниб турибдики, тўрў сўзи “давлат асосчилари томонидан ўрнатилган қатъий тизим, ҳукумат” маъносинда келмоқда. Умуман “тўрў” сўзи руник матнларда асосан “қонун” ва “адолат” деган маъноларни англатади. Битикларда ушбу терминнинг хоқон, бодун, ил – эл сўзлари билан бирликда келиши тўрўнинг давлат, йўлбошчи ва халқ тушунчалари билан узвий алоқадор эканлигидан далолат беради. Яъни, тўрў – давлат қурилиши, хоқоннинг тахтга чиқиши ва халқнинг барқарорлигининг манбайи эди [17]: “ол төрvдә vзә әчим қаған олурты” (КТ-16). Қадимги туркларда хоқонга тегишли бошқа сифатлар қаторида тўрўга ҳам унга берилган илоҳий тушунча сифатида қаралган: “vзә көк тәнгри йарлыкадук vvvn асра йагыз йәр игиттvк vvvn әлимин төрvмин әтинтим – юқорида кўк осмон лутф

этгани учун ерда қора тупроқ тарбиялагани учун ўлкамни ва тўрў – ҳукуматимини тартибга солдим”.

Клаусон төрўни “турк кўптангрилик даврида ёзилмаган анъанавий қонунлар мажмуйи” деб тушунтиради. Унинг сўзларига кўра, бу диний атама сифатида Буддист ва Маникян (Маниҳеист) уйғурлари даврида миссионерлар томонидан диний ақидалар, буйруқлар ва қонунларни белгилаб берадиган қоидалар маъносида ишлатилган [18]. Шунингдек, бошқа бир манбага кўра, “тўрў” термини Турк давлатидаги халқнинг талаблари, оммавий ҳуқуқини, ҳукмдорнинг вазифаларини белгиловчи ва жиноий қоидалар сифатида қабул қилинадиган низомлар ҳамда эски турк ижтимоий ҳаётини тартибга соладиган мажбурий “қоидалар мажмуйи” сифатида тилга олинади. Тўғри, чунки ундан кейинги манбалар, жумладан, “Қутадғу билиг” ва “Девону луғотит-турк”да термин айнан шу маънодадир. төрў сўзи “Қутадғу билиг”да деярли худди шу маънода икки шаклда учрайди: “Qaju elkä tegsä meniŋ bu töräm ol el barča etlür – Менинг бу қонун-қоидаларим қайси элга етиб борса, ўша давлат тўғриланади” (QBH, 3414); Törü birlä atïn qopurdï törü – Адолат ила номини юксалтирди”(QBN, 2015). Асарда ушбу сўздан ясалган törülüg (адолатли, одил: “Törülüg köni beg qut ol belgülüg – аниққи, адолатли, тўғри бек – бахтдир” (QBK, 2022) ва törüsüz (адолатсиз) сўзлари ҳам учрайди. Термин ДЛТда ҳам мавжудки, бу ерда ҳам айнан Кўк турк битикларидаги маъносидадир. Маҳмуд Кошғарий сўзни “қонун-қоида, адолат; расм, одат” маъноларида [15] изоҳлайди. Қолаверса, айни давр Усмонли туркчасида ҳам ушбу термин бевосита юқоридаги маъноларида истифода этилади.

Шунингдек, битикларда қағанлығ – хоқонлик термини ҳам учрайдики, манбаларга кўра бу сўз “хоқонли, хоқони бор, мустақил” маъноларини ифодалаган [17]. Бу сўз фақатгина Кўк Турк матнларида қайд этилган ва Тўнюқуқ битигида қуйидагича тасвирланган: “нәнг йәрдәки қағанлық бодунқа әбун тvги бар әрсәр, нә бунгы бар әртәчи әрмиш?!” (T-56-57).

Хулоса ва таклифлар. Турк хоқонлиги тарихини ҳарбий-сиёсий ва ижтимоий-идоравий термин ҳамда унвонлар мисолида тадқиқ қилиш тарихимизнинг бир қатор мавҳум жиҳатларини ёритишга ёрдам беради. Хусусан, минтақадаги туркий тилнинг тарихий ривожи, қолаверса туркий давлатчилик тарихини ўрганишда хоқонлик даврига оид адабий-лингвистик манбаларга мурожаат қилиш ўзига хос аҳамиятга эга.

АДАБИЁТЛАР

1. Мирзиёев Ш.М.нинг 2019 йил 21 октябрдаги “Ўзбек тилига давлат мақоми берилганлигининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросим”да сўзлаган нутқи.
2. Бартольд В. В. Древнетюркские надписи и арабские источники // Сочинения, V. – М., 1968. – С. 284-311; Новые исследования об орхонских надписях // Сочинения. – М., 1968. – Том V. – С. 312–328.
3. Yoshida Y. On the Origin of the Sogdian Surname Zhaowu and Related Problems // JA. – Paris, 2003. – Tom 291. – P. 35–67.
4. Luo X. Studies on the Titulary of Medieval Inner Asian Peoples. – Peking University Press, 2009.
5. Гумилев Л. Н. Қадимги турклар. – Т., 2007. – 498 б.
6. Шевчук В.Н. Военно-терминологическая система в статике и динамике: Дис. . д-ра филол. наук. –М., 1985. – 488 с. Б. 19
7. Курганов А.М., Ҳарбий терминларнинг ишлатилиши ва улардаги ўзгаришларнинг ўзига хос хусусиятлари. “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнал № 4 (23)/ 2018. Б.77
8. Kaşıkçı O. Eski Türklerde Devlet Başkanlığı – Hakanlık // TÜRKLER. – Ankara, 2002. – Cilt 2. – S. 888.
9. Древнетюркский словарь. – Л., 1969. – С. 168–169.
10. Бобоёров Ғ., Ғарбий турк хоқонлигининг давлат тизими. Тарих фанлари док. дис. – Тошкент, 2012. – 380 б.
11. Golden P. B. Hazar Çalışmaları. Çev. E. Ç. Mızrak. – İstanbul: Selenga, 2006. – 384 s.
12. Saffet Yilmaz. Eski Türk Runik Harfli Metinlerdeki Askerî ve Siyasî Terimler ile Unvan Niteleyicilerin Özbek Türkçesindeki İzleri. International Journal of Humanities and Education. 260-296, 271
13. Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – 166 б.
14. Gabain A. von. Eski Türkçenin Grameri. Türkçe çev. M. Akalın. – Ankara: TTK, 1988. – 313 s.
15. Кошғарий, Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону-луғотит-турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 3 томлик. – Т.: Фан, 1960–1963. I, 83-3; 79-19; 336-17; II , 32-23
16. Марков Г. Е. Кочевники Азии. – М.: Изд-во Московского университета, 1976. – С. 47–48.
17. Şirin, H. (2006), “Eski Türkçede Bazı Unvanların Yapısı Üzerine”, Bilig 39, 219- 238.
18. Clauson G. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. – Oxford, 1972.
19. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.– Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. II. – 671 б.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 81.13

Shaxnoza JUMAQULOVA,
Termiz davlat universiteti, stajyor-tadqiqotchi
E-mail: shaxnoz2023@mail.ru

filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) A.E.Xudayqulov taqrizi ostida

INGLIZ TILIDA “XURSANDCHILIK” ETIMONLARINING FRAZEO-SEMANTIK MAYDONI

Annotatsiya

Mazkur maqolada etimologik tahllil qilingan so'zlarga ega frazeologik birliklar tizimli ravishda o'rganilishi bayon etilgan. Kelib chiqish tarixi o’rganilgan so’zlar sifatida “xursandchilik” etimonlari tanlab olingan. Mazkur etimonlar qo’llanilgan frazeologik birliklar tahlil qilingan hamda frazeo-semantik maydoni aniqlangan.

Kalit so’zlar: etimologiya, etimon, frazeologizm, maydon, semantik maydon, frazeo-semantik maydon.

ФРАЗЕО-СЕМАНТИЧЕСКОЕ ПОЛЕ ЭТИМОНОВ “РАДОСТ” В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье описано систематическое изучение фразеологизмов с этимологически анализируемыми словами. В качестве слова, история происхождения которых изучалась, были выбраны этимоны «радость». Проанализированы фразеологизмы, в которых употребляются эти этимоны, и определено фразео-семантическое поле.

Ключевые слова: этимология, этимон, фразеология, поле, семантическое поле, фразео-семантическое поле.

PHRASEO-SEMANTIC FIELD OF “JOY” ETYMONS IN ENGLISH

Abstract

This article describes the systematic study of phraseological units with etymologically analyzed words. The etymons of “joy” was chosen as the words which origin history was studied. Phraseological units where these etymons were used were analyzed and the phraseo-semantic field was determined.

Key words: etymology, etymon, phraseology, field, semantic field, phraseo-semantic field.

Kirish. Insonlar so’zlashar ekan o’z fikrlarini, mulohazalarini har xil so’zlar bilan ifodalaydi. Bu so’zlarning ayni o’sha vaqtda qo’llanilish davri bilan paydo bo’lish davri oralig’ida vaqtlar o’tsa ham uning ifodalanishida dastlabki holatinining ta’siri seziladi. Shu kabi mazmundor so’zlar qo’llanilgan frazeologizmlar nutqning uslubiy bo’yoqdorligini oshirib, uning mazmunini obrazli ifodalashda yordam beradi. Bu kabi frazeologizmlarni umumiy tomonlari o’rganilib frazeo-semanik maydon tadqiq etilishi tilshunoslikda alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tilshunoslikda frazeo-semantik maydon tushunchasi maydon nazariyasi bilan bog’lanadi. I.I.Sinnelnikova va S.A.Androsovalarning so’zlariga ko’ra, J.Trier qarashlarida maydon bir-biri bilan mazmunan chambarchas bog‘langan va o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bir-birining ma’nosini oldindan belgilab beruvchi so‘zlar turkumi [9] ekanligi aks etadi. J.Trier semantik yoki konseptual maydon ostida kontseptual maydon, tilning konseptual mazmun doirasi degan ma’noni anglatishini, L.Vaysgerber tilning kontseptual mazmunining bir qismi, V.Portsig ma’nolarning asosiy bog’lanishlari ekanligini A.A.Ufimseva ta’kidlaydi [10].

S.Ye.Chernobay va T.A.Fukovalar frazeo-semantik maydonni umumiy ma’no bilan birlashtirilgan va belgilangan hodisalarning kontseptual o’xshashligini aks ettiruvchi frazeologik birliklar to’plami bo’lib, frazeo-semantik maydon doirasida kichik maydonlar va mikromaydonlar ajralib turishini [11] o’z mulohazalarida ifodalaydi. Shunday ekan, ushbu maydonda frazeologizmlar o’ziga xususiyatlari jihatdan ajratiladi. Sh.Rahmatullayev frazemani kamida ikki leksemadan tarkib topishini ta’kidlaydi [6]. Frazeologik birliklarni tilshunos olim A.A.Abduazizov uch turli ya’ni frazeologik qo‘shilmalar tarkibidagi bir so‘z to‘g‘ri, ikkinchi so‘z esa ko‘chma ma’noda bo‘lib birikkan iboralar; frazeologik butunliklar tarkibidagi so‘zlarning ma’nolari va grammatik jihati birikib umumiy ko‘chma ma’no beruvchi iboralar; frazeologik chatishmalar tarkibidagi so‘zlarning ma’nolari bilan ibora ifoda etgan ma’no o‘rtasida hech qanday leksik aloqa sezilmagan frazeologizmlar hisoblanadi [1].

Shuningdek, etimologiya va etimon xususida ko’plab olimlar tomonidan tadqiq etilmoqda. M.T.Irisqulov etimologiyani so’zlarning kelib chiqish tarixini o’rganuvchi fan hisoblab, bu so’z grekcha “etymologia”, ya’ni “etymon” – “haqiqat” va “logos” – “so’z” birikmalaridan tashkil topganligini nazarda tutadi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada frazeo-semantik maydonda “xursandchilik” etimonlari qo’llanilgan frazeologik birliklar tizimli ravishda o’rganiladi. Ushbu iboralarda qo’llanilgan “xursandchilik” etimonlarning ahamiyati tahlil qilinib, frazeologik birliklar frazeo-semantik maydonda tasvirlanadi. Frazeo-semantik maydon mikro-maydonlar bo’lingan holda o’rganiladi hamda “xursandchilik” etimonlari frazeologik birliklarda tahlil qilinadi va ularning ahamiyati yoritib beriladi.

Tahlil va natijalar. Ingliz tilida “laugh”, “joy”, “happy”, “joke” kabi xursandchilikni ifodalovchi leksemalar mavjud. Ularning etimologiyasi turli xil davrlar hamda turli tillar bilan aloqador.

Laugh leksemasining kelib chiqish tarixi Angliyada qadimgi ingliz davri bilan bog’lanib, hlæhhan shaklida uchragan va “make the characteristic noise expressive of mirth” ma’nosini ifodalagan [8].

Shuningdek, “xursandchilik” tushunchasini anglatuvchi leksemalardan biri joy XIII asrda qadimgi fransuz tilidan “joie, joye” so’zlaridan olingan bo’lib, u lotin tilida gaudia va ko’plik shakli gaudium tarzida joy ma’nosini bildirib rivojlangan va asli gaudēre so’zidan shakllangan [8].

Happy leksemasi qadimgi ingliz davrida XIII asrda ġehæp(lić) so’zi “fitting, convenient” ma’nolarida qo’llanilgan va keyinchalik qadimgi Nors tilida happ tarzida shakllanib, “chance, good luck” ma’nolarida ifodalangan [7].

Joke leksemasi XVII asrda lotin tilidagi jocus etimonidan olingan va u “word-play, jest” ma’nolarini anglatgan [7].

Mazkur “xursandchilik etimonlar qo’llanilgan frazeologizmalr quyidagilar hisoblanadi: laugh your head off, a laugh a minute, no laughing matter, many happy returns (of the day), a/the happy medium, take a joke, something is no joke, jump for joy. Ushbu frazeologizmlar “xursandchilik” etimoniga ega, shu nuqtai nazardan, ularning umumiylik xususiyatiga ko’ra frazeo-semantik maydon sifatida qarash mumkin. Mazkur frazeo-semantik maydon quyidagi frazeologizmlarni o’z ichiga olgan mikromaydonlarga bo’lingan holda tahlil qilinadi:

Laugh – laugh your head off, a laugh a minute, no laughing matter;

Happy – many happy returns (of the day), a/the happy medium;

Joke – take a joke, something is no joke;

Joy – jump for joy.

Laugh your head off frazeologizmi “to laugh very loudly and for a long time” [3] ma’nosini ifodalaydi va “juda baland va uzoq vaqt davomida kulmoq” tarzida tarjima qilinadi. Ushbu iborada “laugh” xursandchilik etimoni o’z ma’nosini laugh your head off frazeologizmida aks ettirgan.

A laugh a minute frazeologizmi “very funny” [5] izohiga ega bo’lib, “juda kulgili” degan ma’noni anglatadi. “Laugh” xursandchilik”etimoni ushbu iborada o’z manosini saqlab qolgan.

No laughing matter frazeologizmi “something serious that should not be joked about” [5] ya’ni “hazil qilmaslik kerak bo'lgan jiddiy narsa” ma’nosini anglatadi. Mazkur frazeologizmda “laugh” xursandchilik etimonining ma’nosi ifodalanmagan.

Many happy returns (of the day) frazeologizmi “have a long and happy life (said on someone’s birthday)” [4] ma’nosini bildirib, “umringiz uzoq va baxtli bo’ling (biror kishining tug’ilgan kunida aytiladi)” tarjimasini beradi. Ushbu iborada “happy” xursandchilik etimoni qo’llanilib, uning ma’nosi frazeologizm ma’nosida lingvokultrologiyasi bilan bog’lagan holda ta’sirini sezish mumkin.

A/the happy medium frazeologizmi “something that is in the middle between two choices or two ways of doing something” [3] tarzida izohlanib, “ikki tanlov yoki biror narsani qilishning ikkita usuli o’rtasida joylashgan narsa” ma’nosini anglatadi. Mazkur iborada “happy” xursandchilik etimoni qo’llanilib, u o’z manosini saqlamagan.

Take a joke frazeologizmi “to be able to laugh at a joke against yourself” [3] ya’ni “o’ziga qarshi qilingan hazildan kula olish” ma’nosini anglatadi. Bunda “joke” xursandchilik etimoni mohiyati iboraning majoziy ma’nosida ifodalanadi.

Something is no joke frazeologizmi “used to emphasize that a situation is serious or that someone really means what they say” [12] ma’nosini ifodalab, vaziyat jiddiy ekanligini yoki kimdir haqiqatan ham aytganlarini anglatishini ta’kidlash uchun ishlatiladi va ushbu iborada “joke” xursandchilik etimoni qo’llanilsa-da, uning ma’nosi ifodalanmaydi.

Jump for joy frazeologizmi “to be very pleased” [3] izohiga ega bo’lib, “juda mamnun bo’lish” ma’nosini anglatadi va mazkur iborada “joy” xursandchilik etimoni qo’llanilib, uning ma’nosi frazeologizm majoziy ma’nosida aks etadi.



1-rasm. “Xursandchilik” etimonlari qo’llanilgan frazeo-semantik maydonning xursandchilik ma’nosi ahamiyatiga ko’ra mikromaydonlarga bo’linish tahlili.

Mazkur frazeo-semantik maydon 4 ta mikromaydonga bo’linib, ularga oid frazeologizmlar aniqlandi. Ushbu frazeologizmlarda “laugh”, “joy”, “happy”, “joke” kabi xursandchilik etimonlari qo’llanilib, ularning ahamiyati aks etishiga ko’ra ajratiladi. Quyidagi laugh your head off, a laugh a minute, no laughing matter, many happy returns (of the day), a/the happy medium, take a joke, something is no joke, jump for joy frazeologizmlardan laugh your head off, a laugh a minute, many happy returns (of the day), take a joke, jump for joy kabilarda “xursandchilik” etimonlarining ma’nosi saqlangan bo’lsa, no laughing matter, something is no joke, a/the happy medium kabi frazeologizmlarda ushbu etimonlarning ma’nosi ifodalanmaydi (1-rasm).

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi ma’lumotlarni umumlashtirib shuni xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi kunda qo’llaniladigan leksemalarning etimologiyasini o’rganish uning frazeologizmlar ma’nosida aks etishi yoki ta’sir etmasligini tadqiq etishda muhim o’rin tutadi. Ushbu tadqiqot davomida “xursandchilik” etimonlarining kelib chiqish tarixi hamda ma’nosi, shuningdek, ular qo’llanilgan frazeo-semantik maydon o’rganildi. Tahlil natijalaridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, frazeologizmlarda ularning ma’nosi iboraning majoziy ma’nosida ta’siri mavjudligi hamda ba’zi etimonlarning etimologiyasi o’rganilishi natijasida ta’siri yo’qligi isbotlandi. Bundan ma’lum bo’ladiki, leksemalarning etimologiyasini frazeologizmlar misolida o’rganish, frazeo-semantik maydonda tizimli tasnif etish keyingi tadqiqotlarda frazeologiya hamda etimologiya sohasining dolzarb muammolarini yoritib berishda ahamiyatli hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – T.: Sharq, 2010. – B.79.
2. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – T.: Yangi asr avlodi, 2009. – B.101.
3. Hornby A.S. Oxford Advanced Learner’s Dictionary of current English. – Oxford University Press, 2010. – P. 706-870.

4. Longman Pocket Idioms Dictionary. – Pearson Education, 2001. – P.200.
5. Oxford dictionary of Idioms. – Oxford University Press, 2004. – P.168.
6. Rahmatullayev Sh. O’zbek tilida fe’l frazemalarning bog’lashuvi. – T.: Universitet, 1992. – B.6.
7. The Concise Oxford Dictionary of English Etymology. – Oxford University Press, 1996. – P.209-248.
8. The Oxford dictionary of English etymology. – Oxford University Press, 1966. – P.498-518.
9. Синельникова И.И., Андросова С.А. Состав фразеосемантического поля «эмоциональные состояния человека» (на материале французского языка) Научные ведомости. Серия Гуманитарные науки. – 2014. № 6 (177). Выпуск 21.– С.122.
10. Уфимцева А.А. Опыть изучения лексики как системы. – М.: Академии наук СССР, 1962. – С.20.
11. Чернобай С. Е., Фукова Т. А. Структурно-семантическая характеристика фразеологических единиц английского языка, входящих во фразео-семантическое поле «эмоции». Серия «Филология. Социальные коммуникации». – 2013. Том 26 (65), № 2. – С. 326.
12. https://www.ldoceonline.com/dictionary/something-is-no-joke

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:811

Rafiqjon ZARIPOV,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori(PhD)
Gmail: zaripovrafiqjon1gmail.com

ToshDO‘TAU dotsenti f.f.n. M Turdibekov taqrizi asosida

MANAGEMENT OF STATE LANGUAGE STATUS IN UZBEKISTAN

Abstract

In the study of language management, official, regional, wider communication, international, capital, group, educational, school subject, literary, religious, media, work, internet language and other functional languages are distinguished. Analyzes are carried out based on the research of a number of world sociolinguists. The fact that these functional languages are not equally important in managing the linguistic space of all countries of the world, but certain categories of these functions meet in the territories of the countries of the world, it is based on the fact that some of them are not reflected in the linguistic map of the countries due to the lack of scientific research. Of the marked languages registered in Uzbekistan, only the language performing an official function is legally officially designated, but it is argued that other functional languages also exist.

Keywords: State language management, legal basis of language management, language management practice, official language language status.

УПРАВЛЕНИЕ СТАТУСОМ ГОСЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

При изучении языка управления выделяют официальный, региональный, общекоммуникативный, международный, столичный, групповой, учебный, школьно-предметный, литературный, религиозный, медиа, рабочий, интернет-язык и другие функциональные языки. Анализы проводятся на основе исследований ряда мировых социолингвистов. Дело в том, что эти функциональные языки не одинаково важны в управлении языковым пространством всех стран мира, но отдельные категории этих функций встречаются на территориях стран мира, она основана на том, что некоторые из них не отражены на лингвистической карте стран из-за отсутствия научных исследований. Из отмеченных языков, зарегистрированных в Узбекистане, официально официально обозначен только язык, выполняющий официальную функцию, но утверждается, что существуют и другие функциональные языки.

Ключевые слова: Управление государственным языком, правовая основа языкового менеджмента, практика управления языком, официальный язык статус языка.

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT TILI MAQOMI MENEJMENTI

Annotatsiya

Tadqiqotda til menejmentida Rasmiy, Viloyat, Kengroq muloqot, Xalqaro, Poytaxt, Guruh, Ta’lim, Maktab predmeti, Adabiy, Diniy, OAV, ish, internet tili va boshqa funksiyali tillar farqlanishi qator jahon sotsiolingvistlari izlanishlariga tayanilgan holda tahlil qilinadi. Mazkur funksiyali tillar dunyoning barcha davlatlari lingvistik makonini boshqarishda birdek ahamiyatli emasligi, ammo ushbu funksiyalarning ma’lum toyifalari jahon mamlakatlari hududlarida uchrashi, ularning ayrimlari ilmiy tadqiq etilmaganligi tufayli mamlakatlarning lingvistik xaritasida aks etmaganligi asoslanadi. O‘zbekistonda qayd etilgan belgili tillardan rasmiy funksiyani bajaruvchi tilgina qonuniy jihatdan rasman belgilanganligi, ammo boshqa funksiyali tillar ham mavjud ekanligi dalillanadi.

Kalit so‘zlar: Davlat tili menejmenti, til menejmentining huquqiy asoslari, til boshqaruvi amaliyoti, rasmiy til, til maqomi.

Kirish. Vaqt o‘tishi bilan tillar o‘zgarishga yuz tutib boraveradi. Shu bilan bir qatorda muayyan ijtimoiy guruhlar uchun til xizmat funksiyalari ham o‘zgaradi. Markaziy osiyoda XII asrda turkiy tillardan ko‘ra ko‘proq klassik til sifatida arab tili qo‘llanilishining asosiy sababi adabiy va ilmiy omillar hisoblanadi. O‘zbekistonda XIX asrda davlat ish yurituvida arab va fors tilidan rus tiliga o‘tish, Indoneziyada Bahasa Indoneziya tiliga golland tilidan o‘tish hukumat boshqaruvi bilan bog‘liq holda amalga oshdi. Muayyan jamiyat a’zolarining o‘z ona tillarini o‘zgartirishi bu jamiyatning butkul o‘zgarishiga olib keluvchi o‘zgarish hisoblanadi. Masalan, Yaqin Sharqning aksariyat hududlari Islom qo‘shinlari tomonidan bosib olinganda arab tili o‘troq aholining ijtimoiy aloqalarda foydalanish tili sifatida qabul qilinishi fikrimizning dalilidir. Ba’zi hollarda jamiyatda qo‘llanuvchi tillarning funksional o‘zgarishi yoki joylashuvida yuz beradigan o‘zgarishlar siyosiy ta’sirlarsiz boshqa omillar natijasida ro‘y beradi. Bunday o‘zgarishlar tillar, vaqt, globallashuv, jamoa vakillari va boshqa omillar bilan sodir bo‘ladi. Ayrimlari siyosatning, boshqaruvning natijasi hisoblanadi. Masalan, Sharqiy Afrikada iqtisodiy funksiyalar uchun kisvahilining tarqalishi til jihatidan xilma-xil mintaqada kengaygan savdoning oldindan o‘ylanmagan natijasi edi. Bundan farqli o‘laroq, bu tilning siyosiy, ta’lim va diniy funksiyalar uchun tarqalishi ataylab olib borilgan siyosat natijasidir[4]. Shuningdek, Markaziy Osiyoda rus tilining turli jamiyat sohalari tiliga aylanishi ham fikrimizning dalilidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Anglangan holda jamiyat tillari o‘rtasida funksiyalarni taqsimlashga ta’sir qilish uchun qilingan harakatlar maqomni boshqarish hisoblanadi. Stewart tomonidan keltirilgan funksiyalarni maqomni boshqarish maqsadlari sifatida keltirish bizningcha til maqomi menejmentida qanday vazifalar til maqomi menejmenti maqsadlari bo‘lishi mumkin degan savolga oydinlik kiritadi. Shuningdek, til maqomi menejmenti yuzasidan Charles A. Ferguson[1], Joshua A.Fishman[2], Heinz Kloss[3], Ali A.Mazrui va Pio Zirimu[4], Robert L.Cooper[5] kabi qator olimlar o‘zlarining qarashlarini bildirishgan. Mazkur tadqiqotda yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning izlanishlariga tayanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning obyekti sifatida davlat tili, o‘zbek tili birliklari, o‘zbek tili menejmenti materiallari olingan. Tadqiqotni tasniflashda, sotsiolingvistlar taxliliga tayangan holda ish ko‘rildi. Qayd etish joizki, mazkur tadqiqotda ilkbor O‘zbekistonda davlat tili menejmenti, davlat tili maqomi menejmenti tahlilga tortildi. Shu bilan birga tadqiqot obyekti sifatida til menejmentini tashkillashtirishda Respublikada qabul qilingan me’yoriy hujjatlar, til menejmenti amaliyoti materiallari olindi. Tadqiqotda lingvistik tavsiflash, sistem, statistik, kontekstual tahlil, tavsiflash, tasniflash, analiz, sintez, lingvistik eksperement ilmiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Stewart milliy ko‘p tillilikni muhokama qilishda tilning bir qator funksiyalarini keltirgan[6]. Stewart keltirgan funksiyalarni quyida ko‘rib chiqamiz va mazkur qarashlarni tahlilga tortamiz. Ushbu vazifalarning aksari o‘zbek tili maqomini boshqarish maqsadiga ham muvofiq kelishi tufayli funksiyalar tahlilida o‘zbek tili boshqaruviga e’tibor qaratamiz.

I. Rasmiy (belgi: inglizcha qisqartma, so‘zning bosh harfi. o(o‘zbekcha qisqartma, so‘zning bosh harfi. r); umummilliy asosda barcha siyosiy va madaniy vakillik maqsadlari uchun qonuniy jihatdan mos til sifatida faoliyat yuritadi. Ko‘p hollarda tilning o funksiyasi konstitutsiyaviy tarzda ko‘rsatilgan[6]. Bu o‘rinda olim qonun bilan belgilangan tilni nazarda tutmoqda. Ushbu ta’rifga nisbatan Kuper quyidagi mulohazalarni bildiradi; Stewart o‘zining rasmiy tilga ta’rifini hukumat rasmiy deb belgilagan yoki qonun bilan tegishli deb e’lon qilgan tillar bilan cheklab qo‘yganga o‘xshaydi[5].

Kuper ushbu qarashga munosabat bildirar ekan rasmiy tilning qo‘shimcha ikkita turini ajratib ko‘rsatish foydadan xoli bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Hukumat kundalik faoliyati uchun vosita sifatida foydalanadigan ishchi tili va hukumat ramziy maqsadlarda vosita sifatida foydalanadigan ramziy rasmiy til(davlat ramzi sifatida). Ushbu uch turni qonuniy, ishchi va ramziy rasmiy tillar deb atash taklifini beradi. Til ushbu ma’nolarning barchasida rasmiy bo‘lishi mumkin ekanligini ham Kuper istisno qilmaydi.

Bizningcha Kuperning takliflari ham Stewart ajratgan funksiya doirasida. Chunki rasmiy til maqomidagi til ish yurituvida ham, davlat ramzi sifatida ham qo‘llanishda bo‘laveradi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, rasmiy til bu butun mamlakat hududida birdek amal qiluvchi til hisoblanadi. Til menejmenti nuqtai-nazaridan nutq hamjamiyatlarida rasmiy tilning quyi turlarini ham ajratib ko‘rsatish mumkin. Ko‘p hollarda bu jihat til uslublari bilan integratsiya qilinishini inobatga olsak, aslida quyi turlarni ajratishga ehtiyoj yo‘q. Ammo biz rasmiy tilning quyi turi sifatida ishbilarmonlik tilini taklif etamiz. O‘zbekistonda rasmiy til vazifasini o‘zbek tili bajaradi. O‘zbek tili davlat Konistitutsiyasining 4-moddasi bilan davlat tili sifatida belgilangan[7].

2. Viloyat (belgi: p(v); viloyat yoki mintaqaviy rasmiy til vazifasini bajaradi. Bunda tilning rasmiy vazifasi umummilliy emas, balki kichikroq geografik hudud bilan chegaralanadi[6]. Bu ta’rifda rasmiy tilning kichik doiradagi turi umummilliylik xususiyati bilan emas geografik hudud orqali farqlanishi qayd etilmoqda. Unga ko‘ra ta’rifda rasmiy til deb atalayotgan til turi viloyat yoki mintaqaviy xoslanishga ega. Bu jihat ayrim mamlakatlarda mavjud rasmiy tillarning uch tomonlama bo‘linishi viloyat yoki mintaqaviy rasmiy tillarga mos keladi. Masalan, Ispaniya rasmiy tillari shu me’zonga asoslangan desak xato bo‘lmaydi. O‘zbekistonda o‘zbek tilidan tashqari qonun bilan belgilangan viloyat yoki mamlakatning biror hududida rasmiy amal qiladigan til mavjud emas. Ammo tojik tili Stewart ta’kidlagan viloyat belgi xususiyatlarini o‘zida jamlaydiva ma’lum darajada ushbu funksiyani bajaradi.

3. Kengroq muloqot (belgi: w(k); millat ichidagi til chegaralari orqali muloqot vositasi sifatida ustunlik qiluvchi til tizimining (o yoki p funksiyasiga ega bo‘lganidan tashqari) funksiyasi[6]. O yoki p funksiyasini bajaradigan tillar mazkur va Stewart sanagan keyingi funksiyalarda istisno qilinadi. Tadqiqotchi milliy yoki viloyat darajasidagi rasmiy tillar odatda qo‘shimcha funksiyalarni bajarishi tufayli shu yo‘ldan boradi. Bunda davlat ichidagi muayyan til chegaralari bo‘ylab muloqot vositasi va o‘qitish vositasi sifatida foydalanilishi nazarda tutiladi. Zarur kommunikativ funksiyalar uchun foydalaniladigan, rasmiy (o yoki p) bo‘lmagan tillar Stewart maqsadlari uchun ko‘proq ahamiyatli bo‘lgan. Bu o‘rinda davlat ichidagi muayyan til chegaralari bo‘ylab lingvofranka tillari pozitsiyasida bo‘lishi nazarda tutilmoqda. Masalan, O‘zbekistonning shimoliy hududlarida tojik, qozoq, o‘zbek tilli aholi qatlamlari mavjud ularning ijtimoiy hayotida ushbu hodisani kuzatishimiz mumkin. Aytaylik qozoq millatiga mansub bola O‘zbekistondagi tojik maktabda o‘qiydi va tojik do‘sti bilan o‘zbek tilidagi darslarni tushunishda muloqotda bo‘ladi. Bunda qozoq bolasi, o‘zbek tilidagi fanni tushunish uchun tojik tilidan lingvofranka sifatida foydalanmoqda.

Bu odatda kichik millatlar yashovchi va o‘z tillarida so‘zlashuvchi, shu bilan birga rasmiy amalda bo‘lgan tillarda emas balki, hududning eng kata etnik tarkibli millati tilida ta’lim olib boriladigan hududlarda keng uchraydi. Bu o‘rinda Stewart xuddi shu tushunchani e’tirof etgan. Til menejmentida bunday tillarni boshqarish muayyan darajada murakkablik kasb etadi. Ammo ularni istisno etib bo‘lmaydi. Til boshqaruvida mamlakatning lingvistik makonini to‘liq qamrab olish va har bir hudud, viloyat, lingvistik jamoaning lisoniy imkoniyatlarini hisobga olish lozim.

Bunday tillarni boshqarishda uch tomonlama til siyosatini integratsiya qilish yetarlicha samara beradi. Ya’ni, rasmiy til, mahalliy tillar va til chegaralari bo‘ylab lingvofranka tili pozitsiyasidagi til. O‘zbekistonda bunday lingvofranka til vazifasini bajaruvchi mahalliy tillar sifatida qayd etilganidek tojik tili shuningdek, qozoq va rus tillarini keltirish mumkin.

4. Xalqaro (belgi: i(x); ko‘lami bo‘yicha xalqaro bo‘lgan asosiy aloqa vositasi sifatida til tizimining (o yoki p funksiyasiga ega bo‘lganidan tashqari) funksiyasi, masalan, diplomatik munosabatlar, tashqi savdo, turizm va boshqalar[61]. Stewart, aloqaning davlat doirasidan kengroq bo‘lgan, boshqa boshqa mamlakat, millat vakillari muloqot qiladigan xalqaro tillarga ishora qilmoqda.

O‘zbekistonda xalqaro munosabatlarda ikki tildan foydalaniladi. Bular ingliz va rus tillaridir. O‘zbekistonliklar chet ellik ishbilarmon soha vakillari, hamkasblar, sayyohlar, IT tarmoqlari aloqalarida qayd etilgan tillardan foydalanadi. Rus tili asosan post sovet mamlakatlari doirasidagi munosabatlarda va post sovet hamda Osiyo mintaqasi xalqaro tashkilotlari munosabatlarida qo‘llaniladi. Ingliz tili esa keng global aloqalarda foydalaniladi.

5. Poytaxt (belgi: c(p); “poytaxt yaqinida asosiy aloqa vositasi sifatida til tizimining (o yoki p funksiyasiga ega bo‘lganidan tashqari) funksiyasi[6]. Iqtisodiy faollik, ijtimoiy obro‘ va siyosiy hokimiyat poytaxtda bo‘lganligi uchun bu funksiyaning ahamiyati mamlakatlarda yuqori. Bu funksiyaning yana bir muhim tomoni tillarning ko‘pincha siyosiy va iqtisodiy markazdan hududlarga tarqalishida. Shu jihatlardan kelib chiqib aytish mumkinki, tilning tarqalishida mazkur joylashuv asosiy ahamiyat kasb etishi mumkin. Odatda poytaxtning rasmiy tili boshqarilishi mumkin. Poytaxt yaqinida so‘zlashiladigan til menejmentining e’tibor markazida bo‘lmaydi. Ba’zi hollarda shaharning lingvistik tarkibi siyosiy chegaralarni belgilashda muhim bo‘lishi mumkin. Poytaxt tillari jahon mamlakatlarining ko‘p tili mamlakatlarida uchraydi. O‘zbekistonda bunday xususiyatni o‘zida mujassamlashtirgan til mavjud emas

6. Guruh (belgi: g(g); til tizimining yagona madaniy yoki etnik guruh a‘zolari(qabila, chet ellik muhojirlar guruhi) o‘rtasidagi normal muloqot vositasi sifatidagi funksiyasi[6].

Guruh a’zoligini aniqlash uchun norasmiy mezon bo‘lib, ba’zida guruh funksiyali lingvistik tizim sifatida xizmat qilishi mumkin. Bu lingvistik xulq-atvor va guruhning o‘ziga xosligi o‘rtasidagi bog’liqlikni ko‘rsatadi.

7. Ta’lim (belgi: e(t); mintaqaviy yoki milliy miqyosda boshlang‘ich yoki o‘rta ta’lim vositasi sifatida (allaqachon o yoki p funksiyasiga ega bo‘lgan tildan tashqari) tilning funksiyasi[6]. Bu yerda adabiy bo‘lmagan hududiy tilning ta’limdagi mustaqil o‘rni nazarda tutilmoqda. Ushbu ta’rifdan kelib chiqib Ferguson boshlang‘ich maktabning quyi yillari, boshlang‘ich maktabning yuqori yillari va o‘rta ta‘limni ajratishni taklif qiladi[1. 309]. Chunki, boshlang‘ich maktabning yuqori yillarida fan bo‘yicha darsliklar qo‘llanila boshlaydi. Holatni boshqarish qarori hisoblanuvchi ta‘lim vositalarini aniqlash eng tez o‘zgaradigan qarorlardandir. Odatda ta‘lim vositalari siyosiy bosim va turli ta’sirlar natijasida til menejmentlari va ta’lim vakillari tomonidan ko‘rib chiqiladi. O‘zbekistonda ushbu vazifani 6 ta til amalga oshirishi mumkin. Ularda nafaqat boshlang‘ich ta’lim balki, o‘rta va oliy ta’lim ham tashkillashtirilgan.

Ushbu 6 ta tilda faoliyat olib boruvchi o‘quv muassasalari o‘z tilidagi materiallar bilan doimiy ta’minlanib kelinmoqda. Mamlakat til menejmentida ushbu tillar alohida boshqariladi. Quyida ushbu tillar va ulardagi maktablar sonini 2019-yil ma’lumotlariga ko‘ra keltiramiz. Qoraqalpoq tilida 366 ta, rus tilida 862 ta, qozoq tilida 370 ta, tojik tilida 244 ta, qirg‘iz tilida 42 ta, turkman tilida 43 ta”[6]. Stewart ta’kidlagan ta’lim funksiyali tillar sirasiga kiritishimiz mumkin bo‘lgan ushbu tillar mamlakatimiz lisoniy manzarasida yuqori ahamiyat kasb etadi.

8. Maktab predmeti (belgi: s); til (o yoki p funksiyasiga ega bo‘lgan tildan tashqari) odatda o‘rta va/yoki oliy ta’limda fan sifatida o‘qitiladi[6]. Bu yerda milliy tillarning maktab ta’limida o‘qitilishi nazarda tutilmoqda. Bu jihat Respublikamizning ko‘pmillatli va ko‘ptilli hududlariga xos bo‘lib, mazkur hududlarda milliy tillar maktab ta’limiga predmet sifatida kiritilgan. Oliy ta’limda ham mamlakatda keng tarqalgan millatlar tillarida mutaxasislar tayyorlanadi. Xususan Samarqand chet tillari universitetida tojik filologiyasi fakulteti faoliyat olib boradi va mazkur yo‘nalishni yiliga yuzlab talabalar bitirib, hududlardagi maktab ta’limini rivojlantirishga yo‘l oladilar.

9. Adabiy (belgi: l(a); tildan adabiy yoki ilmiy maqsadlarda foydalanish[6]. Ba’zi hollarda mamlakatning rasmiy tili bo‘la turib, o‘lkadagi biror-bir millatning tilini rasmiya til sifatida targ‘ib qilish hollari uchrab turadi. Aslida bu haqiqatga muvofiq bo‘lsa, muayyan xalq tilining adabiy til sifatida e’tirof etilishi yomon bo‘lmaydi.

Xalq tillarini adabiy va ilmiy maqsadlarda targ‘ib qilish millatchilik harakatlariga xos xususiyatdir. Bunday rivojlanish ommaning yoki ziyolilarning milliy ongini yuksaltirishga xizmat qilishi mumkin[5] degan qarashdagi olimlar topiladi. Shunga qaramay, xalq tillariga obro‘-e‘tibor beradigan narsa belles Lettres emas, balki unchalik jozibali bo‘lmagan hikoyaviy nasr, “tasavvur emas, axborot sohasi” bo‘lishi mumkin[3]. Yuqori madaniyatli funksiyalar uchun xalq tilini himoya qiluvchilar, agar ular yoki ular vakili bo‘lganlar jamiyat faoliyat yuritadigan iqtisodiy va siyosiy apparatni nazorat qilmasalar, muvaffaqiyatga erisha olmaydilar[2]. Chunki, insonlar yuqori madaniy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan, yuqori funksiyaga ega adabiy tilni xalq tili bilan almashtira olmaydi. Lekin ba’zi hollarda yuqori manfaatdorlik bunga undashi mumkin. Xalq tilini adabiy va ilmiy til sifatida targ‘ib qilish birinchi navbatda mazkur til adabiy til me’yorlarini amaldagi adabiy tildan yuqori darajada aks ettira olsa, ikkinchidan agar millatning ushbu adabiy tildagi ilmiy manbalari amaldagi adabiy til ilmiy manbalaridan ortiq bo‘lganda amalga oshirilishi mumkin.

10. Diniy (ramz: r(d); tilning ma’lum bir diniy marosimi bilan bog‘liq holda qo‘llanilishi[6]. Bu yerda tilning muayyan tilning ma’lum din marosimlari bilan aloqadorlikda qo‘llanishi nazarda tutilmoqda. Masalan, arab tilining islom dini marosimlari bilan bog‘liq holda qo‘llanishi. Qayd etilgan ta’rifdan kelib chiqib Kuper ta’rifni uchta kichik bir-biriga o‘xshash va o‘zaro aloqador funksiyalar asosida qayta qurish yanada foydaliroq ekanligini ta’kidlaydi. 1. nasihat, diniy ta’lim; 2. muqaddas matn savodxonligi; 3. jamoat ibodati. O‘zbekistonda ham ushbu jihatga monand voqelik VII asrlarda arab tili bilan birga Markaziy Osiyoga islom dinining kirib kelishi natijasida sodir bo‘lgan va asrlar davomida bu jarayon ta’sir kuchining yuqoridan pastga tushush evaziga bo‘lsada saqlanib kelindi.

Yana bir qator olimlar maqomni boshqarish maqsadlari sifatida boshqa vazifalarni ham taklif etishadi. Stewart tomonidan belgilanganidan tashqari maqomni rejalashtirish bo‘yicha qarorlar yana ikkita qo‘llanish bilan belgilanishi Kuper tomonidan qayd etiladi. Bular 1. ommaviy axborot vositalari. 2. Ish[5].

Xulosa va takliflar. Demak, til menejmentida anglangan holda jamiyat tillari o‘rtasida funksiyalarni taqsimlashga ta’sir qilish uchun qilingan harakatlar til maqomini boshqarish hisoblanadi. Til menejmentida Rasmiy, Viloyat, Kengroq muloqot, Xalqaro, Poytaxt, Guruh, Ta'lim, Maktab predmeti, Adabiy, Diniy, OAV, ish, internet tili va boshqa funksiyalarni bajaruvchi tillarni farqlash maqsadga muvofiq. Mazkur funksiyali tillar dunyoning barcha davlatlari lingvistik makonini boshqarishda birdek ahamiyat kasb etmaydi. Ammo ushbu funksiyalarning ma’lum toyifalari jahon mamlakatlari hududlarida uchraydi. Ularning ayrimlari tadqiq etilmaganligi tufayli mamlakatlarning lingvistik makonida aks etmagan bo‘lishi mumkin. Ammo boshqa funksiyali tillarga e’tibor qaratilmaydi. Bizningcha esa, qayd etilgan boshqa funksiyali tillar rasmiy belgilanmasada, ularning ilmiy tadqiqi amalga oshirilishi foydadan holi bo‘lmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Ferguson, Charles A. National sociolinguistic profile formulas. In William Bright (Ed.), Sociolinguistics: proceedings of the UCLA Sociolinguistics Conference, 1964. The Hague: Mouton, 1966. pp. 309-324.
2. Fishman, Joshua A. Attracting a following to high-culture functions for a language of everyday life: the role of the Tshernovits language conference in the "rise of Yiddish". In Robert L. Cooper (Ed.), Language Spread: studies in diffusion and social change. Bloomington: Indiana University Press in cooperation with the Center for Applied Linguistics, Washington, 1982. pp. 291-320.
3. Kloss, Heinz. "Abstand languages" and "ausbau languages". Anthropological Linguistics, 9(7): 1967. 29-41.
4. Mazrui, Ali A. and Pio Zirimu. Church, state and marketplace in the spread of Kiswahili: comparative educational implications. In Bernard Spolsky and Robert L. Cooper (Eds.), Case Studies in Bilingual Education. Rowley: Newbury House, 1978. pp. 427-453.
5. Robert L. Cooper. Language planning and social change. Cambridge University Press. Cambridge. 1989. 224.
6. Stewart, William. A sociolinguistic typology for describing national multilingualism. In Joshua A. Fishman (Ed.), Readings in the Sociology ofLanguage. The Hague: Mouton, 1968. pp. 531-545.
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 1992. – 4 b. https://lex.uz/docs/20596
8. https://m.kun.uz/uz/news/2019/02/21/ozbekistonda-qancha-maktab-bor-va-ularda-necha-nafar-oquvchi-ta`lim-oladi

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК:81’374(038)

Фазилат ИНОГАМОВА
Ўзбекистон Миллий университети катта ўқитувчиси
E mail: fazilatinogamova29@gmail.com

ЎзМУ профессори, ф.ф.д Р.Ширинова тақризи асосида

THE PHENOMENON OF "ILLUSTRATION" AND ITS ROLE IN THE COMPILATION OF A DICTIONARY OF PHRASEOLOGICAL EXPRESSIONS

Abstract
The article considers the stages of the development of illustrative dictionaries, the practice and theory of phraseological dictionaries compilation, the idea of phraseology, which is an independent section of lexicography.
Keywords: Phraseology, phraseme, lexicography, phraseology, linguistics, dictionary, иллюстрация

ФЕНОМЕН “ИЛЛЮСТРАЦИЯ” И ЕГО РОЛЬ В СОСТАВЛЕНИИ СЛОВАРЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ВЫРАЖЕНИЙ

Аннотация
В статье рассматриваются этапы развития иллюстративных словарей, практика и теория составления фразеологических словарей, идея фразеологии, являющейся самостоятельным разделом лексикографии.
Ключевые слова: Фразеология, фразема, лексикография, фразеологизм, лингвистика,фразеология,словарь. иллюстрация

“ИЛЛЮСТРАЦИЯ” ФЕНОМЕНИ ВА УНИНГ ФРАЗЕОЛОГИК ИБОРАЛАР ЛУҒАТИ ТУЗИШДАГИ РОЛИ

Аннотация
Мақолада иллюстратив луғатларнинг ривожланиш босқичлари, фразеографик луғатларни тузиш амалиёти ва назарияси билан шуғулланувчи, лексикографиянинг мустақил бўлими бўлган фразеография ҳақида фикр юритилади.
Калит сўзлар: Фразеография, фразема, лексикография, фразеологизм, тилшунослик, фразема, луғат, иллюстрация

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. ИЛЛЮСТРАЦИЯ (лот. illustratio — ёритиш, кўргазмали тасвирлаш) – тасвирий санъатнинг адабий асарнинг образли талқини билан боғлиқ соҳасидир[1]. У матнга қўшимча тарзда унинг мазмунини образли ёритишга, тўлдиришга хизмат қилади. Илк қўлёзма китоблар пайдо бўлган даврларда юзага келган бўлиб, дастлаб қўлёзмалар миниатюралар иллюстрациялар билан безатилган. Иллюстрация шунингдек, илмий ҳодисалар ва атамаларнинг маъносини мукаммал тарзда етказишиб, қисқача ва катта параграфлар бўйича хулосалар беради. Худди шу графикалар ва диаграммалар, турли хариталар, майнмэплар, (бирикувлар диаграммаси - маълум мавзу бўйича фикрлаш тарзини системалаштириш мақсадини кўзловчи харитадир. У схема кўринишида бўлиб, ёзувнинг муқобил кўринишидир. Бунда ўртада марказий фикр ёки ғоя жойлаштирилади ва ундан тарқалувчи шахобчалар фикрнинг тегишли таркибий қисмлари учундир) схемалар ва бошқалардир. Расмнинг моҳияти ўзгармасдир- у матнни тўлдиради, таркибнинг бойитади ва контекстини тўлиқ етказади. Бироқ унинг қаерда жойлаштирилганлиги, қандай шаклда ёки қандай техникада бажарилиши ҳар доим ҳам муҳим ҳисобланмайди.

Статистик маълумотларга кўра, тасвирлар билан контентга жалб қилиш бир неча баравар юқори бўлиб, расмли матн осон ва тушунарли бўлади. Ҳамда расмлар мақоланинг табиати ва мавзусини дарҳол баҳолашга имкон беради. Бунинг ёрдамида тил ўрганувчи материални ўқишни бошлашдан олдин керакли идрокка мослашади. Расмлар муаллифнинг фикрларини тўлиқ очиб беришга ёрдам беради, чунки матн ҳар доим мақоланинг маъносини етказа олмайди. Баъзи ҳолларда тасвирлар катта роль ўйнайди ва матн ёрдамчи бўлади. Тижорат матнларида иллюстрация китобхонда кучли ҳиссиётуйғуларни уйғотади ва сўзлардан яхшироқ маъно касб этади.

Иллюстрация – бу маъноларни тасвирлашнинг мураккаблигини камайтириш ва тилнинг ўзидан ташқарида маъноларни кузатишга имкон бериш учун мўлжалланган тил тизимининг объект тили бўлиб, бошқа тилни тавсифлаш учун мўлжалланган. Бундан ташқари, иллюстрация, шунингдек тил- бу имо-ишора билан тўлдирилган семиотик тизимдир. Лингвистик семиотикадаги асосий тушунча лисоний белги бўлиб, у муайян матнлардаги ва муомала вазиятидаги шакл ва мазмуннинг диалектик бирлиги сифатида номоён бўлади[2].

Иллюстрация-матннинг “кўзгуси” бўлиб, ўқувчи нарсаларнинг муайян ҳолатини излаб топиш вазиятида бўлганида унинг қиёфасини акс эттиради. Тасвирий матнни ўқиётганда китобхон унинг берилиши ва унинг талқинидан узоқ бўлмаслиги керак[3].

Иллюстрация- бу фотосуратларда, расмларда ва ҳоказоларда тасвирланган у ёки бу объектларнинг ақлий тасвирларининг намоён бўлишидир. Иллюстрация ҳақида гапирганда, объектлар тасвирларини англатади. Тайёр маъноларга асосланган иллюстрация тузиш шуни кўрсатадики, “рамзий” тузилмалар эстетиканинг турли даражаларида очиб берилади. Шу билан бирга, тил тузилмаларини аниқлаш тасвирлар, усуллар ва ҳоказоларнинг ўхшашлигини интуитив тушунча билан алмаштирилади. Людвиг Витгенштейннинг фикрига кўра, ҳар қандай нарсани иллюстрация сифатида ишлатиш мумкин, чунки “белги талқин қилиш учун ҳимоя-сиздир”[4], яъни белгига ҳар қандай маъно берилиши мумкин. Фикрнинг йўналиши ва бир семиотик[5] яъни ахборот, маълумотларни саклаш ва узатиш учун хизмат қиладиган белгилар ва белги тизимларининг умумий хусусиятларини ўрганадиган тизимдан бошқасига ўтишнинг мақсадга мувофиқлиги муҳимдир.

Тадқиқот методологияси. Иллюстрация ҳодисаси китоб муаллифлари тилни четлаб ўтиб, матнни тасвирлаш ва тасвир ёрдамида маъноларни талқин қилиш учун

қўлланилган ҳал қилувчи элемент ҳисобланади. Визуал тилга қараган тил-бу ўз тақдирини ўзи белгилаш ва ўз чегараларини бошқа семиотик тузилиш орқали кўрсатишга уриниш ҳисобланади. Шундай қилиб, юқорида олимлар фикрига таянган ҳолда айтиш мумкинки, иллюстрация бир вақтнинг ўзида тилни ва “реаллик”ни тушунишдир.

Иллюстрациянинг асосий вазифаси назарий позицияларни тасдиқлаш учун шакл, ҳодисанинг моҳияти, унинг тузилиши, алоқалари, ўзаро таъсирини мажозий равишда қайта тиклашдир. Бу барча тахлилларни ва улар билан боғлиқ сезги, идрок, вакиллик ақлий жараёнларини фаол ҳолатга келтиришга ёрдам беради, натижада талабаларнинг умумлаштирувчи-аналитик ақлий фаолияти учун асос бўлади. Иллюстрациялардан фойдаланишнинг ўқув натижаси дастлабки равшанликни таъминлашда намоён бўлади ва ўрганилаётган фанни талабалар томонидан идрок этиш, кейинги барча ишларни ва ўрганилаётган материални ўзлаштириш сифатини белгилайди. Иллюстрациядан фойдаланишнинг тарбиявий аҳамияти талабаларнинг визуал ва эшитиш маданиятини шакллантиришдан иборатдир.

Фразеологияни ўқитишда расмлар, фотосуратлар, репродукциялардан фойдаланиш муҳим ўқув воситасидир. Дидактик расм нафақат туртки бериб қолмай балки талабаларнинг ўрганилаётган мавзуга қизиқиши, шунингдек, ўқитувчига янги тил материалларини тақдим этишга ёрдам беради.

Фразеологик тасвирни луғавий талқин қилиш усулларидан бири бу визуал равшанликдан фойдаланишдир. А.В. Кунин бу ҳақда шундай ёзади: “феълнинг тасвирий вазифаси уларни сўзлардан анча фарқлайди. Метафорик ва метонимик тасвирлар визуал тасвирлар ёрдамида осонгина етказилади”

Ушбу тамойил асосида чет элликлар учун “Русские фразеологизмы в картинках”[6] (тузувчи И.Дубровин ва Европанинг турли мамлакатларидан муаллифлар, рассом В.И. Тильман). 600 дан ортиқ рус фразеологик бирликлари иккита режа асосида – ички шакл даражасида ва юзаки денотация яъни тил бирлигининг асосий, денотатив маъно ифодаси даражасида жуда оқилона тасвирланган. Биринчи расмда фразеологиянинг ички шакли, фразеологик қиймат ривожланишининг бошланғич нуқтаси акс эттирилган. Шу билан бирга, барча ибораларни шакллантириш механизми “манбаа маълумотлар” ни “иллюстрация” (иккинчи расм) билан таққослайдиган фразеологик бирликдан фойдаланиш ҳолатини акс эттиши китобхон томонидан амалга оширилиши керак.

Маълумки, фразеологик тасвирлар “параллел ахборот оқимлари” шаклида фразеологик бирликнинг икки томонлама идрокидан келиб чиқади иккита ҳодисанинг бирлаштирилган кўриниши сифатида – прототип яъни бадиий образ (тип)га асос бўлган реал шахс билан белгиланадиган ва компонентларнинг тўғридан-тўғри қийматлари йиғиндисидан иборат бўлган ва мажозий фразеологик қиймат билан узатилади.

Шундай қилиб, фразеологик тасвирни талқин қилишнинг вербал ва новербал воситаларининг комбинацияси аралаш типдаги луғат матнини ҳосил қилади. Н.С.Валгин таъкидлаганидек, бир-бири билан ўзаро алоқада бўлиб, оғзаки ва паралингвистик матнлар ишнинг яхлитлиги ва боғланишини, унинг коммуникатив таъсирини таъминлайди[7].

Таҳлил ва натижалар. Амалиёт шуни кўрсатадики, фразеологик образнинг бундай бадиий ва тасвирий тақдимоти билан талаба нафақат ҳозирги фразеологик маъно ва уни шакллантириш механизмини муваффақиятли ўзлаштирибгина қолмай, балки ўрганилаётган тил фольклорини, халқ ҳаётини, тарихини, маданиятини ва бошқаларни акс эттирувчи фразеологик бирликларнинг этник-маданий фонини ҳам ўзлаштиради. Тилнинг фразеологик фонди халқ ҳаётининг миллий хусусиятларини акс эттиради, тилнинг тарихий, сиёсий, иқтисодий, маданий заминини яратади. Комбинацияларга асосланган тасвирлар яъни иллюстрациялар ёрдамида ўрганиш тил ўрганувчиларига фразеологик бирликнинг моҳиятига чуқурроқ кириб боришга, тушунишга ёрдам беради.

Л.И.Ройзензон фразеологияга қуйидагича таъриф берган “халқ лисоний даҳосининг барча ижодларининг энг ўзига хос, мураккаб ва бир-бирини тўлдирувчи ҳодисаси.” дир. Муайян фразеологик материалда мамлакатнинг табиий-географик шароитлари, унинг тарихи, маданияти, турмуш тарзи, она тили халқининг урф-одатларининг ўзига хос хусусиятларини кузатиш мумкин.

Шунинг учун чет тилини ўрганиш билан бирга, ўз она тили маданиятини ҳам ўрганиш билан бирлаштирилиши керак ва бу ўрганилаётган тилнинг фразеологик таркиби билан танишиш орқали амалга оширилиши мумкин. Бу талабаларнинг дунёқарашини кенгайтиришга, ўрганилаётган тилга қизиқишни оширишга ва уларнинг маданий даражасини оширишга ёрдам беради. Олинган билимлар ҳам амалий аҳамиятга эга, чунки у мулоқотга киришишга, нутқ фаолиятида етарли ҳатти-ҳаракатларга ёрдам беради.

Биринчи қийинчилик шундаки, талабалар учун эркин синтактик иборадан фразеологик комбинацияни дарҳол ажратиш осон эмас, чунки иккаласи ҳам семантик жиҳатдан битта ёки фарқланмаган тушунчани англатади. Иккинчи қийинчилик шундаки, бир тилдаги фразеологик бирлик бошқа тилдаги ўхшамайдиган бирликка мос келади. Масалан, “туяни думи ерга текканда” ўзбекча ибораси француз тилидаги “quand les poules auront des dents” иборасига мос келади. (сўзма-сўз таржимаси “қачон товуқларни тишлари пайдо бўлганда”). Бу ерда фразеологияни нотўғри талқин қилиш хавфи ётади. Шунинг учун яна бир қийинчилик-фразеологик бирликларни таржима қилишда мунтазам луғатдан фойдаланиш мумкин эмас, чунки алоҳида сўзларнинг таржимаси фразеологик бирликнинг умумий маъносини бузиб кўрсатиши мумкин.

Фразеологик бирликни тўлиқ тушуниш, ушбу иборанинг келиб чиқиш тарихини билиш, унинг келиб чиқиш йўлини кузатиш керак. Кўпинча барқарор комбинациялар ушбу халқ вакиллари-она тилида сўзлашувчи турмуш тарзининг ўзига хос хусусиятлари билан боғлиқ ибтидоий келиб чиқишга эга бўлади. Фикримизни асослаш учун “боши кўкка етди” иборасини ва французча “ être au septième ciel” иборасини олайлик, ушбу иборани тўғри талқин қилиш ва ўқувчиларнинг она тилида эквивалент бирликни топишга ундаш мумкин. “Ne pas avoir la langue dans sa poche” идиоматик иборасининг оддий намунаси мажозий маънога эга бўлиб, “кўп гапириш” яъни ўзбек тилида “тили бир қарич” яъни гапга чечан бўлиш маъносини билдиради. Талаба, эҳтимол бу

ибора эканлигини тушунади, чунки жумла мантиқий эмас, аммо биз бундай метафорик иборанинг маъносини тушунишига амин бўлолмаймиз. Шунингдек, у чўнтагида тили бўлмаган одам тилни яхши билмаслиги ҳақидаги хулосага келиб, худди шу иборани тескари маънода тушуниши мумкин. Бундай вазиятда ўқитувчига тил материалини визуализация қилиш, яъни мақсаднинг тасаввурдаги образини яратиш демакдир. Фразеологик бирликлар семантикасини осонлаштириш орқали ёрдам бериш мумкин. Фразеологияни ўқитиш жараёнида визуал равшанлик етакчи ўқув элементига айланиши мумкин. Кўриниш принципи ўрганишнинг асосий тамойилларидан биридир, чунки инсон билиш йўли аниқ фактлар ва ҳодисаларни ҳиссий идрок этишдан бошланади. Бу тамойилга Чех педагоги Ян Амос Коменский (1592-1670) асос солган. У томонидан тузилган “олтин қоида” шундай дейди: кўринадиган ҳамма нарса кўриш учун, эшитиладиган нарса эшитиш учун, ҳиди ҳидлаш, сезгир тегиниш, яъни билишда иложи борича кўпроқ рецепторларни киритишни талаб қилади[8]. Ҳақиқатдан ҳам, ҳар бир нарса- предметнинг ўз ҳусусиятидан келиб чиқиб функционал вазифасига эга бўлади.

Адольф Дистервег, одамлар қандай қилиб билимга эришишлари ҳақидаги саволга жавоб бериб, шундай таъкидлайди: “бошқа йўл йўқ, фақат кўриниши билан”[9]. Г.Песталоззи кўринишда ҳар қандай ривожланиш учун ягона асосни кўради. Сезгилар билим таълимнинг кўринишига камаяди ва кўриниш ўз-ўзидан мақсадга айланади[10]. Чизмалар, фотосуратлар, диаграммалар, жадваллар, расмлар иллюстрацияниинг кўринишидир.

Юқорида айтиб ўтилганидек, фразеологик бирликларни талқин қилишда муқаррар равишда қийинчиликларга дуч келади. Бундай ҳолда, дидактик расм ўқитувчи учун фойдали восита бўлиши мумкин, чунки у талабаларга тақдим этилган маълумотларни иложи борича ифода билан тасвирланган иллюстрация иборани аниқроқ очиб беришга ёрдам беради ва вербал таъсир қилиш билан биргаликда бу усул керакли натижага олиб келади.

Луғатшуносларни баҳс ва мунозарага сабаб бўлган бўлган бир савол қийнайди. Биринчиси, қандай мисоллар бериш ва бошқа тиллардан кириб келган контекстларми ёки муаллифлар томонидан берилган иллюстратив мисолларни қўллашми. Амалиёт шуни кўрсатадики, фразеологик луғатларнинг муҳим қисми муаллифлик иллюстрацияларини ўз ичига олади. Луғатшунослар ўзаро боғлиқ учта топшириқ асосида худди шундай қарор қабул қиладилар:

1) фойдаланиш нормасини очиб бериш;

2) идиомани адекват талқин қилиш учун шароит яратиш;

3) тавсиф ҳажмини тежаш.

Ўқув фразеологик луғатларнинг асосий хусусияти бадиий ва журналистик манбалардан олинган мисоллардан муаллиф тасвирий мисолларининг устунлигидир. Бу эса техник ва дидактик сабабларга боғлиқ. Иложи борича қисқа бўлиб, муаллиф мисолида ҳам юқори дидактик самарадорликка эга деб баҳоланади. Бундай котировкаларнинг дидактик қиймати контекст ичидаги семантик боғланишлар билан белгиланади. Бир томондан, ўта қисқа фразеографик контекст афористик ҳисобланади. Бу, биринчи навбатда, талқин жиҳатидан эркин контекст, яъни таклиф кенг контектсиз ҳам аниқ талқин қилинади. Бундай ҳолда, луғатшунослар олдиндан тушунишга, фойдаланувчи билан анъанавий табиатнинг ўхшаш тажрибаси ва билимлари мавжудлигига таянади. Бошқа томондан, муаллифларнинг ўз таснифлари мавжуд бўлиб, улар матал характерига эга бўлади . Тилшуносликдан фойдаланиш меъёрини ўрнатган ҳолда, луғатшунослар фойдаланувчига ўзларининг таснифларини олға сурадилар. Шундай қилиб, луғат нутқининг интенционаллигига яъни предметга қараб мўлжал олганликка асосланиб, билвосита кўрсатма қабул қилинади.

Хулоса ва таклифлар. Хулоса ўрнида шуни айтиш жоизки, бугунги кунда иллюстратив луғатарни яратиш нафақат лексикограифя соҳасида балки, лингвистика, адабиётшунослик, методика ва таржимашуносликда ҳам муҳим аҳамият касб этади. Юқорида кўриб чиқилган барча илмий тадқиқотларда идиомаларнинг кўриб чиқилган таснифларининг ҳеч бири фразеография эҳтиёжлари учун аниқ эмас балки эмпирик жиҳатдан улар табиатда жуда кўп илмий ва моҳир тилшуноснинг тилини билишини акс эттиради.

Тилшунос кўрган нарса оддий она тили ўқувчисига, ундан ҳам чет тили ўрганувчисига ҳар доим ҳам аён бўлавермайди. Иккинчиси учун “маъносини бошдан кечириш” муҳимроқ. Шунинг учун луғат муаллифи идиоманинг маъносини тақдим этибгина қолмай, унинг ишлатилишини ҳам мисол қилиб кўрсатиши керак. Барча мавжуд фразеологик таснифлар семиотиканинг асосан икки жиҳатини акс эттиради: семантик ва синтактик, прагматикани периферияда қолдиради. Шунга қарамай, идиоманинг прагматик томони луғатшунос олимларни фразеографик тавсифда прагматикани акс эттириш йўлларини излашга мажбур қилади.

АДАБИЁТЛАР

1. https://qomus.info/
2. https://qomus.info/
3. Абдрашитова И.В. “Феномен иллюстрации и концепт реальное» Жака Лакана
4. Людвиг Витгенштейн “Логико-философский трактат”
5. https://qomus.info/encyclopedia
6. https://www.ozon.ru/product/russkie-frazeologizmy-v-kartinkah-4728894/
7. Валгин Н. “Синтаксис современного русского языка”
8. Semerdjidi V. N. Functions of paralinguistic phenomena in didactic texts in foreign languages / V. N. Semerdjidi // Theoretical and practical approaches to strengthening English language skills : междунар. сб. науч.тр. – Краснодар : Кубанский гос. ун-т, 2009. – С. 22 – 26.
9. Соболева Н.И., Волков С.У., Иванова А.С. Прогресс. Элементарный уровень: учебник русского языка для иностранных студентов. – Изд. 5-е, перераб. И доп. – М.: РУДН, 2010. – 278 с.
10. Соболева Н.И., Волков С.У., Иванова А.С. Прогресс. Элементарный уровень: учебник русского языка для иностранных студентов. – Изд. 5-е, перераб. И доп. – М.: РУДН, 2010. – 278 с

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК: [811.112.2:811.512.133]`255.2:821.112.2-34

Dilafro‘z KARIMOVA,
Buxoro davlat universiteti Nemis va fransuz tillari kafedrasi mudiri
E-Mail: dilafruz.karimova.1975@mail.ru

Buxoro Davlat Universiteti dotsenti, f.f.f.d.(PhD) M.B.Akhmedova taqrizi asosida

AKA-UKA GRIMM ERTAKLARI O‘ZBEKCHA TARJIMA VARIANTLARINING DAVRIY STATISTIKASI

Annotatsiya

Jahon tarjimashunosligida turli tizimli tillarda so‘zlashuvchi hamda har xil muhit va sharoitda yashovchi xalqlarning milliy madaniy an’analari, qadriyatlari tarixini, betakror urf-odatlarini, turmush tarzini o‘ziga xos yuksak badiiy mujassam etgan ertaklar tarjimasiga hamisha alohida e’tibor qaratilgan. Barcha xalqlarning ma’naviy merosida qadimdan hozirgacha mustahkam o‘rin tutib kelayotgan ertaklarga oid ilmiy tadqiqotlar ko‘lami tarjimashunoslik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik sohalarida yanada ortib bormoqda. Dunyo tarjimashunosligida hozirgacha nemis ma’rifatchilik adabiyotining g‘oyaviy-badiiy takomiliga katta hissa qo‘shgan aka-uka Grimmlar ertaklari qator xorijiy tillarga, jumladan, o‘zbek tiliga ham bevosita va bilvosita ko‘p tarjima qilingan. Natijada ularning tarjima variantlari, invariantlari paydo bo‘lganki, tarjimashunosligimiz bu hodisalarning nazariyasini puxta o‘zlashtirishni, har biriga xos paradigmatik va kognitiv, lingvokulturologik xususiyatlarni aniq yoritib berishni taqozo etadi.

Kalit so’zlar: Variantlilik, invariant, paradigmatik, kognitiv, lingvokulturologik xususiyatlar, fonetik prinsip, tarjima variant, motiv.

PERIODICAL STATISTICS OF BROTHERS GRIMM FAIRY TALES IN UZBEKI TRANSLATION VERSIONS

Abstract

In world translation studies, special attention is always paid to the translation of fairy tales, which embody the national cultural traditions, values, history, unique customs, and lifestyle of peoples who speak different systematic languages and live in different environments and conditions. The scope of scientific research on fairy tales, which have been firmly established in the spiritual heritage of all nations since ancient times, is increasing in the fields of translation studies, linguistics, and literary studies. The fairy tales of the Brothers Grimm, who have made a great contribution to the ideological and artistic development of German enlightenment literature in world translation studies, have been directly and indirectly translated into a number of foreign languages, including Uzbek. As a result, their translation variants and invariants appeared, so that our translation studies requires a thorough mastering of the theory of these phenomena, a clear elucidation of the paradigmatic and cognitive, linguo-cultural features specific to each of them.

Key words: Variant, invariant, paradigmatic, cognitive, linguistic and cultural characteristics, phonetic principle, translation variant, motive.

ПЕРИОДИЧЕСКАЯ СТАТИСТИКА СКАЗОК БРАТЬЕВ ГРИММ В УЗБЕКСКИХ ПЕРЕВОДНЫХ ВАРИАНТАХ

Аннотация

В мировом переводоведении особое внимание всегда уделяется переводу сказок, воплощающих национальные культурные традиции, ценности, историю, самобытные обычаи и образ жизни народов, говорящих на разных систематических языках и живущих в разных средах и условиях. Масштабы научных исследований сказок, прочно вошедших в духовное наследие всех народов с древнейших времен, возрастают в области переводоведения, языкознания, литературоведения. Сказки братьев Гримм, внесших большой вклад в идейно-художественное развитие немецкой просветительской литературы в мировом переводоведении, были прямо и косвенно переведены на ряд иностранных языков, в том числе и на узбекский. В результате появились их переводческие варианты и инварианты, так что наше переводоведение требует основательного овладения теорией этих явлений, четкого выяснения характерных для каждого из них парадигматических и когнитивных, лингвокультурологических особенностей.

Ключевые слова: Вариант, инвариант, парадигматические, когнитивные, лингвокультурологические характеристики, фонетический принцип, вариант перевода, мотив.

Kirish. Yurtimizda keng islohotlar olib borilayotgan, “...Ilmiy va ijodiy izlanishlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratish vazifa” [1] qilib belgilangan hozirgi kunlarda har bir fan sohasi qatori tarjimashunoslikda ham chuqur izlanishlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, xorijiy tillarni o‘qitishga, jahon hamjamiyati bilan bevosita muloqot qila oladigan mutaxassislar tayyorlashga, turli sohalarga oid adabiyotlarni xorijiy tillardan o‘zbek tiliga va o‘zbek tilidan xorijiy tillarga bevosita asliyatdan tarjima qiladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga, tarjima amaliyotlarini yanada yuqori bosqichga ko‘tarishga bo‘lgan ehtiyoj va katta e’tibor asosida nemis ertaklarining o‘zbekcha tarjimalarini qiyosiy o‘rganish, ularning tarjima variantlari va invariantlarini aniqlab, paradigmatik, kognitiv, lingvokulturologik xususiyatlarini yoritish orqali nemis-o‘zbek adabiy aloqalari o‘z tarixiga ega ekanligini dalillash zarur masalalardan biridir. Aka-uka Grimmlarning nomi nafaqat nemis o‘quvchilariga, balki jahondagi barcha xalqlarga tanishdir. Chunki ularning ertaklari juda ko‘p tillarga tarjima qilingan. Albatta, aka-ukalarning nomi bu tarzda jahonga keng tanilishida ularning ertaklari turli tillarga tarjima qilinishi muhim ahamiyat kasb etganini inkor etib bo‘lmaydi. Jumladan, ularning ertaklari bilan o‘zbek xalqi ham o‘tgan asrning 30-yillari oxirlariga kelib tanisha boshlagan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Aka-uka Yakob va Vilgelm Grimmlar nemis xalqining eng sevimli ertakchi-yozuvchilari bo‘lib, ular yaratgan ertak butun jahon kitobxonlarning e’tiboriga tushgan. Bunda, albatta, ularning turli tillarga tarjima qilinishi muhim ahamiyat kasb etgan. Ular

yaratgan ertaklarning birinchi to‘plami “Bolalar va oila” (“Kinder und Familie”) nomi bilan 1812 yilda, 1815 yilda ikkinchisi, 1822 yilda esa uchinchi kitoblari nashr qilingan. Bu kitoblar aka-uka Grimlarning nomini dunyoga tanitdi va tez orada jahonning ko‘pgina boshqa tillariga ham tarjima qilina boshlandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda jahonning biror go‘shasi yo‘qki, aka-uka Grimmlar ertagi bormagan bo‘lsa, birorta madaniy til yo‘qki, ular tarjima qilinmagan bo‘lsa. Ular jahonning boshqa tillariga tarjima qilinganligidek, bizning ona tilimiz – o‘zbek tiliga ham o‘girilgan. Mualliflarning ertaklari bilan o‘zbek xalqi o‘tgan asrning 30-yillari oxirlariga kelib yaqindan tanisha boshlagan. Aniqrog‘i, nemis xalq ertaklariga bo‘lgan qiziqish O‘zbekistonda o‘tgan asrning birinchi choragidan kuchaygan. Ular 30-yillarning o‘rtalaridan boshlab tarjima qilina boshlangan va qayta-qayta nashr qilingan [2], hozir ham nashr etilmoqda.

Aka-uka Grimmlar ertaklarining ilk nashrlari o‘tgan asrning 30-yillari o‘rtalaridan paydo bo‘lgan. 1937 yilda aka-uka Grimm ertaklarining ilk to‘plami chop etilgan. Bunda ularning tarjimasi va nashri bilvosita (ruscha tarjimasidan) amalga oshirilganligi kuzatiladi. Keyingi yillarda esa ularning tarjimasi bevosita nemis tilidan o‘zbek tiliga amalga oshirilgani e’tiborga molik.

1937 yilda “Yosh kuch” jurnalining qator sonlarida Aka-uka Grimmlarning ertaklaridan namunalar e’lon qilib borilgan. Masalan, jurnalning o‘sha yilgi 8-sonida aka-ukalarning “Bo‘ri bilan yetti echki”, 9-sonida “Bremen muzikachilari”, 1938 yilning 11-12-sonlarida esa “Belyankaxon va Rozaxon” singari ertaklari bolalar e’tiboriga havola qilingan.

1938 yilda aka-uka Grimmlarning “Botir tikuvchi” ertagi ilk marta alohida kitob holida chop ettirildi. Uning tarjimasini F.Rasulov amalga oshirgan. Kitobga B.Vinokurov rasmlar ishlagan. Toshkent-Samarqand Davlat nashriyoti chop ettirgan bu kitob 16 sahifadan iborat.

1938 yilda aka-uka Grimmlarning ertaklari ilk marta alohida to‘plam holida chop ettirildi. “Aka-uka Grimm. Ertaklar” deb nomlangan A.Rahmat tarjimasidagi bu kitob Toshkentdagi Davlat nashriyoti tomonidan o‘quvchilar e’tiboriga havola etilgan. 45 sahifalik albom ko‘rinishidagi bu kitobning tarkibida 8 ta ertak keltirilgan. Bular: “Bremen muzikasilari”, “Mushuk blan sichqan”, “Quyon bilan tpiratkan”, “Ahmaq Gans”, “Aqlli Elza”, “Bir xurmasa shavla”, “Bori blan jetti echki”, “Tulki blan g‘azlar” kabi ertaklardir.

Shundan so‘ng 1940 yilda aka-uka Grimmlarning ertaklari tarjimasi bolalar va yoshlar adabiyoti nashriyoti tomonidan “Oltin g‘oz” nomi bilan alohida kitobcha shaklida eski lotin yozuvida nashr ettirilgan. 16 sahifadan iborat bu ertaklarning tarjimasini Vahob Ro‘zmatov amalga oshirgan.

Ushbu to‘plam, asosan, aka-ukalarning tushunarliligi jihatidan kichik va maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mos kelishi e’tiborga olinib, shu yoshdagi kichkintoylarga tuhfa sifatida chop qilingan.

XX asr 40-60 yillarida aka-uka Grimm ertaklarining o‘zbekcha tarjimalari miqdori yanada ortdi. Jumladan, 1945 yilda Davlat nashriyoti aka-ukalarning “Poya ko‘mir va lovya” deb nomlangan jajji kitobchani kirill alifbosida ham chop etgan. Unda “loviya” so‘zi “lovya” tarzida fonetik prinsip asosida reduksiya holatiga mos yozilgani kuzatiladi. Kitobda yolg‘iz shu ertak rasmlar bilan keltirilgan.

1954 yilda aka-uka Grimmlarning ertaklari “Yetti qarg‘a” nomi ostida O‘zbekiston Respublikasi Davlat nashriyoti tomonidan yana bir marta nashr ettirilgan. Musavvir A.Minaev rasmlar bilan bezatgan bu kitobda “Yetti qarg‘a”, “Botir tikuvchi”, “Bo‘ron kampir”, “Oltovlon bir bo‘lib butun dunyoni aylanib chiqamiz”, “Bremen muzikachilari”, “Yosh pahlavon”, “Uch og‘a-ini”, “Quyon bilan tipratikan”, “Sirli odamchalar”, “Foydali ish”, “Boyqush”, “Yalqov Geyns”, “Yetti botir”, “O‘rmondagi uycha”, “Jinqarcha” kabi 15 ertak keltirilgan. Ularning tarjimasini M.Sodiqova amalga oshirgan.

Tahlil va natijalar. 1963 yilda aka-uka Grimmlarning ertaklari “Bo‘ron kampir” nomi ostida “Yosh gvardiya” nashriyoti tomonidan amalga oshirilgan. Unda R.Fuzailova tarjima qilgan “Bo‘ron kampir”, “Zolushka” ertaklari qatori M.Sodiqova o‘zbekchaga o‘girgan “Bremen muzikachilari”, “Yosh pahlavon”, “Sirli odamchalar”, “Foydali ish”, “Yalqov Geyns”, “Botir tikuvchi” kabi jami 8 ta ertak o‘quvchilar e’tiboriga havola qilingan. Bu ertaklarda dangasa va epchil qizlar, o‘zi yosh bo‘lishiga qaramay katta kuchga ega bo‘lgan yosh pahlavon, kambag‘al kosibga yordam bergan sirli odamchalar va nihoyat, go‘zal Zolushka haqidagi qiziqarli va mo‘jizaviy tasvirli ertaklar keltirilgan.

XX asrning 70-80-yillariga kelib, aka-uka Grimmlar ertaklariga qiziqish yanada kuchaydi. Aka-uka Grimmlar ertaklarining ruscha tarjimasi vositasida Surayyo To‘raxonova 1978 yilda tarjima qilib, “Yosh gvardiya” nashriyoti tomonidan albom ko‘rinishida chop ettirgan yana bir to‘plamda “Bremen mashshoqlari”, “Quyon bilan tipratikan”, “Somon, cho‘g‘ va loviya”, “Bir xumcha shovla”, “Bo‘ron kampir”, “Yetti qarg‘a”, “Yalqov Geyns”, “Mitti odamchalar”, “Oqoyim va Guloyim”, “Uch baxtiyor”, “Qo‘li gul qizcha”, “Botir tikuvchi”, “Tulki bilan g‘ozlar”, “Uch aka-uka” kabi ertaklar tarjimasi amalga oshirilib, kichik maktab yoshidagi bolalar uchun taqdim etilgan. Shu kitobning o‘zida izohlanishicha, tarjimon uni “Detskaya literatura”ning 1967 yilgi nashridan tarjima qilgan. Hajmi 80 bet.

1989 yilda Sano Saidov ham aka-uka Grimmlarning “Uch aka-uka” hamda “Chol va uning nevarasi” ertaklarini olmon tilidan o‘zbekchaga o‘girib, yoshlarga mo‘ljallangan “Gulxan” jurnalining 11-sonida e’lon qilgan.

1990 yilda aka-uka Grimmlar va Vilgelm Gauf qalamiga mansub 10 ta ertakdan iborat to‘plam bevosita nemischa-o‘zbekcha tarjimada nashr etildi. Bu Sharif Ro‘ziev va Mavlon Javbo‘rievlar tarjimasidagi “Sirli kema” to‘plamidir.

Mustaqillik yillariga kelib, aka-uka Grimmlar ertaklarining tarjima qilinishi jarayoni yanada taraqqiy etganligi seziladi. Bu esa, O‘zbekistonda ertak tarjimachiligining ma’lum tadrijiy taraqqiyot bosqichini bosib o‘tganligini ham ko‘rsatadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Xurram Rahimov va Sharifa Salimovalar tarjimasida “Yetti oqqush” nomli olmon xalq ertaklari to‘plami chop etildi. Uning tarkibidan aka-uka Grimmlarning “Bremen muzikachilari”, “Botir tikuvchi”, “Bo‘ron kampir”, “Quyon bilan tipratikan” kabi ertaklari o‘rin olgan. Ma’lumki, bu ertaklar turli yillarda turli tarjimonlar tomonidan takror-takror tarjima qilib kelinishi oqibatida ularning har xil tarjima variantlari kelib chiqqan.

2015 yilda “Oila davrasida o‘qish uchun” rukni bilan chop etilgan “Ertaklar” kitobida aka-uka Grimmlarning “Qurbaqa shahzoda”, “Shirinlik uycha”, “Rapunsel”, “Bremen mashshoqlari” kabi to‘rtta ertaklari lotin yozuvida keltirilgan [3]. Unda ta’kidlanganidek, ushbu “kitobda buyuk ertakchilarning deyarli ikki yuz yil davomida butun dunyo bolalari sevib mutolaa qilib kelayotgan eng mashhur ertaklari jamlangan. Bundan yuz yil muqaddam bo‘lgani singari hozir ham “Bremen mashshoqlari”, “Bo‘ron kampir” va boshqa ertaklar kichkintoylarning eng sevimli ertaklari bo‘lib qolmoqda.

Mazkur kitobdan o‘rin olgan “Qurbaqa shahzoda” va “Shirinlik uycha” ertaklarini mutarjim Abdurahmon Akbar nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan. “Rapunsel” hamda “Bremen mashshoqlari” ertaklarini esa tarjimon Ozoda Azimova o‘zbek tiliga o‘girgan. Bu ertaklardan faqatgina “Bremen mashshoqlari” eng ko‘p tarjima variantlariga ega. Shulardan “Shirinlik uycha” ertagi ilk bor nemis tilidan o‘zbek tiliga o‘girilgan. Uning tarjimoni Abdurahmon Akbar.

“Qurbaqa shahzoda” ertagi bilan “Rapunsel” ertagining tarjima variantlari ham mavjud. “Qurbaqa shahzoda” ertagining tarjimoni ham Abdurahmon Akbar. “Rapunsel” ertagi Ozoda Azimova tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan.

2020 yilda aka-uka Grimm ertaklari 4 ta kitob ko‘rinishida lotin yozuviga asoslangan hozirgi o‘zbek tili alifbosida chop qilindi. Uning ilk kitobi “Mittivoylar sovg‘asi” deb nomlangan. Undagi ertaklarni Xurram Rahimov va Gulrux Rahimovalar bevosita olmon tilidan tarjima qilishgan [4]. Uning so‘zboshisida ta’kidlanganidek, ushbu kitobda aka-uka Grimmlarning saralangan ertaklari jamlangan. Ularni Grimmlar xalq og‘zidan yozib olib, olmon adabiy tili normalariga moslashtirishgan. Ushbu ertaklar olmon xalq og‘zaki ijodi mahsulidir.

“Mittivoylar sovg‘asi” to‘plamining mundarijasini “Olti oqqush”, “Oq ilon”, “Topishmoq”, “Shirin bo‘tqa”, “Bobo va nevara”, “Asalarilar qirolichasi”, “Vafodor it”, “Kuylovchi suyak”, “O‘n ikki ovchi”, “Kelin ko‘rdi”, “Mittivoylar sovg‘asi”, “Bo‘ri bilan odam”, “Dono Gretel”, “Trude xonim”, Qorqiz”, “Bremenlik mashshoqlar” nomli 16 ertak tashkil qilgan.

Aka-uka Grimm ertaklarining 2-kitobi “Yalqov to‘quvchi” nomi bilan e’lon qilingan [5]. Bu kitob uchinchi nashr bo‘lib, undagi olmon ertaklari Xurram Rahimov va Gulrux Rahimova tomonidan tarjima etilgan.

Sarguzashtlarga boy, quvnoq ruhdagi ertaklarni o‘zida jamlagan mazkur mo‘jaz to‘plam tarkibidan aka-uka Grimmlarning “Kuloyim”, “Barmoqvoyning sarguzashtlari”, “Yorinda va Yoringel”, “Bigiztumshuq va ayiq”, “Nog‘orachi”, “Tegirmonchi yigit va mushukcha”, “Yalqov to‘quvchi”, “Opa va uka haqida ertak”, “Eng qashshoq va eng badavlat qiz”, “Cho‘qqisoqol qirol” kabi 10 ta ertagi o‘rin olgan.

Aka-uka Grimm ertaklaridan tuzilgan 3-kitob “Bo‘ron kampir” deb nomlangan. Ma’lumki, aka-ukalarning bu nom bilan avval ham 1963 yilda R.Fuzailova, M.Sodiqova tarjimasidagi 8 ta ertagi kitob holida chop etilgan edi. Demak, bu nom ikkinchi bor takrorlanmoqda. Ushbu kitob Xurram Rahimov va Gulrux Rahimova tarjimasidagi uchinchi nashridir [6]. To‘plam mundarijasidan “Bo‘ron kampir”, “Omadli Hans”, “Qurbaqa shahzoda yoxud zanjirband Haynrix”, “Janob Korbes”, “Folbin hakim”, “Bo‘tqali qozon”, “Yetti qarg‘a”, “Sim-sim tog‘i”, “Bo‘ri bilan yetti uloqcha”, “Quyon bilan tipratikan”, “Qizil qalpoqcha”, “Botir tikuvchi” nomli 12 ta ertak joy olgan.

Aka-uka Grimm ertaklarining Xurram Rahimov va Gulrux Rahimova tarjimada e’lon qilingan 4-kitobi “Uch ip yigiruvchi” deb nomlangan [8] bo‘lib, ikkinchi nashridir. Unda “Sichqoncha, qushcha va bratvurs haqida ertak”, “Uch ip yigiruvchi”, “Qo‘zichoq va baliqcha”, “Rumpelshtilsxen”, “Yetti shvab”, “Cho‘pon bola”, “O‘rmondagi uy”, “Baliqchi va uning xotini”, “Ochil dasturxon, oltin eshak va urto‘qmoq” kabi 10 ta ertak keltirilgan.

Ushbu kitob aka-uka Grimmlarning “Mittivoylar sovg‘asi”, “Yalqov to‘quvchi”, “Bo‘ron kampir” nomli ertak kitoblarining mantiqiy davomi sifatida taassurot uyg‘otadi.

Aka-uka Grimmlarning “Mittivoylar sovg‘asi”, “Yalqov to‘quvchi”, “Bo‘ron kampir”, “Uch ip yigiruvchi” nomli kitoblarida keltirilgan ertaklarning ayrimlari 1954, 1991 va 2001 yillarda chop ettirilgan to‘plamlarda ham berilgan. Biroq ularning tarjimasi tarjimonlar tomonidan uslubiy jihatdan qayta ko‘rib chiqilgan va sezilarli darajada o‘zgartirilgan. Ushbu ertaklar aka-uka Grimmlarning Germaniyada nashr etilgan “Kinder-und Hausmärchen”, “Gesammelt durch die Brüder Grimm”, “Berlin und Weimar”, “Aubau-Verlag 1967” nashridagi 210 ta ertagi orasidan saralab olingan. Agar bu ertaklar asli bilan yonma-yon qo‘yib o‘qilsa, nemis tilini lug‘atsiz o‘rganish imkonini bera oladi. Qolaversa, bu to‘plamdagi ertaklar didaktik jihatdan ham oldingi tarjimalardan farq qiladi. Shuning uchun ularni “tarjima variant”lari sifatida qabul qilish mumkindir.

Hozirgi vaqtda aka-uka Grimlar ertaklarining nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjimalari mahalliy nashrlar, ommaviy axborot sahifalaridan tashqari Internet saytlari orqali ham keng tarqalganligini ham alohida qayd etish mumkin.

Xulosa va takliflar. Xullas, nemis ertakchilari aka-uka Grimmlarning ijod namunalari turli yillarda bir necha bor bevosita nemis tilidan hamda bilvosita rus tili orqali o‘zbek tiliga tarjima qilingan bo‘lib, ayni paytda, ana shu tarjima ishlarini yig‘ib o‘rganishga, ularni qiyoslagan holda yutuq va kamchiliklarini aniqlashga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, uning mustaqillik yillarida amalga oshirilgan variantlarini aniqlab, qiyosiy jihatdan chuqurroq o‘rganish lozim. Negaki, nemis ertakchilari aka-uka Grimmlarning ijod namunalari tarjimalari shoir, yozuvchi yoki mutarjimlar tomonidan amalga oshirilgani sababli turlicha darajada namoyon bo‘ladi. Aka-uka Grimmlar o‘z adabiy ertaklari orqali nemis xalqining o‘zligini tanitishga, xalqining dilidagi orzu-istaklarini topib, sodda, xalqchil uslubda, yuqori badiiy shaklda ifodalashga muvaffaq bo‘ldilar. Grimmlar yaratgan ertaklar nihoyatda rang-barang bo‘lib, ularning tematik doirasi keng, mazmuni inson faoliyati, hayvonlar va jonivorlar, tabiiy hodisalarning juda ko‘p tomonlarini qamrab olgan.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. – 56 б.
2. Bori blan jetti ecki. – Yos kuc. – 1937. – № 8. – B.15-17; Bremen muzikacilari. – Yos kuc. – 1937. – № 9. – B.1- 4; Beljankaxan va Rozaxan. – Yos kuc. – 1938. – № 11-12. – B.37-39; Aka-uka Grimm. Ertaklar. A.Rahmatov tarcimasi. – Taskent: Davlat adabijati nasrijati, 1938. – 45 b.; Aka-uka Grimm. Altin Qaz. V. Rozmatov tarcimasi. – Taskent: Balalar va jaslar adabijati nyasrijati, 1939-40. – B.16. Ertaklar. Oila davrasida o`qish uchun. – Toshkent: “Davr nashriyoti”, 2015. – 256 b.
3. Rahimov X., Rahimova G. Миттивойлар совғаси: эртаклар / Ака-ука Гримм. Учинчи нашри. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2020. – 96 б. Rahimov X., Rahimova G. Ялқов тўқувчи: эртаклар / Ака-ука Гримм. Uchinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020. – 96 б. Rahimov X., Rahimova G. Bo‘ron kampir: ertaklar / Aka-uka Grimm.Uchinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020. – 96 б. Uch ip yigiruvchi: ertaklar. Aka-uka Grimm. Ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2020. – 72 б.
4. Halimovna K.D. On the history of the creation of grimm brothers’fairy tales and their translations into uzbek // euro-asia conferences. - 2021. - t. 3. - №. 1. - s. 85-87.
5. Karimova D. X. Variantnost v perevode (na primere proizvedeniy bratev Grimm) // Vestnik nauki i obrazovaniya. - 2019. - №. 4-2 (58).
6. Пўлатов Х. Кармана боғлари. – “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси,1993 й, 5 февраль; Пўлатов Х., Маматмусаев Т. Шаҳарсозлик ёдгорликларини қайта қуриш. – Тошкент: Шарқ, 2017.- Б. 22.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 82-821

Dilfuza QOSIMOVA,
GulDU 2-bosqich magistranti
E-mail: kosimovad@mail.ru

GulDU dotsenti f.f.n O.Fayzullayeva taqrizi asosida

THE PROBLEM OF ARTISTIC LANGUAGE IN THE WORKS OF SALOMAT VAFO

Abstract

This article is devoted to the analysis of the artistic language reflected in the stories of the writer Salomat Vafo, such as the interior, which shows the inner experiences of the characters, their dreams and hopes, their life path. The speech of the author and the character, which are two branches of the artistic language, are associated with theoretical and scientific aspects that reveal the fullness of the work of art. Opinions about the artistic skill of the writer in providing imagery by means of speech details are presented.

Key words: a work of art, literary criticism, artistic language, artistic speech, poetic language, language of a work of art, poetic speech, story, speech of the author and character, artistic image, artistic image.

ПРОБЛЕМА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ЯЗЫКА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ САЛОМАТ ВАФО

Аннотация

Данная статья посвящена анализу художественного языка, отраженного в рассказах писательницы Саломат Вафо, такого как интерьер, в котором показаны внутренние переживания героев, их мечты и надежды, их жизненный путь. Речь автора и персонажа, являющиеся двумя ветвями художественного языка, связаны с теоретико-научными аспектами, раскрывающими полноту художественного произведения. Представлены мнения о художественном мастерстве писателя в обеспечении образности средствами речевых деталей.

Ключевые слова: художественное произведение, литературоведение, художественный язык, художественная речь, поэтический язык, язык художественного произведения, поэтическая речь, рассказ, речь автора и персонажа, художественный образ, художественный образ.

SALOMAT VAFO ASARLARIDA BADIIY TIL MASALASI

Annotatsiya

Mazkur maqola yozuvchi Salomat Vafoning hikoyalarida o‘z aksini topgan badiiy til qahramonlarning ichki kechinmalarini, orzu-umidlarini, ularning yashash tarzini ko‘rsatib beruvchi interyer kabi masalalar tahliliga bag‘ishlangan. Badiiy tilning ikki tarmog‘i bo‘lgan muallif va personaj nutqi badiiy asarning to‘la qiymatini namayon qiluvchi nazariy-ilmiy jihatlariga munosabat bildirilgan. Yozuvchining nutqiy detal vositasida obrzalilikni ta’minlashdagi badiiy mahorati xususidagi fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy asar, adabiyotshunoslik, badiiy til, badiiy nutq, poetik til, badiiy asar tili, poetik nutq, hikoya, muallif va personaj nutqi, badiiy obraz, badiiy tasvir.

Kirish. Istiqlol davrida adabiyotshunoslik ilmida ulkan yutuqlar bo‘y cho‘zdi. Bu davrda ayol ijodkorlar orasidan mahoratli “so‘z sinchi”lari yetishib chiqdi. Jumladan, Salomat Vafo va Zulfiya Qurolboy qizi kabi ijodkorlarning badiiy asarlarida soddalik, samimiylik, haqqoniy tasvir, xalqchillik, mubolag‘adan yiroqlik, badiiy tasvirlarning jonli va ishonarliligi adabiyot ixlosmadlarini quvontiradi. Umuman adabiyotga e’tibor – kelajakka e’tibordir. Yurtboshimiz shunday deydilar: “Bugungi kunda O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Biz milliy tiklanishdan – milliy yuksalishga erishishni o‘z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo‘ydik. Ayni shu nuqtai nazardan qaraganda, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish, ko‘pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, o‘ylaymanki, katta ahamiyatga ega”. Shunday ekan, bu mavzularda hali o‘z yechimini kutayotgan masalalar talaygina.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Badiiy asarning badiiy tili, poetik nutq haqida bir qator adabiyotshunos olimlarimiz o‘z fikrlarini bildirishganlar. Jumladan, Izzat Sulton “Badiiy asar tili” tushunchasini markazga qo‘ygan holda u bilan bir qatorda badiiy til” va poetik til” til atamalarini ham ishlatadi. “Badiiy adabiyot asarining tili bir-biridan sezilarli farq qilinadigan ikki bo‘lakdan – muallif (avtor) nutqi va qahramon (personaj) nutqidan iboratdir” [1].

Adabiyotshunos olim T.Boboyevda ham “badiiy asar tili” tushunchasi markaziy o‘rin tutgani holda, “badiiy til”, “badiiy nutq”, “poetik til”,“badiiy asar tili”, “poetik nutq” sinonim holatda qo‘llanilgan. H.Umurov masalani “badiiy nutq” tarzida qo‘ygani holda, an’anaga muvofiq “badiiy til” va “poetik til” atamalarini unga sinonim qo‘llaydi. Shu bilan birga, albatta, biz “badiiy asar tili” deganimiz holda, aslida gap badiiy nutq haqida borayotgani ma’lum, chunki til unsurlari ma’lum kontektstni hosil qilgach, nutq hodisasiga aylanadi. Yuqorida badiiy til haqidagi qarashlarning turlicha ekanligiga guvoh bo‘ldik. Aynan badiiy til masalasi, muallif va personaj nutqining o‘rni Salomat Vafo hikoyalarda nechog‘lik bo‘y ko‘rsatgan, hikoyalarda ularning roli va o‘rni haqida maqolada so‘z yuritamiz. Salomat Vafo “o‘zbek hikoyachilik maktabi”da o‘ziga xos o‘rin egallab kelayotgan ijodkorlardan biri. Uning bir qator hikoyalari adabiyotshunoslar, tanqidchilar tomonidan maqtov, e’tirofga sazovor deb topilgan. Yozuvchining “Nomsiz kema”, “Gujum xotin”, “Yo‘qolgan umr”, “Yovuz kuy”, “Kamalakrang durracha” , “Poezd” kabi o‘nlab hikoyalarini o‘qigan kitobxon, asarning badiiy tili va so‘z qo‘llash mahorati va tasvirning jonliligiga tahsin o‘qiydi. Maqolamizda aynan shu hikoyalarning tili, ulardagi tovlanishlar va o‘ziga xoslik, ajib

jozibadiorlik va samimiyat haqida so‘zlashamiz. Asarning tili orqali qahramonlar hayotiga, turmush tarziga, yashash sharoiti va orzu-o‘ylariga nazar solamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Salomat Vafo 1966-yil 20-ynvarda Xorazm viloyati Shovot tumanida tavallud topgan. U Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. U o‘zbek adabiyotida roman yozgan ilk ayol yozuvchi hisoblanadi. Salomat – “Farida”, “Ozini izlayotgan ayol”, “Ko‘ngil farishtasi”, “Tilsim saltanati”, “Ovoraning ko‘rgan-kechirganlari”, “Qora beva” kabi o‘nga yaqin roman, qissa va hikoyalar to‘plami muallifi. Uning hikoyalari o‘ziga xos tilda va o‘ziga xos uslubda, o‘zgacha mahotrat bilan yozilgan. Bugungi zamonamiz adabiyotshunoslari yozuvchi ijodini yuksak baholaydi.

Jumladan, adabiyotshunos olim Q. Yo‘ldoshev shunday yozadi: “Salomat Vafo yozganlarining hayot haqiqatlaridan ko‘ra ruhiyat mosligi to‘g‘risida ko‘proq qayg‘uradigan ijodkor. U personajning ruhiy holati ta’sirida paydo bo‘lgan tasavvur bilan real borliq o‘rtasidagi munosabatlarni nozik his eta oladi” [2].

“Nomsiz kema” – mangu mavzulardan biri bo‘lgan “ona” haqida yozilgan. Uning tili va tasviri ham o‘zgacha. Hikoya qahramonning dard bilan kurashayotgan, o‘limga yor bermayotgan, azob va darddan ustun bo‘lib, hayotda yashashga kurashayotgan, yoyinki o‘zga yurtlarda pul topish ilinjida yurgan yolg‘iz farzandi, qizi yo‘liga ko‘z qadagan, uni ko‘rish ilinjida tunlarni bazo‘r tongga eltayotgan onaning o‘sha musofir qizining samalyotdan tushish tasviri bilan boshlanadi.

“Samalyotdan tushganimda go‘yo ming yillik to‘shakda yotgan bemorday behol, go‘yo ichimni allaqanday nomsiz dard kemirayotganday g‘ussali darddan azob chekardim” [3].

Yuqoridagi muallif tomonidan bayon etilgan qahramonni tasvirlovchi nutq aynan soatlab, samalyot o‘rindig‘idan jilmay o‘tirgan, biqiq va chegaralangan muhitdan yuragi aziyat chekkan, yana o‘sha yurakka betob yotgan onasining qoshiga tezroq yetib borish istagi ham qo‘shilgani Oydinjonni aynan shu ahvolga solgandi.

Salomat Vafo o‘z hikoyalarida Xorazm shevasini, ingliz va rus tilidagi so‘zlarni shunday o‘rinli qo‘llaydi, bu esa o‘z navbatida badiiy asarning saviyasini oshirishga xizmat qilsa, badiiy asardagi qahramonlarning fe’l-atvori haqida kitobxonda yanada kengroq ma’lumotga ega bo‘lish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu hol bevosita zamon bilan hamnafaslikni bildiradi.

“–Vhat you doing nov? Can I help you? – malla soch xorijlik.

–Thank you. Я не могу с вами розговорить. Уменя беда. Моя мама умерла… – dedim bo‘g‘ilib, tomog‘imga allanarsalar yopishardi. Xorijliklar bir zum menga so‘zsiz tikilishdi. Qanday baxtsiz odamman, dunyoning barcha millat va elatlari uchun katta fojea hisoblangan musibatga uchraganman. Yana ko‘zlarimdan yosh oqdi” [3].

Aslida ona barcha yurtda ham eng aziz va mo‘tabar, jonday aziz va yaqin inson. Onasining so‘nggi so‘zlarini eshitolmagan, endi onasining ko‘zlarini ko‘rish, qo‘llarini suyish armon bolgan bu og‘ir vaziyatda atrofdagi rus yigitlar ham uning dardiga davo topib berolmaydi. Unga xushomadgo‘ylik qilishni niyat qilgan, bu yigitlar qizning dardini eshitib, so‘z topolmay qolishdi. Rus va ingliz tillaridagi so‘zlarning aynan o‘rnida, personajlar tomonidan qo‘llanganligi voqeani yanada ta’sirli ko‘rsatishga, til, millat boshqa bo‘lsa-da, ammo “ona” mavzusi bitta yagina ekanligini yana bir bor yodimizga solmoqda.

“Odamlardan chekkaroqqa chiqib uzoqlarga boqdim. Olisroqda qabriston joylashgan edi. O‘shan-chun ham g‘alati is kelayotgan edi. Odam isi. Orolbo‘yi tomonlarda suv yer yuzasiga yaqin bo‘lgani uchun o‘likni sandiqqa solib yer ustiga qo‘yaverishardi. Qabriston ustida rango-rang tig‘lar, alamlar hilpirar, rangsiz maqbaralar qad ko‘targandi. Bular olislardan qayoqqadir otlanayotgan kishik yelkanli kemaga o‘xshardi. Bag‘riga yosh-qari, armonli-armonsiz, sog‘ va kasallarni olib olislarga otlangan nomsiz kemaga…Yaqinda onam ham nomsiz kemaning nomsiz fuqarosiga aylanadi” [3].

Dunyoda onasidan ajralgan insondan baxtiqaro, nochor, ilojsiz inson bo‘lmasa kerak, bu achinarli holni yozuvchi ortig‘i bilan ta’sirli qilib tasvirlagan. Ayniqsa, qabrlarning yelkanlarga, yelkanlarni nomsiz kemaga o‘xshatganligi yanada ta’sirli. Muallif bu ayanchli tasvirni shunday badiiylik bilan tasvirlaganki, kitobxon voqelikka aslo shubha ko‘zi bilan qaramaydi, ishonadi. Demakki, muallif nutqi o‘z gardaniga yuklatilgan vazifani muallif ko‘magi yordamida a’lo darajada uddalaganini ko‘rishimiz mumkin. Badiiy tasvirning real hayot tasviri bilan hamohang bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin.

Hikoyaning xotimasi esa asar mazmuni, uning g‘oyasini to‘la-to‘kis ochib beradi. Chegaradan o‘tolmagan, o‘z onasini so‘nggi yo‘lga kuzatolmagan, afsus va armonlar bilan qolgan, oxirgi farzandlik burchini-da uddalay olmagan “baxtiqaro qiz” fojiasi kitobxonning o‘rtangan qalbini o‘rtaydi, ko‘ziga yosh olishiga majbur qiladi. Hayotda onasiz yashashning dahshatini yaqqol ko‘rsatib beradi. Bu esa o‘z navbatida muallif nutqining mahorati va kuchidir.

“Tobut ko‘targan izdehom bir qalqib ketdi va tikanli devordan uzoqlashdi. Meni jon tark etgandi. Tobut uzoqlashar, balanddagi ipak ro‘mol shamolda “tap-tap” etganicha hilpirar, uning ostida suvratim qaqqayib turardi. Vujudimda, bo‘g‘zimda kuyish va og‘riqli ingroq paydo bo‘ldi. “Ona … yetolmagan onajonim” [3].

“Yovuz kuy” hikoyasidagi tasvirga e’tibor qaratamiz. Muallif nutqi yordamida tasvirlangan joy,interyerga e’tiborimizni qarataylik.

“Gujum osti davlatining yana bir shavkatli fuqarolari, daydilarning yaqin-yiroqlardan tashib keltirgan, teshik chelagidan tortib, paxtasi chiqib yotgan ko‘rpa-to‘shaklari, endilikda urfdan chiqqan o‘zbeklarning milliy ko‘rpachalari, ungib ketgan so‘zanalari, yap-yangi vanna, plastik suv qog‘ozlari, uy qaznoqlarida chang, kir bosib qolgan, qo‘ng‘iroq taqilgan, rangi o‘chib ketgan ulkan beshiklar va hatto hojat o‘tirgichlaridan tortib, purjinasi chiqib, oftobda oqargan divanlar… gujum daraxtining yerga yaqin shoxlariga osib qo‘ygan va bu daraxtning mahobatini yanada oshirib, daraxtning musiqiyligiga hissa qo‘shgan, rosti go‘zal romantik holat ham paydo qilgandi”[4].

Daydi va sayoqlar yashaydigan ushbu ovulning mahobati ham birgina ko‘p asrlik voqealarga guvoh bo‘lgan gujum daraxti edi. Ulkan gujum daraxti ostidagi eski-tuskilarga, buyumlarga qarab ovuldagi lo‘lilarning turmush tarzi, e’tiborsiz- loqayd harakatlari, mazmunsiz, faqat yeb-ichishdan iborat bo‘lgan turmush tarzini ko‘rishimi mumkin. Gujumga ilingan buyumlarga qarab, fahmli kitobxon ovulda istiqomat qiladigan, “hurrak” otib uxlashdan nariga o‘tolmaydigan daydilarning hayoti va yashash tarzini anglab oladi. Teshik chelak, eski ko‘rpa to‘shak, rangi o‘chgan beshik va boshqa buyumlar faqatgina eski tuskilar faqatgina jamiyatdan biroz cheklangan, taraqqiy etishdan to‘xtab qolgan, ishyopmas muhitning vakili bo‘lgan insonlardagina bo‘ladi. Aynan Salomat Vafo ham buni chuqur anglagan holda kitobxonga aynan shuni yetkazib berishga harakat qilmoqda. Asarda daydi-lo‘lilar, ularning katta-kichigi, yosh-qarisi, erkak-ayoli ularning faqatgina oz qobig‘iga o‘ralib qolgan muhiti bor. O‘sha muhit asarning badiiy tili orqali kitobxon shuuriga yetkazib berilgan.

Yozuvchining “Poezd” hikoyasidagi Odil qori obrazi, uning o‘ziga xos fe’l-atvori, odatlari, muomalasi va shunday bo‘lishiga qaramasdan namoz o‘qish holatlari juda ishonarli tasvirlangan.

“–Ha. Eltimi… Bilmayman tuppa-tuzuk yurgan edi. O‘z oyog‘i bilan Toshkentga bordi. Orif o‘g‘limiznikiga, o‘zi

ham kelin ham doktor. Elti Toshkentga kelmasfdan oldin qishloqda yotib qolgan edi-yu, pishillab yana o‘rindiqqa cho‘kdi.

–O‘shanda Orifni sog‘inib rosa ichikdi. Menga “telefon qilib, chaqiring. Orifni ko‘rmay o‘lsam, armonda ketaman”, – dedi. Endi ishlik odamni bir tumov bo‘lganga ham chaqiradimi. Tovuq so‘yib tozalashdi. O‘shatda shamollagan shekilli, yotib qoldi”. [4, 8]

Yuqoridagi berilgan parchadan Odil qorining xarakteri va ahvoli kitobxon ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi. Uning ayoli uchun loqaydligi, ayolining dardiga e’tiborsizligi, faqatgina o‘z qorni va o‘z yumushlari bilan band ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Buni hattoki, bir yo‘talganga ham odamni bezovta qilaveradimi, degan gapidan ham anglash mumkin. Farzandlari ham shifokor, ammo “Bo‘zchi bo‘zga yolchimas” deganlaridek kelin va o‘g‘il ham onaning dardini, ahvolini anglamaydi. Bu ularning loqaydligidan, o‘z yumushlari bilan andormon bo‘lib onaning ahvoli bilan qiziqmasligini ko‘rsatadi. Bu holat bugun butun jamiyatimizdagi farzandlarning salbiy ahvoli ekanini yozuvchi ko‘rsatib bermoqda. Ona esa baribir ona o‘zining farzandiga ilinadi, uning yo‘liga ko‘z tikadi. Farzandiga ilhaq bo‘ladi. So‘nggi nafasigacha uning diydorini kutishi tasviri kitobxonni qiynaydi. Yuqoridagi hikoyaning badiiy tiliga quloq solsak, ko‘plab ma’lumotlarni yetkazib beradi bizga. Berilgan personaj nutqi orqali biz Odil qori, uning ayoli, kelini va o‘g‘li haqida, ularning xarakteri haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. Bu esa personaj nutqining imkoniyatining yanada yuqori ekanini ko‘rsatib beradi.

Tahlil va natijalar. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek adabiyotida Salomat Vafo ijodi atroflicha o‘rganilib kelinmoqda. Hikoyalarning badiiy tili, muallif va personaj nutqining imkoniyatlari juda keng va uning vazifalari ham bisyor. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, badiiy asarning tili quyidagicha bo‘lishi kerak:

–samimiy;
–xalqchil;
–dardchil;
–g‘alizliklardan holi;
–emotsional-ekspressiv;
–qisqa va mazmunli;
–obrazli… va boshqa ko‘plab funksiyalarni bajarishi lozim. Aynan shu vazifalarni yozuvchi mahorat bilan uddalagan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Umuman olganda, badiiy asarning tili serqirra va ko‘plab vazifalarni bajarishi kerak, shundagina asar o‘qirmanlar tomonidan sevib o‘qiladi, mutolaa qilinadi, keng omma tomonidan yaxshi kutib olinadi. Badiiy til masalasi ana shunday serqirra mavzulardan biri. Salomat Vafo ijodida bu mavzu mahorat bilan o‘z aksini topgan. Ijodkorning hikoyalarini tahlil qilish mobaynida muallif va personaj nutqi, umuman asar tili ko‘p ma’no-mazmunlarini ochib boraveradi. Hikoyalarni o‘qir ekanmiz, ijodkorning mahorati va so‘z qo‘llash qobiliyatiga tahsin aytamiz. Salomat Vafo hikoyalarida badiiy til masalasi kelajakda hali o‘rganilishi tadqiq qilinishi bo‘lgan mavzulardan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Toshkent:, Noshir. –B.166.
2. Yo‘ldoshev. Ochqichso‘z. –Toshkent:, Tafakkur, 2019. –B. 151.
3. Vafo S. Nomsiz kema. –Toshkent:, O‘zbekiston milliy kutubxona nashri, 2015. –B. 166, 169, 181, 192.
4. Vafo S. Qora beva. –Toshkent:, Yangi asr avlodi, 2009. –B. 73, 233.

O‘ZBEKISTON MILLIY NIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК: 382.653

Зухрахон МАДАЛИЕВА,
Андижон давлат университети таянч докторанти
E-mail: zuhraxonmadaliyeva1995@gmail.com

ТДЎТАУ профессори, ф.ф.д Н.А. Жумахўжа тақризи асосида

WILLIAM FIERMAN'S SCIENTIFIC VIEWS ON 20TH CENTURY UZBEK LITERATURE

Abstract

It is known that Uzbek literature has always had its fans, readers, and researchers. This article analyzes the research of Uzbek literature by William Fierman, a professor at Indiana University in the United States of America.

Key words: William Fierman, nationality, Russified Uzbek, censorship, Petrov, ideological struggle.

НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ УИЛЬЯМА ФИЕРМАНА НА УЗБЕКСКУЮ ЛИТЕРАТУРУ XX ВЕКА

Аннотация

Известно, что узбекская литература всегда имела своих поклонников, читателей и исследователей. В данной статье анализируется исследование узбекской литературы Уильямом Фиерманом, профессором Индианского университета в Соединенных Штатах Америки.

Ключевые слова: Уильям Фиерман, национальность, обрусевший узбек, цензура, Петров, идеологическая борьба.

УИЛЬЯМ ФИЕРМАННИНГ XX АСР ЎЗБЕК АДАБИЁТИГА ОИД ИЛМИЙ ҚАРАШЛАРИ

Аннотация

Маълумки, ўзбек адабиёти ҳар доим ўзининг ихлосмандларига, китобхонларига, тадқиқотчиларига эга бўлган. Ушбу мақолада Америка Қўшма Штатларида жойлашган Индиана университети профессори Уильям Фиерманнинг ўзбек адабиёти ҳақидаги изланишлари таҳлилга тортилади.

Калит сўзлар: Уильям Фиерман, миллийлик, руслашган ўзбек, цензура, Петров, мафкуравий кураш.

Кириш. Сўз мулкининг султони Навоий Ҳазратлари сўзга шундай таъриф беради:

Адабиёт шундай тубсиз уммонки, шўнғиган билан тубига етиш мушкул, лекин ҳар шўнғиганида қуруқ чиқмайди киши, албатта, янги бир қимматбаҳо топилма билан чиқади. Навоий таъкидлаганидек:

Ул киши сув бағрида ғаввос эрур,
Ким гуҳари маъни анга хос эрур.
Файз ҳаримида тажалли анга,
Ким ёрубон машъали маъни анга[1].

Ўзбек адабиёти шу тубсиз уммоннинг катта бўлагидир. Унинг тубидаги қимматбаҳо топилмалар эса, нафақат ўзбек, балки ўзга мамлакат вакилларини ҳам жалб қилади. Улар ҳам қимматбаҳо нимадир топишга уринишади. XX аср ўзбек адабиётига доир халқаро илмий мунозаралар шундай уринишларнинг самараси бўлди. Чўлпоннинг “Доктор Муҳаммадиёр” ҳикоясида XX аср маданиятига берилган қуйидаги таъриф, айни давр адабиётига-да мос тушади: “…XX аср маданияти келди аждар каби пишиллаб, ҳар тарафга сув чочуб... илгарига қараб ҳаракат қила бошлади...”[13].

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Халқаро адабий майдонда хорижлик тадқиқотчилар Эдвард Олворт, Даниэль Матушевски, Дэвид Монтгомери, Пол Остин, Тахир Қаҳҳар, Боймирза Ҳайит, Уильям Фиерман, Ҳалим Кара, Джеффри Уилер, Ингеборг Балдауф, Адеб Халид; ўзбек адабиётшунос олимлари Лазиз Қаюмов, Шерали Турдиев, Марат Нурмуҳамедов, Матёқуб Қўшжонов, Норбой Худойберганов, Пирмат Шермуҳамедов, Салоҳиддин Мамажоновлар баҳсларда ўз фаолликларини кўрсатганлар ва баъзан уларнинг бундай “фаолликлари” эътироф этилган. Мунозараларнинг кенг кўламда кечганини ўтмиш давр дарсликларида уларнинг ҳам тилга олинганлиги исботлайди. Хусусан, М.Аҳмадбоева ва С.Иброҳимовалар томонидан яратилиб, 1985-йилда Педагогика институтлари талабалари учун чоп қилинган ўқув қўлланмада ҳам таниқли ўзбек совет адабиётшуносларининг ғарбдаги “советшунос”ларнинг ўзбек адабиёти ҳақидаги фикрлари ғараз ва туҳматдан иборат эканлигини фош қилганлари айтилади[2].

Индиана университети профессори Уильям Фиерман Марказий Осиёликларнинг этник ўзига хослиги, миллий ҳис-туйғулари тўғрисида тадқиқот ўтказган, ўзбек адабиётига катта қизиқиш билан қараган. У истиқлолдан аввалги собиқ тузум даврида миллий масалани “ҳал қилиш” билан бевосита шуғулланадиган совет адабиёти орқали миллий туйғу ҳақида аниқ тасаввурга эга бўлиш мумкин эмас деб ҳисоблайди ва ғарбликларнинг жуда кам сонли вакиллари бу ўлкада миллатлараро муносабатларни кузатиш имкониятига эга бўлганлигидан афсус чекади, фуқаролар (Совет давлати фуқаролари назарда тутилмоқда) ҳам миллий туйғу мавзуси “нозик” эканлигини билиб, улар (ғарбликлар) билан гаплашишдан қочишларини айтади.

Тадқиқот методологияси. Адабиётшунослик илмида XX аср Ўзбек адабиётининг хорижий тадқиқотчилари томонидан амалга оширилган ишларни ўрганиш муҳим масалалардан биридир. Ишда асосан қиёсий-тарихий, социологик таҳлил ҳамда тарихий-маданий таҳлил методларидан фойдаланилади.

Таҳлил ва натижалар. Тадқиқотчи Фиерман Одил Ёқубовнинг “Эр бошига иш тушса” (1966-йил), “Улуғбек хазинаси” (1973-йил), “Диёнат” (1977-йил), Мирмуҳсиннинг “Нил устида Ой” (1958-йил), “Шўралаган ҳусн” (1965-йил), “Бир хумча тилла” (1966-йил), “Меъмор” (1974-йил), Мамадали Маҳмудовнинг “Ўлмас қоялар” (1981-йил) асарларини тадқиқ этади. Фиерман ўзбек адабиётида ўрганилиши керак бўлган кўплаб масалалар бор эканлигини таъкидлайди[4], шу билан бирга, ўзи ўзбек асарларидаги “руслашган ўзбек” характерини, дин амалиёти ва баъзи ўзбек ижодкорларининг “совет кишилари” ва совет маданияти ривожидаги ўрнини ўрганади. Шунингдек, у ўзбек адабий тили, ўзбек тилидаги асарларнинг рус тилига таржимаси

ҳақида тўхталар экан, таржималар ҳар доим ҳам тўғри ва тўлиқ бўлмаганини айтиб, ўз фикрини Л.Бат ва М.Қўшжоновнинг “Айбек: Критико-биографическии очерк” асаридаги қуйидаги фикрни келтириш билан асослайди: “Ойбекнинг баъзи асарлари русча таржимада қисқарган. Баъзи сабабларга кўра Нуринг тўйи тасвири таржимада қисқартирилган”. Айни ўринда Фиерман “ўчирилган” сўзини қўллайди. Ўчирилган ва қисқартирилган ифодалари орасида фарқ бор, албатта. Ўчмоқ – кўздан ғойиб бўлмоқ, кўринмай қолмоқ, йўқолмоқ[11], қисқармоқ – бирор жиҳатдан (бўйи, узунлиги, ҳажми, миқдори ва б.) ўлчами қисқа ҳолга келмоқ[11]. Бу икки сўз турли маъноларни англатади. “Ўткан кунлар” дек, қизғин ва бир умрли муҳаббат билан қарши олинган (Н.Каримов таъбири) “Қутлуғ қон” романи 1938-йилда ёзилгани маълум. Асарнинг Тошкентда нашр қилинган биринчи русча таржимасига Лидия Бат муҳаррирлик қилган. Асарнинг ўзбекча ва русча вариантлари солиштирилганида, Фиерман масалани бироз ошириб юборганини кўрамиз. Л.Бат ва М.Қўшжонов маълумотида эса, вазиятни силлиқлаш амалиёти кўринади, албатта, бу жараёнда улар яшаб турган муҳит таъсири ҳам бўлган. Рус тилидаги таржима билан она тилидаги асар солиштирилса, асарда куннинг вақтларини билдирувчи намоз пайтлари ва тўй якунида Лутфинисо (Нуринг онаси)нинг руҳий ҳолати тасвири (...Қудалари кўрсатган эъзоз ва эътибордан мамнун бўлса-да, унинг хотири паришон, кўнгли нотинч эди.)[8] таржимада келтирилмагани кўринади[5]. Лидия Бат ва Матёқуб Қўшжоновга кўра, бу ўринда таржимон учун Нуринг тўйини тасвирлашгина мақсад эмас, бизнингча эса, таржимон бу нуқталарни ўзбек бўлмаган китобхон учун у қадар аҳамиятли деб билмаганидан ёки тушунмаганидан, матндаги бир-бирига алоқадор қисмлар занжирини илғамаганидан қолдириб кетган бўлиши мумкин. Демак, ...энг аввал мутаржимнинг ўзи бир қарашда оддийгина хабар етказаётгандек кўринувчи жумлалар замирида ётган миллий ўзига хосликларни илғай олиши, тушуниши керак бўлади[9]. ...токи таржима ўқувчиси олган таассурот аслият ўқувчиси таассуротига максимал даражада яқин бўлсин[9]. Келтирилган бадиий матнда таржимон ўзбек онасининг, айниқса, қиз узатган онанинг руҳий ҳолатини ҳис қилолмаган бўлиши мумкин.

Ўзбек адабиётини йилма-йил тадқиқ этар экан, Уильям Фиерман 1940-йилдан то 1950-йил бошларигача ўзларининг “йўқотилган авлодлари” ҳақида ёки миллий ҳис-туйғуларни акс эттирувчи асарлар ёзишга ҳеч бир ўзбек ёзувчиси журъат қилолмаганини айтади. Маълумки, 1938-йилги қатағон сиёсати барчани даҳшатга солган эди. Ҳар бир ижодкор ҳар кунини таҳликада ўтказишга, уни ҳам қачондир олиб кетишлари ҳақида ўйлашга одатланиб қолганди, ҳатто ўзларини руҳий томондан бунга тайёрлаб улгуришганди. Аммо улар ҳар қандай вазиятда ижод билан шуғулланишган, Фиерманнинг юқоридаги фикрларини биргина 40-50-йиллардаги адабиётимиз тарихида катта воқеа ҳисобланган Ойбекнинг 1942-йилда тугаллаган “Навоий” романи рад қила олади.

Тадқиқотчи ўрганилаётган давр адабиётида цензура мавжуд бўлгани, лекин ўзбек адабиётини назорат қиладиган даражада ўзбек тилини пухта билувчи руслар кам бўлгани ҳолда, цензура талабларида анчагина ҳушёр бўлган ўзбеклар кўп бўлганини айтади. Унга кўра, Тошкентга келган пайтида бир ўзбек олими –“Америкаликлар бизнинг маданиятни руслар руслаштирди деб айтишади, аммо бу тўғри эмас, руслаштириш баъзи ўзбеклар томонидан амалга оширилди.”, - деган эди. Миллатпарвар зиёлиларнинг қаттиқ қатағонлари шароитида кўплаб юқори мартабадаги кекса авлод вакилларининг катта қисми тез кўтарилишди, улар ўзгаришлардан жуда кам даражада ташвишланишди[4]. Бу ўша даврдаги барчага аён, аммо барча кўз юмган ҳақиқатлардан биридир. Фиерман ўз фикрини Файзулла Хўжаевнинг танланган асарлари дастлаб рус тилида, кейин ўзбек тилида чоп қилингани билан далиллайди.

Тадқиқотда хориж профессори Пиримқул Қодировнинг 1979-йилда “Совет Ўзбекистони” газетаси феврал сонида чоп этилган “Чинор илдизлари” номли мақоласи устида ҳам анчагина иш олиб борган. Пиримқул Қодировнинг фикрича, дарахтларнинг илдизлари бўлгани каби инсониятнинг ҳам ўз маданий илдизлари мавжуд, “ҳар бир шахснинг ички дунёси чексиздир. Биргина одамнинг хотираси ҳамда қалбида Навоий ва Пушкин, Фирдавсий ва Гёте, Шекспир ва Толстойлар яратган юзлаб ёрқин образлар биргаликда яшаши мумкин”[10]. Ўзбекшунос (William Фиерманни назарда тутмоқдамиз) Пиримқул Қодиров нима сабабдан илдиз манбалари қаторида тўрт нафар Европаликлар-у, Марказий Осиё ижодкорларидан атиги иккитаси тилга олганига ажабланади, буни ўзича таҳлил қилишга киришади ва қуйидагича хулоса қилади: биринчидан, бу ўзбеклар ўз маънавий озуқасини ўзлаштириши керак бўлган тупроқда оғир Европа компоненти борлигини кўрсатади, иккинчидан эса, эсдан чиқармаслик керакки, эҳтимол, цензура қоидалари бу контекстда Марказий Осиё ёзувчиларининг тилга олиниши рус ёзувчиларининг номлари билан бирга келишини талаб қилган. Тадқиқотчининг бу фикрини ёқлаймиз, сабаби бизга аёнки, чиндан ҳам, ёзма равишда бўлмаса-да, оғзаки қонундай қабул қилинишга улгурган шундай қоида мавжуд эди. Буни Ойбекнинг “Қутлуғ қон” романига сунъий равишда киритилган, кейинчалик романга ямоқ бўлиб тушган (Н.Каримов таъбири) дея таърифланган Петров образи ҳам исботлайди. 1940-йилда ўтказилган роман муҳокамасида асарда ўзбек халқи миллий онгининг ўсишида рус халқининг тарихий роли кўрсатилмаганлиги катта сиёсий камчилик деб баҳоланган эди. 1987-йилда С.Шермуҳамедов, С.Мирзаевлар томонидан яратилган “Ойбек ва ўзбек совет адабиёти” рисоласида эса асар ҳақида қуйидагилар айтилади: “Асар меҳнаткаш халққа муҳаббат руҳи билан, меҳнатсеварлик, тўғрилик ва адолатни улуғлаш руҳи билан суғорилган. Айниқса, ўзбек меҳнаткашлари революцион онгининг шаклланиши ва бунда рус болшевиклари (Петров образи) кўрсатган таъсир реал акс эттирилган”[21]. Масаланинг давомидаги Фиерман таҳлили қизиқарли. У қуйидагича: Унингча, бу қаторда Гёте ва Шекспирни ҳам ҳавола қилиш, маҳаллий илдизларга бўлган эътиборни “сусайтириш” ўрнига, Пушкин ва Толстой учун мувозанат бўлиши мумкин. Қодиров Совет ватанидаги илдизларнинг ўзига хос мантиғини айтмайди; У рус ёзувчиларини ўз ичига оладиган даражада тушунилган “илдизлар” бошқа европалик муаллифларни ҳам ўз ичига олиши керак, деб айтгандек туюлади[10]. Фиерманнинг бу фикрлари тушунарли, аммо унинг фикрларида бўрттириш бор, сабаби Пиримқул Қодиров томонидан саналган номлар фақатгина мажбурият юзасидангина эмас, келтирилган ижодкорлар чиндан ҳам жаҳон миқёсида ўз китобхон мухлисларига эга эди, таъбир жоиз бўлса, устоз деб билинарди. Масалан, Ойбек Пушкин ҳақида шундай ёзган эди:

Пушкин эди менга лутфан
Мангу порлоқ фикр ила
Шеъриятнинг эзгу оташига
Куч ва илҳом бағишлаган.

Ёки Еркин Воҳидовнинг 1974-йилда ёзган “Пушкин” шеърида:

Мен илк бор мактабга қўйганда қадам,
Илк бор алифбодан олганда таълим,
Менга олам аро юз очган олам –

Пушкин даҳосига қилурман таъзим,
Ҳали мен англамай Алишерни ҳам,
Гёте руҳи ҳали бўлмасдан ҳоким,
Хаёлим бешигин тебратган онам –
Пушкин даҳосига қилурман таъзим.
…
Шоир бўлсам бир кун элга муносиб,
Мени шоирим деб атаса халқим,
Навоий девонин кўксимга босиб,
Пушкин даҳосига қилурман таъзим[3].

Бундай мисраларни яна кўплаб ижодкорларимизда учратамиз:

…Тошларни чанг қилиб учирар замон,
Бир учқун йўқотмас шеъринг ёлқини,
Боғчанг бир баҳорга ҳамиша макон,
Севади ҳар кўнгил, ҳар хаёл уни![7]

Мирмуҳсиннинг 1958-йилда Москвада яратган “Нил устида Ой” ҳикояси “Шўралаган ҳусн” ҳикоясига ўхшаш. Асарда археологик қазишмаларда қатнашадиган, мисрлик икки араб қизининг ўқиш давридаги ҳаёти тасвирланади. Тадқиқотчи бу асарда яширин маъно бор деб ҳисоблайди ва қуйидаги саволни кўндаланг қўяди: Мисрда ёзишни бошлаган “Нил устидаги Ой”да Мирмуҳсин фақат Миср жамиятида мавжуд синфлар тизимини танқид қиляптими ёки у Ўзбекистон ҳақида ҳам нимадир демоқдами?[4]. Эътибор берсак, муаллифнинг “Шўралаган ҳусн” ва “Нил устидаги ой” ҳикояларида танланган қаҳрамонлари “лақаби” бир хил.

Мирмуҳсиннинг 1965-йил яратган “Шўралаган ҳусн”[6] ҳикоясини таҳлил қилар экан, муаллиф асарни бутунлай бошқа йўсинда тушунгани ва тушунтиришга уринган кўринади. Унга кўра, Мирмуҳсин Вика (асли исми Хайринисохон Бердиёрова)ни ўзбек бўлишидан уялишини тасвирлашдан кўра, яхши совет аёли эмаслигини танқид қилаётгандек туюлади. Лекин бизнинг фикримиз юқоридагиларни рад этади, асар билан танишган китобхон Виканинг ўзбекона, миллий маданиятга бўлган муносабатини кўриб, ҳафсаласи пир бўлади, Вика (Хайринисо)нинг нутқи-ю хатти-ҳаракатлари совуққон тасвирланадики, китобхонда табиий равишда босқичма-босқич Викадан жирканиш ҳисси ортиб боради. Асар давомида Виканинг турмуш ўртоғи Норқўзига ва қайнонасига берган “маданиятсиз” таърифи Виканинг ўзи билмаган ҳолда ўзи учун ўз оғзидан таърифи деб ҳисоблаш мумкин. Бундай типдаги персонажлар Мирмуҳсиннинг бошқа баъзи асарларида ҳам учрайди (“Умид” романи, “Нил устида Ой” ҳикояси). Бизнингча, Мирмуҳсин бундай типлар орқали “оммавий маданият”ни тезлик билан, ҳеч қандай таҳрир-у таҳлилсиз қабул қилиб оладиган ёшларни қоралайди. Бундан ташқари, Вика учун Esperanto тили муҳим аҳамиятга эга (Esperánto (esper. Esperanto) — энг кенг тарқалган сунъий тил (лойиҳавий, деб ҳам аталади; турли манбаларга кўра ҳозирда дунёда 2 миллиондан 20 миллионгача есперантистлар яшайди).

У барча одамлар шу тилда сўзлашишларини истайди. Аммо бу тилнинг яратувчиси Людвиг Заменҳоф таъкидлашича, бу тил бошқа тилларнинг ўрнини босмаслиги керак. Виканинг Париждаги Эйфел минораси яқинидаги ресторанлардан бирида “Ча-ча-ча” (50-йиллардан машҳур бўлган Куба рақси)га рақсга тушишни хоҳлаши, пиёлада эмас рюмкада ичимлик истеъмол қилишни афзал кўриши, турмуш ўртоғининг жанозага чиқишига қаршилик қилиши, фарзанд улғайтиришни ўз умрининг зое кетиши деб билиши ва шу каби ҳолатларни қоралаш балки, Инсон ҳуқуқ ва эркинликларини чеклаш бўлиб кўриниши мумкиндир, лекин асарда китобхон ҳеч бир ўринда Хайринисо (Вика)нинг ижобий фазилатларини сезмайди. Аслида, Хайринисо исмининг луғавий маъносига эътибор берилса, унинг келиб чиқиши араб тилига боради ва аёлларнинг энг ҳимматлиси, саховатлиси, меҳрибони деган маъноларни англатади. Аммо қаҳрамонда заррача исми жисмига монандлик сезилмайди. Шунинг учун ҳам аёлнинг қайнонаси (балки муаллиф ҳам) қандай қилиб бундай Ватанни шундай ёшларга қолдириш мумкин дея изтироб чекади. Бу ҳикоя юзасидан фикрларини якунлаш арафасида Фиерман қуйидагича ёзади: Вика Эйфел минораси остида эмас, балки Кремл деворида бўлишни орзу қилганида, бу ҳикоя ҳеч қачон чоп этилмас эди.

Хулоса ва таклифлар. Ўз вақтида Фиерманнинг ушбу мақоласига 1981-йил адабиётшунос Лазиз Қаюмов “Қатъий жавоб” мақоласи билан эътироз билдирган эди. Муаллифга, аввало, Фиерманнинг ўз мақоласини “Ўзбек миллий туйғуси” (“Uzbek feelings of ethnicity”) деб номлагани ёқмайди, сабаби Лазиз Қаюмов хориж тадқиқотчисининг миллий туйғу (айнан ўзбек миллий туйғуси) (Таъкид бизники. З.М.) нима эканини тушуна олишига ишонмас эди.

Тадқиқотчилар орасидаги бундай муносабатга собиқ тузум давридаги мафкуравий кураш сабаб бўлган. Ёзувчилар, ижодкорлар ана шу мафкуравий курашда сўзни қурол қилиб, курашга (ихтиёрий-мажбурий равишда) киришганлардан эдилар. Шундай бўлса ҳам бу даврдаги тадқиқотлар бесамар кетмади. Улар (идеологик ёндашилганини ҳисобга олмаганда) хориж китобхонларига ўзбек адабиётини янада кенг таништиришда, унинг мавзу ва услубларини қиёсан ўрганишда ёрдамчи манба вазифасини бажарди ва бажармоқда. Уильям Фиерманнинг ўзбек адабиёти юзасидан тадқиқотлари таҳлилини кейинги ишларимизда давом эттирамиз.

АДАБИЁТЛАР

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 7-жилд www.ziyouz.com кутубхонаси. Б-56.
2. Аҳмадбоева М, Иброҳимова С. Ўзбек адабиёти. Т., Ўқитувчи. 1985. Б-373.
3. Воҳидов Е. Танланган асарлар. Т.: “Шарқ”. 2016. Б-142.
4. Fierman W. Uzbek feelings of ethnicity. (A study of attitudes expressed in recent Uzbek literature). Cahiers du monde russe et sovietique. Vol22. Avril-Ceptembre1981. pp. 187-229.
5. https://litlife.club/books/234087readpage=26.
6. Мирмуҳсин. Асарлар. Тўртинчи жилд. Ҳикоялар, қиссалар. Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1983. Б-51.
7. Ойбек замондошлари хотирасида. Т. “Адабиёт ва санъат”. 1979. 5-б.
8. Ойбек. “Қутлуғ қон”. Роман. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Т-2015. Б-112.
9. Қуронов Д. Назарий қайдлар. Т: “Академнашр”. 2018. Б-105, 109.
10. “Совет Ўзбекистони” 1979 йил. 2-феврал. Б-3.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. “Ўзбекистон миллий энсиклопедияси”. Давлат илмий нашриёти. Т. 2006-2008. Б-187, 310.
12. Шермуҳамедов С, Мирзаев С. Ойбек ва ўзбек совет адабиёти. Т: “Фан”, 1987. Б-21.
13. Чўлпон. Доктор Муҳаммадиёр. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulhamid-cho-lpon-1897-1938/abdulhamid-cho-lpon-do-xtur-muhammaddiyor-hikoya.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

Bakhtijon MAMATKULOVA,
Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti o‘qituvchisi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail:shodiyonichkailhomova@gmail.com

Professor B.R.Mengliyev taqrizi asosida

ANTROPONIMLARNING TIL TIZIMIDAGI O‘RNI

Annotatsiya
Ushbu maqolada antroponimlarning tilning leksik tizimidagi o‘rni haqida so‘z yuritilib, mavzuga oid adabiyotlar ham tahlil qilindi. Tilning lug‘at tizimi ierarxik tuzilishga ega. Uning har bir bo'g'ini markaz va aylanadan iborat bo'lib, bo'g'in markazi odatda bitta so'zdan iborat. Uning birinchi, ikkinchi, uchinchi bo‘g‘inlari bo‘ladi: sinonimik, graduonimik va hokazo; bularning barchasi ochiq bo‘lib, qo‘llanishi mumkin bo‘lgan yangi leksemalar bilan to‘ldirilishi mumkin, chunki sotsial-lingvistik bosqichda u antroponimik chekka va eng zarur lisoniy bo‘sh doira hosil qiladi. Bu qamal faqat lingvistik bosqichda imkoniyat sifatida mavjud. Har bir inson uchun bu qamal shaxsiy va shaxsiydir.
Kalit so‘zlar: leksikologiya, lingvistik, tarixiy-etimologik, antroponim, toponim, teonim, astronom, zoonim, kosonim, oykonim, gidronim.

МЕСТО АНТРОПОНИМОВ В СИСТЕМЕ ЯЗЫКА

Аннотация
В данной статье рассматривается роль антропонимов в лексической системе языка, а также анализируется литература по данной теме. Словарная система языка имеет иерархическую структуру. Каждый его слог состоит из центра и окружности, а центр слога обычно состоит из одного слова. В нем есть первый, второй и третий слоги: синонимичные, градуонимические и т. д.; все это открыто и может наполняться новыми лексемами, которые можно употреблять, ибо на социолингвистическом этапе создает антропонимическую грань и самый необходимый лингвистический пустой круг. Эта осада существует только как возможность на лингвистической стадии. Для каждого человека эта осада является личной и личной.
Ключевые слова: лексикология, лингвистический, историко-этимологический, антропоним, топоним, теоним, астроном, зооним, косоним, ойконим, гидроним.

THE PLACE OF ANTHROPONYMS IN THE LANGUAGE SYSTEM

Abstract
This article discusses the role of anthroponyms in the lexical system of the language, and also analyzes the literature on the subject. The vocabulary system of the language has a hierarchical structure. Each of its syllables consists of a center and a circle, and the center of the syllable usually consists of one word. It has the first, second, and third syllables: synonymous, graduonymic, etc.; all this is open and can be filled with new lexemes that can be used, because at the socio-linguistic stage it creates an anthroponymic edge and the most necessary linguistic empty circle. This siege exists only as a possibility at the linguistic stage. For each person, this siege is personal and private.
Key words: lexicology, linguistic, historical-etymological, anthroponym, toponym, theonym, astronomer, zoonym, kosonym, oikonym, hydronym.

Kirish. O‘zbek tilshunosligi sohasida til lug‘at tizimining tizimli qurilishi, saqlanib qolishi va kengayishi jarayonida tizimli qoida masalalarini o‘rganish XX asrning 60-70-yillarida boshlangan, Desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. 80-90-yillarda bu muammo butunlay hal qilindi.

Jumladan, o‘zbek tilshunosligida professor Sh. Rahmatullaev, H.Ne’matov, R.Rasulovlarning 2 umumlash-tirilgan darsliklari3 o‘zbek tili leksikologiya tizimining shakllanganligini to‘liq isbotlagan; leksikaning tizimliligi bahs-munozaralarsiz o‘z-o‘zidan ayon bo‘ldi. Bunday umumlashtirishlar keyingi leksikologik tadqiqotlar uchun qo‘llanma bo‘ldi. Leksikaning tizimliligidan kelib chiqib tadqiqot olib borish leksik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq ochib berish imkoniyatini beradi.

Leksikaning tizimli tuzilishining to‘liq isbotlanishi leksikologik tadqiqotlar oldiga ko‘plab yangi muammolarni ham qo‘ydi. Bu muammo va vazifalarning ayrimlari tizimli leksikologiya darsligida keltirilgan.4 Ammo ularning katta qismi haligacha ilmiy adabiyotlarda aniqlanmagan. Ana shunday hal etilmagan muammolardan biri leksikaning tizimliligi va uning onomosistalar lug‘aviy tizimidagi o‘rnidir.

Adabiyot manbalarini haqida umumiy ma’lumot;

Adabiyot sharhi. Bu masala 50-60-yillarda tilshunos olimlar tomonidan tez-tez muhokama qilingan. I.V ta'siri ostida. Stalinning tilshunoslikka oid ishlari o‘sha davrda tilshunosligimizda ikki tushuncha:

1. Tilning asosiy lug‘at tarkibi.
2. Lingvistik tuzilish farqlandi.

Bu davr tadqiqotida, masalan. A.I.Vizgalov asarlarida, A.A. Reformatskiy va boshqalar, mashhur nomlar tilning asosiy lug'atiga kiritilmagan. Ularning ushbu tadqiqotlardagi o'rni lug'at tarkibi bilan belgilanadi. Lekin bu tadqiqotlar leksikani tizimli o‘rganish alohida metod sifatida shakllanmasdan ancha oldin amalga oshirilgan. Shunga qaramay, K.A. Levkovskayaning ta'kidlashicha, hatto tilshunoslik lug'atida ham mashhur otlar o'ziga xos so'zlar sifatida ajralib turardi. Tilshunoslikda leksikani tizimli o‘rganishga tashabbus ko‘rsatgan olimlardan biri A.A. Ufimtseva. Bu mashhur otlarning tilning leksik tizimini to‘ldiruvchi mikrosistemalardan biri sifatida e’tirof etilishini ko‘rsatadi. O'zbek tilida tilshunoslik, bu borada qilingan ishlar E.A.ning tadqiqotlarida atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotchilarning asosiy ishlari mashhur otlarning lug‘aviy tizimdagi o‘rnini aniqlash emas, balki ularning lug‘aviy

tizimdagi o‘ziga xos tizim ekanligini isbotlash edi. Keyingi davrda o‘zbek tilshunosligida olimlarning katta guruhi (jumladan E.A.Begmatov, T.Nafasov, N.Oxunov, G‘.Sattorov-lar)ning sa’y-harakati bilan mashhur otlarning til tizimining alohida qismi ekanligi to‘liq isbotlandi. . Professor E.Begmatov yozganidek: “Tildagi turdosh ot va boshqa so`zlar mashhur otga aylangandan so`ng u turli shakl va vazifaviy o`zgarishlarga uchraydi. Masalan, Azizjon, Azizbibi va Butabek ismlari, Butayor, Bo‘tako‘l, Bo‘taboy “aziz” va “buta” so‘zlariga ma’no va shakl jihatdan teng bo‘ladimi?

Ot vazifasida qo`llangan so`z onomastika ixtiyorida turli qo`shimchalar, yordamchi shakllar, turli elementlarni oladi. So‘zning ot sifatidagi funksional imkoniyatlari ham kengayadi. Masalan: Bo‘riboy, Bo‘rigul, Bo‘riniso, Bo‘rixon. Bunday nomlarni tilda bo‘ri so‘zining aniq so‘zi deb bo‘lmaydi. Nom sifatida qo‘llanilgan bo‘ri dastlab qarindosh ot bo‘lgan “bo‘ri” dan kelib chiqqan bo‘lsa-da, hozirda taxallus ot sifatida o‘ziga xos semantik, nominativ va funksional xususiyatlarga ega. Xuddi shunday Bobonor, Bozorgul, Jumamurod, Murodali kabi umumiy otlar ham g‘am antroponimiyasi doirasida shakllangan va mashhur otlarga xos leksemalardir.6 Darhaqiqat, antroponimlar lug‘aviy tizimning (tizimning) o‘zining tarkibiy qismi sifatida ma’lum kichik tizimlardan iborat. Xususan, antroponimlarning o‘zi ism, ota ismi, familiya, taxallus, taxallus kabi alohida guruhlarga bo‘linadi. Xuddi shunday, shaxs ismlari turkumi mos ravishda erkaklar va ayollarga berilgan ismlar guruhiga bo'linadi. Yuqorida tilga olingan antroponimik birliklar o‘ziga xos semantik, strukturaviy, strukturaviy va uslubiy xususiyatlarga ega. Rus tilshunoslari K.A. Levkovskaya va A.A. Ufimtseva "Til lug'atida alohida guruh so'zlari yoki "Til leksik tizimining ajralmas qismi"8) qayd etdi. Tilshunos olim E.Begmatov ularni “antropoleks yoki ot” deb atashni taklif qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, antroponimlar o‘ziga xos semantik va uslubiy xususiyatlarga ega bo‘lib, grammatik jihatdan ko‘plik bo‘lmagan til tizimida bu lisoniy birliklar alohida tizim va kichik tizimlardan iborat. hali ham ochiqligicha qolmoqda.

Onomastik leksikaning apellatsiya leksikasiga munosabati umuman o‘rganilmagan, degan fikrdan yiroqmiz. Birgina o‘zbek tilshunosligida ajralgan onomonimlarning (onomastik leksika) yakka amaliy leksikaga munosabatiga bag‘ishlangan yuzdan ortiq ilmiy ishlar chop etilgan10, ammo bu ishlarning barchasi onomastik leksikaning alohida olingan appelativ leksika bilan tarixiy-etimologik munosabatlariga bag‘ishlangan. Lekin bunday hollarda onomasiologik-etimologik ma'no va tarixiy-etimologik ma'no tushunchalari ko'pincha chalkashib ketadi. Ma'lumki, bir qator asarlarda onomastik leksika ichidagi tizimli munosabatlar atroflicha ko'rib chiqiladi,12 onomastikaning semantik funksional tasnifi. o‘zbek tilidagi leksika (antroponim, toponim, teonim, astronom, zoonim, kosonim, oykonim, gidronim va boshqalar), har bir guruhga oid o‘ziga xos leksik-semantik, strukturaviy xususiyatlar, ko‘rsatkichlar kengroq izohlanib, tushuntirib berildi. Ammo Abdukarim yoki Abdujalil kabi o‘zbek tilshunoslaridan o‘zbek tili lug‘at tizimiga kiradimi, deb so‘rasak, u aniq javob bera olmaydi va ko‘proq o‘rganishni taklif qiladi yoki “bu so‘z emas, bu so‘z” deydi. nomi".

Ism tilning lug‘at tarkibiga mos keladimi yoki yo‘qmi? Olma lug'at tizimining qaysi bo'g'inida joylashgan va olma lug'at tizimi bilan qanday bog'langan? Bu ikki masalani hal qilmasdan turib, o‘zbek tili leksikologiyasi taraqqiyotining hozirgi bosqichida onomastik tadqiqotlar bilan shug‘ullanib, fan taraqqiyotini tan olishdan boshqa narsa emas. Shuning uchun biz muammoni ko'tardik nomlarning o‘zbek tilining lug‘at tizimiga munosabati.

Tahlil va natijalar. Tizimli leksikologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, tilning leksik tizimi ierarxik tuzilishga ega. Uning har bir bo'g'ini markaz va aylanadan iborat bo'lib, bo'g'in markazi odatda bitta so'zdan iborat. Uning birinchi, ikkinchi, uchinchi doiralari bo‘ladi: sinonimik, graduonimik va boshqa qatorlar, ularning hammasi ochiq, yangi va yangi leksemalar bilan to‘ldirilishi mumkin. Kursh leksemalarining miqdori so‘zlovchining madaniy saviyasi va sohani bilish darajasiga bog‘liq (76 ga qarang). Shunday ekan, o‘zbek tilida otlarning olti yuzdan ortiq turlari mavjud13, 500 ga yaqin baliq turlarining nomini bilgan oddiy o‘zbek 10–12 otning nomini, 4-5 baliq turining nomini bemalol biladi. . 18-20 so‘z o‘rniga ikki so‘z, “ot” va “baliq” so‘zlarini bilishi kifoya. Yosh bola nutqida “ot” bilan “eshak”ni ajratmaydi. Oddiy o‘zbek xalqi 500 dan ortiq baliq va ot turlari o‘rniga aytilgan ot va baliq so‘zlarini bilsa, o‘z nutqi ehtiyojini bemalol qondirishi mumkin. Bundan leksikologlar leksik tizimning istalgan bo‘lagida nutq ehtiyojini yuzaga keltirish uchun eng zarur vosita bu bo‘g‘in markazida turgan markaziy leksemadir, degan xulosaga keladilar [Safarov R., Saidova X., Narzieva M., Orifjonova Sh. , Qilichev B., Ne’matova G. Va boshqalar]. Kurshovning qolgan leksemashakllari ikkinchi darajali vazifalarni bajaradi - nutqni chiroyli qiladi, fikrni aniq ifodalaydi, takrorlashdan saqlaydi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, til leksikasining tizimli tuzilishi ierarxik, ierarxik xarakterga ega bo‘lib, pastdan yuqoriga umumlashtirib boradi.14 Bu jarayonda quyi bosqichdan yuqori bo‘g‘inga ko‘tarilishi orzu qilingan, bu bosqichdagi so‘zlarning hammasi ham emas. kiradi, lekin faqat markaziy leksema. Masalan, ot leksemasi doirasida tanqidchi uchun 500 ga yaqin so‘z bo‘lsa, atigi birgina ot so‘zi 500 ga yaqin so‘zdan yuqori bo‘lgan hayvonning lug‘aviy ma’nolari turkumiga kiradi.

Xususan, “biya” bilan “baytal”ning farqini hamma o‘zbeklar ham bilmaydi. Shu asosda biz dastlab bergan savolimizni boshqacharoq qilishimiz mumkin. Masalan, "ilon boshi"15 yoki "kakra"16 mumkin o'zbek tili lug'atida topiladimi? Bu ikki so‘z ham ko‘pchilik o‘zbek tilida so‘zlashuvchilarga notanish. Albatta, bu so‘zlar o‘zbek tilida keng tarqalgan so‘zlar qatoriga kirmaydi.

Har ikki so‘z o‘zbek tilida keng qo‘llaniladigan “baliq” va “o‘t” so‘zlarining uchinchi va to‘rtinchi darajalarini, ya’ni “baliq” va “o‘t”ning ma’lum bir turini ifodalashga xizmat qiladi va o‘zbeklarning 90 foizi haqiqatan ham zarur. uni bilish. Zarur bo‘lganda “kakra”, “ilonbosh” so‘zlarini ishlatib, “o‘t”, “baliq”ni “falon o‘t”, “falon baliq” deb majoziy ma’noda ifodalaydi. Faqat tor doiradagi mutaxassislar "ilon boshi" va "kakra" so'zlarini o'zlashtira oladi va ularni o'zaro professional nutqda umumiy qo'llaniladigan so'z sifatida qo'llashi mumkin.

Ismlar markaziy leksemashaklning eng periferik leksemashakl xususiyatiga ham ega, lekin ularning vazifasi yuqorida tilga olingan atrofdagi leksemalardan butunlay farq qiladi. Keyinchalik biz ushbu hodisaga aniqlik kiritamiz va so'zlar orasidagi gipo-giperionomik munosabatlarga asoslangan quyidagi misolni keltiramiz.

Masalan, markaziy “qovun” leksemasining ikkinchi doira leksemalarida jins (masalan, chillaki, erta tur), uchinchi aylana leksemalar turning xilma-xilligini bildirsa (handalak), to‘rtinchi aylana leksemalar turning xilma-xilligini bildiradi. nav (kukcha), beshinchi aylana leksemalar nav (ko‘kani)ni bildiradi. Ismlar shaxsning alohida nomi vazifasini bajaradi, joy, narsa va boshqalar til bilan atalgan shaxsda turdosh ot sifatida ajratiladi. Ismlar yuqori shaxsiy ijtimoiy funktsiyani bajaradi. Shu bilan birga, nomlar umumiy ijtimoiy vazifani bajaruvchi markaziy leksema va uning birinchi, ikkinchi, uchinchi va hokazo leksemalaridan butunlay farq qiladi. Demak, apellyatsiya leksema va appelativ so‘zlar umumiy ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lsa, ismlar alohida, ijtimoiy-shaxsiy ahamiyatga ega. Masalan, biz tilimizdagi “ayol” so‘zi bilan odamni ayol deb ataymiz va bu so‘z milliardlab bir jinsdagi odamlarga teng qo‘llanilishi mumkin. Masalan, “Bu ayol yaxshi gapirdi” iborasida bu ayolni hozir rus, frantsuz,

o‘rta yoshli, keksa, erkak yoki turmushga chiqmagan ikki milliardga yaqin ayollarning har qandayiga bemalol qo‘llash mumkin. Ammo ma'lum bir kishi o'zining kundalik hayotida dunyodagi barcha ayollar bilan emas, balki oz sonli ayollar bilan ijtimoiy munosabatlarga kiradi. Shuning uchun u o'zi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos ayollarning har birini dunyodagi boshqa ayollardan farqlashi va uni xotirasida saqlashi kerak. Chunki insonning o'zi kirgan ayollarning har biri bilan munosabati boshqacha. Shuning uchun u ularning har birini alohida nomlashi kerak. Ismlarning individual o'ziga xosligining yana bir zarurati, ayniqsa, antroponimlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Har bir inson o'zi uchun alohida dunyo. Shuning uchun har bir kishi o'zini jamiyatning boshqa a'zolaridan ajratib qo'yishi kerak, ismlar, jumladan antroponimlar ham bunga xizmat qiladi.

Keling, ushbu bo'limning boshida berilgan savolga javob beraylik. Ismlar o‘zbek tili leksikasining umumiy ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘p qo‘llaniladigan so‘zlari qatoriga kirmasa-da, ular shaxsning shaxsiy leksikasida katta o‘rni va ahamiyatiga ega. Masalaning bunday bayoni bugungi kun tilshunosligimizdagi eng dolzarb muammolardan biri bo‘lgan va uslubiy ahamiyatga ega bo‘lgan lingvistik va nutqiy konfliktga duch keladi, chunki til umumiy ijtimoiy xususiyatga ega, nutq esa shaxsiy ijtimoiy ahamiyatga ega.

Lingvistik kelishmovchilikning o'ziga xos qonuni mavjud. Qonun shundan iboratki, biror narsa nutqda yashashi va voqe bo‘lishi uchun u til tizimida imkoniyat sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi kerak. O‘zbek leksemalarining til tizimida otlarning imkoniyati qanday, ular har bir konkret shaxsning lug‘at tarkibidagi eng faol so‘zlar guruhini tashkil qiladi. Bu xususiyat o‘zbek tilidagi har bir maydon nomi uchun o‘ziga xosdir. Tadqiqimiz predmeti antroponimlar bo‘lganligi uchun biz faqat “odam” tushunchasining tilimizdagi ifodasi va “odam” leksemasi atrofidagi mavzularga to‘xtalamiz. O‘zbek tilida shaxsni (shaxsni) tasvirlashning yo‘llari va vositalari juda batafsil o‘rganilgan.17 Biz o‘zbek tilidagi shaxs nomining bir nechtasini sanab o‘tamiz.

1. Jinsga ko'ra: erkak-ayol, bobo-buvi, qiz-o'g'il.
2. Qarindoshlarning fikricha: ota-onasi, amakilari.
3. Yoshiga ko‘ra: beshik, go‘dak, go‘dak, bola, o‘g‘il.
4. Millati bo‘yicha: o‘zbek, tojik, qirg‘iz, rus.
5. Yashash joyi bo‘yicha: Buxoro, Samarqand.
6. Kasbi bo‘yicha: ovchi, baliqchi, traktorchi.
7. Tananing tuzilishiga ko'ra: yog'li, mayda, mayda.
8. Xarakteriga ko'ra: ayyor, badjahl, mehribon.
9. Ba'zi xususiyatiga ko'ra: toshbaqa.
10. Ayrim qismlaridagi kamchiliklarga ko‘ra: cho‘loq, ko‘r, soqov, soqov.
11. Xulq-atvoriga ko'ra: qo'pol, qaysar, odobli, badjahl.

Bunday imkoniyatlarning barchasini sanab o'tishning iloji yo'q. Bu imkoniyatlarning barchasi shaxsni nomlashning lingvistik vositalaridir. Bular antroponimiyada ishlatiladi.

Ismlar, jumladan, antroponimlar o‘zbek til tizimida “odam” leksemasining alohida doirasini tashkil qiladi. Buni quyidagicha tasvirlash mumkin.

1. Sinonim
2. Graduonimik
3. Giponimik
4. Partonimik
5. Antroponimik

Bu chizmadan ko‘rinib turibdiki, antroponimik qamal “odam” leksemasining eng chekkasida joylashgan. Demak, til tizimida shunday qamal mavjud. Bunday doira “erkak” so‘zida ham, “ayol” so‘zida ham mavjud bo‘lib, til tizimida “erkak” otlar doirasi ham, “ayol” ot doirasi ham bo‘sh emas, aniq so‘zlar bilan to‘ldirilmagan. Binobarin, har bir kishi o‘zining ijtimoiy amaliyoti asosida bu doirani to‘ldiradi va uni o‘zining faol so‘ziga aylantiradi. Demak, “erkak”, “erkak”, “ayol” leksemalarining eng tashqi doirasini tashkil etuvchi antroponimlar lingvistik-leksik tizimga kira olmaydi, chunki ular aylanada bo‘lmasa-da, bu doira o‘zakdan eng uzoq nuqtada joylashgan. til tizimining markazi. Shu ma’noda bu doirani “Ilonbosh” – baliq, “kakra” – o‘t leksemasining gipogiperonimik doiradagi o‘rni bilan qiyoslash mumkin. “Ilon kallasi” baliqning beshinchi yoki oltinchi davrasida bo‘lgani uchun o‘zbeklarning 99 foiziga ma’lum bo‘lmagan o‘zbek tili shartli ravishda lug‘at tarkibiga maxsus so‘z sifatida kiritilgan bo‘lsa, antroponimlar ham lug‘atning chetida joylashgan. odam leksemasining barcha qatorlari. Binobarin, o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi eng so‘nggi, ixtisoslashgan so‘zlardan biridir. Antroponimlar «odam» leksemasining eng chekka doirasi bo‘lgani uchun ular umumiy ijtimoiy ahamiyatga ega emas, balki har bir shaxs nutqida alohida ahamiyatga ega.

Xulosa. Antroponimlar tilning lug‘aviy tizimida eng chekka doira sifatida mavjud bo‘lsada, tilning struktura tizimida alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun ham antroponimlar deyarli barcha lug‘atlarda uchraydi. Antroponimlar turkiy tilshunoslikning ilk asari Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asaridan tortib, ko‘p jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”gacha bo‘lgan ko‘plab lug‘atlarga kiritilgan. Shunday qilib, o‘zbek tilining lug‘at tizimida nomlar o‘z o‘rniga ega, lekin u umumiy ijtimoiy xususiyatga ega emas, shaxsiy ijtimoiy xususiyatga ega, degan xulosaga kelish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Akramova S.R. Jamol Kamolning “O‘zbek tili. Academicia: Xalqaro ko'p tarmoqli tadqiqot jurnali yili: 2020, jild: 10, soni: 5 Birinchi sahifa: (1434) Oxirgi sahifa: (1440) Onlayn ISSN : 2249-7137. Maqola DOI: 10.5958/2249-7137.2020.00342.0
2. Amonov U. Abdurauf Fitrat. O‘zbek xalq og‘zaki ijodining ilk tadqiqotchilaridan biridir. Academicia: Xalqaro ko'p tarmoqli tadqiqot jurnali. Yili : 2020-yil, Jild : 10, soni : 6. Birinchi sahifa : (669) Oxirgi sahifa : (673). Onlayn ISSN: 2249-7137. Maqola DOI: 10.5958/2249- 7137.2020.00616.3
3. Jamilova B. S. Safarova N. O. O‘zbek bolalar kitobxonligi asoslari. http://www.testmagzine.biz/index.php/view/573/513.
4. Qosimova Z.X. Psixologiya o`qitishda interfaol metodlarni qo`llash. Akademiya: Xalqaro multidisipliner tadqiqot jurnali https://saarj.com. Yili: 2020-yil, Jilmi: 10, soni: 9-bet. 197-205. Maqola DOI: 10.5958/2249-7137.2020.01046.0
5. Maxmudova D.B. Dizayn estetik tarbiya vosolasi olarak. Academicia: Xalqaro multidisipliner tadqiqot jurnali Yil: 2020, jild. 10 9-son. Birinchi sahifa: (176) Oxirgi sahifa: (182) Onlayn ISSN : 2249-7137. DOI: 10.5958/2249- 7137.2020.01040.
6. Mirzayeva S.R. Konfliktli vaziyatlarda talabalarning o'z sog'lig'iga bo'lgan munosabatining psixologik xususiyatlari. tanqidiy sharhlar jurnali. ISSN- 2394-5125 VOL 7, 17-son, 2020-yil. http://www.jcreview.com/?sec=cissue.
7. Ro‘ziyeva Mohichehra Yokubovna. Xalq og‘zaki ijodidagi rang belgilari haqida. JCR. 2020; 7(17): 461-466 » Annotatsiya» PDF» DOI: 10.31838/jcr.07.17.64;
8. Safarov F.S., Istamova Sh.M. Leksik ma'nolarning turlari. Tanqidiy sharhlar jurnali. 2020; 7(6): 481-484.
9. Samarova Sh.R., Rahmonova M.Q., Mirzarahimova G., Maratov T.G., Komilov B. Ijodiy shaxsni rivojlantirishning psixologik jihatlari va ijodkorlikni intellektga qisqartirish kontseptsiyasi. JCR. 2020; 7(17): 498-505. doi: 10.31838/jcr.07.17.69
10. Tuxsanov K.R. Tarjimada shakl va mazmun birligi. tanqidiy sharhlar jurnali. ISSN- 2394-5125 VOL 7, 17-son, 2020-yil. http://www.jcreview.com/?sec=cissue.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК: 821.512.133.09 (043.3)

Қайрат МАМБЕТАЛИЕВ,
Чирчиқ давлат педагогика университети тадқиқотчиси
E-mail: qayrat2020@mail.ru

п.ф.д., профессор У.Н.Ходжамқулов тақризи асосида

ЎЗБЕК ВА ҚОЗОҚ ШЕЪРИЯТИДА АНЪАНА ВА ОБРАЗЛИЛИК

Аннотация

Мазкур мақолада халқнинг оғир турмуш тарзи ва улардан тотаётган зиён-заҳматларнинг ёрқин ифодаси, оддий туюлган солиқ мавзуси бутун бошли даврнинг ижтимоий-сиёсий қиёфасини аниқлашда одамлар руҳиятидаги ўзгаришлар, уларнинг норизолиги ва бахту иқболга ташналиги талқин қилинади.

Калит сўзлар: халқ, халқ руҳияти, шеърият, образ, жаҳон адабиёти, сюжет, композиция, бадиий тафаккур.

ТРАДИЦИИ И ОБРАЗЫ В УЗБЕКСКОЙ И КАЗАХСКОЙ ПОЭЗИИ

Аннотация

В данной статье яркое выражение тяжелого образа жизни народа и перенесенных им потерь и лишений, вроде бы простая тема налогов, изменения в менталитете народа, его неудовлетворенность и жажда счастья и удачи трактуются в определении социального -политический образ всей эпохи.

Ключевые слова: народ, народный дух, поэзия, образ, мировая литература, сюжет, композиция, художественное мышление.

TRADITION AND IMAGERY IN UZBEK AND KAZAKH POETRY

Abstract

In this article, a bright expression of the people's hard lifestyle and the losses and hardships they suffer from them, the seemingly simple topic of taxes, the changes in the people's mentality, their dissatisfaction and thirst for happiness and luck are interpreted in determining the socio-political image of the entire era.

Key words: people, folk spirit, poetry, image, world literature, plot, composition, artistic thinking.

Кириш. Глобал дунёда сўз ва фикр мантиқни юксалтириш учун ҳар қандай “оқим”ларга мурожаат қилиш ҳолати кузатилади. Эндиликда даврнинг ўз ўлчови ва уни новаторлик билан ифодаловучи ижодкорлари бор. Булар антик юнон маданиятини ҳам, ўрта асарларнинг олтин қоидаларини ҳам, маърифатпарварлик адабиётини ҳам, ҳозирги кечаётган шаклий-услубий жараёнларни ҳам теран фаҳмлайди. Инсоният тараққиёти давомида таназзулларни бошидан ўтказган давр ижодкорлари бугунги кунда умуман тилга олинмаслиги ҳам мумкин. Бироқ тарихий силсилаларнинг шаҳодат беришича, ҳақиқий шеър вақт синовидан омонда яшаётган, даврлар оша хизмат қилаётган адабий йўналишларга мос келадиган ижод намуналари деб тушуниш лозим. Бугун биз шундай ахборот тиғизлашган жамиятда яшар эканмиз, ҳаётнинг биз кўрмаган рангларини ўша ижодкорлар кўра билиши, улардан тайинли хулосалар чиқариши нитажасида новаторлик вазифасини ҳам бажариши мумкин. Буни асло инкор қилиб бўлмайди.

Қозоқ ва ўзбек шеърияти ҳам ана шу жараёнларнинг ажралмас бир халқаси эканлигини унутмаслик лозим. Негаки, ижоднинг олтин қоидаси бор ва у ҳар бир давр учун муҳим. Рус мунаққиди В.Г.Белинский таъбири билан айтганда: “Поэзия мавҳум ғояларнинг яланғоч ифодасига тоқат қилолмайди. Лекин энг мавҳум тушунчаларни ҳам фикр биллур қиррасидан ўтган нурдек равшан кўриниб турган жонли ва гўзал образларга жо қила олади. Шоир ҳамма нарсада шакл, ранг кўради ва барча нарсага шакл, ранг беради. Моддий бўлмаган нарсани моддийлаштиради, осмоний ашёларга ернинг сифатини сингдиради. Шу тариқа ер нарсалари самовий шулъа сочади. Шоир учун дунёдаги барча ҳодисалар ўз-ўзича мавждуддир. Шоир уларнинг бағрига киради, улар билан бирга нафас олади, муҳаббати билан яшайди, уларни асраб-авайлайди, ўзбошимчалик билан уларнинг моҳиятини бузмайди”[1]. Ҳақиқатдан ҳам, даврлар ва замонлар оша халқ оғзаки ижодининг турли хил жанрларга бўлиниб кетишига имкон бериши бугунги шеъриятни тубдан янгиланишига ҳамда анъананинг давомийлигига, уларни яратишдаги ўзига хосликнинг такомиллашувига кенг йўл очди. Жамики шеър бағрида ҳаракатланадиган сюжет ва композицион унсурлар шоирлар наздида тамомила янгилана борди. Ҳатто тиниш белгиларисиз, бармоқ ва сарбаст вазнисиз бошқа шаклу шамойиллари ҳам янги ҳодиса сингари қабул қилина бошлади. Демак, ижод ҳаракатдаги жараёнлигини ўз ҳусну таровати билан исботлаб берди.

Анъанавийликда кечинма табиати. Биз ҳар қандай вазиятда бадиий асарга баҳо беришда ўзидан олдинги анъана (традиция)га суяниб фикр юритамиз. Айниқса, шеърият руҳ ва кўнгил зиддияти (жамият)дан баҳра олинган кечинма маҳсули бўлгани боис, ҳар бир даврнинг муаммолари нуқтаи назаридан баҳолаймиз. XX аср ўзбек ва қозоқ шеъриятида кўзга кўринган икки қутб: диний-маърифий англаш босқичлари ва шўро сиёсатининг ёлғон шиорлари орасида аросатда қолган шоир “мен”ини англаш билан ўлчанади. Ўзбек шоири Муқимий, қозоқ шоири Абай, қорақалпоқ шоири Бердақнинг ижодига назар ташлаб кўрсак, масала моҳияти янада тиниқлашади. Бу учта шоир яшаган ижтимоий-сиёсий вазият ва давр муаммолари бир хил эди. Мана шу бир хиллик уларни бирлаштирди. Анаънавий тарзда ҳам, олам ва одамни талқин қилиш шартларида ҳам. Эътибор берилса мазкур учлик яшаган давр Чор Россияси томонидан Ўрта Осиёни ишғол қилиш режаси тўлақонли амалга оширилганди. Туркистон вилояти газетаси (ТВГ)нинг юзага келиши, танқидий тафаккурнинг ижод психологиясига зимдан таъсири, инсоний муносабатларнинг ўзгариши, ижодкор дунёқарашининг кескинлашувига олиб келди. Мана шу психологик таранг вазиятда шоирлар қандай ёндашувни

маъқул кўрди? Бу ҳақда қуйидаги ижод намуналари мисолида таҳлил қилиб кўрамиз:

Бозорга қараб турсам, ҳар ким борар,
Излагани не бўлса – шу топилар.
Биров овқат олади, биров маржон.
Ҳар кимга бир хил нарса бермас бозор.

Ҳар кимнинг излаган бир нарсаси бор,
Чамалаб оқчасига шундан олар.
Биров укмас бу сўзни, биров укар,
Баҳосин фаҳмламай ҳайрон қолар[2].

Қозоқ маърифатпарвар шоири Абай талқинида мана шу жиҳат, яъни дунёнинг бозорга айланиши, одамлар руҳиятида кечаётган ҳолатлар ўз аксини топмоқда. Даврнинг бозорга айланиб бориши, одамлардаги сабр-тоқат ва инсоф, иймонга дарз кетиши, фақат одамлар “қорин” ғамидан бошқа нарсани ўйламаслиги ҳақида куйинчаклик билан сўз юритмоқда шоир. “Ҳақиқатдан ҳам, даврнинг уйғоқ шоирлари ижодида ижтимоий дард қоришмаган шеърнинг бўлиши мумкин эмас. Зеро, шоир ўз замонасининг барометри. У имкон топса-топмаса давр муаммолари ҳақида ёзишга мажбур. Ўз ташбеҳ ва метафоралари, қочирим ва киноялари ифодалаш орқали замонасининг оғриқли муаммоларини ёзиб қолдиришга бурчлидир”[3]. Бинобарин, даврнинг муҳим белгилар шоир ижодида ўз ифодасини топган. Аввал дину диёнат ҳақида қайғурган шоир кейинчалик ҳар икки вазиятни уйғун ҳолатда бағолашга, уларни теран талқин қилишга жиддий эътибор қаратган.

Муқимий ҳам ўша даврнинг пешқадам вакилларидан биридир. Унинг битикларида ҳам худди Абай каби ижтимоий дард залвори нечоғли муҳим эканлигининг гувоҳи бўлишимиз мумкин:

Озодадин тўпори кўп,
Дукчисидин аттори кўп,
Чойхўридин кўкнори кўп,
Бир раста нос-у банг экан.

Айвончалар мисли катак,
Бир йўлки, одам сиққудак,
Чит бирла бир ерда алак,
Бозори тор-у танг экан[4].

Мана шу сатрларга эътибор берилса, Абайнинг ижтимоий-фалсафий талқинлари одамларнинг дарду ташвишлари каби Муқимийда ҳам залвор анча юқори. Оддийгина бозор таърифида ҳам шу қадар одамлар руҳиятини худди рассом каби чизиб берадики, даврнинг муаммолари кўз ўнгингизда намоён бўлади. Бу анъанавийлик табиатида бирлашиб турган ягона ғоя Чор Россияси истилосидан кейин халқ руҳиятида шаклланаёзган ижтимоий кайфиятнинг бир томонлама қаор топтиришга уринишни кўрамиз. Шоирлар ана шу нуқтани танқидий нигоҳ билан баҳоламоқда. Бу баҳо бугун ҳам кейинги салафлар ижодида яққол намоён бўлиб бормоқда десак, асло муболаға бўлмайди.

Қорақалпоқ шоири Бердақнинг “Солиқ” номли шеърида ҳам худди Абай, Муқимий сингари халқнинг ижтимоий кайфиятини акс эттириш тамойили бўй кўрсатганлигини ҳис қиламиз:

Бултургидан бу йил ёмон,
Қандай бўлди бу шум замон.
Камбағаллар қолмай омон,
Ўн тилладан келди солиқ.

Буни солди Нуримбет “жон”,
Буйруқ берди оталик, хон,
Халқ бўлсин деб хонавайрон,
Ўн тилладан келди солиқ[5].

Халқнинг оғир турмуш тарзи ва улардан тотаётган зиён-заҳматларнинг ёркин ифодаси мана шу шеърда ҳам ўз ифодасини топган. Айниқса, оддий туюлган солиқ мавзуси бутун бошли даврнинг ижтимоий-сиёсий қиёфасини аниқлашда жуда қўл келади. Одамлар руҳиятидаги ўзгаришлар, уларнинг норизолиги ва бахту иқболга ташналиги талқин қилинади.

Таъкидлаш жоизки, аслида мотив ва лирик кечинма муносабати ҳамда улар ифодасидаги шаклий-услубий ўзгаришлар ижодкорликнинг бош тамойили бўлиб, барча замонлардаги етук шоирлар ижодида кўзга ташланади. Хусусан, XIX аср охири ва XX аср бошида мумтоз шеърият анъаналаридан тамомила узоқлашмаган ҳолда, лирик образнинг моҳияти субъективликдан ижтимойликка томон силжиди. Ўз навбатида эса аруз шеърий системасидан ташқари бармоқ ва сарбаст сингари адабий қолипларни ҳам янгилашга эришилди. Ҳадислардаги теран маъноларни шеърий йўсинда ифодалаш ана шу ўзгаришлар асосида ижтимоий мотивлар ётади. Одамлар атрофларидаги тезкор ўзгаришлар, янги тартиб-қоидалар таъсирида ўз ҳаётларида юз берган эврилишларга жавоб олишлари учун мумтоз шеъриятдаги ўта субъектив қолиплардан воз кеча бошлашди. Натижада янги шеърий шакллар ва жанрлар юзага кела бошлади:

Томчи ҳақидаги тасаввурларим
акс этганда тунги япроқда
ёмғир ёғар эди ё ёғмас эди
Кечаги кунимни эслатиб қўлим
намозшомгулларнинг ғамгин ҳидини
мактубларга жойлаётганди
Сувга қиё боққан ёлғизлигимда
гуллар очилмаган эди
очилмаган гулга яқин эдим мен[6].

Одамзод ҳиссий тафаккури ривожи жараёнида олам ва борлиқ сирларини билишга эҳтиёж сезган. Айниқса, тошларга битилган ёзувлар ибтидоий одамни ўйлашга, фикрлашга ундаган. Шеършунос олим Нўъмонжон Раҳимжонов қайд этганидек: «Табиат ва жамият ҳаётининг ривожланиш қонуниятлари ҳам эврилишлар асосида майдонга келар экан. Инсон қандай ижтимоий тузумлар чиғириғи остида яшамасин, тегирмон тошидек айланиб турган мафкуралар исканжасида ҳамиша бир нарса уни ёруғликка олиб чиқаверар экан. Бу – иймон, эътиқод нури»[7]. Бу ички эҳтиёж, зарурат ва тақдирга ишониш, талпиниш жараёнларида одамзоднинг табиатан уни қўрқув ва даҳшатдан халос қилувчи қандайдир куч борлигига амин бўлиши билан ҳам аҳамият касб этади. Демак, мотивнинг моҳиятида – инсон қисмати, олижаноблик ва тубанлик, улуғворлик ва ватанпарварлик сингари воситалар бўлса, кечинмада индивиднинг ботини намоён бўлади.

В.Г.Белинскийнинг таъбири билан айтганда “...агар мен шеърият деганда, ўзида одоб ва эзгулик расм-русумларини ифода этган вазнга солинган ҳамда қофияланган сатрларни тушунсам, у ҳолда Сиз шеърият, бу – ҳаётнинг жонли тасвири-ю, ёниқ инъикоси эканлигига мени қандоқ ишонтирасиз...”[8]. Дарҳақиқат, ҳар бир даврнинг ўз ижодкорлари шоирлари бўлганидек, қозоқ шеърияти бўлсин, ўзбек шеърияти бўлсин, анъанавийликдан сира чеккага чиқа олмайди. Анъанавийлик табиатида ҳам янги-янги талқинлар идрок этилиши ҳақ гап. Яъни у даврлар оша яшайди агар у ҳақиқий истеъдод соҳиби бўлса.

“Шундай бўлса ҳам поэзияда рационаллик ва дидактиктиканинг маълум ўрни, ўз меъёри бор. Шубҳасиз, поэзия ўз табиатига кўра иррационал характерда бўлганлигидан (шеърият назариётчилари уни кўпроқ музика билан қиёслашлари бежиз эмас), хусусан лирианинг рационалистик асослари сўз санъатининг бошқа турларига нисбатан фарқланиб туради. Бунда

асосий критерий поэтик образлардир. Шоир образли фикрлайди, дейиш ўрнига эмоционал кайфиятда фикрлайди деса ҳам бўлади. Сабаби, поэзияда ҳар қандай оқилона фикр ҳис-ҳаяжон маҳсули, индивидуал кайфият, қизғин руҳий ҳолатни кечириш натижаси сифатида, беихтиёр туғилган образлар билангина жонланади, эътиборни тортади, поэтик фикрга айланади. Ҳаяжонланмасдан, фақат ақл, муҳокама ёрдамида ўзига хос ихтирочилик билан ишланган образлар ҳам бўлади, лекин улар поэзияга хос кучли таъсирчанлик касб этмайди. Чунки бундай оқилона, ҳатто пурмаъно образлар кўпинча шоирнинг чинакам кашфиёти, индивидуал изланишлари самараси булмай, кимлардандир, қайсидир бир манбадан олинган бўлиб чиқади”[9]. Демак, ҳар бир ижодкорнинг дунёни англаш ва англатиш манераси турли хил бўлиб, булар бир-бирини асло такрорламаслиги лозим. Бадиий образлилик, эстетик тафаккур ҳосиласи ҳамдир. Эстетик тафаккур нечоғли ривожланишга мойил бўлса ўқувчини ҳам ўзига мафтун қилиб боради.

Умуман, ўзбек ва қозоқ шеъриятида кузатилган сифат ўзгаришлари ҳақида сўз борганда XIX асрнинг иккинчи ярмидан то бугунги кунга қадар анъанавий шеърий кайфият билан модернистик дунёқараш узвийлигида – ўз тақдири хусусида жиддий бош қотираётган инсон ҳурлиги, озодлиги, ижтимоий кайфияти, орзу-умидлари, мақсад-маслаги, тарихи, келажаги ҳақида бош қотираётган кўнгил кишилари руҳияти теран идрок қилинганлигининг шоҳиди бўлдик. У қайси ва қандай мавзуда бўлмасин, туркий халқларнинг сабр-тоқатлилик, инсонийлик, меҳр-шафқат тушунчаларининг ҳар бир давр руҳиятида устуворлик қилиши яққол намоён бўлган десак, асло хато бўлмайди. Зеро, инсоният тафаккури ҳеч бир замонда қотиб қолган эмас. У ҳар қандай замонда ўз табиатидан келиб чиққан ҳолда тадрижий ривожланишга маҳкум. Булар ўзбек ва қозоқ шеъриятининг мавзу-мундарижасини ташкил қилади дейиш мумкин.

АДАБИЁТЛАР

1. Белинский В.Г. Адабий орзулар. –Т., Адабиёт ва санъат нашриёти. 1979. –Б.110.
2. https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/qozoq-sheriyati/abay/
3. Эрназарова Г. Ҳозирги ўзбек шеъриятининг медитатив табиати. Монография. –Т., “Қамар-медиа”. 2020. –Б.140.
4. https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/muqimiy/
5. https://ziyouz.uz/jahon-sheriyati/qoraqalpoq-sheriyati/berdaq/
6. https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/guzal-begim/
7. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. – Тошкент: Фан, 2007. –Б.9.
8. Белинский В.Г. Адабий орзулар. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. –Б. 87.
9. Акромов Б. Шеърият гавҳари. –Т., Ғ.Ғулом. –Б. 100

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК:81-23

Хуршидахон МАРИПОВА,
Фарғона давлат университети докторанти
E-mail:Khurshidaxonm@mail.ru

Ўзбекистон Миллий университетининг Жиззах филиали доценти, Л.Синдоров тақризи асосида

SEMANTIC-SIGMATIC ETYMOLOGY OF CERTAIN MILITARY GERMAN PHRASEOLOGICAL UNITS AND THEIR RENDERING IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

This article is devoted to the issues of interpretation of some German-language military phraseological units in Uzbek languages. The article is written not only for German language teachers, but also for the general public interested in the cultural history, etymological and semantic aspects of the German language, to enable comparison of these aspects with suitable analogues of their native language. Therefore, in the article, the logical content of military phraseology is relatively simplified, and some words and phrases are explained using synonyms or phraseologisms that exist in the Uzbek language.
Key words: German, phraseology, Russian, Uzbek, semantic-sigmatic etymology, military.

СЕМАНТИКО-СИГМАТИЧЕСКАЯ ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ВОЕННО-НЕМЕЦКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ И ИХ ПРЕДСТАВЛЕНИЕ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается интерпретация некоторых немецких воинских фразеологизмов в узбекском языках. Статья написана не только для учителей немецкого языка, но и для широкой публики, непосредственно интересующейся историей культуры, этимологическими и семантическими аспектами немецкого языка, чтобы сравнить эти аспекты с соответствующими аналогами своего родного языка. Поэтому в статье относительно упрощено логическое содержание военной фразеологии, а некоторые слова и словосочетания объяснены с использованием синонимов или фразеологизмов, существующих в узбекском языке.
Ключевые слова: немецкий язык, фразеологизм, русский язык, узбекский язык, семантико-сигматическая этимология, военные.

АЙРИМ ҲАРБИЙ НЕМИСЧА ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ СЕМАНТИК-СИГМАТИК ЭТИМОЛОГИЯСИ ҲАМДА УЛАРИНГ ЎЗБЕК ТИЛИДА БЕРИЛИШИ

Аннотация

Ушбу мақола айрим немис тилида мавжуд бўлган ҳарбий фразеологик бирликларнинг ўзбек тилларида талқин этиш масалаларига бағишланган. Мақола нафақат немис тили ўқитувчиларига, балки тўғридан-тўғри маданият тарихига, немис тилининг этимологик ва семантик жиҳатларига қизиқадиган кенг оммага ушбу жиҳатларни ўз она тилининг мос аналоглари билан таққослаш имконини бериш мақсадида ёзилган. Шунинг учун мақолада ҳарбий фразеологиянинг мантиқий мазмуни нисбатан соддалаштирилган ҳамда баъзи сўз ва ибораларнинг ўзбек тилида мавжуд бўлган синоним ёки фразеологизмлари ёрдамида ифодалаш бўйича тушунтиришлар берилган.
Калит сўзлар: немис тили, фразеологизм, рус тили, ўзбек тили, семантик-сигматик этимология, ҳарбий.

СЕМАНТИКО-СИГМАТИЧЕСКАЯ ЭТИМОЛОГИЯ НЕКОТОРЫХ ВОЕННО-НЕМЕЦКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ И ИХ ПРЕДСТАВЛЕНИЕ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается интерпретация некоторых немецких воинских фразеологизмов в узбекском языках. Статья написана не только для учителей немецкого языка, но и для широкой публики, непосредственно интересующейся историей культуры, этимологическими и семантическими аспектами немецкого языка, чтобы сравнить эти аспекты с соответствующими аналогами своего родного языка. Поэтому в статье относительно упрощено логическое содержание военной фразеологии, а некоторые слова и словосочетания объяснены с использованием синонимов или фразеологизмов, существующих в узбекском языке.

Ключевые слова: немецкий язык, фразеологизм, русский язык, узбекский язык, семантико-сигматическая этимология, военные.

Кириш. Ҳарбий фразеологик бирликлар (иборалар) ҳамда уларнинг акс эттириш, таржима қилиш жараёни барча даврларда мураккаб масалалардан бири ҳисобланган. Ҳарбий фразеологик иборалар турли тилларда ҳар хил сўзлар ёки бирикмалар билан биргаликда келиши ва ўхшаш маънога эга бўлган сўзларнинг бошқа тилларда ўзгача маъно англатиши билан ҳам долзарб ҳисобланади. Чет тилларини ўрганишда, хусусан, армия субмаданиятининг ҳарбий фразеологик иборалари ҳозиргача етарли даражада ўрганилмаган.

Тилшунос олимларнинг фикрича, таржима қилиш жараёнида таржимон аслиятга алоқадор барча манбаларни илмий равишда акс эттириши зарур.

Она тилисидан бошқа тилда ёзилган бадиий асарнинг давр талаби даражасида акс эттира оладиган таржима матнини яратиш мутахассиснинг бу соҳадаги амалий ва назарий билимлар билан пухта қуролланиши лозимлигини англатади. Таржимада шакл ва мазмун муносабатини талқин этиш зарурати мутахассис олдига асарнинг бадиий ёки илмий нафосати ва миллий ўзига хосликларини юзага келтирувчи барча воситалар

вазифаларини ижодий акс эттира оладиган муқобил тил ва нутқ бирликлари танлаш вазифасини қўяди.

Муаммонинг ўрганилганлиги. Мазкур масала юзасидан юртимиз ҳамда дунёмиқёсида бир қатор олимлар илмий изланишлар олиб борган бўлиб, М. Умархўжаев [1], Қ.Назаров [1], Қ.Мусаев [2], З. Жуманиёзов [3], A.Seghers [4], Ғ.Саломов [5],Ш.Раҳматуллаев [6], M.D.Stepanovaund; I.I.Černyqeva [7] Е.В.Розен [8], Э.А.Зуева [9], E.Riesel [11, 12], E.Schendels [11]ларнинг тадқиқотлари шулар жумласидандир.

Асосий қисм

Тилнинг луғат таркибини ташкил этувчи бирликларидан бири иборалардир. Икки ва ундан ортиқ сўзлардан таркиб топган ва яхлит бир кўчма маънонии фодалайдиган, таъсирчанликка эга бўлган тил бирлиги ибора (фразеологик бирлик) дейилади [10].

Ибора (фраза) тузилишига кўра сўз бирикмасига ўхшаб кетади, аммо у нутқ бирлиги ҳисобланган бундай бирликлардан тубдан фарққилади.У сўз бирикмаси каби ҳар сафар нутқнинг таркибидагина ҳосил бўлмайди. Ибора тил бирлиги сифатида нутқда ишлатилгунга қадар тайёр ҳолда мавжуд бўлади. Шу жиҳатдан иборалар турғун сўз бирикмаси деб ҳам юритилади.

Немис тилида кўпинча шахс исмларидан ҳарбий фразеологик бирликларда самарали фойдаланилади ҳамда улар махсус шаклга эга бўлади: исм ва миллат номи - ҳарбий фразеологик бирликнинг ҳар қандай таркибий қисмлари сингари ўзоро «боғланган» бўлади ва уни матн (сўзлашув)да бошқа ҳеч қандай сўз билан алмаштириб бўлмайди. Ҳарбий фразеологик бирликларнинг образли тузилишида бундай иборалар характер, ташқи кўриниш, хулқ-атворнинг баъзи хусусиятларига эга бўлиб, умуман маълум бир тарихий шахсни ва миллатни ифодалаш(тавсифлаш) вазифасини бажаради ва кўчма маънода келади. Масалан:

1. ran(gehen) wie Blücher - сўзлашувда, Блюхердек жанга кирмоқ;

2. als der alte Fritz noch Gefreiter(Fahnenjunker) war – сўзлашувда, хазил оҳангда, аллақачонлар; сўзма-сўз, кекса Фриц хали ҳарбий унвон олган пайтида;

3. Adidas-Gefreiter – (ҳарбий жаргон) Капралнинг норасмий исми. Чунки унинг елкасида адидас красовкаси каби кўп чизиқлар борлиги учун;

4. wie ein Berserker kämpfen (schreien, toben, wüten), сўзма-сўз, Берсек каби жанг қилиш; бақириш, ғазабланиш, жахилдор бўлиш;

5. eine Berserkerwut im Bausche haben, сўзма-сўз, қоринда берсекларнинг ғазаби бўлиши

Шунингдек, немис тилидаги ҳарбий ибораларда шакли ўзгармайдиган, аммо турлича маъноларни англатадиган иборалар ҳам мавжуд бўлиб, мазкур тилни ўрганаётганда ушбу ибораларни тўлалигича ўрганиш муҳим:

1. gegen jn eine Mine legen (мина қўйиш) фразеологик бирлигида денотациянинг айёрлик, адоват каби хусусиятларни баҳолаш доирасига киради;

2. den Bogen überspannen фразеологик бирлигида ҳаддан ташқари айбдор (бирор нарса қилаётганда) интенсивлиги каби сифат баҳоланади;

3. mit verschlossenem Visier kämpfen (fechten), сўзма-сўз, висорни пастка тушириб уришиш, яъни яшринча маккорлик билан курашиш;

4. mit offenem Visier kämpfen (fechten), сўзма-сўз, очиқчасига жанг қилиш.

Немис тилида инсон исмларини ўз ичига олган ҳарбий иборалар ифодали, нутқда кундалик характерга эга ва уларни ташкил этган сўзлар энг содда ёки мураккаб бўлиши мумкин. Юқоридаги мисолларда биз шахс исмларини жуфтлашган комбинациялар ва оғзаки фразеологик бирликларнинг бир қисми сифатида кўришимиз мумкин, аммо мақол ва маталлар сифатида қўлланиладиган шундай ҳарбий иборалар ҳам мавжуд, масалан: Hast du einen Dolch, so hab’ ich einen Degen – сўзма-сўз, агар сенда ханжар бўлса, менда қилич бор; Hast du Pfeile, so habe ich Lanzen – агар сенда ўқлар бўлса, менда найзалар бор; Es fechten nicht alle, die viel drohen – ҳамма ҳам кўп тақдид қилгани билан курашмайди; Mancher zückt das Schwert und zieht nicht vom Leder – кимдир қилич кўтариб юргани билан барибир уни қинидан чиқармайди.

Кундалик-оғзаки нутқда қўлланилаётган мақол ёки афоризмларда исм аҳамиятини тўлиқ йўқотган кўплаб мисолларни топиш мумкин ва уларни ҳарбийлар нутқида ҳам учратиш мумкин, масалан:„Wenn ... dann will ich Hans (Emil, Meier) heißen”, бунда тўлиқ жумла қуйидагича бўлади:«Wenn das sein Wagen ist, dann heiß ich Emil». Бундай ҳолатда ушбу иборани ўзбек тилида халқ орасида кундалик ишлатиладиган: «…билан онт (қасам) ичаман» ёки «Худо урсин!» қабилидаги иборалар орқали ифодалаш мумкин.

Шунингдек, немис тилида Қўрқув: kein Pulver riechen können - қўрқоқлик қилмоқ; ғазаб, auf jn geladen sein – кимдандир ғазабланмоқ, яъни ҳар қандай вазиятда душманга ўқ узиш холатидаги ғазаб; умидсизлик, сўзлашувда, (völlig) am Boden zerstört sein – сўзма –сўз, (бутунлай) ерда вайрон қилмоқ, яъни Иккинчи жахон уруши давридаги самаliётларга нисбатан ишлатилган; Душманлик ва адоват, сўзлашувда, gegen jn vom Leder ziehen – ўпкаси тўлди; das Kriegsbeil ausgraben – урушни яна бошламоқ, сўзма-сўз, уруш болтасини қазимоқ; ёмонлик, auf jn eine (einen Pick) haben / jn auf dem Strich haben – кимгадир гинада бўлмоқ; Фавқулотдаги сигнал (тревога), (wie) auf dem Pulwerfass sitzen – катта хавф остида бўлмоқ. Мисол учун: Ich kann mich an die Zeit vor 1914 nicht mehr so richtig erinnern. Aber damals hat doch eigentlich ganz Euuropa auf dem Pulverfass gesessen (MDtI).

Ушбу фразеологик бирликларнинг семантикаси кўпроқ оғзаки қатламга тегишли ва ёркин ифодалилиги билан ажралиб туради.

Немис тилида ибора сифатида ишлатиладиган бир қанча қисқартма сўзлар ҳам мавжуд бўлиб, улар аскар нутқида ибора мазмунини ўзида акс эттиради. Масалан: SAK (SündenAbwehrKanone), SGA (Spezialgrundausbildung), STOV (Sinnloses Tun ohne Verstand), Tapsi (Total Ahnungslose Person Sucht Informationen), UDO (Unser dümmster Offizier), udRvH (und der Rest von heute), UE (Unerlaubte Entfernung), UvD (Unteroffizier vom Dienst), VIST (Die letzten 10 Netto-Diensttage), ZA (Zivilangestellter der Bundeswehr), ZDv (Zentrale Dienstvorschrift), ZM (zu mir), ZMZZ (Zu mir, zack, zügig!) usw.

Ушбу ижобий, салбий ва нейтрал қисқартма фразалар ҳарбий аскарлар мулоқотини катта қисмини ташкил қилади.

Этник жамоанинг миллий-маданий ўзига хослигини акс эттирувчи фразеологик бирликлар ҳарбий техника ва ҳарбий ишларнинг ривожланиши билан боғлиқ бўлган тўплам ибораларни ўз ичига олади.

Wer das Schwert nimmt, soll durch das Schwert umkommen (қилич олганлар қиличдан ўладилар);

Das Schwert in die Scheidestecken(уришни тўхтатмоқ);

Einen Pfeil umsonst verschießen (нишонга тегмаслик);

die Waffen in die Hand geben / seinem Gagner selbst Waffen liefern (душманни ўз қуроли билан мағлуб қилмоқ ёки урмоқ);

Ушбу фразеологик бирликларнинг таркибий элементлари совуқ қурол ва ўқотар қуролларнинг ҳар хил

турлари ва таркибий қисмларининг номлари билан изоҳланади.

Хулоса. Фразеологик бирликлар – ҳар қандай тилнинг кўп асрлар давомида шаклланган тил бойлиги. Немис тилида сўзлашувчилар билан тўлиқ мулоқот қилиш учун фақатгина грамматикани билиш ва катта сўз бойлигига эга бўлишнинг ўзи кифоя қилмайди. Бунинг учун мазкур тилига чуқур кириб бориш, айниқса, немис тили субмаданияти ҳақида “гапирадиган” иборалар, сўзлар ва атамалар ҳақидаги етарлича билимга эга бўлиш лозим. Бунинг учун эса, немис тили субмаданиятидаги муҳим ва тез-тез ишлатиладиган фразеологик бирликлар ва иборалар рўйхатини шакллантириш, унинг ўзбек ҳамда бошқа тилларидаги мавжуд бўлган талқинларини топиш ҳамда немис тили ўқитувчилари, талабалар ва мустақил тил ўрганаётган омма эътиборига ҳавола этиш лозим. Бу бизга немис нутқининг ўзига хос хусусиятларини ва немис субмаданиятини яхшироқ тушунишга ёрдам беради.

АДАБИЁТЛАР

1. Умархўжаев М., Назаров Қ. Немисча-русча-ўзбекча фразеологик луғат. -Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
2. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. Тошкент: Фан, 2005.
3. Жуманиёзов З. Таржима назарияси ва амалиёти (Ўқув услубий қўлланма) Урганч, 2012.
4. Seghers A."Die Totenbleibenjung". Aufbau-Verlag Berlin und Weimar, 1973
5. Саломов Ғ. Адабийанъанавабадиийтаржима. – Тошкент, 1980.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбектилинингизоҳлифразеологиклуғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978
7. StepanovaundI M.D., I.Černyqeva Lexikologieder deutschen Gegenwarts sprache. Moskau: „Vishayashkola“, 1986.
8. Розен Е.В. Немецкая лексика: история и современность. М.: Высшая школа, 1991. — 96 с.
9. Зуева Е.А. Сравнительный анализ сакральной лексики немецкого и русского языков / Е.А. Зуева ; БелГУ // Филология и проблемы преподавания иностранных языков : сб. науч. тр. / Моск. пед. гос. ун-т, Фак. иностр. яз.. - Москва, 2007. - Вып.3.-С. 75-85.
10. Абдурасулова Х.У. “Die deutschen Wendungen und ihre Übersetzung ins Usbekische”. филология немис тили таълим йўналиши бўйича бакалавр даражасини олиш учун БМИ. УрДУ, Урганч.: 2013.
11. Riesel E., Schendels E., Deutsche Stilistik, Moskau, 1975.
12. Riesel E., Stilistik der deutschenSprache, Moskau, 1968.
13. Немецкие фразеологизмы. Манба: http://startdeutsch.ru/poleznoe/chitat/832-nemetskie-frazeologizmy.
14. Типично немецкие фразеологизмы. Манба: https://www.de-online.ru/tipichnie_frazeologizmy.
15. Бинович Л.Э., Гришин Н.Н., немецко-русский фаразеологический словарь, Москва – 1975.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК:825.426

Ферузаҳон МУРОДХОДЖАЕВА,
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети ўқитувчиси
E-mail: feruzakhon81@mail.ru

ЎзДЖТУ доценти Ҳ.М. Мухамедова тақризи асосида

МЕТАФОРА ВА ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИ ТАРЖИМАДА АКС ЭТТИРИШНИНГ КОГНИТИВ МУАММОЛАРИ

Аннотация

Мақолада сўз ва сўз бирикмаларининг когнитив-семантик таҳлили ва таржима матнлардаги ифодаси масалалари ёритилган. Тилшунослик масалаларининг когнитология муаамолари билан бевосита боғлиқлиги, тил ва тафаккур бирлиги, тил бирликларининг тафаккур бирликларига мутаносиблиги таъкидланган.

Калит сўзлар: сўз, луғавий маъно, тушунча, сўз бирикмаси, идрок, тафаккур, лисоний онг, лисоний билим, ментал лексика, сунъий интеллект, метафора, фразеологизм, таржима, транслитерация, таржима масалалари, таржима муаммолари.

COGNITIVE PROBLEMS OF REFLECTION OF METAPHOR AND PHRASEOLOGICAL UNITS IN TRANSLATION

Annotation

The article deals with the issues of cognitive-semantic analysis of words and phrases and their expression in translated texts. It is emphasized that the issues of linguistics are directly related to the problems of cognition, the unity of language and thinking, the proportionality of units of language, units of thinking.

Keywords: word, lexical meaning, concept, phrase, perception, thinking, linguistic consciousness, linguistic knowledge, mental vocabulary, artificial intelligence, metaphor, phraseology, translation, transliteration, translation problems, translation problems.

КОГНИТИВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОТРАЖЕНИЯ МЕТАФОРЫ И ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ПЕРЕВОДЕ

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы когнитивно-семантического анализа слов и словосочетаний и их выражения в переводных текстах. Подчеркивается, что вопросы языкознания непосредственно связаны с проблемами познания, единства языка и мышления, соразмерности единиц языка, единицам мышления.

Ключевые слова: слово, лексическое значение, концепт, словосочетание, восприятие, мышление, языковое сознание, языковое знание, ментальная лексика, искусственный интеллект, метафора, фразеология, перевод, транслитерация, проблемы перевода, проблемы перевода.

Кириш. Фразеологик бирликларни таржимада адекват талқин этиш мураккаб жараён бўлиб, таржимондан лисоний билим ва тажрибани талаб қилади. Фразеологик бирликларнинг кўчма маънога асосланиши, образлилик матнни қайта яратишда когнитив-прагматик ёндашувни талаб этади.Фразеологик бирликлар бир тилдан иккинчи тилга асосан тўрт хил йўл билан – аслият тилидаги компонентлар таркиби, грамматик қурилиши ҳамда маъно ва услубий вазифасига мос эквивалентлар, бошқа хоссалари фарқ қилгани ҳолда, маъно ва услубий вазифаси ўхшаш муқобил вариантлар, калька усулида ва тасвирий йўсинда таржима қилинади [Мусаев, 2005:185].

Таржимашунослик борасидаги бир қатор муаммолар фразеологик бирликлар таржимаси билан боғлиқ. Бунинг ўзига хос лингвистик, психолингвистик, когнитология билан боғлиқ сабаблари бор. Фразеологизмларнинг шаклланиши маълум бир вақтни, муддатни талаб қилади. Фразеологик бирликлардаги семантика кўчма маънога асосланади. Кўчма маънонинг шаклланиши маълум даражадаги когнитив билим асосида амалга ошади. Лисоний онгда референт, денотатдан йироқлашиш, коннотацияга томон силжиш ва охир-оқибатда айнан коннотацияни англаш жараёни содир бўлади. Коннотацияни англаш маълум бир тажрибани, кузатишларни талаб қилади. Шу асосда лисоний онгда фразеологик бирикма семантикасига оид муайян билим ҳосил бўлади. Тил соҳиби фразеологик бирликни эшитганда унинг лисоний онгида бирликнинг ўз маъноси эмас, кўчма маъноси идрок этилади. Шунинг учун ҳам таржимоннинг аслият тилини билиш даражаси муҳим аҳамият касб этади. Фразеологизм билан боғлиқ муаммолар, кўп ҳолларда аслият тилини билмаган таржимонлар фаолиятида кузатилади.

Метод ва методология. Мақолада когнитив-семантик таҳлил асослари ёритилган тадқиқотлар, когнитив таҳлил усуллари, тавсифлаш, чоғиштириш методлари, диахрон ва синхрон методлардан фойдаланилди.

Фразеологик бирликлар таржимасига хос жиҳатларни мисоллар таҳлили орқали кўриб чиқамиз.

Таржима матнларда фарзеологик бирликлар таржимасида муаллиф маҳорати орқали яратилган тасвир намуналари кузатилади.

Then his apotheosis soared glaring, and to him at least not brief, across the unfathomed sky above his lost earth like that of Elijah of old. Кейин нима бўлди-ю бир зум унинг юлдузи балқиб кўтарилди - бир зумлик бу балқиш Мижлстоннинг ўзига бир умрга татиди - кўтарилди-ю, бир замонлар ҳазрати Илёснинг бошидан ўтгандай, уни ҳам ўзи йўқотиб қўйган ернинг англаб бўлмас шафақгун кўкларига кўтариб кетди.

his apotheosis soared glaring “юлдузи ярақлаб кўтарилди” фразеологик бирикмаси “юлдузи балқиб кўтарилди” деб таржима қилинган. Балқиб сўзи ярақлаб сўзига нисбатан бадиий бўёқдор, юлдуз тасвирига мос равишда танланган. Ярақламоқ лексемаси “шуъла сочиш” маъносини ифодаласа, балқимоқ лексемасида “шуъла” семаси билан бирга “юксаклик”, “муаллақлик” семалари

ҳам мавжуд. Бундай сўз танлаш таржимоннинг сўз маъноси билимдонлигидан далолатдир.

Аслият матнидаги just to look at the country? “фақат мамлакатни томоша қилиб юрмоқ” деган бирикма “беҳуда” маъносига тенг келувчи куннинг ботишини томоша қилиб юрмагандир деган окказионал ибора билан алмаштирилган. Бу ўринда кун ботишини томоша қилмоқ инсон руҳиятига таъсир қиладиган манзара сифатида ҳам аҳамиятлидир. Just to look at the country? “фақат мамлакатни томоша қилиб юрмоқ” фразеологизмида китобхон онгида мавҳум тушунча жонланади. Агар у бирор шаҳар гўзаллигидан завқланиб, унинг онгида арзигулик хотиралар қолган бўлса, шу шаҳар манзараси намоён бўлади. Кун ботишини томоша қилмоқ ибораси эса кўпчилик онгида бетакрор гўзаллик намунаси сифатида таниш манзарани жонлантиради.

Таржимон ҳар икки тилни билса, умуман, тил компетенциясига эга бўлса, ўз она тили имкониятларини чуқур англаса, аслият матнини ўз ҳолича етказишгина эмас, балки аслиятдан ҳам таъсирчан, услубий бўёқдор жумлаларни шакллантиришга муваффақ бўлади ва матн ўқувчи шуурига тез сингади, руҳиятига таъсир кўрсатади.

Таржима матнларда аслиятдаги лексемалар маъносини фразеологизм орқали акс эттириш кузатилади:

I guess all he got out of it was the running away and the blame. Оёғини қўлига олиб қочган-да, бўйнига тавқи лаънатдан ўзга нарсани осиб келган эмас. Ушбу фразеологизмда got out of it was the running away “қочиб қутулган” деган бирикма “тез” маъносидаги оёғини қўлига олиб иборасига алмаштирилган. Натижада қаҳрамоннинг тезкор ҳаракати, руҳий оламини акс эттириш имкони туғилган.

He come here sponging on us white men, and when we got tired of it he took to sponging on these Spigs. Бу ерга тилини осилтириб келди-ю, оғирлиги бўйнимизга тушди, бизнинг меъдамизга теккач, мексикаликлар ҳузурига юкиниб борди.

Матндаги got tired of “чарчаб қолгач” феъли меъдамизга теккач фразеологизми билан таржима қилинган.

I never stole any money. Умрим бино бўлиб мен пул ўғирлаган эмасман. Бу мисолда never “ ҳеч қачон” равиши “умрим бино бўлиб” фразеологизми орқали таржима қилган.

"Haven't eaten in two days?" I said. Икки кун бўлди туз тотмаганимга, - деди узр сўраган каби. Haven't eaten “yemagan” деган сўз “туз тотмаган” фразеологизмига ўгирилган.

I was raised religious; I have never used tobacco or liquor; and I don't think now that I am going to hell. Мени болаликдан художўй қилиб тарбиялашган, оғзимга бир томчи ҳам олмаганман, чекмаганман, умидим борки, дўзахга ҳам тушмайман.

Матндаги I have never used tobacco or liquor “мен ҳеч қачон тамаки ва спиртли ичимликлар истеъмол қилмаганман” мазмунидаги жумла, оддий, денотатив маънодаги бирикмалар “оғзимга бир томчи ҳам олмаганман” фразеологизми орқали таржима қилинган. Оғзига олмоқ фразеологизми ўзбек ментал лексиконида “спиртли ичимлик истеъмол қилмоқ” маъносида қабул қилинади. Бунда ичимликнинг тақиқланиши билан боғлиқ семантика намоён бўлади.

He hushed (у жим бўлди) предикатив бирлиги тили танглайига ёпишди фразеологизмига ўгирилган.

Баъзи ўринларда матннинг таъсирчанлигини ошириш, мазмунни бойитиш учун таржимон томонидан маълум ифодаларни қўшиш ҳоллари ҳам кузатилади.

For fifty-six years, a clotting of the old gutful compulsions and circumscriptions of clocks and bells, he met walking the walking image of a small, snuffy, nondescript man whom neither man nor woman had ever turned to look at twice, in the monotonous shop windows of monotonous hard streets.

Таржимада: Бир парчагина эту суякдан иборат бўлган бу шўринг қурғур доим соатлар ва қўнғироқларнинг қисталанг забтида яшар, эллик олти йилдан бери кўримсиз тош кўчалардан қатнагани қатнаган, увоқ ва бечораҳол, дилдираган бу одамчанинг турқи-таровати кўча магазинларининг хира ойналарида акс этгани этган ва лекин на бирон эркак ва на бирон хотин унинг орқасидан қайрилиб қараган эмасди.

Ушбу таржимадаги бир парчагина эту суякдан иборат бўлган фразеологизмининг муқобили аслиятда мавжуд эмас. Таржимон томонидан образли тасвир яратиш мақсадида қўшилган. Қатнагани қатнаган, акс этгани этган каби такрорлар китобхон онгида воқелик такрори ҳақида тасаввурни жонлантиради.

Аслиятдаги small “kichkinagina” сўзи “увоқ” деб таржима қилинган. Увоқ сўзи тилда кам ишлатилади. Урвоқ, ушоқ кўринишлари ҳам бор. Таржимон кам истеъмолда бўлган туркий сўзни қўллаган ва уни оммалаштиришга хизмат қилган. Аслиятдаги snuffy “бахтсиз” сўзи бечораҳол деб таржима қилинган. Бахтсиз сўзи ўзбек ўқувчиси онгида “маънавий эҳтиёжманд” тушунчасини ҳосил қилади. Бечораҳол сўзида эса “моддий эҳтиёжмандлик” мавжуд. Бу сўз таржимаси муваффақиятли чиқмаган.

"At night I just unroll it and go to bed and the next a. m. I just roll it back up and lean it in the corner. Кечаси бўлганда, толни ёзиб ётаман, эрталаб яна ўраб бурчакка қўяман. Ушбу матн таржимасида unroll it and go to bed “uni yozaman va uxlagani yotaman” деган бирикма “толни ёзиб ётаман” деб таржима қилинган. Бунда китобхон тасаввурига реал манзара тақдим этиш учун аслиятда олмош билан ифодаланган нарса-буюм номи келтирилган.

Some damn fellow that's too rich to afford to be caught stealing sets back and leaves a durn fool that never saw twenty-five hundred dollars before in his life at one time, pull his chestnuts for him. Жуда ҳам битиб кетган разил махлуқ ўзини қуруққа олиб қочади, бошқаси - аҳмоқларнинг энг аҳмоғи эса, гарчи умрида қўлига икки ярим минг ушламаган бўлса ҳам, анов разилга чўғ устидан писта олиб бериб туради.

Инглизча матндаги pull his chestnuts for him “у учун каштан узиб бермоқ” мазмунидаги фразеологик бирикма чўғ устидан писта олиб бериб турмоқ фразеологизмига алмаштирилган. Таржимоннинг маҳорати лисоний онгга маданий нуқтаи назаридан ёндашганида кўринади. Pull his chestnuts for him “у учун каштан узиб бермоқ” фразеологизми ўзбек маданиятига нотаниш манзара. Биринчидан, Ўзбекистон ҳудудида каштан дарахти кам учрайди. Иккинчидан, ўзбеклар онгида “каштаннинг узиб олиниши”, ундаги қийинчилик ҳақидаги билим мавжуд эмас. Чўғ устидан писта олиб бериб турмоқ ибораси эса аниқ тасаввур ҳосил қилади. Китобхон онгида чўғ ва унинг куйдириш хусусияти, пистанинг кичик ҳажмдалиги ҳақида ахборот мавжуд. Бу билим жараённинг мураккаблиги тўғрисидаги идрокни ҳосил қилади.

I at last succeeded in evading his other down-at-heel compatriots like my first informant; men a little soiled and usually unshaven, who were unavoidable in the cantinas and coffee shops, loud, violent, maintaining the superiority of the white race and their own sense of injustice and of outrage among the grave white teeth, the dark, courteous, fatal, speculative alien faces, and had Midgleston to breakfast with me. Мен ҳалиги биринчи ҳамсуҳбатимга ўхшаган унинг шўрпешона ватандошлари ҳаётда кўп эзилган, тўзган, доим соч-соқоллари ўсиб юрадиган, қачон қараманг, кафе ва барларни тўлдириб ўтириб, тишлари инжудай оппоқ,

қорамағиз, назокатли, ўйчан ерли кишилар орасида шовқин-сурон кўтариб, оқ танлиларнинг афзаллиги, бошларига тушган турли ноҳақлик ва хафагарчиликлардан вағирлашиб сўзлашадиган кимсалардан андак холи қолишим билан ўзим уни биргаликда нонушта қилишга таклиф қилдим.

Келтирилган парчадаги grave white teeth “қабр тошидай оппоқ” деб сифатланган тиш ўзбек тилида инжудай оппоқ, the dark “қоронғуликдай” маъносидаги сўз қорамағиз, деб таржима қилинган. Тишнинг қабр тоши оппоқлигига қиёсланиши ўзбек маданиятига хос эмас. Бу ҳолат қабртошнинг оқлиги ўзбек маданиятида эталон эмаслиги, қабр тушунчаси билан боғлиқ аксқадриятлар билан белгиланади. Ўзбек маданиятида, мумтоз адабиётида тишнинг оқлиги инжу рангига қиёсланади. Бунда тишнинг нафақат ранги, балки соғломлиги ҳақида ҳам ахборот берилади. “Қоронғуликдай” мазмуни инсонга нисбатан қўлланмайди, балки макон ва замон билан боғлиқ тушунчадир.

But some is born for one thing and some is born for another thing. And the fellow that is born a tadpole, when he tries to be a salmon all he is going to be is a sucker. Таржимада: Лекин ҳар кимники ўзига. Жўжа бўлиб туғилган экансан, барибир ҳеч қачон бургут бўлиб қолмайсан, охири товуқ бўласан, холос.

And the fellow that is born a tadpole, when he tries to be a salmon all he is going to be is a sucker. Итбалиқ бўлиб туғилган экансан, лосос бўлишга қанчалик уринсанг-да, охирида бир тирранча бўласан, холос мазмунидаги ўхшатишлар Жўжа бўлиб туғилган экансан, барибир ҳеч қачон бургут бўлиб қолмайсан, охири товуқ бўласан, холос ўхшатишларига алмаштирилган.

Ўзбек китобхонига итбалиқ яхши таниш бўлса-да, лосос ҳақидаги тасаввур етарли даражада тўлиқ эмас. Лисоний онгда лосос, унинг хусусиятлари ҳақида маълумотлар, деярли кузатилмайди. Шунинг учун таржимон ўхшатишларда маданиятга таниш эталонлардан фойдаланган. Мазкур ўхшатишлар тушунча ифодалаш билан бир қаторда эмоционал- экспрессив хусусиятларни ифодалайди. Шунинг баробарида тушунчани даражалаб кўрсатишга ҳам хизмат қилган. Градуонимия таржима матнда ҳам ўз ифодасини топган.

№	Аслиятдаги ўхшатишлар	Таржима матндаги ифодаси	Градуал маъно
	Итбалиқ And the fellow that is born a tadpole, when he tries to be a salmon all he is going to be is a sucker. “Жўжа бўлиб туғилган экансан, барибир ҳеч қачон бургут бўлиб қолмайсан, охири товуқ бўласан, холос”.	Жўжа	Инсонликнинг қуйи даражаси нейтрал ҳолда ифодаланган.
	Тирранча	товуқ	Инсонликнинг ўртача даражаси ифодаланган.
	Лосос	бургут	Инсонликнинг юқори даражаси ифодаланган.

Таржима икки хил мутахассис томонидан амалга оширилади. Мутахассис матнни дунёни ўзи англаган ва лисоний онги шаклланишига асос бўлган тилга таржима қилади. Бунда аслият матнидаги фразеологик бирликларни, кўчма маънога асосланган бирикмалар мазмунини тўлиқ англамаслиги мумкин. Ўз тилини яхши билса-да, аслиятдаги мазмун англашилмагани учун таржима муваффақиятли чиқмаслиги мумкин. Баъзи таржимонлар она тилидаги матнни бошқа тилга ўгиради. Бунда иккинчи тилни яхши билмаслик оқибатидаги муаммолар кузатилиши мумкин. Шунинг учун ҳам таржимондан ҳар икки тилни мукаммал даражада билиш талаб этилади.

Таржима жараёнида аслиятдаги мазмунни сақлаш учун, сўзни таржима қилиш имконияти бўлмаганда транслитерация усулидан фойдаланилади. Транслитерация французча transliteration – “таржима қилиш” маъносидаги сўз бўлиб, муайян графикадаги матнни бошқа ёзувга ўгириш усулини билдиради. Таржимада транслитерация сўз, сўз бирикмаси ва ибораларни асл ҳолида беришни назарда тутади.

That's it. A farn. Худди ўзи. Фарнлар. Ҳар жиҳатдан ажойиб, мукаммал одамларга нисбатан ишлатиладиган a farn сўзи аслиятдаги шаклда берилган.

Баъзан транслитерация асосида таржимада сўз таржима қилаётган тил бирликларига мослаштирилади: That's what I was once матнидаги I was once “бир марта бўлганман” мазмунидаги жумла “Мен бир марта ана шундай фарн бўлганман” деб таржима қилинган. Farn сўзига бўлмоқ ёрдамчи феъли қўшилиб, қўшма сўз ҳосил қилинган.

I have been something outside the lot and plan for mortal human man to be. Because for one day in my life I was a farn." Мен бошимдан шундай бир нарсани кечирдимки, бунақаси оддий одамнинг пешонасига ҳар куни ҳам тушавермайди. Ҳаётимда бир маротаба мен фарн бўлганман. Матндаги for one day in my life I was a farn (ҳаётимда бир кунга фарн бўлганман) жумласи “Ҳаётимда бир маротаба мен фарн бўлганман” деб ўгирилган.

Фразеологизмлар билан боғлиқ таржималар ҳар доим ҳам муваффақиятли чиқавермайди. Масалан, He come here sponging on us white men, and when we got tired of it he took to sponging on these Spigs. Бу ерга тилини осилтириб келди-ю, оғирлиги бўйнимизга тушди, бизнинг меъдамизга теккач, мексикаликлар ҳузурига юкиниб борди.

Матндаги got tired of “чарчаб қолгач” феълини меъдамизга теккач фразеологизми билан таржима қилишда услубий жиҳатдан номувофиқ ҳолат шаклланган. Биринчидан, кўмакчи феълли сўз қўшилмаси фразеологизмга ўгирилган. Бунда кўп ҳолларда матн проекциясининг таъсирчан намоён бўлиш ҳолатларини юқорида кузатдик. Лекин маъно, мазмун мос келмаса, таржима ўзини оқламайди. Иккинчидан, меъдамизга теккач фразеологизми овқатга нисбатан ёки шахснинг ножўя хатти-ҳаракатига нисабатан ишлатилади. Матнда эса қаҳрамоннинг жимоний толиқиши ифодаланган. Бу ўринда таржима муваффақиятли равишда амалга оширилмаган.

Хулоса. Сўз луғавий маъно ифодалайди. Луғавий маъно тушунчага тенг келади. Турли тизимга мансуб тилларнинг чоғиштирма таҳлилидан шу нарса маълум бўладики, тушунча умумийлик характерига эга, луғавий маъно эса миллий белгиларни ўзида акс эттиради. Ўзбек ва инглиз тилларидаги сўзлар ва сўз бирикмаларини қиёсланганда умумий ва фарқли белгилар яққол кўзга ташланади.

Сўзлар онгда борлиқнинг аташ, белги, ҳаракат хусусиятларини акс эттиради. Инсон лисоний онгида борлиқнинг лисоний инъикоси бўлган олам манзараси акс этади. Борлиқ ҳақидаги лисоний ахборот инсон онгида

ментал лексиконни ҳосил қилади. Ментал лексикон когнитив билимнинг асосини ташкил қилиб, субъектив характерга эга бўлади. Шахснинг дунёқараши, маданий муносабатлари ва воқеликка субъектив муносабатини ўзида акс эттиради.

Сўз бирикмаси кенгайган ва ўз навбатида конкретлашган маъно ифодалайди. Сўз бирикмасида бир маъно реаллашади. Ўз маъно ёки кўчма маъно намоён бўлади. Сўз бирикмаси луғавий маънони аниқлаштиришга хизмат қилади. Сўз бирикмасини ташкил этувчи компонентлар ҳажми турлича бўлиб, асосан, икки қисмдан: тобе ва ҳоким компонент муносабатидан ташкил топади.

Ўзбек ва инглиз тилларидаги сўз бирикмаларининг ўхшаш ва фарқли жиҳатлари мавжуд бўлиб, бу белгилар тилларнинг грамматик белгилари ва маданий муносабатлар даражаси билан изоҳланади.

АДАБИЁТЛАР

1. Trena T. Anastasia. Analysis of metaphors used in women college presisent’s inaugural addresses at coed institutions,2008.
2. Xajiev S. So‘z ma’nosining ko‘chishi bilan bog‘liq lingvistik hodisalar. Filol. fan. nom...diss. avtoref. -Toshkent, 2007.
3. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. -Toshkent: Nodirabegim, 2020.
4. Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. –Toshkent:Asian Book House, 2020.
5. Zaxarov V.P., Bogdanova S.Yu. Korpusnaya lingvistika. –Irkutsk: IGLU,2011.
6. Vrabel T.T. Lectures in theoretical phonetics of the english language and method-guides for seminars, poliprintungvár, 2009.
7. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (turkiy so‘zlar). –Toshkent, 2000. -600 b.
8. O‘TIL-O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II. -Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. -672 b.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК:801.8

Абдували МУСАЕВ,
Жиззах давлат педагогика институти доценти
E-mail:amusaev@gmail.com

ЎзМУ доценти И.Ўсаров тақризи асосида

СЛЕНГ ТИЗИМИНИНГ ЖАҲОН ТИЛШУНОСЛИГИДА ЎРГАНИЛИШИ

Аннотация

Ушбу мақола сленг тизимининг жаҳон тилшунослигида ўрганилиши ҳақида. Хорижий тилшуносликда ҳам рус тилшунослигида ҳам сленг тизимининг асосини белгиловчи фикрлар мавжуд. Лингвистик тадқиқотларда “сленг” тушунчаси “жаргон”, “арго”, “оддий сўзлашув нутқи” атамалари ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: Сленг, жаргон, арго, оддий сўзлашув нутқи, ижтимоий диалект, аббревиация, ностандарт лексика, талабалар сленги, ҳарбийлар сленги, субмаданият.

В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ СИСТЕМЫ СЛЕНГА БЫТЬ ИЗУЧЕННЫМ

Аннотация

Эта статья посвящена изучению системы сленга в мировой лингвистике. Как в зарубежной лингвистике, так и в отечественной. Лингвистике существуют идеи, определяющие основу системы сленга.

Ключевые слова: сленг, жаргон, сленг, простая разговорная речь, социальный диалект, аббревиатура, нестандартная лексика, студенческий сленг, военный сленг, субкультура.

IN WORLD LINGUISTICS OF THE SLANG SYSTEMTO BE STUDIED

Annotation

This article is about the study of the slang system in world linguistics. Both in foreign linguistics and in Russian linguistics, there are ideas that define the basis of the slang system.

Keywords: Slang, jargon, slang, simple colloquial speech, social dialect, abbreviation, non-standard vocabulary, student slang, military slang, subculture.

Кириш. XX асрнинг ўрталарида сленг тизимини ўрганишга эътибор қаратилган бўлса-да, қадимги тилшунослик зарварақларига назар ташласак, айнан шу ҳодиса хусусида олимлар ўз фикрларини билдириб ўтганлар. XII аср ҳинд тилшунос олими Хемачандра ўз асарларида ҳиндларнинг сўзлашув тили – апабхранши ҳақида қимматли фикрларини баён этган. Унинг назарий фикрлари ҳозирги жонли ҳинд тилларини ўрганишда қимматли манба саналади. Хемачандра синонимлар ва пракрит лексикологиясига оид луғат тузади, луғатга соф санскрит, пракрит лексикасига оид, оддий халқ тили ва аралаш тилларга оид сўзларни киритади.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. «Тилда ҳеч нарса турғун эмас... Тилда, умуман, табиатда бўлганидек, ҳамма нарса ҳаёт кечиради, ҳамма нарса ўзгариб туради. Сокинлик, барқарорлик, ҳаракатсизлик – булар бизга шундай туюладиган ҳодисалардир, минимал ўзгаришлар содир бўлиши шарти остидаги якка тартибдаги воқеликлардир», деб ёзади И.А.Бодуэн де Куртенэ[1]. Бу фикрлар ҳаракат ва турғунликнинг диалектик яхлитлигидан далолат беради. Бир томондан, ҳар бир тил муайян маънода яхлитланган: ундаги барқарорлик ва индивидуал ўзига хослик айнан шу билан изоҳланади. Бироқ нутқ жараёнида тил фақат ифодаланибгина қолмай, балки ўзгаради ҳам. Тилнинг ўзгарувчанлигини ҳар бир индивид нутқий фаолиятининг эркин характерда ҳаракатланишида кўрамиз. Демак, тил моҳиятан жуда ўзгарувчан тизим бўлиб, жамиятнинг ўзгариши билан у ҳам ўзгаришга мойиллиги билан ажралиб туради, у маълум даражада инсон нутқини янги сўз ва иборалар билан бойитиб туради. Б.В.Томашевскийнинг таъкидлашича: «Амалий ва адабий нутқ ўртасида қатъий чегара йўқ[2]». Шу сабабли ҳам тилшунос-олимлар оддий сўзлашув нутқи, профессионал диалектлар, социал диалектларни фарқли ва ўхшаш томонлари хусусида баҳс юритадилар.

XX асрнинг 20-30-йилларида рус тилшунослигида жонли сўзлашув нутқини ўрганишга диққат қаратилди. Жумладан, В.В.Виноградов, В.М.Жирмунский, Б.А.Ларин, Е.Д.Поливанов каби рус тилшунос-олимлар «социал диалектология», «социал диалект» терминлари остида янги йўналишни ўргана бошладилар. 1930-1960-йилларда тилнинг ижтимоий ривожланиши ва ижтимоий дифференциацияси масалаларини ўрганиш долзарб бўлган бўлса, 1970-1990-йилларда ижтимоий-гуруҳий диалект–лар, ёпиқ ижтимоий гуруҳларнинг махсус тиллари, шаҳар оддий сўзлашув нутқи, жонли сўзлашув нутқи, профессионал лексика ва шу каби масалалар ўрганилди.

1970-1980-йилларда яна бир доимий ўзгариб турадиган лексик қатлам – сленглар тилшунослар диққат марказига чиқди.

Тадқиқот методологияси. Хорижий тилшунос–ликда ҳам, рус тилшунослигида ҳам сленг тизимининг асосини белгиловчи ягона терминологик бирлик йўқ. Лингвистик тадқиқотларда «сленг» тушунчаси «жаргон», «арго», «оддий сўзлашув нутқи» терминлари ўрнида қўлланади. Шундан келиб чиқиб, тилшуносликда «сленг» термини ҳақида турлича қарашлар мавжуд:

1. И.Р.Гальперин «Сленг термини ҳақида» мақоласида сленг ноаниқ категория эканлигини таъкид-лаб, унинг умуман борлигини инкор этади. Унинг фикри инглиз луғатшуносларининг тадқиқот натижалари ва тажрибаларига асосланганлиги, уларнинг «сленг», «оддий сўзлашув нутқи» терминлари остида бир ҳодиса ҳақида берилишини айтиб ўтади. И.Р.Гальперин сленгни алоҳида мустақил категория сифатида мавжудлигини инкор қилади ва инглиз тилидаги жаргон терминининг синоними, эквиваленти, деб таъкидлайди[3].

2. Айрим олимлар сленг ва жаргон терминларининг айнан ўхшаш ҳодиса эканлигини

таъкидлаб, рус сўзлашув тилида сленгнинг мавжудлигини инкор қилади[4].

3. Академик А.А.Шахматов бундай ҳодисага эътибор қаратиш лозимлигини, сленгни инкор қилиш ва уни қандай талаффуз этишнинг ташвиқотига берилмасликни таъкидлайди. Унинг фикрича, «тил статик ҳодиса эмас, балки кўп қиррали, биринчи навбатда ифода услубидир (сленг асосан, оғзаки нутқда мавжуд)[5] ».

Таҳлил ва натижалар. Тилшунос олимларнинг фикрига таянадиган бўлсак, сленг ижтимоий диалект таркибида ўрганилади. Л.И.Скворцова, М.М.Копыленко, Е.Г.Борисова-Лукашанец, К.И.Дубровина, Л.П.Крысина, А.И.Мазурова тадқиқотларида ёшлар нутқидаги лексик бирликлар, уларнинг мавзу гуруҳлари, юзага келиш манбалари хусусида фикр юритишган.

XX асрнинг охири XXI асрнинг бошларида Э.М.Береговская, И.А.Стернина, Е.В.Удзинская, В.В.Химик, С.И.Левикова ва бошқа олимлар ёшлар сленги хусусида тўхталиб, луғатлар яратганлар[6].

1985 –1997 йилларда, атиги 12 йиллик бир фурсатда рус тили луғат бойлигида воқеланган ўзгаришлар батафсил лексикографик тавсиф этилган “XX аср охиридаги рус тилининг изоҳли луғати. Тилдаги ўзгаришлар” китобида беш ярим минг атрофидаги сўз ва ифоданинг “туғилиш” ва “эврилишлари” қайд қилинган, ўзгаришлар тегишли фактик мисоллар билан асосланган. Луғатда “чинакам лексик портлаш”га олиб келган лисоний ўзгаришлар қуйидагича кўрсатилган: 1) сўз ясалиши уяларининг, айрим ясовчи қўшимчаларнинг, аббревиациянинг фаоллашуви; 2) ўзлашмаларнинг (кўпроқ инглиз тилининг америка вариантидан) оммавий равишда кириши; 3) жуда тезлик билан янги маъноларнинг пайдо бўлишига олиб келувчи фавқулодда интенсив суръатда кечаётган семантик ўзгаришлар; 4) экспрессивликни тақозо этадиган жанрларга ноадабий лексика (жаргон, арго, қўпол сўз кабилар)нинг кириб келиши; 5) мафкура тақозосига кўра илгари фаол бўлган лексиканинг нофаоллашуви; 6) илгари нофаол бўлган лексиканинг фаол қатламга ўтиши[7].

Ю.Б.Фоос инглиз тилида сленгларни этимологик жиҳатдан ўрганган бўлиб, Э.Партриджнинг «Словарь сленга и нестандартного английского языка» ва Г.Уэнтворт, С.Флекснернинг «Словарь американского сленга» каби луғатлардан танлаб олинган 260 та сленгни таҳлил қилади. Мазкур сленглар 18 та семантик гуруҳга бирлаштириб ўрганилади: «инсон», «аёл», «озиқ-овқат», «алдов» ва бошқалар. Унинг фикрича, инглиз тилидаги сленгларнинг семантик шаклланишида асосий ўринни диний ва мифологик тушунчалар эгаллаган[8].

И.А.Ворожейкина ҳарбийлар сленги лексикасининг шаклланиши, вазифаси, умумхалқ тилига таъсир қилиш даражасини системологик, лингвокуль–турологик ва грамматик жиҳатдан таҳлил қилади[9].

И.О.Морозова замонавий рус талабалари сленгида инглиз тили ўзлашмаларининг қиёсий функционал-семантик тадқиқини амалга оширади. Унинг фикрича, талабалар сленги ёшлар жаргонининг бир тури саналиб, ижтимоий-фаол гуруҳ тил ташувчилари томонидан қўлланилади. У бошқа социалектлардан ва тиллардан сўз ўзлаштиради. Кўпгина ўзлашмалар талабалар сленги таркибига киргандан сўнг рус тилининг сўз ясалиши қоидаларига буйсунади. Бу эса, унинг семантикасига ва синтактик вазифасига таъсир этади[10].

Е.М.Казачкова ёшлар сленгининг шаклланиши ва вазифалари, лингвомаданий муҳитдаги ўзига хос хусусиятларини Астрахан вилояти мисолида ўрганади. У социолект қатлами таркибига сленг, арго ва жаргонларни киритиб, муайян ижтимоий гуруҳлар (ёшлар, профессионал, жиноий) томонидан қўлланишини айтиб ўтади. «Сленгнинг шаклланишидан мақсад – коммуника–тив-прагматиклик. Сўзясалиши, ўзлаштириш ва десемантизация ёшлар сленгининг шаклланишида асосий усуллар саналади»[11].

Е.Е.Матюшенко ёшлар сленгининг замонавий рус тили тизимидаги ўрни, дифференциал белгилари, тил тизимида қўлланишининг ўзига хос хусусиятлари, сленг бирликларининг маъноларининг тавсифи, сленг ясалиши усуллари ва бойиш манбаи, сленгларнинг лексик-семантик гуруҳи каби масалаларга тўхталади[12].

И.О.Морозова талабалар нутқини, Е.М.Казачкова ёшлар сленгини лингвомаданий нуқтаи назардан, Е.Е.Матюшенко сленг ясалиши нуқтаи назардан ўрганган бўлса, Н.А.Джеус ҳам сўз ясалишининг лексик-семантик жиҳатдан таҳлил қилади. Муаллифнинг фикрича, ёшлар сленги илк юзага келишидан тил ўйини шаклида ифодаланган бўлиб, нафақат коммуникатив эҳтиёжларни қониқтириш учун, балки ўзини ифодалаш, ўзини тенглаштириш, «бегоналардан» чегаралаш, коммуникация жараёнида шерикларни ўзига жалб қилиш учун қўлланилган. Бу эса, сўз ўйинининг лексик ва фразеологик неологизмларнинг ясалишида оригиналлигини, новаторлигини таъминлайди. Сўз ижод қилиш адабий тилга нисбатан ёшлар сленгида салмоқли ўрин эгаллайди[13].

А.Н.Колесниченко инглиз ва рус бадиий матнларида сленг лексикасининг интеграл ва дифферен–циал белгилари, нутқий қонуниятдаги вазифалари, тилда ҳосил бўлиш тамойиллари хусусида фикр билдиради. Муаллиф инглиз ва рус тилидаги сленг тизимини структур-семантик, этимологик, функционал ва стилистик нуқтаи назардан ўрганади ва коммуникатив, когнитив, номинатив, тенглашиш, экспрессив, эмоционал-баҳолаш, вақтни иқтисод қилиш, дунёқарашлик, эзотерик вазифаларини санаб ўтади[14].

Е.А.Рубцова ёшлар сленгининг лексик таркибини лингвокультурологик жиҳатдан таҳлил қилади. Рус тилининг мазкур подсистемасини лисоний тавсифини системалаштириш, структур ва функционал хусусиятларини аниқлаш, ёшлар аудиториясига мўлжалланган замонавий публицистика тилида сленгларнинг юзага келиши ва тил ташувчиларнинг дунёқарашига таъсири каби масалаларни ўрганади. «Арго», «жаргон» ва «сленг» лингвистик нуқтаи назардан миллий тил структурасининг турли элементларини ташкил қилади ва қуйидаги таърифларни келтиради: атайлаб адабий тил меъёрларини менсимаслик вазиятларида қўлланадиган, жамиятнинг қуйи ижтимоий-маданий қатламининг махсус тили – арго; қизиқиши ёки касб-кори умумий бўлган кишиларнинг махсус тили – жаргон; норасмий мулоқот доирасида муайян субмаданият тил бирликларининг махсус лексик таркиби – сленг[15].

Б.Х.Псеунова ҳам америкалик талабалар сленгига миллий-маданий антропонимларнинг таъсирини ўрганади ва сленгни «ностандарт нутқ» деб баҳолайди. Бироқ сленглар семантикасида жамиятдаги воқелик, у ёки бу ҳодисага бўлган миллий дунёқараш ўз аксини топишини таъкидлайди. Муаллиф мисол тариқасида «транспорт» сўзини таҳлил қилади. Америкаликлар нутқида автомашиналарнинг маркаси, руслар нутқида антропоним-сленгизмлар бу – жамоа транспорти, метро станцияси ва вагонлар тушунилади[16]. Дарҳақиқат, ҳар бир сленг маълум бир семантик юк ташийди. Бу юк эса, сленг ташувчисининг миллий дунёқараши, атроф-муҳити, менталитети, касб-корига боғлиқ бўлади.

Н.Б.Егошина тадқиқотида мавжуд икки тилли луғатлар (инглиз-рус ва рус-инглиз)да ностандарт лексикани ва ОАВларида қўлланиладиган сленг бирликларини таҳлил қилади. Ностандарт сленг лексикаси адабий тил меъёрларига бўйсунмайди ва ўзига хос хусусиятга эгалигини таъкидлайди. «у доимо маълум бир коммуникатив мақсадда қўлланилади ва бошқа

ностандарт лексикадан икки асосий мезон билан фарқланади: 1. ким махсус ностандарт лексикадан фойдаланади; 2. нима мақсадда»[17].

Г.Эман эса, ёшлар нутқини ўрганар экан, «сленг», «жаргон» терминларини қўлламайди. У «Jugendsprache» терминини қўллаб, бу тилнинг умумий-меъёрий хусусиятларидан ташқари ўз специфик хусусиятларига эга бўлган тилдир. Ёшлар сленги сўзлашув нутқининг ижтимоий юк ташувчи шакли эканлигини таъкидлайди. Шундан келиб чиқиб, ёшлар сленгининг юзага келиш йўлларини санаб ўтади ва мисоллар келтиради: - маънонинг ўзгариши (семантик вариация); - маънонинг қисқариши (торайиши); - маънонинг (кенгайиши); - маънонинг қарама-қарши қўйилиши (семантик парадокс); - сўзнинг ўзгариши (лексик мутация); - неологизм; - товуш германизацияси (фонологик германизация); - от сўз туркумининг вербализацияси; - соддалашиш (экономия); - креатив сўз ўйини; - ўзлашган сўзлар; - суперлативизация[18].

Хулоса ва таклифлар. Демак, сленг тушунчаси статик ҳодиса эмас, балки кўп қиррали, очиқ, биринчи навбатда ифода услубидир. Ностандарт нутқ сифатида сўзлашув нутқининг муҳим тадқиқот объектларидан бири бўлиб, у бевосита миллий менталитет, урф-одатлар, жамият ахлоқ қонун-қоидалари билан узвий алоқадорликда тадқиқ этилиши талаб этилади. Зеро, таъкидлаб ўтиш зарурки, тилшуносликка оид илмий адабиётлар таҳлили ушбу мавзунинг алоҳида махсус йирик тадқиқот сифатида ўрганилмаганини кўрсатмоқда.

Сленглар инсонларнинг коммуникатив эҳтиёжларни қониқтириш, ўзини ифодалаш, ўзини тенглаштириш, «бегоналардан» чегаралаш, коммуникация жараёнида шерикларни ўзига жалб қилиш учун кенг қўлланилади.

АДАБИЁТЛАР

1. Бодуэн де Куртенэ И.А. Об общих причинах языковых изменений / Избранные труды по общему языкознанию. В 2-томах. –Т.I. – Москва: Изд-во Акад. наук СССР, 1963. – С.349.
2. Томашевский Б.В. 1999. –С.5.
3. Гальперин И.Р. О термине «сленг» // Вопросы языкознания. – М: Высшая школа, 1956. –С.48-112.
4. Борисова-Лукашанец Е.Г. О лексике современного молодежного жаргона: Англоязычные заимствования в студенческом сленге 60-70-х годов // литературная норма в лексике и фразеологии. – М: Наука, 1983. - С.104-120.
5. Шахматов А.А. Разыскания о древнейших русских летописных сводах. СПБ: Изд-во Водолей, 1947. - С.475.
6. Рожанский Ф. Сленг хиппи: Материалы к словарю. –М: Изд-во Европейского дома, 1992. –64 с.; Никитина Т.Г. Так говорит молодёжь: Словарь сленга. По материалам 70-90-х годов. 2-е изд., испр. и доп. - СПб.: Фолио-Пресс, 1998. - 587 с.; Никитина Т.Г. Толковый словарь молодежного сленга, слова непонятные взрослым. - М.: Астрель: АСТ, 2003. – 736 с.; Никитина Т.Г. Словарь молодежного сленга 1980-2000 гг. – СПб: Норинт, 2003. - 704 с.; Левикова С.И. Большой словарь молодежного сленга. – М: Гранд, ФАИР-ПРЕСС, 2003. – 926 с.
7. Толковый словарь русского языка конца XX века. Языковые изменения. Под ред. Г.Н.Скляревской. –СПб.: «Фолио-пресс», 1998. –С.8 – 10.
8. Фоос Ю.Б. Особенности семантического развития английской сленговой лексики: Автореф . дисс. уч. ст.канд.фил. наук. – Москва, 2004. – 20 с.
9. Ворожейкина И.А. Лингвокультурологическая характеристика военного сленга современного русского языка: Автореф . дисс. уч. ст.канд.фил. наук. – Москва, 2005. – 24 с.
10. Морозова И.О. Англицизмы в современном русском студенческом сленге: Автореф . дисс. уч. ст.канд.фил. наук. – Пятигорск, 2006. – 22 с.
11. Казачкова Е.М. Формирование и функционирование молодёжного сленга в лингвокультурной среде (на примере Астраханской области): Автореф . дисс. уч. ст.канд.фил. наук. – Москва, 2006. – 20 с.
12. Матюшенко Е.Е. Современный молодежный сленг: формирование и функционирование: Автореф . дисс. уч. ст.канд.фил. наук. – Волгоград, 2007. – 29 с.
13. Джеус Н.А. Лексико-семантическое словообразование в молодежном сленге: Автореф . дисс. уч. ст.канд.фил. наук. – Краснодар, 2008. – С. 5.
14. Колесниченко А.Н. Сленг в английском и русском языках: структурно-семантичнский, этимологический, функциональный и стилистический аспекты: Автореф . дисс. уч. ст.канд.фил. наук. – Ростов-на-Дону, 2008. – 28 с.
15. Рубцова Е.А. Лингвокультурологический анализ молодёжного сленга начала XXI века: Автореф . дисс. уч. ст.канд.фил. наук. – Москва, 2009. – 19 с.
16. Псеунова Б.Х. Антропонимы в современном американском молодежном сленге (психолингвистическиф анализ): Автореф . дисс. уч. ст.канд.фил. наук. – Москва, 2011. – 28 с.
17. Егошина Н.Б. Сленг в СМИ: лексикографический аспект (на материале одноязычных и двуязычных словарей): Автореф . дисс. уч. ст.канд.фил. наук. – Ярославль, 2013. – 25 с.
18. Гранкова Н.Н. Акутуальные способы образования молодёжного сленга // Мир науки, культуры, образования. №2 (9). 2009. – С.55.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

Шахноза МУСУРМАНОВА,
Чирчиқ олий танк қўмондонлик муҳандислик билим юрти катта ўқитувчиси.
ЎзДЖТУ мустақил изланувчиси
shaxa@gmail.com

филология фанлари бўйича фалсафа доктори, (PhD) Н.А. Махмудова тақризи асосида

BASIC CONSEPTS AND PRINCIPLES OF TRANSLATING MILITARY TERMS

Abstract
This article describes translation of concept and principles of military terms. The concept of the term, the scientific views of the scientific is reflected in the using of the words. Terminological dictionary, which defines the scientific approaches such as determination of the terminological meaning of the words.
Key words: Terminology, concept, principle, scientific, terminological, approach, determination, meaning of the words.

ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ И ПРИНЦИПЫ ПЕРЕВОДА ВОЕННЫХ ТЕРМИНОВ

Аннотация
В данной статье описывается перевод понятия и принципов военных терминов. Понятие термина, научные взгляды научного отражены в употреблении слова. Терминологический словарь, определяющий такие научные подходы, как определение терминологического значения слов.
Ключевые слова: Терминология, понятие, принцип, научный, терминологический, подход, детерминация, значение слов.

ҲАРБИЙ СОҲА ТЕРМИНЛАРИНИ ТАРЖИМА ҚИЛИШНИНГ АСОСИЙ ТУШУНЧА ВА ТАМОЙИЛЛАРИ

Аннотация
Ушбу мақолада ҳарбий соҳа терминларини таржима қилишнинг асосий тушунча ва тамойиллари ҳақида сўз юритилган.Термин тушунчаси, олимларнинг илмий қарашлари, сўзнинг ишлатилиши ўз ифодасини топган. Терминологик луғат, сўзнинг терминологик маъноси детерминлашиш каби илмий ёндашувлар ўз аксини топган.
Калит сўзлар: терминология, тушунча, тамойил, илмий, терминологик, ёндашув, матонат сўзларнинг маъноси.

Кириш. Ҳарбий соҳа терминларини изланиш объекти сифатида материал қилиб йиғиш жараёнида бошқа соҳаларда кузатилгани каби айрим қийинчиликга дуч келдик. Булар қуйидагилар:

Қандай сўзларни ҳарбий соҳа терминлари деб билиш керак?

Нега соҳа луғатлари терминлар сонини белгилашда фарқлар жуда катта?

Шуни ёдда тутиш керакки, оҳзаки нуткда қисқартириш натижасида, қоида тариқасида, атаманинг стилистик ранги ўзгаради. Хеч бўлмаганда, биринчи навбатда, янги сўз бироз таниш рангга эга, аммо келажакда бу ўзгариш тезда йўколиши мумкин (яъни текислик пайдо бўлади). Баъзи қисқартмалар оддий сўзларга айланиб бормокда ва замонавий фойдаланишда қисқартмалар термин сифатида қабул қилинмайди[1].

Харбий атама деганда биз "ҳарбий ишлар соҳасидаги маълум бир тушунча (ҳарбий фан, технология, иш юритиш, қўшинлар хаёти ва бошқалар) билан боғлиқ бўлган оддий ёки мураккаб расмий тузилишга (иборат) бўлган махсус номни тушунамиз, семантик тузилишида, албатта, ҳарбий жанговар маъноси мавжуд.

Бирлик (лексима, ибора) ни атамалар туркумига киритишнинг зарурий шарти унинг касбий ҳарбий луғатларга киритилишидир. Шу нуктаи назардан, ҳарбий терминология, бошка ҳар қандай бошқа каби, маълум бир ички ташкилотга эга ва "ҳарбий фан тушунчаларининг терминологик номинацияси бирликлари тўпламидир"[2].Терминологик бўлмаган режанинг ҳарбий луғтига биз жаргон, ҳарбий жаргон ва сўзлашув ва ҳал қилувчи луғатини киритамиз. Бу гуруҳ функционал хусусиятларига кўра лексик бирликлардан, ҳарбий луғатнинг ҳиссий жиҳатдан буялган элементларидан иборат бўлиб, улар кўпинча ҳарбий атамаларнинг стилистик синонимлари ҳисобланади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Г.А. Сайдалиеванинг луғатида терминларнинг синонимлари ҳам берилган. Бу эса яна бир саволни келтириб чиқаради. Терминнинг классик хусусиятларидан бирига кўра терминологияда синонимлар бўлмайди. Агар терминологияда синоним бўлмаса юқоридаги белги-таъриф эскирган. Терминологияда ҳам синонимлар бўлади. Терминологияда синонимлар бўлса унда терминнинг таърифини бошқатдан кўриб чиқиш керак. Ва ҳукмга амал қилиб биз “ Термин у ёки бу соҳада ишлатиладиган сўз десак, беш олти ёки ундан кўпроқ соҳада ишлатиладиган терминларни нима деб атаймиз?

Биз бу ўринда бу масалага бироз ойдинлик киритиш учун таниқли тилшунос профессор М.Э. Умархўжаевнинг фикрларига эътибор қаратамиз.

Функционал нуқтаи назарга биноан терминлар махсус сўз эмас,балки махсус функцияга эга сўзлардир терминнинг ўрни (роли)ни исталган сўз босиши, ўйнаши мумкин.

Дериватцион нуқтаи назар терминларнинг ясалиш жараёнлари билан чамбарчас боғланган. Ушбу ғоя тарафдорларининг фикрича, термин нафақат оддий сўзнинг варианти, шунингдек, янги, ўзига хос спесифик белгиларга эга махсус ясалган бирлик сифатида ҳам тан олинади. Янги терминларнинг йузага чиқиш сабаблари янги реалияларни ифодалаш эхтиёжи билан баҳоланади.

Терминга муайян талаблар кўйилади,ушбу жиҳат уни умумтил ва лаҳжа ҳамда шевалардаги оддий сўзлардан ажратиб туради.

Номенклатура терминологияага нисбатан янги категория ҳисобланади. Ҳар қандай соҳа номенклатураси шу соҳага оид барча тур номларини ўзида мужассам

этади. Уларнинг миқдори ҳаддан ортиқ даражага етганда, махсус структурани тақозо этади. Масалан, ҳозирги кунда 200 мингдан ортиқ ўсимлик турларининг ҳар бирига алоҳида ном қуйишга уриниш бефойда ,бунинг имкони ҳам йўқ.

Инсониятнинг табиатни билиш, англаш босқичларини ўзида акс эттирувчи табий фанлар номенклатурасидан инсон томонидан кашф этиладиган, яатиладиган (ишлаб чиқариш номенклатураси) техник номенклатура, шунингдек, харидорбоп товарлар билан таъминлаш, уларни сотиш мақсадида махсус йўзага чиқариладиган савдо-сотик номенклатурасини фарқлаш лозим бўлади.

Гарчи ҳар учала номенклатура ҳам манфаатдор субъектлар томонидан яратилса-да, бироқ улар турли асос, турли мақсад ва турли принциплар негизида воқеланади.

1.	Ejection system	20	0.51
2.	Passenger airplane airport	49	1.25
3.	Airport terminal	50	1.27
4.	Airfield handling and servising equipment	36	0.92
5.	Helecopters	56	1.43
6.	Cliding	40	1.02
7.	Parachutes.Parachuting	31	0.79
8.	Fighter	51	1.31
9.	Bomber	45	1.15
10.	Vertical take-of and landing aircraft	54	1.38
11.	Navigation.Aebial Photography	34	0.87
12.	Bombing.Aircraft fining and instrument	59	1.51
13.	Classification and tupes of missiles	31	0.79
14.	Rocket and missile designs	55	1.41
15.	Ballistic missile	38	0.97
16.	Air-to-air guided missile	34	0.87
17.	Air -to-subface guided missele	25	0.64
18.	Jemi-strategic and tactical ballistic misseles	33	0.54
19.	Air -defense guided misseles	52	1.33
20.	Antitank guided misseles	26	0.66
21.	Lunching olevices	85	2.17
22.	Missele control and guidance equipment	69	1.76
23.	Missele guidance systems	41	1.05
24.	Air and antimissile defence	87	2.22
25.	Rocket artillery	29	0.74
26.	Cannon artillery	29	0.74
27.	Recoiller rifles , mortars	29	0.74
28.	Barrel. Top carriage	32	0.82
29.	Screw brech block	55	1.41
30.	Wedge brech block	51	1.31
31.	Credle and rewib medienisms	35	0.89
32.	Elevating and traversing mechanisms	24	0.61
33.	Gun and mortar sight	52	1.33
34.	Artillery fire control instrument	28	0.71
35.	Element of trajectory.Elements anti aircraft gunnery	45	1.15
36.	Individual weapons	53	1.35
37.	Automatic pistol	44	1.12
38.	Creew served weapons	195	4.98
39.	Rocket launcher.Grenades.Flame.Thrower	49	1.25
40.	Small arms ammunition	51	1.31
41.	Artillery (ordnance) ammunition and fuves	109	2.78
42.	Aerial bombs	45	1.15
43.	Nuclear weapons.Chemical and biological weapons	38	0.97
44.	Radiological detection devices	39	1.01
45.	Chemical detection devices	34	0.87
46.	Indi dual protective equipment	44	1,12
47.	Decontamination equipment	38	0,97
48.	Collective protective means	35	0,89
49.	Engineer vehicles	82	2,17
50.	Infantry entrenchments	37	0,94
51.	Shelters	34	0,87
52.	Artificial obstacles	34	0,87
53.	Land mines rend ground bombs	52	1,33
54.	Demolition charges rend demolition means. Mine detector	47	1,20
55.	Camouflage	27	0,69
56.	Water supply	58	1,48
57.	March and meeting engagements	35	0,90

58.	Offensive combat	62	1,59
59.	Unit assault crossing	28	0,71
60.	Defensive combat	41	1,05

Илмий билиш номенларнинг инсон томонидан яратилган илмий-техникавий номенлардан фарқи шундаки, илмий номенлар табиатда мавжуд бўлса, иккинчиси табиатда мавжуд эмас) Кашфиётчи томонидан яратилган нарса буйумлар учун ном халқ тилидан олинмайди (самолёт, вездеход,самокат каби бирликлар бундан мустасно). Ушбу категориялар, яъни номенларни ифодоловчи сўзлар оз ёки чет тиллардаги лексемаларга таянилиб,сунъий равишда яратилади, бунда ҳарф ва рақамлар индексацияси алоҳида таъкидланади.

Ҳозирги ўзбек адабий тили кўрилишида терминология алоҳида ўрин ва мавқега эгалиги билан ажралиб туради. Терминологиянинг тил луғат таркибидаги роли ҳақида икки дунёқараш мавжуд. Биринчи ғояга кўра, терминология адабий тил лексикасининг мустақил қатлами тарзида эътироф этилса, иккинчи таълимотга у адабий тил сўз бойлиги таркибидан ажратилади, "алоҳида турувчи" объект тарзида баҳоланади ва нутқнинг турлари (шева, жаргон, жонли сўзлашув)га тенглаштирилади.

Тадқиқот методологияси. В.П. Даneленконинг таъкидлашича терминалогия деганда умумабадий тилнинг мустақил функционал тури, яни анъанавий фан тили (фан тили ёки техника тили) назарда тутилади (Даneленка.1977;8) фан тили умумабадий тилнинг функционал системаларидан бири сифатида жонли сўзлашув тили ва бадий адабиёт тили тушунчалари билан бир қаторда туради.

Фан тили миллатнинг умумабадий тили асосида шаклланади ва ривожланади. Шу боис фан, илм тили пойдеворини умумадабий тилнинг лексикаси, сўз ясалиши ва грамматикаси ташкил қилади.

Х.Хюеллнинг қайд этишига кўра, терминология муаййан фанга оид терминлар ёки техника соҳасида қўлланиладиган сўзлар йиғиндисидир биз терминлар маьносини қайд этиш орқали улар ифодалайдиган тушунчаларни ҳам қайд этамиз (whewell,1967).

Термин сўзини турлича тушиниш мавжуд. Чунончи, Тилшунослар учун термин-аниқ, объектга тегишли тавсиф (ёки тавсифлар) йиғиндисини назарда тутувчи ва унда татбиқ этилувчи сўз ҳисобланади. Ҳар қандай тилдаги исталган сўз термин бўлиши мумкин.

Фан ва техникада термин сунъий ўйлаб топилган ёки табиий тилдан олинган махсус сўз саналади. Бундай сўзларнинг қўлланиш соҳаси у ёки бу илмий мактаб вакиллари томонидан аниқлаштирилади ёхуд чегараланади. Умум тил терминларидан фарқли улароқ илм-фан, техникага хос терминлар иерархик бирликлар сифатида терминологик системаларга бирлашади, удар ўз маноларига фақат айни система ичида ёришади, бу системалар уларга тушунчага оид терминологик майдон мос келади.

Фандаги Хар қандай ривожланиш тараққиёт илмий терминларнинг юзага чиқиши ёки ойдинлашишидан дарак беради. Тамғаланган (маркерланган) ва тамғаланмаган (маркерланмаган) бирликлар назарияси мантиқий (логик) бўлинишнинг ривожланиш ва такомиллашишида янги қадам саналади. XX асрнинг 30 йилларида ушбу масала билан яқиндан шуғулланган Прага Лингвистик мактаби (ПЛМ) аъзолари (Н. Труббетской, Р. Якобсон) ғояларининг 60 йилларида матнга машина (EXM) ёрдамида ишлов бериш, Яъни матнларни кодлаш ва қайта нокодлаш маьлумотларни машина ёрдамида ахтариш, матнни бир тилдан бошқа тилга таржима қилиш сингари жараёнларда ўта махсулдор эканлиги исботланди. Тамҳаланмаган бирликларга нисбатан қўшимча маълумот ташиши жихатидан фарқланиши аниқланди.

Термин ва терминологик лексика тушунчаларни Бир биридан фарқлаш зарур.

Терминларнинг қўлланиш, тарқалиш қўлами муайян терминологик система билан чекланган бўлиб, улар инсоннинг фаолияти доирасидаги аниқ услубда ҳаракат қилади, воқеланади.

Умумадабий тил доирасига ўтган термин ўз терминологияси, терминологик майдони ва системасидан йироқлашади, терминлик характеристикасидан ажралиб қолади.

Таҳлил ва натижалар. Термин таърифи хусусида илмий адабиётларда кўпдан кўп мулоҳазалар билдирилган. Деярли барча таърифларда термин махсус илмий техникавий тушунчани ифодаловчи сўз ёки сўз бирикмаси тарзида тавсифланади.

О. Винокурнинг фикрича, термин-ҳар доим аниқ ва равшан. Терминлар системаси тили онгли шакллантирилади Зероб термин ўз-ўзидан, ихтиёрий тарзда пайдо бўлмайди, балки зарурлиги, жамиятда унга эҳтиёж мавжудлиги боис яратилади.

А. Герднинг мулоҳазасига кўра, термин илм-фан тараққиётининг муайян босқичида мавжуд тушунчаларнинг асосий хусусиятларини ва тўлалигича акс эттирувчи махсус терминологик маънога эга табиий ва сунъий тил бирлиги, яъни сўз ёки сўз бирикмасидир (Герд, 1991, 1-4) О. Ахмановнинг таъкидлашича, терминология қайсидир фан ўз тараққиётининг олий даражасига эришгандагина юзага чиқади., яъни термин муайян тушунча аниқ илмий ифода касб этгандан сўнг тан олинади. Терминни нотерминдан фарқлашнинг муҳим воситаси уни илмий асосда таърифлашнинг мумкин эмаслигидадир. В.Г.Гак терминнинг таърифини бериш қатори, унинг моҳияини очади ва терминнинг бирор бир хил сўз бойлигидаги ўрнини белгилайди. У илмий ишларда терминга луғавий бирликларнинг алоҳида тури тарзида қаралишига эътироз билдиради ҳамда термин-функция, лексик бирликлар қўлланинишининг бир кўриниши, деган ғояни илгари суради. Гак, 1972, 68-71)

Инглис тилида ҳарбий соҳага оид терминлар орасида синонимлик муносабатлари

Нима учун сўзлар кўпайиб кетган. Сўзлар синонимлар ҳисобига кўпайиб кетган. Гарчи синонимлар ичида ҳусусан тўғри келмайдиган сўзлар ҳисобга олинаверган ва шуларни ҳисобига сўзлар 17 минга етиб қолган

Н	Синонимик қаторлар	Сони	Синонимик қаторга кирувчи сўзлар рақамлари	Қаторлар сони	Қаторларга кирувчи сўзлар сони
1	Синонимга эга бўлмаган сўзлар	16794	15601	97.45	90.53
2	Бир синонимли	287	574	1.6	3.2

	сўзлар				
3	Икки синонимли сўзлар	25	75	0.14	0.42
4	Уч синонимли сўзлар	40	160	0.23	0.92
5	Тўрт синонимли сўзлар	40	200	0.23	0.115
6	Беш синонимли сўзлар	35	210	0.2	1
7	Олти синонимли сўзлар	6	42	0.035	0.24
8	Етти синонимли сўзлар	7	56	0.04	0.21
9	Саккиз синонимли сўзлар	7	63	0.04	0.21
10	Тўккиз синонимли сўзлар	5	50	0.03	0.15
11	Ўн синонимли сўзлар	15	61	0.041	0.21
12	Ўн бир синонимли сўзлар	5	70	0.03	1.3
13	Ўн икки синонимли сўзлар	5	70	0.03	0.15
	Жами	17232	17212	100%	100%

Номенклатура ва терминология ўртасидаги принциплар фарқларидан бири-номенлар, одатда, терминологик луғатлар қайд этилмайди ёхуд ўта чекланган миқдорда луғатлардан ўрин олади. Маълумки расмий илмий номенга эга ацетилсалицил кислота дориси тижорий асперин номи билан оммалашган ва ҳ.к.

Фан турли соҳаларининг ривожланиши жараёнида айрим номенлар терминлар тизимига ўтиши, соф лексик номинатив бирликлардан мантиқий (логик) ахборот, маълумот элементи, яъни илм фан терминига айланиши мумкин.

Номенклатура, гарчи, тушунчага алоқадор бўлсада, бироқ у ҳисобсиздир. Муайян фан терминологиясининг полисемия ва синонимия ҳодисаларининг мавжуд бўлиши маъқулланмайди. Бироқ қатор терминологик системаларда муайян нарса- буюм ёки тушунчани ифодалашда баъзан икки ёки ундан ортиқ синоним (дублет)лардан фойдаланиш кўзга ташланади. Чунончи терминология масалаларига қаратилган айрим ишларда термин-атама-истилоҳ сўзларидан синонимик уя тарзида фойдаланилади. Сир эмаски, ўзбек тилига давлат мақоми берилгандан кейин баъзи субъектив нуқтайи назарлар натижасида термин ўрнида атама дериватини қўллаш фаоллашди. Бир қараганда, байналминал ўзлашмага ҳар жиҳатдан мос тушган ўз сўзининг қўлланиши маъқулдек туюлади. Лекин термин ўзлашмасининг таърифи билан атама ясамаси қамровини қиёслаш ҳар икки лексемани синоним тарзда ишлатишнинг мақсадга мувофиқ эмаслигини кўрсатади.

Ўз вақтида А.Ҳожийев термин сўзини атама ясамаси билан алмаштиришнинг нотўғри эканлиги, унинг сабаб ва оқибатлари хусусида жиддий мулоҳаза юритган эди (Ҳожийев,1996;2225). Шуларни ҳисобга олган ҳолда, ўзлашмасини илм-фан, техника соҳалари ёки тармоқларида қўлланувчи сўз ва сўз бирикмалари атама сўзини шартли равишта қўйилган номлар (номенклатура,номенлар),хусусан ,географик объектлар, жой номлари (топонимлар), арабча истилоҳ ўзлашмасини эса тарихий терминология аспектидаги изланишлар, тарихий манбалар матнидаги тушунчаларга нисбатан ишлатиш (Мадвалийев,2017;28-30) ўзини оқлайди.

Хулоса ва таклифлар. Хуллас терминлар умумадабий сўзлардан тубдан фарқланувчи лексик қатламни ўзида мужассам этади. Ушбу фарқ қуйидаги асосий хусусиятларда аксини топади: -

семиотис (терминларда белги ва ифодаловчи ўзаро симметрик муносабатга киришади);

вазифавий (терминлар нафақат номинатив, балки дефинитив функсияга эгалиги билан ҳам характерланади);

семантик (терминлар фақат махсус тушунчаларни ифодалайди, уларнинг ҳар бири ўз маъносига кўра уникалдир);

тарқалиш, оммалашиш (фақат фан тилига оид терминлар муайян қисмининг умумабадий тилга кириши уларнинг бошқа системега хослигига тўсқинлик қилмайди);

шаклланиш йўллари ва воситалари (терминологияда умумабадийтил сўз ясалиши воситаларининг ҳаракати махсуслашган, стандарт, турғун моделларни ишлаб чиқишга бўйсунади) (Даниленко,1977;208).

АДАБИЁТЛАР

1. Военизда Т 1972 РзГзТс' Виды научно технических сокращения в иностранных языках: учебник-М.:2007 48 с.
2. Султонсаидова С., Шарипова Ў. Ўзбек тили стилистикаси, Ўқув қўлланма, Тошкент 2009

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:825.628

Mastura OBLOKULOVA
Samarkand state institute of foreign languages
Associate professor of the department of English Philology
E-mail: mastura79@mail.ru

Based on the review of SamSIFL Doctor of Philosphy, associate professor Suleymanova Nargiza Mardanovna

SYNTACTIC POSITIONS OF THE PARTICIPLE II IN THE STRUCTURE OF THE SENTENCES

Abstract

The article deals with the syntactic positions of the participle II in the structure of the sentences. The author analyses the structure of the sentences with the participle II, revealing syntactic connections of it. In addition, article provides several notions of prominent linguists who contributed in the sphere of syntaxeme analysis demonstrated with examples by help of component and junctional model.

Keywords: nuclear predicative connection, predicating, predicated, subordinative connection, component.

GAP TARKIBIDAGI SIFATDOSH IKKINING SINTAKTIK POZITSIYALARI

Annotatsiya

Maqolada gaplar tarkibidagi sifatdosh II ning sintaktik o‘rinlari haqida so‘z boradi. Muallif sifatdosh II bo‘lgan gaplarning tuzilishini tahlil qiladi, uning sintaktik aloqalarini ochib beradi. Bundan tashqari, maqolada sintaksem tahlili sohasida o‘z hissasini qo‘shgan taniqli tilshunos olimlarning bir qancha tushunchalari va muallif misollarni komponent va yunksion modeli yordamida tahlil qilib chiqqan.

Kalit so‘zlar: yadro predikativ bog`lanish, predikativlik, predikativ, tobe bog`lanish, komponent.

СИНТАКСИЧЕСКИЕ ПОЗИЦИИ ПРИЧАСТИЯ II В СТРУКТУРЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Аннотация

В статье рассматриваются синтаксические позиции причастия II в структуре предложения. Автор анализирует структуру предложений с причастием II, выявляя его синтаксические связи. Кроме того, в статье приводятся несколько представлений выдающихся лингвистов, внесших вклад в анализ синтаксемы, продемонстрированные на примерах с помощью компонентной и соединительной модели.

Ключевые слова: ядерная предикативная связь, сказуемое, сказуемое, подчинительная связь, компонент.

Introduction. In given article the participle II in the structure of the sentences can be in the syntactic position of the nuclear predicating component:

1 . I’ve spoken to an old friend (6, 211).
2 . You’ve destroyed her future (6, 22).
3 . You should have told him … (6, 89).

In these sentences elements have spoken, have destroyed, should have told in the position of the nuclear predicating component act in the structure of the sentences on the basis of the nuclear predicative connection in relation to nuclear predicating components I and you. The elements old, her act on the basis of the subordinative connection with the unnuclear dependent components friend and future components. These unnuclear dependent components i.e. friend, future, him act in the structure of the sentences on the basis of the subordinative connection with nuclear the predicating components have spoken, have destroyed, should have told him. On this basis it is possible to construct junction and component models of these sentences:

(1) I’ve spoken to an old friend.



(2) You’ve destroyed her future



(3) You should have told him.



j.m.3.

The participle II in the given position is used with the verb in the form of passive voice:

4. Gary was interrupted (6, 68).
5 . Peter was frightened by his father (6, 7).

So the participle II in the position of the nuclear predicating component acts in the structure of the sentences on the basis of only nuclear predicative connection.

But it should be noted that one of the controversial questions with the participle II among grammarians are considered in the following constructions:

1 . She seemed annoyed with him (5, 25).
2 . You get dressed and we can go (6, 112).
3 . She looked frightened (6, 26).

In the analysis of similar sentences various criteria sometimes insufficiently reasonable and objective are applied. We don't find unity in terms with which constructions like

seemed annoyed, get dressed, looked frightened are designated.

Literature review. There is an opinion that the verb combination in the personal form with the participle represents one sentence part - a compound predicate. According to other point of view, the similar combination represents two sentence parts. Thus some different opinions exist: 1) verbal predicate and predicative definition; 2) verbal predicate and circumstance; 3) double predicate, i.e. simple verbal and nominal predicate. And the concept of a double predicate is very uncertain. One researchers speak about the double predicate mean by this term two sentence parts [B. A. Ilyish, 1971; N. F. Irtenyeva, 1969; G. N. Vorontsova, 1960], and others consider the double predicate to one sentence part [A.I. Smirnitskiy, 1957; L.Ya. Torchina, 1962; L.K.Makarova, 1970]. It is represented that the term "double predicate" which was widely adopted in linguistic literature in general is hardly suitable for designation of similar combinations, as annoyed, dressed, frightened elements as the participle II in the given structures of the sentences without verb in the personal form can’t be usually correlated to a subject and therefore can't carry out predicate function. And this feature of the second element doesn't allow to speak about two predicates or a double predicate in relation to these combinations [2, 3].

However, in this case, we believe that it is necessary to distinguish copular verbs from notion verbs according to L.I. Vostrikova, she distinguishes the following copular verbs: seem, appear, look, feel, sound, smell, get, taste, show [3, 12]. Proceeding from it, we consider the combination of the copular verb in a personal form the participle II is one component of the sentence, thus we don't see existence of any syntactical signs in this component between its components. If we recognized that between a copular verb and the participle II there is a syntactic connection the copular verb would be considered as the independent component of the sentence, however the method approves experiment about indivisibility of this combination.

Thus, the participle II doesn't give in the transformation- omission in these sentences:

(6) She seemed annoyed with him ----- she seemed … with him

(7) You get dressed …------ you get …

(8) She looked frightened------ she looked …

In these constructions the first syntactic units she, you are nuclear predicated components and seemed annoyed, get dressed, looked frightened are nuclear predicating components and these components are connected with each other by nuclear predicative connection.

They can be reflected in junction and component models so:

(6) She seemed annoyed …… Jum. 4. $\frac{NP_1}{Pnp} \bullet \frac{NP_2}{cVp_2}$;

(7) You get dressed …

(8) She looked frightened …

Research methodology. The actual material testifies that the participle II in the position of the nuclear predicating component meets in the connection, consisting of the auxiliary verb in the personal form, the participle II and to infinitive in the following sentences as:

4 . You had been forced to deal with failure (6, 22)

5 . She was too frightened to try again (6, 82)

6 . … waves can be heard to splash in … (6, 195).

In the considered construction as note L.S. Barkhudarov and D. A. Shteling meet the transitive verbs carried to various semantic groups [1, 306-307, 376-379]:

(9) You had been forced to deal with failure.

1 . Verbs of physical perception: feel, hear, observe, see, watch and others;

2 . causative verbs: advise, force, make, allow, forbid, keep, paint, appoint, elect and others;

3 . Verbs of mental activity (offer, expectation, knowledge): assume, believe, consider, expect, know, suppose and others;

4 . Verbs of detection, disclosure (sign): catch, discover, find, show and others ;

5 . Verbs of speech activity: announce, declare, report, say, state.

The sentences (9,10,11) with the specified constructions can be exposed to experiment - transformation (omission) of the third component:

(9) You had been forced to deal with failure you had been forced... ;

(10) She was too frightened to try again she was … frightened …;

(11) The waves can be heard to splash in the waves can be heard …

The results of experiment showed that the first and second components of the specified sentences make the structural basis of the sentence.

Arguing on completeness or incompleteness of sense of a finite verb in passive voice which often are criterion when determining the syntactic status of the combination of be, in a personal form + participle II + to infinitive have under themselves a pure semantic basis. We already proceed from the provision put forward by B. A. Ilyish the definition of the grammatical relations between language units semantic factors aren't relevant [4, 207].

Ability of the first and second component to create the sentences and on the other hand, impossibility of their omission allows to define a syntactic connection available between them as the nuclear predicative. On the basis of this connection the first components you, she, the waves are characterized by nuclear and predicated signs and the second components had been forced, was frightened, can be heard are characterized by nuclear and predicating signs.

For definition of the syntactic status of the third component, probably to use transformation - omission of the nuclear predicating component had been forced, was frightened, can be heard and transformation - replacement of the infinitive to deal with, to try, to splash in the verb in the personal form:

(9) You had been forced to deal with failure ------ you … to deal … ---- you deal;

(10) She was... frightened to try...------ she … to try ---- she tried;

(11) The waves can be heard to splash in ----- the waves … to splash in -----

the waves splashed in.

Analysis and results. As a result of the experiment showed that in the initial sentences the third component i.e. the infinitive is correlated with the first component. And in the transformed sentences the connection between components is nuclear predicative as the third components to deal with, to try, to splash in don't enter the structural basis of sentences. Therefore, the third component is defined as unnuclear predicating (NP2). The first components you, she, waves receiving the characteristic on the basis of two predicative connections - nuclear and unnuclear can be defined as nuclear twice predicated (NP1P1). The second components had been forced, was frightened, can be heard are defined only on the basis of the nuclear predicative connection namely as nuclear predicating (NP2). The junction and component models of these sentences look so:



$$\frac{NP_1P_1}{Pnp} \bullet \frac{NP_2}{auxVp_2} \bullet \frac{\overline{N}P_2}{Ving};$$

$$\frac{NP_1P_1}{Pnp} \bullet \frac{NP_2}{auxVp_2} \bullet \frac{\overline{N}P_2}{Ving};$$

(10) She was too frightened to try.

$$\frac{NP_1P_1}{S} \bullet \frac{NP_2}{mauxVp_2} \bullet \frac{\overline{N}D}{V\,\mathrm{inf}};$$

(11) The waves can be heard to splash in.

The participle II, probably, meets in the syntactic position of the unnuclear dependent component (ND) in the structure of the sentence.

7 . He stayed pressed against a shop window (5, 53).

8 . You have a very developed supernatural mind (6, 134).

In these sentences pressed and developed are dependent components in the relation to the components window and mind. It can be proved by means of the transformation- omission:

(12) He stayed pressed against a shop window ----- He stayed ------… pressed against … window.

(13) You have a very developed supernatural mind ----- you have … mind...-----

developed … mind.

So it means that the participle II is realized in the position of the dependent component in relation to the dependent components.

Conclusion. While studying the positional abilities of the participle II in the structure of the sentences are found that the participle II takes generally positions of the nuclear predicating component in the forms of the active or passive voices and also in the position of the unnuclear dependent component at nuclear predicated and dependent components of the sentences.

LITERATURA

1. Бархударов Л.С., Штелинг Д.А. Грамматика английского языка. Москва: Высшая школа, 1965.-428с.
2. Воскресенская Н.Е. Предложения с ядерным дважды предицируемым компонентом в современном английском языке / Автореф. дисс…. канд. филол. наук.- Ленинград: 1976.-20с.
3. 3. Вострикова Л.И. Структура группы связочного глагола в современном английском языке (на материале связочных глаголов с модальным значением): Автореф. дисс…. канд. филол. наук.- Ленинград: 1970.-18 с.
4. Ильиш Б.А. Строй современного английского языка. Теоретический курс грамматики 2-е издание. – Ленинград: Просвещение, 1971.-366с.
5. Graig Thomas. Playing with cobras.- First published in Great Britain by Harper Collins Publishers 1993.- 379p.
6. Phillip Margolin. The burning man.- First published in Great Britain in 1996 by Little Brown.- 409p.

O‘ZBEKISTON MILLIY NIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК: 81-22

Зубайдулло РАСУЛОВ,
Бухоро давлат университети доценти, ф.ф.н
E-mail: zubayd@yandex.ru

ЎзДЖТУ профессори, ф.ф.д Г.И.Халлиева тақризи асосида

ДИАЛОГИК НУТҚ ЛИСОНИЙ ТЕЖАМКОРЛИК МАНБАИ СИФАТИДА

Аннотация

Мақолада диалогик нутқнинг структур-семантик хусусиятлари, диалогнинг энг кичик бирлиги ҳисобланган репликанинг назарий жиҳатлари ва диалогдаги реплика-тузилмалар турли вазиятларни акс эттириши каби илмий-назарий муаммолар тадқиқ қилинган.

Калит сўзлар: тил, нутқ, диалог, реплика, лексема, морфема, синтактик қурилмалар, субъект-предикат, эллиптик ва тўлиқсиз тузилмалар.

ДИАЛОГИЧЕСКАЯ РЕЧЬ КАК ИСТОЧНИК ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ЭКОНОМИИ

Аннотация

В статье рассматриваются структурно-семантические особенности диалогической речи, теоретические аспекты реплики, которая считается наименьшей единицей диалога, и такие научно-теоретические проблемы, как реплики-структуры в диалоге, отражающие различные ситуации.

Ключевые слова: язык, речь, диалог, реплика, лексема, морфема, синтаксические устройства, субъект-предикат, эллиптические и неполные конструкции.

DIALOGICAL SPEECH AS A SOURCE OF LANGUAGE ECONOMY

Abstract

The article deals with the structural and semantic features of dialogic speech, the theoretical aspects of the replica, which is considered the smallest unit of the dialogue, and such scientific and theoretical problems as replica-structures in the dialogue, reflecting various situations.

Key words: language, speech, dialogue, cue, lexeme, morpheme, syntactic devices, subject-predicate, elliptic and incomplete constructions.

Кириш. Тизимли характерга эга бўлган тил ўзаро боғлиқ, бир-бирини тақозо этадиган қисмлардан иборат қурилмадир. Унинг алоҳида унсурлари бир-бирларига ва яхлит тизимга нисбатан муносабат кўламида ўрганилиши керак. Лисоний ҳодисаларни қандай кўринишда бўлишидан қатъий назар, уларнинг бажарадиган дискурсив вазифалари нуқтаи назаридан таҳлил қилиш мақсадга мувофиқдир. Зотан, мулоқот жараёнида, дискурсив фаолият мобайнида тилнинг асосий вазифаси бўлган ахборотни узатиш ва қабул қилиш ҳаракатлари самараси намоён бўлади.

Оғзаки дискурснинг яққол намунаси ҳисобланган диалогнинг синтактик тузилиши ва луғавий таркиб топиши жиҳатидан ўзига хослиги унинг алоҳида лингвистик ҳодиса сифатида таҳлил қилинишига туртки беради. Диалогик нутққа оид муаммоларни ўрганган тилшунослар диалогни бир-бирини мазмунан тўлдирадиган ва маъно, структур ва вазифа жиҳатидан ўзаро мослашадиган нутқий тузилма – репликалардан иборат мажмуа сифатида тавсифлайдилар [8,24,21]. Ҳозирги пайтда диалогик нутқ учун хос бўлган белгиларга эга нутқий ҳодисалар “дискурс” тушунчаси воситасида ҳам изоҳланмоқда[9, 2, 14].

- Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Тил ҳодисаларининг табиий ҳолатини ва уларнинг мулоқот муҳитидаги ҳаракатини ўрганишга мўлжалланган коммуникатив-функционал йўналиш тараққий қилаётган ҳозирги даврда диалог асосий тадқиқот объектига айланиб улгурди. Академик Л.В.Щерба бекорга диалогни нутқий мулоқотнинг энг қадимги умумий шакли деб баҳолаётиб, унда “лисоннинг ҳаёти жўш уришини” эътироф этмаган бўлса керак [20]. Айнан диалог воситасида инсонларнинг ахборот алмашинувга бўлган эҳтиёжи қондирилади. Нутқий тузилмалар алмашинуви диалогнинг характерли хусусиятидир. Суҳбатдошларнинг бевосита алоқаси сўзлашув нутқининг асосий шакли бўлган диалогнинг муҳим кўрсаткичларини белгилайди. Булар қаторига нутқий тузилмаларнинг тежамлилиги, қолиплашган нутқий тузилмаларнинг ишлатилиши, сўз тартибининг эркинлиги, такрорнинг қўлланилиши, қайта сўраш, экспрессив луғавий бирликлардан тез-тез фойдаланиш, паралингвистик воситаларнинг иштироки кабилар киради. Диалогнинг яна бир хусусияти шундан иборатки, сўзловчи маълум нутқий актни бажараётиб, тингловчидан доимо жавобни кутади. Бунда биринчи ёки бошловчи реплика суҳбатни бошлаб беради ва у мулоқот мақсадига нисбатан буйруқ, сўроқ ёки дарак гаплар кўринишида намоён бўлади. Суҳбатдошни жавоб беришга чақирувчи, уни ахборот узатишга ундовчи нутқий тузилма одатда ҳаракатга ундаш вазифасини ўтайди.

Диалог доимий равишда бир нечта қисмлардан иборат ва ушбу қисмлар ўзаро боғлиқдир. Умумий мазмун лисоний ифода топган ва тагмаънода мавжуд бўлган маънолар йиғиндисидан иборат бўлади. Суҳбатдошлар нутқий ҳаракатлари воситасида ифодаланаётган мазмун ахборот алмашинувининг энг содда усулидир. Репликаларнинг кетма-кетлиги эса структур-семантик яхлитликни таъминлайди. Ахборот икки томоннинг ҳаракатлари натижасида шаклланади.

Жавоб репликаси шаклан у қадар мустақил эмас, унинг мазмуни ва тузилиши биринчи реплика билан боғлиқ ва усиз тушунарсиз бўлиб қолиши мумкин. Мазмун жиҳатдан кенг қўламли бўлган ушбу нутқий тузилмалар сўзловчи фикрига розилик билдириш, уни тасдиқлаш ёки инкор этиш, эътироз билдириш, қайта

сўраш каби прагматик вазифаларни бажариши кузатилади[1].

Бошланғич ва жавоб репликаларининг ўзаро муносабати асосида юзага келадиган ва нисбатан мустақил нутқий бирликни ҳосил қиладиган матн парчалари илмий адабиётларда диалогик яхлитлик деб аталади. Ушбу яхлитлик умумий бир мавзу атрофида шаклланиб, коммуникатив мақсад талаб қиладиган мантиқий ва маъновий бутунлик кўринишини олади[15].

- **Таҳлил ва натижалар**. Диалогни монолог матндан фарқлашга интилган тадқиқотчилар диалогик матн синтагматик муносабат замирида пайдо бўлишини қайд этадилар. Монолог эса, мустақил тил бирлиги сифатида парадигматик тамойил тадбиқида шаклланади[17]. Лисоний бирликларни ажратишнинг синтагматик тамойили, парадигматик тамойилга қарама-қарши равишда, ушбу бирликларнинг коммуникатив вазифасини инобатга олишни тақозо этади. Бошқача айтганда, агарда парадигматика нуқтаи назаридан асосий тил бирликлари сифатида лексема, морфема, синтактик қурилмалар қаралса, синтагматик нуқтаи назардан эса “мулоқот жараёнида реал вазифа бажараётган бирлик камида иккита ўзаро тобе қисмдан иборат матндир. Унинг оддий шакли савол ва жавоб тузилмаларидан иборатдир”[11]. Мазкур турдаги синтагматик бирликлар қаторидан диалог ҳам ўрин олишига ҳеч қандай гумон йўқ.

Шунинг билан биргаликда, диалог қисмларининг шаклланиши ва нутқий фаоллашувини таъминловчи лисоний ҳаракатлар табиатини англаш учун сўзловчи ва тингловчининг мулоқот мақсади нимадан иборат эканлигини ҳам ушбу мақсаднинг нақадар ўзаро муқобиллигини эътиборга олиш лозим. Бу эса диалогик тузилманинг мазмуний ва вазифавий турларини ажратишда сўзловчининг нутқий актига тингловчи томонидан билдирилаётган муносабатни инобатга олишни талаб қилади [3].

Мулоқот мақсадига кўра ҳар қандай турдаги гап диалогда етакчи ўринни эгаллаши мумкин. Жавоб репликасининг шаклланиши имкониятлари бироз кенгроқ, яъни унинг позициясида дарак, сўроқ, ундов, гаплардан ташқари шаклан қисқартирилган синтактик тузилмалар ҳам фаоллашади. Бунга эътибор қаратган Ч.Фриз жавоб нутқий тузилмаларининг (response utterance units) кўпчилиги диалогни бошловчи тузилмалардан (situation utterance units) структур жиҳатдан фарқ қилишини қайд этиб ўтган[18].

Инглиз диалогик нутқининг структур-семантик хусусиятларини ўрганишга кўп куч сарфлаган бир қатор тадқиқотчилар диалог таркибида фаоллашадиган нутқий тузилмаларнинг функционал-семантик турларини аниқлашга ҳаракат қилганлар. Бунда олимлар турли коммуникатив турларга қарашли гапларнинг бирикишини таҳлил қилиш билан чегараланиб қолмасдан, балки жавоб репликаларининг хусусиятларига ҳам алоҳида эътибор қаратадилар [5, 19]. Масалан, Л.М.Михайлов немис тили сўзлашув нутқида гап турларининг вазифавий-коммуникатив муносабати ҳақида фикр билдираётиб, диалог икки ёки ундан ортиқ қисм (реплика)дан иборат бўлган ҳолатларида маълум фарқлар кузатилишини қайди этади[13]. Бундан ташқари, репликаларнинг ўзаро боғланиши ҳам турли кўринишда намоён бўлади. Булардан энг кўп тарқаргани савол-жавоб диалогик яхлитлигидир. Ушбу яхлитликда нутқий тузилмаларнинг алоқаси саволнинг структур белгилари билан боғлиқ ҳолда шаклланади. Сўроқ олмоши воситасида тузиладиган савол фаоллашганида жавоб репликасининг структур асосини худди шу олмошнинг синтактик вазифасини бажара оладиган гап бўлаги эгаллайди. Масалан:

“When did you get it?”

“Yesterday morning.”

“Қачон уни кузатдинг?”

“Кеча кечқурун.”

Жавоб репликаси ўрнида сўралаётган нарсани тасдиқловчи ёки инкор қилувчи yes, no / ҳа, йўқ каби унсурлар қўлланганида ушбу жавобда тасдиқ ёки инкор маънолари сийқаллашиб, улар ўрнида қўшимча ахборот ифодаланади:

Pamela: Has Clive turned up yet?

Louise: No, not yet. (P.Shaffer. Five Finger Exercises).

... –Сиз биттагина ўғилсиз-ку?

-Ҳа, биттаман. (Т.Малик. Талваса.)

Айтиш жоизки, жавоб репликаларнинг ажратилган турларининг синтактик мақоми бир хил эмас. Жумладан, И.Е.Алексеевнинг кузатишича, диалогнинг савол қисми билан мустаҳкам боғланишда бўлган жавоб репликаларининг структураси аниқ кўринишга эга эмас. Чунки улар шахс, замон, макон кўрсаткичларига эга бўлмаган эллиптик ва тўлиқсиз тузилмалар воситасида ифодаланадилар [1].

Худди шу ҳолатни инобатга олган тилшунослар икки ва ундан ортиқ нутқий тузилмаларни қамраб олувчи диалогни яхлит матн ёки дискурс сифатида ажратиш тарафдоридир [12,22]. Диалогик тузилмаларнинг структур турлари ва коммуникатив имкониятлари ўртасидаги муносабатларни аниқлашга ҳаракат қилган Е.А.Энгель ифода қилинаётган ахборотнинг маркази диалогнинг қайси қисмида жойлашганини аниқлаш учун худди шу микроматнга мурожаат қилиш етарли бўлишини қайд этади [22].

Бошқа тилшунослар ушбу фикрни асосан маъқулласалар-да, лекин ягона бир диалог таркибидан ўрин олган барча гаплар ягона вазиятни акс эттириб, уларнинг референти ҳам умумий бўлишини таъкидлайди. Бошқача айтганда, диалог ҳам, худди бошқа турдаги матнларда бўлганидек, пропозиция тузилишига эга [7]. Зеро, микропропозиция матннинг мундарижаси, муаллифнинг режаси билан боғлиқ ҳолда шаклланади [4].

Бироқ диалогдаги реплика-тузилмалар турли вазиятларни акс эттириши ҳам мумкин ва бундай диалогларда бир нечта мавзулар воқеланиши кузатилади. Мазкур мавзулар бир бири билан шу қадар мустаҳкам алоқада бўладики, уларни алоҳида ажратиш ўта мушкул вазифага айланади.

Шундай қилиб, диалогнинг энг кичик бирлиги сифатида репликани қараш лозим. Реплика мулоқот иштирокчиларининг бирига тегишли ва ягона синтактик қолипга эга. Замонавий тилшуносликда ушбу бирлик “коммуникатив қадам” (communicative pace) атамасини олган [10].

Сўзловчилар бир нутқий вазиятдан иккинчисига ҳеч қандай вақт оралиғидаги узилишсиз кўчганларида ўз мавзусига эга диалогик бирликлар бирикувида ҳосил бўладиган яхлитликлар диалогик дискурс сифатида қабул қилинади. Р.Якобсон ҳар қандай нутқий тузилмалар алмашинувини нутқнинг диалогик шакли бўлишини таъкидлаган эди [23].

Диалогнинг яна бир хусусияти унинг очиқ тузилма эканлигида намоён бўлади. Очиқ тузилма оғзаки нутқда энг тарқалган ҳодисалардандир. Бундай тузилмаларда қисмлар ўртасидаги муносабат ва шаклий тузилиш худди шу структур-семантик муносабатга эга бўлган янги бўлакларни киритиш имконияти мавжуд [6]. Масалан:

Are you in love?

Yes.

With that English girl?

Yes. (E.Hemingway. Farewell to Arms).

Ушбу ҳолатда субъект-предикат қолипидаги Are you in love? саволини тугалланган синтактик тузилма деб қараш керак. Аммо to be in love кесими тўлдирувчини талаб қилганида иккинчи саволни беришга тўғри келади. Ахборотнинг тўлиқлигига бўлган эҳтиёж диалогнинг кўп қисмли бўлишига шароит яратади.

Шунингдек, диалог таркибидаги сўроқ тузилмаларининг асосий бўлаклари ҳам тежаб қолиниши ҳам кўп учрайдиган ҳолатдир: How much for them, Sally?; More comfortable?; Down from town?; Ready for a cup of tea?, etc. Бу йўсиндаги лисоний тежамкорлик узатилаётган ахборот кўламига унчалик таъсир қилмаслигининг сабаби ушбу тузилмаларнинг диалог таркибидаги бошқа репликалар билан мазмунан боғлиқлигидадир.

Диалог ахборот таркибида ортиқчалик ҳолатларининг юзага келиши эса иккинчи савол репликасининг биринчи жавоб репликаси ҳисобидан тўлдирилиши билан изоҳланади. Бунда асосий ролни синтактик такрор бажаради. Қиёсланг:

Niggie: Are you enjoying any part of your life, grandmother?

Mrs. Basil: Half.

Niggie: Half?

Mrs. Basil: The night. And the morning up till dawn (Plays of the Year, V.24).

-Кимсиз?

-Буфетчиман.

-Буфетчи?

-Ҳа, сизни эллик олти мингга қарз қилиб қўйган буфетчиман. (Т.Малик. Талваса)

Иккинчи савол репликаси такрорланишида эллипсис ҳодисаси фаоллашуви кузатилади:

Oswald: What you say?

Caradoc: We held a meeting, Os?

Oswald: Meeting?

Caradoc: The boys in the choir held a meeting (Plays of the Year, V.24);

Maurice: How much will you pay me exactly?

Edward: Thirty shillings per week.

Maurice: (Face fall): A … week?

Edward: Five shillings extra if you drive a car (Plays of the Year, V.29).

–Сиз ростданам милисамисиз?... Ҳужжатингизни кўрсатмадингиз-ку?

-Ҳужжатми? –Соли Муродов қадаҳ чертиб қўйди. –Мана бу ҳужжат сенга етарли эмасми? ... (Т.Малик. Талваса.)

-Уни пишириб ермидик, албатта қўйиб юборамиз. Лекин отасидан атаганини ундириб олишимиз керак.

-Атаганини? – Йигит боланинг отасидан нима ундирилишини англаган бўлса-да, бир уй соҳибига, бир меҳмонга савол назари билан қаради. (Т.Малик. Талваса.)

- Хулоса ва таклифлар. Юқорида келтирилган диалогик нутқ парчаларидаги синтактик ва луғавий такрорлар лисоний тежамкорлик намуналари бўлиши билан бир қаторда ахборотни аниқлаштириш, лозим бўлганда тўлдириш вазифасини бажараётгани аён.

Шундай қилиб, диалогик мулоқот юзага келишининг асосий омили сўзловчида бирон-бир мақсадга эришиш истагининг пайдо бўлишидир. Бунинг натижасида нутқий ҳаракат бажарилади ва мулоқот вазияти ҳосил бўлади. Шу вазиятда фаоллашадиган нутқий актлардан охиргиси режалаштирилган мақсадни амалга оширса, олдингилари унинг учун шароит яратиш учун хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР

1. Алексеев И.Е. Ответный компонент диалога в якутском языке. –Новосибирск: Наука, 1990. –С.22-58.
2. Арутюнова Н.Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь. –М.: Большая Российская энциклопедия, 2000. –С.136-137.
3. Арутюнова Н.Д. Феномен второй реплики, или о пользе спора // Логический анализ языка. Противоречивость и аномальность текста. –М.:Наука, 1990. –С.183.
4. Белов В.А. Пропозициональная организация текста (на материале романа А.Белого «Петербург»). Дисс. … канд. филол. наук. –СПб., 2011. – 180 с.
5. Бузаров В.В. Круговорот диалогической речи или взаимодействие грамматики говорящего и грамматики слушающего. – Ставрополь: Изд-во Ставропольского у-та., 2001. – 150 с.
6. Venermann Th. Words and Syllables in Natural Generative Grammar // Papers from parasession on Natural Phonology. – Chicago, 2001. – P.347.
7. Дейк Т.А. Язык. Познание. Коммуникация. –М.:Прогресс, 1989.
8. Dijk van T.A. Dialogue and Cognition // Cognitive constraints on communication. –Dordrecht: Reidel Publishing Company, 1984.
9. Dijk van T.A. Kintch W. Strategies of Discourse Comprehension. –N.Y.: Academic Press, 1983. – 225 p.
10. Edmondson W. Spoken Discourse: A Model for Analysis. –L.:Longman, 2005. – 310 p.
11. Колшанский Г.В. От предложения к тексту // Сущность, развитие и функции языка. –М.:Наука, 1987. –С.89.
12. Курбанова Л.А. Простые и сложные предложения ассиметричной структуры в составе диалогического единства. Автореф. дисс. … канд. филол. наук. –Ростов, 1994. – 21 с.
13. Михайлов Л.М. Коммуникативная грамматика немецкого языка. –М.:Высшая школа, 1994. – 256 с.
14. Нормуродова Н.З. Инглиз бадиий дискурсида антропоцентризмнинг вербал экспликацияси. Филол.фанлари докт. дисс. автореферати. –Т., 2020. – 78 б.
15. Пенькова Г.А. Диалогические единства в современном французском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1972. – 24 с.
16. Pouldauf I. Some Issues in the Theory of Grammar. –Cambridge CUP, 2004. – 286 p.
17. Рожденственский Ю.В. Общее языкознание. –М.:Высшая школа, 1990. – С.153.
18. Fries Ch. The Structure of English. Introduction to the Construction of English Sentences. –N.Y.: Harcourt, Brace and Company, 1952. – P.10.
19. Чахоян Л.П. Синтаксис диалогической речи современного английского языка. –М.:Высшая школа, 1979. – 168 с.
20. Щерба Л.В. Избранные работы по русскому языку. –М.:Учпедгиз, 1957. –С. 126.
21. Шпильная Н.Н. Диалогический текст. Деривационная концепция. –М.: URSS, 2018. – 384 с.
22. Энгель Е.А. Коммуникативный динамизм обиходного диалога: Теоретико-экспериментальное исследование на материале немецкого языка. Дисс. … канд. филол. наук. –М., 2003. – 208 с.
23. Якобсон Р. Избранные работы. –М.: Прогресс, 1985. – С.301.

O‘ZBEKISTON MILLIY NIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

Dilshoda RAXMONQULOVA,
Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti o‘qituvchisi
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
shodiyonichkailhomova@gmail.com

O‘ZDJTU falsafa doktori (PhD) Maxmudova N.A taqrizi asosida

KELAJAKDA HARBIY OFITSERLARNING TA’LIMINI OSHIRISH UCHUN NEMIS TILIDAGI HARBIY BUYRUQLAR

Annotatsiya

Maqolada qo'mondonlik profilining bo'lajak ofitserlarini tayyorlash sifatini oshirishning yangi usullarini izlash dolzarbligi ko'rib chiqiladi. Ushbu usullardan biri harbiy oliy o'quv yurtlarida dars berish amaliyotida mavjud bo'lmagan chet tili darslarida harbiy subtilning bir qismi sifatida og'zaki harbiy qo'mondonliklarni (nazoratning instrumental "tillari") tizimli o'rganishdir. Belgilangan vazifalarga ko'ra, amalga oshirilgan qadamlar, o'rganish natijalari tavsiflanadi, o'qitish amaliyotidan misollar keltiriladi. Talabalarning kasbiy manfaatlarini harbiy qo'mondonlik universiteti profili bilan bog'lash zarurligiga e'tibor qaratiladi. Harbiy qo'mondonliklarning xususiyatlaridan va ularning solishtirilayotgan tillardagi asosiy lingvistik mazmunidan kelib chiqib, buyruqlarni tizimli o'rganishning maqsadga muvofiqligi mezonlari aniqlanadi. “Og‘zaki harbiy qo‘mondonliklarning nemischa-ruscha cho‘ntak lug‘ati”ni yaratish zarurligi asoslab berilgan, lug‘at yaratish tajribasi qisqacha bayon etilgan. Kelajakdagi harbiy qo'mondonlik ofitserlarining professional asosiy vakolatlarini shakllantirish uchun tavsiya etilgan yo'lning samaradorligini tasdiqlovchi xulosalar chiqariladi.

Kalit so'zlar: chet tili, og'zaki harbiy buyruqlar, ta'lim sifatini oshirish, qo'mondonlik profilidagi oliy o'quv yurtlari, harbiy lug'at, lug'at yaratish.

ВОЕННЫЕ КОММАНДЫ НА НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ ОФИЦЕРОВ В БУДУЩЕМ

Аннотация

В статье рассмотрена актуальность поиска новых путей для повышения качества обучения будущих офицеров командного профиля. Высказывается предположение, что одним из таких путей является системное изучение устных военных команд (инструментальных «языков» управления) в составе субъязыка военных на занятиях по иностранному языку, отсутствующее в практике преподавания в военных вузах. Согласно поставленным задачам описаны предпринятые шаги, результаты исследования, приведены примеры из практики обучения. Сделан акцент на необходимость корреляции профессиональных интересов обучаемых с профилем военного командного вуза. На основе характеристики военных команд и их основного лингвистического содержания в сопоставляемых изучаемых языках выделены критерии целесообразности системного изучения команд. Обоснована необходимость создания «Немецко-русского карманного словаря устных военных команд», кратко описывается опыт создания словаря. Делаются выводы, подтверждающие эффективность предложенного пути для формирования профессиональных ключевых компетенций будущих офицеров военного командного профиля.

Ключевые слова: иностранный язык, устные военные команды, повышение качества обучения, вузы командного профиля, военная лексика, создание словаря.

MILITARY COMMANDS IN GERMAN EDUCATION OF MILITARY OFFICERS IN THE FUTURE

Abstract

The relevant problem of searching for new ways to improve the quality of education of the future commanding officers is considered in the article. It is suggested that one of the ways is the systematic study of oral military commands (instrumental “language” of control) as a part of the sublanguage of military men in foreign language classes which is not used in the teaching process in military schools. According to the tasks there is a description of the taken steps, the results of research and examples of teaching practice. The necessity of professional interests correlation with the profile of the military command school is emphasized in the article. On the basis of the characteristics of military commands and their basic linguistic content in the correlated languages there have been defined the criteria for systematic studying of the commands. The necessity of creating a “German-Russian pocket dictionary of oral military commands”, has been substantiated. The experience of creating the dictionary has been summarized. The conclusions are made to confirm the effectiveness of the proposed ways of forming professional core competencies of the future commanding officers.

Key words: foreign language, oral military command, improve the quality of education, military command profile schools, military vocabulary, the creation of the dictionary.

Introduction. The improvement of the system of military education has tightened the requirements for the military professional training of a military specialist, to which the discipline “Foreign Language” is also related. “Being a key figure in the educational process, a cadet must possess not only a certain system of knowledge, skills and abilities, but also a set of professionally and personally significant qualities that would meet the growing demands of society and the armed forces” [1].

In accordance with the qualification requirements for the military professional training of graduates of the university and the Federal State Educational Standard of Higher Education, graduates must have the necessary key competencies for the practical professional use of a foreign language (FL): the ability to write and oral communication in the process of professional communication and the ability to apply in professional activities and independently improve knowledge of foreign languages. In other words, in the process

of learning a foreign language, cadets must acquire certain competencies and, at the end, be competent (able) to use the language in all types of speech activity in various communication situations.

The duty of teachers of the Department of Foreign Languages is to provide students with the conditions for the implementation of these requirements, which implies significant efforts and responsibility for training on both sides. For comparison: in the German Armed Forces, such versatile professional linguistic training of military personnel and advanced training of foreign language teachers is carried out by the authoritative organization “Federal Office for Foreign Languages of the Bundeswehr” (das Bundessprachenamt, BSprA) [17].

Despite the above-mentioned modern requirements for improving the education system, a number of guiding documents of the Ministry of Defense of the Russian Federation of recent years note an insufficiently high level of professionally oriented language competence (planned results) of cadets and listeners, respectively, indicates the need to strengthen their linguistic training. The current situation, of course, cannot but worry teachers of foreign languages and the leadership of military universities.

Literature rewiew. The problem of language training of graduates of military universities is considered in detail in the dissertation work of G. I. Shemet. Based on the documents of the Ministry of Defense of the Russian Federation, as well as on the results of his own research, G. I. Shemet notes that the usual old forms of work on teaching a foreign language do not meet modern trends in the modernization of education. According to the author's research, the lack of knowledge of graduates to a greater extent affects the lexical side of speech [14;15].

An analysis of the latest publications by domestic and foreign authors shows that the issues of improving the quality of education for students and cadets of military universities, including command profile, are also considered and analyzed by other researchers [1;5;13;18 and others]. Their works reflect certain aspects of improving the professional competence of future specialists, including military ones. Specialists in the field of teaching foreign languages also contribute to the improvement of teaching [2–4; 9; eleven; fourteen; fifteen]. Searches are being made for rational ways to various aspects of teaching a foreign language. The modern German-language military vocabulary of the Bundeswehr (native speakers) is studied less frequently, and only little attention is paid to the oral military commands (UMC), which are part of the military vocabulary in military universities.

Research Methodology. The literature identifies factors that negatively affect the educational process at the university. German researchers are unanimous in their opinion with Russian specialists that such weighty factors are the imbalance between the school and university pedagogical systems (transition from school to higher education) and individualization (orientation in the new surrounding world) [18]. L. Huber, for example, argues that in didactics the task of “overcoming oneself” after entering a university is still unresolved and interest and satisfaction with learning are the most important resources for successful learning [18]. Foreign language teachers also know that if there is no attraction outside the language, motivation to study it, then all the efforts of the teacher will be in vain. Military experts additionally highlight the specific features of the socialization of cadets in a military university [1;5;13 and others]. The study of a foreign language in a military university falls on just such a difficult period in the life of cadets.

The discrepancy between the planned results and the established educational paradigm in a military university requires foreign language teachers to find new ways to improve the quality of education, when the passive role of cadets in the study of foreign language would be translated into an active one, and in the volume of the ever-expanding volume of military language, on the basis of scientific approach, the necessary and sufficient lexical minimum corresponding to the profile of a military university would be singled out. This was the reason for the relevance and direction of the study.

In this article, we would like to show that one of the ways to improve the quality of training of future officers of higher education institutions of command profile is the correlation of professional interests of trainees with the profile of a military command higher education institution. A correlating element in the lessons of foreign language can be a systematic study of oral military commands as part of military vocabulary.

Analysis and results. It is known that the content of education is not a constant value, but changes with the development of society. It is determined by the federal educational standard, the training program and depends on the goals and stages of training. Analyzing the new paradigm of education, theorist and practitioner of the language laboratory of Professor N.F. Talyzina (Moscow State University), the creator of a unique new generation textbook O.Ya. Kabanova [3] emphasizes that a synthesis of achievements is currently needed ICT and adequate content of academic subjects [4].

Despite the lack of such material, some fruitful ideas in this area have been found on the Internet. It should be noted that due to some peculiar features of the reproduction of commands by communicants in written form, in the selection and understanding of them, significant difficulties arose due to the authors' non-compliance with the rules of spelling, grammar, and the transfer of the phonetic side of speech, because in German and Russian, these differences are significant. The examples of the proposed German teams showed a mixture of languages (English, German, Russian, Ukrainian). Nevertheless, there were also single finds transmitted by communicants (who speak English) in a kind of intonation-phonetic design with the help of independently invented signs. There were also people who, in their words, learned UVK in places of hostilities. Sometimes native German speakers appeared in the comments, with laconic remarks like "Hmm, sorry, that's not quite right!" They offered the correct option only rarely.

In total, it was possible to create an educational dictionary of the UVK, suitable for study and understanding by cadets and interested persons.

The final summer tests in the German language in 2016 showed an emerging positive trend in the study of a foreign language using the technology of working on UVK. During the tests, the cadets were in a good working mood, which is psychologically extremely important for studying a foreign language. Most of them did not feel the influence of “language and culture shock”, articulated better in FL, appropriately used UVK during preparation and in the process of answering, on their own initiative tried to show knowledge of commands in relation to the text. On "good" and "excellent" (some even professionally brilliant) they coped with modern texts on the studied military specialty. Easier than before, they were guided in a conversation in the construction of German phrases, they qualitatively better understood foreign language material, coped with linguistic and regional information, felt the structure of related languages, originally transmitted in Russian in the language of an independently “invented” word, a newfangled military term not found in dictionaries used in the German military press.

Based on this, we can conclude that the simple technology of working on UVC really has a number of advantages. It shows quite noticeable motivational-personal (the desire to acquire knowledge, skills and abilities) and performance-based criteria.

Conclusion. In conclusion, I would like to emphasize that due to the changing conditions of life, modern society and the Armed Forces require military personnel to increase the level of proficiency in professional FL, which, in turn, requires new approaches to teaching it. We tried to find one of the new ways that would provide future officers with the formation of a successful professional activity, uniting the interests of trainees with the profile of a military command university, suitable, in addition to German, for other languages being studied. The effectiveness, novelty, and practical significance of the proposed path lies in the fact that such a correlating element can be the systematic study of the UVC in the classroom for foreign languages and their independent study in a military university of a command profile.

The existing need for studying UVK is possible in further theoretical and practical implementation: supplementing the content of training with a systematic study of UVK by revising the volume of educational military vocabulary (selection of vocabulary for educational and methodological purposes [8], extrapolating the development of the problem to other studied foreign languages, the development of a brief methodology for military-special and military-linguistic retraining of teaching staff in foreign languages, etc.

REFERENCES

1. Bajakhmetov, S. U., 2016. Model’ formirovani- ja professional’no-lichnostnogo samorazvitija kursantov v voennom vuze [Model of formation of professional and personal self-development of future officers in military higher education institution]. Sibirskij pedagogicheskij zhurnal [Siberian Pedagogical Journal], 2, pp. 64–69. (in Russ., abstr. in Eng.).
2. Golovanova, I. F., 2008. Formirovanie profes- sional’noj kompetentnosti kursantov voennogo vuza na osnove uchebnogo proektirovanija v processe obuchenija inostrannomu jazyku [Forming of pro- fessional competence of students of military institu- tion of higher learning on the basisof the education- al planning in the process of educating to the foreign language]. Cand. Sci. (Pedag.). Ulyanovsk, 125 p. (in Russ.).
3. Kabanova, O. Y., 2009. Ot zvuka k rechi [From a sound to speech]. Moscow: Lomonosov Mos- cow State University, Faculty of Psychology Publ., 359 p. (in Russ.).
4. Kabanova, O. Y., 2012. Teorija P. Ja. Gal’pe- rina – perestrojke soderzhanija uchebnyh predmetov [Theory of P. Y. Gal’perin to alteration of main- tenance of educational objects] // Vestnik Mosk- ovskogo Universiteta. Serija 14. Psihologija, 4 [Moscow State University Vestnik. Series 14. Psychology], 4, pp. 113–122 (in Russ.).
5. Lazutkina, L. N., 2006. Konceptual’nye osnovy formirovanija i razvitija rechevoj kul’tury u kursantov voennyh komandnyh vuzov [Conceptual bases of forming and development of speech culture for the students of soldiery command in- stitutions of higher learning]. Ryazan’, 242 p. (in Russ.).
6. Leont’ev, A. A., 1999. Psihologija obshheniya [Psychology of communication]. Moscow: Smysl Publ., 365 p. (in Russ.).
7. Min’jar-Beloruchev, R. K., 1990. Metodi- ka obuchenija francuzskomu jazyku [Methodolo- gy of educating to French: Textbook for pedagogical institutes on speciality “Foreign languages”]. Mos- cow: Prosvechhenije Publ., 224 p. (in Russ.).
8. Morkovkin, V. V., Dorogonova, I. A., 1976. O novom tipe leksicheskogo minimuma sovremen- nogo russkogo jazyka [About the new type of lexi- cal a minimum of modern Russian] // Russkij ya- zyk za rubezhom [Russian language abroad], 2, pp. 59–62 (in Russ.).
9. Piskareva, A. A., 2015. Jazykovye sledstvija globalizacii (na materiale funkcionirovanija angliciz- mov v nemeckom jazyke) [Linguistic consequences of globalization (based on the functioning of the An- glicism in german language)]. Cand. Sci. (Philol.). Moscow, 233 p. (in Russ., abstr. in Eng.).
10. Plekhanov, A. M., Shapkin, S. G., comps., 1998. Slovar’ voennyh terminov [Dictionary of mil- itary Terms]. Moscow: Vojenizdat Publ., 335 p.(in Russ.).
11. Sokolov, S. V., 2013. Razvitie i sovremennoe sostojanie nemeckojazychnoj voennoj leksiki [The development and current state of German military vocabulary]. Cand. Sci. (Philol.). Moscow, 18 p. (in Russ., abstr. in Eng.).
12. Solovova, E. N., 2008. Metodika obuchenija inostrannym jazykam [Methods of teaching foreign languages: basic course for students of pedagogical universities and teachers: the manual]. Moscow: AST: Astrel’ Publ., 238 p. (in Russ.)

O‘ZBEKISTON MILLIY NIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК:82-13

Шаҳноза РАҲМОНОВА
Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети докторанти, PhD
E-mail: shahnoza.raxmonova86@gmail.com

АДУ профессори, п.ф.д. В.Қодиров тақризи асосида

METRIC OPPORTUNITIES OF “DOUBLED NAMED” ROMANTIC EPOS

Abstract
The article studies the place of Aruz meter in the foundation and development of “Double named” romantic epos. The metric characteristics of the epos such as ‘Suhayl and Guldursun” by Sayfi Sarai, “Gul and Nauruz” by Haydar Khorazmi, “Husn and Dil” by Muhammadniyoz Nishotiy, “Ra'no and Zebo” by Khoromi, and “Vomiq and Uzro” by Tabibi have been analyzed. The themes of the harmony of metre and theme of the epos is discussed.
Key words: epic, genre, meter, khazaj, masnavi, taznib, taslim.

МЕТРИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ “ДВУХИМЕННОГО” РОМАНТИЧЕСКОГО ЭПОСА

Аннотация
В статье исследуется место метра Аруз в становлении и развитии “Двухименного” романтического эпосах. Были проанализированы метрические характеристики таких эпосов, как “Сухайл и Гульдурсун” Сайфи Сараи, “Гул и Навруз” Хайдара Хоразми, “Хусн и Дил” Мухаммадниёза Нишотия, “Раъно и Зебо” Хороми, “Вомик и Узро” Табиби. Обсуждается тема гармонии метра и темы эпоса.
Ключевые слова: Эпос, жанр, метр, хазаж, маснави, тазниб, таслим.

“ҚЎШ ИСМЛИ” ИШҚИЙ ДОСТОНЛАРНИНГ ЎЛЧОВ ИМКОНИЯТЛАРИ

Аннотация
Ушбу мақолада “Қўш исмли” ишқий достонларнинг шаклланиши ва такомилида аруз тизимининг ўрни ўрганилган. Сайфи Саройининг “Суҳайл ва Гулдурсун”, Ҳайдар Хоразмийнинг “Гул ва Наврўз”, Муҳаммадниёз Нишотийнинг “Ҳусн ва Дил”, Хиромийнинг “Раъно ва Зебо”, Табибийнинг “Вомиқ ва Азро” достонларининг вазн хусусиятлари, ўлчов имкониятлари таҳлил қилинган. Достонларда вазн ва мавзу уйғунлиги очиб берилган.
Калит сўзлар: достон, жанр, вазн, ҳазаж, маснавий, тазниб, таслим.

Кириш. Ишқ мавзуси азалдан ошиқ-маъшуқ ва ағёр орасида тараннум этиб келинган. Ҳазрат Алишер Навоий ишқ – азалий ҳодиса, у “руҳ майи” билан жисмга кириб кетади ва уни маст этади. Ишқ-Руҳ оламининг гўзаллиги, ҳусн-у жамоли ҳадсиз чегарасиз. Ишқ булбули бу гўзалликни кўриб, оламга ғулғула солади. инсон жисмига таралган ишқ шуъласи ана шу Мутлақ Гўзаллик оламидан инган нурдир. Бу нур бутун борлиқни қамраб олган “жаҳон мулки”га айланган, яъни шоир назарида оламдаги мувозанат, тириклик ва ҳаракатни таъминловчи асосий моҳият – Ишқ қонуниятидир [3]. Ишқий мавзуда битилган достонларда, асосан, ишқи илоҳий мажоз воситасида ҳамда авом ишқи йигит ва қиз муҳаббати тараннум этилган. Қўш исмли ишқий достонларга мисол тариқасида Сайфи Саройининг “Суҳайл ва Гулдурсун”, Ҳайдар Хоразмийнинг “Гул ва Наврўз”, Муҳаммадниёз Нишотийнинг “Ҳусн ва Дил”, Хиромийнинг “Раъно ва Зебо”, Табибийнинг “Вомиқ ва Азро” маснавийларини келтириш мумкин.

Адабиётлар таҳлили. Ўзбек адабиётида “Қўш исмли” ишқий йўналишидаги достонларнинг ўлчов имкониятлари тизимли ўрганилмаган. Фақат, арузшунос Д.Юсупова “Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги” мавзусида номзодлик, Д.Қувватова эса “XX аср иккинчи ярми ўзбек достончилигининг тараққиёт хусусиятлари” мавзусисида докторлик диссертациясини ҳимоя қилган. Биз мазкур мақолани ёзишда Сайфи Саройининг “Суҳайл ва Гулдурсун” (1986), Ҳайдар Хоразмийнинг “Гул ва Наврўз” (1960), Муҳаммад Ниёз Нишотийнинг “Ҳусн ва Дил” (1967), Хиромийнинг “Раъно ва Зебо” (1962), Табибийнинг “Вомиқ ва Азро” () достонларининг матнидан фойдаландик. Шунингдек, ўрни билан Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозийнинг “Фунун ул-балоға” (1996), Заҳириддин Бобурнинг “Мухтасар” (1971), А.Ҳожиаҳмедов “Ўзбек арузи луғати” (1998) китобларидаги назарий қарашларга таянилди.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқот жараёнида қиёсий-тарихий, тизимлаштириш, тавсифий ва статистик усуллардан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар. Сайфи Саройи XIV асрнинг йирик шоирларидан биридир. Шоирнинг ишқий мавзуда ёзилган “Суҳайл ва Гулдурсун” достонига мурожаат қилган ҳолда айтиш мумкинки, Сайфи Саройи асли хоразмлик адибдир. Бу ҳақда шоир ўз достонида маълумот беради. “Суҳайл ва Гулдурсун” достони 82 байтдан иборат бўлиб, севгига вафодорлик, фидокорлик, мардлик тараннум этилган. Мазкур достон сюжет жиҳатидан Низомийнинг “Хусрав ва Ширин”и, Алишер Навоийнинг “Сабъаи сайёр” достонида келтирилган “Суҳайл ва Меҳр” ҳикоясини ҳам эслатади. “Суҳайл ва Гулдурсун” достони адабиётшуносликда “Ёдгорнома” номи билан ҳам шуҳрат қозонган. Шоир достоннинг Кириш қисмида:

Эмас афсона, чин ушбу битилмиш,
Бу чин, афсонатек ишқда етилмиш [11]

деб асар воқеасининг афсона эмаслигини таъкидлайди. Кейинги байтларда шоир томонидан “Суҳайл ва Гулдурсун” достонини ёзишдан кўзланган асосий мақсад баён этилади.

Айиттим оғлабон даври жафосин,
Бир эрнинг қиссаи ахчи вафосин [11].

Достон аруз тизимининг ҳазажи мусаддаси маҳзуф (асосий вазн), ҳазажи мусаддаси мақсур (қўшимча вазн)да яратилган. Достондан олинган юқоридаги байтни тақтиъи билан кўриб чиқсак:

Айиттим оғ/лабон даври/ жафосин,
V— — — / V— — — / V— —
Бир эрнинг қис/саи ахчи/ вафосин.
V— — — / V— — — / V— —

Кўринадики, келтирилган байтнинг биринчи, иккинчи рукнлари мафоийлун аслининг солимига, охирги рукни эса унинг маҳзуф тармоғи фаувлунга тенг. Байт мисраларини вазнга мослаш учун тазнибдан фойдаланилган. Тазниб “дум ясамоқ” деган маънони ифодаловчи аруз атамаси бўлиб, сўзларни вазнга мувофиқлаштириш учун уларга бирор ҳарфни орттириш усулини ифодалайди [13]. Демак, ҳазажи мусаддаси маҳзуф вазнида ёзилган юқоридаги байтда вазн талаби билан “айтдим” сўзи “айиттим” тарзида истифода этилган.

“Суҳайл ва Гулдурсун” достонининг айрим байтлари ҳазажи мусаддаси мақсур вазнида ҳам битилган. Хусусан,

Бўлур бу би/ти(к)ким тарих/га ёдгор,
V— — — / V— — — / V — ~
Бу ёдгорим/да ёлғон йў/ғу, чин бор [11].
V— — — / V— — — / V — ~

Келтирилган байт вазни юқоридаги ўлчовдан охирги ҳижонинг ўта чўзиқлиги билангина фарқланади. Чунки, “ёдгор”, “бор” сўзлари таркибида нисбатан чўзиқроқ “о” унлиси иштирок этган. Шунингдек, биринчи мисрадаги “битикким” сўзини вазнга мослаш учун таслим ҳодисасидан фойдаланилган. Унга кўра “битикким” сўзининг таркибидаги жуфт ундошнинг бири туширилиб, “битиким” сингари ифодаланади. Достонда вазнга тушмаган мисралар ҳам мавжуд.

Шу он келтир-	дилар чоҳ(и)га	Суҳайл(и)ни
V — — —	V — — V —	V — V —
Гулдурсун бо-	қибон тўхтат-	ти сайл(и)ни
— — — —	V — — —	V — V —

Жадвал асосида келтирилган мисрада чоҳ сўзининг таркибида нисбатан чўзиқ “о” унлиси, Суҳайл, сайл сўзларида эса қатор ундошлар иштирок этган. Бу эса ушбу сўзларда ўта чўзиқ ҳижо (– V) мавжудлигини билдиради. Лекин байтда чоҳ, Суҳайл, сайл сўзлари учун оддий чўзиқ ҳижо қўлланилган. Шунингдек, иккинчи мисрада ибтидо қисмида қўлланилган Гул-дур-сун сўзида ҳам барчаси бўғинлар чўзиқ ҳижо (–) билан истифода этилган. Ваҳоланки, мафоийлун аслий рукнидаги сўз дастлаб қисқа ҳижо (V) билан бошланади. Бу эса мисраларда сакталик борлигини кўрсатади. Достон якунида дастлаб араб халқ ижодида вужудга келган, кейинчалик ёзма адабиётга кўчган ишқий мавзудаги “Лайли ва Мажнун” достони тилга олинади.

Келиб кўнглима Мажнун, Лайли ёди,
Дафотар устина сўз сели ёғди [11].

Аммо достон “Лайли ва Мажнун” вазни ҳисобланган ҳазажи мусаддаси ахраби мақбузи маҳзуф вазнида эмас, балки ҳазажи мусаддаси маҳзуфда яратилган.

Биз кейинги қўш исмли ишқий достон сифатида Ҳайдар Хоразмийга нисбат берилаётган “Гул ва Наврўз” достонини келтирамиз. Яқин-яқингача “Гул ва Наврўз”ни Лутфий қаламига мансуб достон деб келинган эди. Кейинги тадқиқотлар натижасида бу достон муаллифи Ҳайдар Хоразмий эканлиги аниқланди. Ушбу достон муаллифи ҳақида фикримиз нисбий. Чунки адабиётшуносликда “Гул ва Наврўз”нинг муаллифи ҳақида мунозарали фикрлар мавжуд [14; 5; 15; 6]. Биз достонни фақат мазмун ва вазн мутаносиблиги жиҳатидан таҳлилга тортамиз.

“Гул ва Наврўз” ишқий-қаҳрамонлик достонининг бошланиш қисмида унинг Амир Темурнинг набираси Искандар Мирзога бағишланганлиги баён қилинади. Достонда бир-бирига юксак инсоний туйғу – муҳаббат боғлаган икки ёшнинг саргузашти ҳикоя қилинади. “Гул ва Наврўз” анъанавий ҳамд, наът, мадҳ, “Сабаби назми китоб”, 120 боб ва 1307 байтдан иборат. Достоннинг хотима қисмида кўрсатилишича, асар ҳижрий 814, милодий 1411–1412 йилларда битилган.

Тарих секкиз юз ўн тўрт эрди ҳижрат,
Ки нақш эттим бу манзури муҳаббат [15].

Достон ҳазажи мусаддаси маҳзуф вазнида битилган. Шайх Аҳмад Тарозий “Фунун ул-балоға” асарида бу вазнда шеър басе кўп айтибтурлар, нетокким Шайх Низомий “Хусрав ва Ширин”ни ва Шайх Салмон “Жамшид ва Хуршид”ни ва Мавлоно Ҳайдар “Гул ва Наврўз”ни айтибтур ва қофиялари гоҳи “мафоийл” келур ва гоҳи “фаулун” келур”, – деб таъкидлайди [14]. Достоннинг қаҳрамонларидан бири Наврўз куни туғилгани учун “Наврўз” исмини қўйганлигини қуйидаги байтларда изоҳлайди:

Чу Наврўз бўл/ди наврўз ич/ра пируз,
V – – –/ V – – –/ V – –
Атоди ўғ/лининг оти/ни Наврўз [15].
V – – –/ V – – –/ V – –

Келтирилган байтда шоир тажнис санъатидан фойдаланиб, “Наврўз” сўзини байрам, янги кун ва киши исми маъноларида қўллайди ва мафоийлун/ мафоийлун/ фаувлун оҳангини яратади.

Нишотий XVIII аср ўзбек адабиётининг ёрқин намояндаси, Хоразмда яшаб ижод этган шоирлардан биридир. У ғазал, мухаммаслар битиш билан бирга “Ҳусн ва Дил” достонини ҳам яратди. Достонда шоирнинг ҳаётига оид баъзи бир маълумотлар келтирилган. Хусусан, достоннинг кириш қисмида шоир Хоразмда туғилиб, умрининг анча қисмини шу диёрда ўтказганлигини айтади. “Ҳусн ва Дил”да достоннинг ҳажми тахминан 15584 мисрадан иборатлиги:

Байтки таҳминан эрур етти юз,
Етти мингу тўқсон икки бўлди туз [8],

деб, асарнинг қачон яратилганлиги ҳақида ҳам маълумот беради:

Муддати тарихини этсам баён,
Хатми Дил ва Ҳусндур, эй нуктадон [8].

Демак, ушбу тарихдан маълум бўляпти достон ҳижрий 1192 милодий 1778 йилда яратилганлиги ойдинлашади. Профессор Нусратулло Жумахўжа “Ўзбек адабиёти тарихи” дарслигида Нишотийнинг қачон туғилганлиги ҳақида таҳминий маълумотни беради: Айёмий “Ўт чақнаган сатрлар” китобида Нишотий достонни 77 ёшида ёзган дейди. У бу маълумотнинг манбаини кўрсатмайди[1]. Демак, Нишотий 1701 йилда туғилган деган хулосага келишимиз мумкин.

“Ҳусн ва Дил” адабиётшуносликда иккита: Ҳусн ва Дил номи билан боғлиқ бўлгани учун ишқий йўналишдаги қўш исмли достон сифатида қаралади. Достон

Манки эдим/ водии ғур/батаро,
– V V –/ – V V –/ – V –
Кулфа-т+ила/ ранжу суув/ батаро
– V V –/ – V V –/ – V –

сингари сариъи мусаддаси матвийи мақшуф ўлчовида яратилган байт билан бошланади. Вазн хусусиятига кўра васл ҳодисасидан фойдаланилган. Байтнинг иккинчи мисрасидаги “кулфат” сўзининг “т” ундоши ундан кейин келаётган “и” ҳижосига қўшилиб, “ти” тарзида талаффуз қилинади. Достон ишқий характерга эга бўлса-да, лекин Муҳаммадниёз Нишотий достоннинг кириш қисмида ўз асарини Низомий, Деҳлавий, Жомий ва Навоий “Хамса”сининг илк достонига жавобан ёзганини айтади ва уларни эслаб ўтади:

Тўрт китоб андаки мазкур эрур,
Хамсалиғ оти била машҳур эрур.
Ҳар бирининг аввалида бир китоб –
Бор эдиким, андин эди фатҳи боб.
Бирининг оти: “Махзани асрори шавқ”,
Ул бириси: “Матлаиъ анвори шавқ”.
Ёна бири: “Туҳфат ул-аҳрор” эди,
Бири анинг: “Ҳайрат ул-аброр” эди.
Ман доғи анларға демоклик жавоб
Истабон айттим бу сўзи иртикоб [8].

Низомий, Деҳлавий, Жомий ва Навоий “Хамса”нинг илк достонини эслаб ўтгани учун у нимага ишқий мавзудаги асари учун сариъ баҳрини танлаяпти деган саволга жавоб топилгандай бўлади. Яъни, у достон ёзишни бошлаган пайтда, эҳтимол, “Ҳайрат ул-аброр” йўналишида бир достон ёзмоқчи эди-ю, лекин воқеалар ривожи, мавзу, мазмун кенгайди ва у “Ҳусн ва Дил” йўналишига ўтди. Шу маънода сариъ баҳрининг танлаганлигини мазкур ҳолат билан асослаш мумкин.

“Ҳусн ва Дил” 62 бобдан иборат. Достон таркибига 5 та: “Саҳбоз ва Булбул”, “Гул ва Даф”, “Най ва Нахл”, “Косайи Чин ва Наргис”, “Бинафша ва Чанг” мунозаралари ҳам киритилган. ““Ҳусн ва Дил” достони бирор шоҳ ёки шаҳзода буйруғи билан эмас, балки авторнинг ёзишича, бир шоиртаъб дўстининг маслаҳати билан яратилган. Нишотий бадиий асарни фарзандидек қадрлаган ва ўзидан адабий ёдгорлик қолдириш истагида “Ҳусн ва Дил” ҳикоятининг насрий варианти асосида қисқа муддат (5 ой) ичида ажойиб бир достон ярата олди” [10]. Гарчи шоир жуда қисқа муддатда ушбу достонини ёзган бўлсада, унинг ғоявий сюжети инсон маънавияти учун хизмат қилади.

Кейинги қўш исмли ишқий достон сифатида Хиромийнинг “Раъно ва Зебо” достонини киритиш мумкин. Ўзбек адабиёти тарихи дарслигида “Раъно ва Зебо” (1856) достони Китоб ва Шаҳрисабз Насруллохон томонидан қамал этилган йилда – халқ бошига чексиз кулфат ва алам ёғилган пайтда ёзилганлиги қайд этилади [10]. 1860 йилда Хиромий достонни қайта ишлайди, ўзгартиришлар киритади ва янада мукаммаллаштиради. Мазкур достон Шаҳрисабз мадҳига бағишланган мустақил қасидадан кейин бошланади.

“Раъно ва Зебо” достони марказида икки севишган ёшнинг пок муҳаббати туради. Чунки улар ўз даврининг “ризойи нафсга” югурмайдиган, “покликни қўрғон этган” образлари бўлиб, улардаги бу асосий фазилат асарнинг сўнггигача бўртиб боради ҳамда ошиқларни бир-бирига етиштиради. Достон қўш исмли достонлар сингари ҳазажи мусаддаси маҳзуф вазнида битилган. “Раъно ва Зебо”нинг кириш қисмида Зебо Санавбаршоҳнинг қизи, қоронғуда ой, малоҳат хазинасида ягона дур, нажот фариштаси эканлиги тасвирланади:

Санавбаршох/да ҳам бор э/ди духтар,
V – – –/ V – – –/ V – –
Шабистони/ ҳарамға мо/ҳи анвар.
V – – –/ V – – –/ V – –
Малоҳат маҳ/заниға дур/ри якто,
V – – –/ V – – –/ V – –
Парипайкар/ нажоде, о/ти Зебо [12]
V – – –/ V – – –/ V – –

Демак, келтирилган парчада шоир талмеҳдан моҳирона фойдаланиб, уни ҳазажи мусаддаси маҳзуф ўлчовида ёзган. Шунингдек, Зебонинг ҳусни унинг маънавий қиёфасига мос эканлиги ҳам достонда тасвирланади.

Биринчи байтнинг иккинчи мисрасида “шоҳ” сўзида вазн талаби билан имола қўлланилган. “Раъно ва Зебо”да Раъно образи икки хил фазилатда кўрсатилади. Биринчидан, у садоқатли ёр. Иккинчидан, эса адолатли шоҳ. Ушбу икки фазилат Раъно образида достоннинг бошидан охиригача кўринади.

Кейинги қўш исмли достон сифатида Табибийнинг “Вомиқ ва Азро” достонини кўрсатиш мумкин. Достон Шарқ адабиётида машҳур бўлган асарлардан биридир. “Юсуф ва Зулайҳо”, “Тоҳир ва Зуҳра”, “Фарҳод ва Ширин”, “Лайли ва Мажнун” сингари жуда кўплаб шоирлар бу мавзуга мурожаат қилганлар ва турли вариантларини яратганлар. “Уларнинг ҳар бири сюжет ва ғоя жиҳатидан айрим оригиналликка эга бўлган йирик асардир... Улар ўзларининг лирик ғазалларида ва достонларида ёрнинг гўзаллигини Азрога, ошиқнинг қаҳрамонлигини эса Вомиққа ўхшатганлар, уларнинг номини қайта-қайта тилга олганлар [9]. Образлар талқинида Низомий ва Навоий достонлари таъсири кўзга ташланади. Айниқса, Навоийнинг “Фарҳод ва Ширин” достонидаги тасвир воситаларидан кенг фойдаланган [7]. Балки шунинг учун ҳам достон ҳазажи мусаддаси маҳзуф вазнида яратилган бўлган бўлиши мумкин.

Табибий достон муқаддимасида эрон шоири Зоҳир Кирмонийнинг “Вомиқ ва Азро”синг насрий таржимасини Сайид Ҳасан Хоразмий таржима қилганлиги айтади. Кейин “Вомиқ ва Азро”нинг насрий таржимаси Хоразм хони Муҳаммад Раҳим сонийга ёқиб қолади. Шундан кейин Муҳаммад Раҳим соний Табибийга “Вомиқ ва Азро”ни назмда битишини буюради. Достон 81 боб, 8100 байт, 16200 мисрадан иборат. Вомиқ сандиқ ичидан чиққан Азронинг суратини кўриб лол қолади ва ҳушидан кетиб йиқилади:

Кўруб Вомиқ/ ҳамул ҳолат/га етди,
V – – –/ V – – –/ V – –
Ки ўзни маҳ/в(и) мисли су/ра-т+этди.
V – – –/ V – – –/ V – –
Қарору ҳу/шу сабри бўл/ди барбод,
V – – –/ V – – –/ V – ~
Яқин эрди/ки бўлса жон/ди-н+озод.
V – – –/ V – – –/ V – –
Кетиб охир/ йиқилди ҳу/ши ерга,
V – – –/ V – – –/ V – –
Ботиб сарто/ бапо заъ-ф+и/ла терга [9]
V – – –/ V – – –/ V – –

каби парча ҳазажи мусаддаси маҳзуф (мақсур) вазнида ёзилган. Вазндаги ҳижоларнинг тенглигини сақлаш учун васл ҳамда имолани ўз ўрнида қўллаш кифоядир. Хусусан, достондан олинган парчада “сурат” сўзидаги “т” ундоши ўзидан кейин келаётган “эт” ҳижосига, “жондин”даги “н” ундоши “о”га,, “заъф” сўзидаги “ф” ундоши “и”га қўшилиб, сура-т+этди, жонди-н+озод, заъ-ф+и сингари талаффуз этилади. Шунингдек, 2-мисрасида эса имола ҳодисаси ҳам қўлланилган. Унга кўра “маҳв” сўзи қатор ундош билан тугаганлиги сабабли ўта чўзиқ ҳижо бўлиб, бу сўзда “в” ундошидан кейин қисқа “и” унлиси қўшиб талаффуз қилинади. Бу эса оҳангда ўйноқилик ва енгиллик ҳосил қилади.

“Вомиқ ва Азро” достонида арабча жумлалар ҳам учрайди:

Қилиб юз на/въ(и) ташвир о/ш(и)коро,
V – – –/ V – – –/ V – –
Деди: “Ё лай/та мутту қаб/ла ҳозо” [9]
V – – –/ V – – –/ V – –

тарзидаги байтнинг иккинчи мисраси араб тилида битилган. Ҳақиқатан ҳам, байтдаги иккинчи мисра араб тилида битилган. Достонда келтирилган арабча жумла ҳам унинг вазнидан четлашмаган. Асосий матн билан унинг ўлчов имкониятлари бир хил. Арабча жумла маъноси достонда “Кошки шундан илгари ўлсам эрди” сингари изоҳланади.

Табибий достоннинг хотима қисмида ушбу асар ит йили, 1328 ҳижрий, 1910 милодий йилида ёзиб тугатилганлигини таъкидлайди. “Вомиқ ва Азро” икки нусхада Муҳаммад Юсуф Чокар томонидан кўчирилган.

Демак, тарихини чун жойиз эрди,
Мингу уч юз йигирма саккиз эрди [9].

Хулоса. Сайфи Саройининг “Суҳайл ва Гулдурсун”, Ҳайдар Хоразмийнинг “Гул ва Наврўз”, Хиромийнинг “Раъно ва Зебо”, Табибийнинг “Вомиқ ва Азро” маснавийларини таҳлил қилар эканмиз анъанавий ҳазажи мусаддаси маҳзуф ўлчовида битилганлигини гувоҳ бўламиз. Мазкур вазн юқорида номи келтирилган достонлар учун анъанавийлик касб этади. Фақат қўш исмли ишқий мавзуда яратилган Муҳаммадниёз Нишотийнинг “Ҳусн ва Дил” достонигина сариъи мусаддаси матвийи макшуф (мавқуф) вазнидадир. Бунинг асосий сабаби Нишотий “Хамса” яратишни ният қилган. Шу сабабдан достонини сариъ баҳри вазнларида ёзган. Чунки хамсанавислик тарихидан яхши биламизки, “Хамса”нинг биринчи достонлари сариъи мусаддаси матвийи макшуф (мавқуф) вазнида яратилган. Англашиладики, анъанавийлик фақатгина биз таҳлилга тортган қўш исмли ишқий достонларда Нишотийдагина бузилган холос, қолган барча достонларда анъанавийлик касб этган.

АДАБИЁТЛАР

1. Jumaxo‘ja N., Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: NOSHIR, 2019. – 432 b.
2. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: Sano-standart, 2017. – 450 б.
3. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. 1-kitob. Darslik. – T.: Tamaddun, 2019. – 520-b.
4. Алишер Навоий. Муҳакамат ул-луғатайн. МАТ. 20 томлик. Ўн олтинчи жилд. – Т.: Фан, 2000. – 329-б.
5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Т.: Фан, 1971. – 535 б.
6. Исҳоқов Ё. “Гул ва Наврўз”нинг муаллифи ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972. – № 2.
7. Қосимов Б. ва бошқ. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: МАЪНАВИЯТ, 2004. – 464-б.
8. Муҳаммадниёз Нишотий. Ҳусн ва Дил. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967. – 376 б.
9. Табибий. Танланган асарлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968. – 226 б.
10. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 3 том. – Т.: Фан, 1978. – 380 б.
11. Уч булбул гулшани. Масъул муҳаррир: Ғаниева С. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 326 б.
12. Хиромий. Раъно ва Зебо. – Т.: Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1962
13. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. – 156 б.
14. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. – Т.: Хазина, 1996. – 196 б.
15. Эркинов С. Лутфий / Лутфий. Танланган асарлар. Иккинчи нашр. – Т.: Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1960. – 118 б.

O‘ZBEKISTON MILLIY NIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:811.111:811.512.

Shoira SARIMSAKOVA,
National University of Uzbekistan
Teacher of the department of English Linguistics (English)

E-mail: poetess.uz@mail.ru
On the basis of review by senior teacher, Ph. Mamadjanova N.A.,NamSU

POLITENESS IN ENGLISH AND UZBEK LITERARY WORKS

Abstract

In recent years, there has been a growing interest among scholars and researchers in applying pragmatic tools, primarily developed in relation to spoken interaction to literary discourse; an interest in the whole texts and their communicative functions and uses in particular contexts. It is growing simply because most of the pragmatic analysis was basically done on the spoken side of language use and considerably less on written use and very little on literary activity. Many linguists and scholars have proved linguistic politeness as a successful device to study literature linguistically, in particular studying that aspect of characterization. In this article it is investigated some politeness categories under the main characters of the English and Uzbek short stories and the category of politeness is analyzed by comparing the speeches of the characters.
Keywords: Politeness, positive and negative politeness, face, bald on strategy,off-record strategy

ВЕЖЛИВОСТЬ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Аннотация

В последние годы среди ученых и исследователей растет интерес к применению прагматических средств, прежде всего разработанных применительно к речевому взаимодействию с литературным дискурсом; интерес ко всем текстам и их коммуникативным функциям и использованию в определенных контекстах. Он растет просто потому, что большая часть прагматического анализа в основном проводилась на разговорной стороне использования языка, значительно меньше — на письменном использовании и очень мало — на литературной деятельности. Многие лингвисты и ученые доказали, что лингвистическая вежливость является успешным средством лингвистического изучения литературы, в частности изучения этого аспекта характеристики. В данной статье исследуются некоторые категории вежливости главных героев английских и узбекских рассказов, и анализируется категория вежливости путем сравнения речей персонажей.
Ключевые слова: Вежливость, позитивная и негативная вежливость, фейс, bald on стратегия, off-record стратегия.

INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIY ASARLARIDA XUSHMUOMALALIK KATEGORIYASI

Annotatsiya

So'nggi yillarda olimlar va tadqiqotchilar orasida adabiy nutqda birinchi navbatda og'zaki muloqot bilan bog'liq holda ishlab chiqilgan pragmatik vositalarni qo'llashga qiziqish ortib bormoqda; butun matnlar va ularning kommunikativ funktsiyalari va muayyan kontekstlarda ishlatilishiga qiziqish yuqori bo’lmoqda. Pragmatik tahlilning aksariyati asosan tildan foydalanishning og'zaki nutqida ko’p izlanishlar olib borilgan ammo yozma nutqda, adabiy asarlardagi izlanishlar juda ham kamdir. Hozirgi kunda ko’plab tilshunoslar adabiy tilshunoslikda xushmuomalalik kategoriyasing o’ziga xos muhim jihati, ahamiyati borligini e’tirof etishmoqda. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek qisqa hikoyalari “ A good man is hard to find” va “ Mening og’rigina bolam” dagi bosh qahramonlar nutqidagi xushmuomalalik kategoriyalari bir biriga taqqoslab o’rganiladi va nutlardagi xushmuomalalik tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: Feys, ijobiy va salbiy xushmuomalalik,bevosita muloqot, bilvosita muloqot, pragmatika, pragmalingvistika

Introduction. It is obvious that communication plays an essential role in the human-being’s life. Since communication, people can understand each other, get new knowledge, demonstrate their power over others and attain their personal goals. However, how to have a “successful” conversation is a considerable concern because if we do not pay much attention to the way we interact, we will not fulfill our wishes. One of the tips to have a win-win dialogue is saving the other person’s face. Linguistic approaches to interaction have been deeply influenced by theories of face and politeness, and how face considerations shape our utterances in predictable ways. The notion of face and politeness help us much not only in judgments concerning the “personalities” of people in real life but also in analyzing the conversational behaviors of characters in short stories. Among the many theories of politeness Brown and Levinson’s theory is used most often in examining literary texts such as play, novels and short stories.

Literature review. The category of politeness was studied widely among world linguists as well as Uzbek. One of the world linguists Erving Goffman came through with the concept of “face” for the first time. A Canadian linguist Robin Lakoff discovered the theory of politeness in Europe and mentioned that politeness consists of 3 principles: “Do not impose or distance”, “Give option or deference”, “Make audience feel good or Camaraderie”. An American linguist Brown and a British Levinson created the theory positive and negative politeness. Furthermore, Fraser did a research work “Perspective on politeness” which is dedicated to analyze the principles of politeness created by Brown and Levinson. From Uzbek linguists Sh. Safarov mentioned about politeness category in his book called “Pragmalinguistics”, other linguists learned a part of politeness category in their research. For instance, N. Dadaboyeva “Tilda inkor kategoriyalarining aks ettirilishi”, A. Mo‘minova “O‘zbek nutq etiketikasi “Siz” va “Sen”ning ifodalanishi”. Therefore in Uzbek linguistics the following theme requires detailed researches. Based on the politeness category only two dissertation works were done so far. H.Y. Hojiyeva analyzed the concept of “respect” in Uzbek from the structural-semantic and functional points of view. Professor G‘ulomov mentioned the concept of respect is expressed by adding plural form of nouns in Uzbek and the

research works of scientists M. Asqarova, G‘. Abdurahmanov, Sh. Rahmatullayev, A. Hojiyev show the respect can be observed under the possessive suffixes in Uzbek.

As we examine the level of study of the politeness category, we can see that Europe and the Far East have achieved significant results in this area. However, in Uzbek linguistics the category of politeness is a new topic and there is not any special research on it. The pragmatic analysis of politeness in English and Uzbek communication, the concept of face, their similarities and differences, the precautionary recommendations while communicating are considered for the first time in science.

Research Methodology. Brown and Levinson’s (B and L here and after) theory of politeness will be the main theoretical basis and politeness model adopted in this article. Before we go to the details of B and L’s politeness theory, we must first discuss Goffman’s notion of ‘face’. B and L essentially rely on this notion in explaining their theory. Goffman defined face as:

“The positive social value a person effectively claims for himself by the line others assume he has taken during a particular contact”.

Goffman maintained that the notion of “face” (one’s social image) is the basis on which the behaviors of participants in any social interaction are structured and regulated. Participants are often oriented towards what others think of them during the course of social interaction; e.g. if events establish a face that is better than what one might have expected, one is likely to “feel good”. If one’s ordinary expectations are not fulfilled, one is likely to “feel bad”. Moreover, people also have feelings toward the face sustained for other participants. Thus in order to “save face”, either the face of speaker or hearer, people usually perform face-work, which are forms of habitual and standardized practices, learnt by participants through socialization (the life-long process of inheriting one’s society skills, social norms and customs), and are consistent with face. Goffman addressed the cultural diversity of face and observed that “each person, subculture, and society seems to have its own characteristic repertoire of face-saving practices”. Hence, an act which is considered face-threatening in one culture and needs the application of face-saving practices from the part of the speaker might not be considered as such in another culture. For example, in Uzbek, it is customary to arrive on time (not late or early) to a home to which one has been invited. What is more, when the guests acknowledge that they have arrived late, they tend to placate the hearer by saying “hechqisi yo’q, xush kelibsiz, kiring kiring, endi kelishdi boshqalar ham” “never mind, welcome, come in-come in, just others have arrived too”. In many Western cultures, arriving late is a face threatening act which requires the utilization of face-saving practices from the speaker’s part.

Analysis and results. The primary objective of this article is to overview the use of politeness theory in conversations in the short story “A Good Man Is Hard to Find “by O’Connor and an Uzbek short story “Mening o’g’rigina bolam” by G’ofur G’ulom. It is examined the manipulation of lead role player’s specifically grandmothers’ politeness.

An English story “ A good man is hard to find” begins with the conversation between the grandmother and her son, Bailey at home. In the very beginning, the grandmother is not polite when she attacks the face of her family members one by one. To be more specific, the grandmother’s first utterances to her son was like

“Now look here, Bailey, see here, read this” (O’Connor “A good man is hard to find”).

Here this fellow that calls himself The Misfit is a loose from the Federal Pen and headed toward Florida and you read here what it says he did to these people. Just “you read it” threatens negative face (the want to be impeded) in causing inconvenience, directly forcing Bailey to read the newspaper about The Misfit by using many direct orders

“look here”, “see here”, “read this”, “just you read it”.

Her next utterances

“I wouldn’t take my children in any direction with a criminal like that a loose in it. (O’Connor “A good man is hard to find”).

I couldn’t answer to my conscience if I could be interpreted as criticism, but the hedge “I wouldn’t “I couldn’t” and the use of second condition sentences reduce a little bit the force of the speaker’s criticism. The utterances shows the grandmother’s great concern for her family, especially her grandchildren who are only children and should not be involved in such a horrifying and deadly situation, and expresses her kindness, but simultaneously shows her face wants. She desires other people to respect her for her thoughtfulness to the well-being of her family members and her power. The oldest person in the family; it’s only her to have the right to make orders, and the others must obey her. However, Bailey gives her no response or acknowledges to her existence and continues to do his own business, burying his head over the sports section of the Journal. While the grandmother tries to turn to her daughter-in-law for help and advocates that visiting different places might be more educationally beneficial to the children, her daughter-in-law takes no notice of her words, either.

“The children have been to Florida before. You all ought to take them somewhere else for a change so they would see different parts of the world and be broad. They never have been to east Tennessee”. (O’Connor “A good man is hard to find”).

There is no co-operative endeavor to enable conversation to proceed. No matter how hard the grandmother tries to persuade and reason with her son and daughter-in-law by using every means she has such as touch, raising sound, demanding gesture and the modal verbs “ought to”, “would”, silence is the only answer. Nevertheless, the children’s responses are different.

As for Uzbek short story the analysis begins with the sentence of the narrator who addresses to his grandmother saying “Roqiyabibi- Qora buvi” which shows politeness to the elderly. Here the speaker is showing politeness to the speaker by using some kind of jargons which can show politeness in addressing in Uzbek mentality.

-O‘g‘rigina bolam, hoy o‘g‘rigina bolam, hoynahoy biror tiriklikning ko‘yida tomga chiqqan ko‘rinasan, ahir kasbing nozik, tumov-pumovingni yozib chiqsang bo‘lmaydimi? -My robber child, a robber child, so as to have subsistence you must have climbed to the roof, your profession is delicate, why did not you get over from cough [Translated by Sarimsakova Sh]. (G‘. G‘ulom “Mening o‘g‘rigina bolam”).

Here in this sentence the speaker is using positive face strategy applying the sub-category of politeness namely criticism by saying why did not you get over from the cough. Besides the speaker is addressing to the listener with FTA (Face-Threatening Act) on record with redressive action, using negative politeness strategies saying “O‘grigina bolam, hoy o‘g‘rigina bolam” inspite of not knowing that man.

- Axir, buvijon, siz ham birorgina kecha tinchingizni olib uxlasangiz bo‘lmaydimi, bizning tirikchiligimizni yo‘lini to‘smasdan.- Oh my grandma, why don’t you sleep thinking your piece in order not to prevent us from our earning [Translated by Sarimsakova Sh]. (G‘. G‘ulom “Mening o‘g‘rigina bolam”).

Here it may be analyzed one of the strategies of politeness namely negative politeness which is the impersonalizing the speaker and a hearer to say things without minimization of the imposition to the hearer’s face together with addressing to the listener showing the closeness and

politeness by saying “buvijon” despite not knowing or having close relationship with each other.

- Hoy aylanay o‘grigina bolam, boshimda shunday musibat turganda ko‘zimga uyqu kelarmidi?- ehh, my dear robber child, there is no sleep for my eyes after having such kind of troubles in my head [Translated by Sarimsakova Sh]. (G‘. G‘ulom “Mening o‘g‘rigina bolam”).

While addressing the listener the speaker is showing politeness and closeness by using negative politeness strategy, applying special words like “aylanay” “og‘rigina bolam” which shows the intensification to the hearer. In respone to the speaker the listener says

-Qiziq, Nimalarni hayol surasiz, buvijon? -I wonder what you will imagine [Translated by Sarimsakova Sh]. (G‘. G‘ulom “Mening o‘g‘rigina bolam”).

Here it is being used negative politeness by questioning and hedging with the word “qiziq”.

Nimalarni hayol surardim. Shu to’rtta yetimning ertasini o’ylayman-da, bolam. -What would I imagine? Just I only think these four orphans [Translated by Sarimsakova Sh]. (G‘. G‘ulom “Mening o‘g‘rigina bolam”).

The speaker is using negative politeness by using would instead of will so as to minimize the threat towards the hearer.

Ishonaman yaxshi odamga o‘xshayapsan o‘g‘rigina bolam, biror bir yaxshi kasbni boshini tutsang bo‘lmaydimi? -I believe that you seem a good man, my robber son, why do not you catch any good job? [Translated by Sarimsakova Sh]. (G‘. G‘ulom “Mening o‘g‘rigina bolam”).

Kun yorishib qolyapti buvijon, yana biroz tursam meni tanib qolasiz. Andisham bor uyalaman.-It is getting dawn my granny, if I stay a little you will know my face. I have my own pride, I will feel ashamed [Translated by Sarimsakova Sh.]. (G‘. G‘ulom “Mening o‘g‘rigina bolam”).

Here the robber is using Off record strategy which is giving a hint to leave the place instead of saying it directly. That is the speaker is intentionally leaving the meaning of his utterance to the hearer.

Xayr o‘g‘rigina bolam, biz bilan bir payola choy ichib ketsangku yaxshi bo’lardi, kelib tur! -Good-bye my robber child, it would be better if you had a cup of tea with us, keep coming [Translated by Sarimsakova Sh]. (G‘. G‘ulom “Mening o‘g‘rigina bolam”).

Table 1

(The analysis of politeness category in English and Uzbek short stories)

	“A good man is hard to find”	“Mening o’g’rigina bolam”
1	Now, Look here Bailey, see here, read this!- Bald on	Hay aylanay, o’g’rigina bolam boshimda shunday musibat turganda ko’zimga uyqu kelamidi? –Negative
2	I wouldn’t take my childeren in any direction with a criminal like that.-Negative	Qiziq, nimalarni hayol surasiz buvijon? -Negative
3	Afraid she’d miss something. She has to go everywhere we go!-Threatening positive face	Kun yorishib qolyapti buvijon, yana biroz tursam meni tanib qolasiz.-Off-record strategy
4	Lady, would you mind calling them childeren to sit down by you?- Positive with addresing	To’xta bolam , o’zing bilan bir nima olib ket!- Bald on with impertive



Conclusion / Recommendations. In the past few decades, there has been a growing interest among scholars and researchers in applying pragmatic tools, primarily developed in relation to spoken interaction, to literary discourse; an interest in the whole texts and their communicative functions and uses in particular contexts. It is growing simply because most of the pragmatic analysis was basically done on the spoken side of language use and considerably less on written use and very little. Linguistic politeness has been proved, by many linguists and scholars we well, to be a successful device to study literature linguistically, in particular studying that aspect of characterization. In this article it has been investigated two main characters of short stories in English and Uzbek.

The analysis showed that strategies and sub-strategies of linguistic politeness are capable of reflecting the character’s interaction in relation to social role(s). To achieve the purpose of the study, it has been used Brown and Levinson’s linguistic politeness model. The value of the study can be estimated not only by those working within the branches of linguistics or literature, but also it can be of value to students and teachers especially those teach and study the novel as part of their curriculum so as to understand well the category of politeness in literary works.

REFERENCES

1. Yule G. Pragmatics. -Oxford: Oxford University Press, 1996. - P. 103.
2. Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Text linguistics. -Tashkent: Turon-Iqbol, 2016. - P.223.
3. Lyons J. Language and Linguistics. An Introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. - P.96.
4. Laurence R. Horn and Gregory Ward. Handbook of pragmatics .- Blackwell Publishing, 2004. - P.87.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika.-Toshkent: Ziyouz, 2008. - P.18-23. and P.45-51.
6. Mey J.L. Pragmatics. -New Jersey: Blackwell Publishers, 1994. - P.112-116.
7. Yule G. Pragmatics. -Oxford: Oxford University Press, 1996. - P.148-151.
8. Leech G. Principle of Pragmatics. Eight Impressions. -New York: Longman Group UK Ltd, 1991. - P.235.
9. Formonovskaya N.I. Speech communication: communicative-pragmatic approach. - Moscow: Nauka, 2002. -P.68.

O‘ZBEKISTON MILLIY NIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК: 842.573

Мохира САДУЛЛАЕВА,
Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети ассистенти
E-mail: sadullaeva@mail.ru

Ф.ф.н Ж.Мирзаев тақризи асосида

ҲОЗИРГИ ЎЗБЕК ҲИКОЯЧИЛИГИНИНГ ТАРАҚҚИЁТ ТАДРИЖИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

Аннотация

Мақолада насрнинг энг кўп учрайдиган ҳикоя жанри ва унинг тараққиёт босқичига доир назрий қарашлар тадрижи, бугунги ўзбек насрида мавзу ва мундарижаси, ғояси, умуминсоний қамров кўлами, бадиийлиги – структураси, образлари ва услубининг ўзига хослиги таҳлилланади. Унда ҳаётийлик даражаси ва бадиий тўқима уйғунлиги, тасвир руҳияти ва ифода мустақиллиги яхлитлиги тўғрисида, ҳикоячиликда миллий характер яратиш борасидаги муаммолар ҳақида мушоҳада юритилади.

Калит сўзлар: ҳикоя, жанр, ижодкор дунёқараши, бадиий структура, бадиий маҳорат, ривоя техникаси, воқелик, услуб, ифода йўсини индивидуаллаштириш, бадиий умумлашма, бадиий характер, шакл, маъно, глобаллашув, естетик идеал, баҳолаш мезони, тил, услуб.

НЕКОТОРЫЕ ЗАМЕЧАНИЯ О РАЗВИТИИ СОВРЕМЕННОГО УЗБЕКСКОГО ПОВЕДЕНИЯ

Аннотация

В статье анализируется наиболее распространенный повествовательный жанр прозы и развитие теоретических взглядов на стадии его развития, тема и содержание, идея, масштабы всеобщего охвата, художественность – структура, образы и своеобразие стиля в современной узбекской прозе. В ней исследуются уровень жизненности и гармонии художественной ткани, дух образа и целостность самостоятельности выражения, проблемы создания национального характера в повествовании.

Ключевые слова: рассказ, жанр, мировоззрение творца, художественная структура, художественное мастерство, прием повествования, реальность, стиль, индивидуализация выражения, художественное обобщение, художественный образ, форма, смысл, обобщение, эстетический идеал, критерии оценки, язык, стиль.

SOME REMARKS ON THE DEVELOPMENT OF MODERN UZBEK BEHAVIOR

Annotation

The article analyzes the most common narrative genre of prose and the development of theoretical views on its development stage, the theme and content, idea, scope of universal coverage, artistry - structure, images and uniqueness of style in today's Uzbek prose. It examines the level of vitality and the harmony of artistic fabric, the spirit of the image and the integrity of the independence of expression, and the problems of creating a national character in storytelling.

Key words: story, genre, creator's outlook, artistic structure, artistic skill, narrative technique, reality, style, individualization of expression, artistic generalization, artistic character, form, meaning, globalization, aesthetic ideal, evaluation criteria, language, style.

Кириш. Замонавий ўзбек насри ўзининг бой анъаналари ва бу адабий турдаги жаҳон бадиий тафаккури дурдонлари билан бўйлашадиган асарларига эга. Мустақиллик йилларидаги ижод еркинлиги адабиётдаги мавжуд имкониятларни янада кенгайтирди. Айниқса, ўзбек насрида ҳам катта ўзгаришларга олиб келди. Адибларимиз катта журъат билан тарихий мавзуларда, насрнинг барча жанрларида, ҳам анъанавий, ҳам янгича услубларда эмин-эркин ижод қилдилар. Қарийб қисқа фурсатда ёзилган романлар, миглаб қисса ва ҳикоялар мустақиллик даври ўзбек насрининг салоҳиятидан далолатдир.

Насрнинг энг кўп учрайдиган ҳикоя жанри айниқса, бугунги ўзбек насрида мавзу ва мундарижаси, ғояси, умуминсоний қамров кўлами, бадиийлиги – структураси, образлари ва услуби кейинги йилларда ёзилган ҳикояларникидан сезиларли даражада фарқ қилади. Аслида, ўзбек ҳикоянавислиги XX асрнинг 90-йилларига келиб ижодий янгиланиш босқичига қадам қўйди, шакл ва мазмунда ранг-баранглик касб этди. Истиқлол даври насри шу даргача хукмрон бўлган ягона мафкурадан холи бўлди, бу эса наср имкониятларини янада кенгайтирди. Миллий насримиз инсон кўнгил кечинмаларини, руҳий эҳтиёжини ифодалаш йўлидан борди. Бу давр ҳикоячилигининг ғоявий-бадиий мундарижаси кенгайди, мазмунан бойиди, ижодкор–ларнинг фаоллиги кучайди, асарларда типик образларни эмас, балки алоҳида шахс туйғуларини, инсон ботиний оламини тасвирлаш, ўзликни англаш, баркамоллик каби тамойиллар ифодасига кучли эътибор қаратилди. Мустақиллик боис ижодий эркинликка кенг йўл очилгани туфайли ёзувчиларимиз ноанъанавий кўринишдаги, ўзига хос миллий характердаги, янгича типдаги қаҳрамонларни, ўзгача ифода усулларини адабиётга олиб кирдилар.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Ҳикояларда фалсафий-бадиий, рамзий-мажозий талқин имконият-ларига катта йўл очилди, тасвир ва ифодада бетакрорлик, шахс маънавий оламини турли ракурсларда таъсирчан ва ишонарли таҳлил этиш имконияти кенгайди. “Ўзбек носирларининг асосий қисми долзарб мавзуни эмас, ўзини тўлқинлантирган, хаёлотни безовта қилган инсоний тақдирларни тасвирламоқда. Бу бугунги ўзбек насри инсон кўнглини, дардларини, ҳаётий ташвишларини қаламга олишга ўтганини англатади ва бу эстетик тамойил адабий мезонга айланиб бораётганлиги қувонарлидир. Илгарилари носирлар учун инсон фаолиятининг оқибати бўлмиш улкан тарихий ҳодисалар, салмоқли ижтимоий воқеалар тасвири муҳим саналган бўлса, энди ёзувчилар воқеа-ҳодисаларнинг келиб чиқишига сабаб бўлган, воқеаларни ҳаракатлантирган, улардан фойда топган ёки

жабр кўрган одамлар ҳақида қалам сурмоқдалар. Бугунги ўзбек насрида ҳодиса, яъни оқибатнинг ўрнига сабаб, яъни одам руҳиятининг тасвири биринчи ўринга чиқиб бормоқда”[1;]. Шу йўналишда ижод қилаётган Эркин Аъзам, Хуршид Дўстмуҳаммад, Назар Эшонқул, Исажон Султон, Луқмон Бўрихон, Улуғбек Ҳамдам каби истеъдодли носирлар ўз ҳикояларида олий ҳилқат бўлган Инсон ва унинг ботиний олами, ҳаёт ва умр моҳияти ҳамда “ўз-ўзини англаш йўлида бораётган қаҳрамон руҳиятини теран кўрсатиш” йўлидан бордилар.

Кейинги даврларда ўзбек ҳикоячилиги тадрижи, поэтикаси таҳлилига бағишланган қатор тадқиқотлар юзага келди. Хусусан, Х.Дўстмуҳаммаднинг “Ҳозирги ўзбек ҳикоячилигида бадиий тафаккурнинг янгиланиши” номли тадқиқотида 80-йилларнинг иккинчи ярми ва 90-йиллар аввалидаги ҳикоялар таҳлилга тортилади. Ижтимоий ҳаётда катта силжишлар, ўзгаришлар даври ҳикоячилиги ҳақида ёзар экан, “80-йилларда ҳикоянависларимиз бадиий тафаккурига таъсир ўтказадиган ажнабий ёзувчилар жуғрофияси ниҳоятда кенгайган[2]”лигини, ташқи таъсирнинг кучайганлигини алоҳида таъкидлайди. Дарҳақиқат, XX асрнинг 90- йиллари ва XXI аср аввалида ўзбек адабиётига Ф.Кафка, А.Камю, Т.Вулф, Я.Кавабата сингари хорижий адиблар ижоди таъсири, улар асарлари борасидаги баҳс-мунозаралар ортганлиги кузатилди. Айниқса, Н.Эшонқулнинг “Маймун етаклаган одам”, “Озод қушлар”, “Тобут” каби қатор ҳикоялари адабиётшунослар эътиборига тушди. О.Мухтор, С.Ашур, Ш.Бўтаев, Ш.Ҳамроев, С.Ўнар, И.Султон, Л.Бўрихон каби ёзувчилар ҳикояларида ҳам жаҳон насри модернизми намуналарининг таъсири сезиларли бўлиб, давр манзаралари, замон кишиси образи ўзгача оҳангларда бадиий тасвир этилди. Демак, XX асрнинг 90-йиллар ҳикоячилиги реалистик тасвир услуби билан бир қаторда модернистик услуб анъаналарини ҳам ўзида мужассам этган ҳолда ривожланди.

- Тадқиқот методологияси. Истиқлол йилларида ўзбек ҳикоячилиги тадқиқи бўйича қатор илмий тадқиқотлар яратилди[3]. Уларда давр ҳикоянавислигининг турли қирралари, жумладан, бадиий-услубий ўзига хослик, миллий характер муаммоси, инсон концепцияси ва шахс бадиий талқини масалалари илмий-назарий жиҳатдан тадқиқ этилди.

Таҳлил ва натижалар. Ҳикоячиликда миллий характер яратиш борасидаги муаммолар ҳам адабиётшуносликнинг асосий масалаларидан биридир. Зеро, даврнинг маънавий қиёфаси бадиий асар қаҳрамонларнинг характер хусусиятлари орқали ёритилади. Бу хусусда адабиётшунос олим Ҳ. Умуров шундай ёзади: “Характер ва унинг психологияси таҳлили адабиётнинг камолоти, ёзувчининг маҳорати даражасини белгиловчи омилдир”[4]. Ўзбек ҳикоячилигида миллий характер ва инсон руҳий олами тасвири билан боғлиқ жиҳатлар, давр муаммоларининг қаҳрамон қиёфасидаги бадиий инъикоси, анъана ва издошлик масалаларини тадқиқ этиш ҳам ёзувчи маҳорати қирраларини аниқлашда алоҳида аҳамиятга эга. Адабиётшунос Г.Сатторованинг “Миллий характер ва бадиий талқин” номли монографиясида миллий характер яратишдаги турли омиллар Ғ.Ҳотам, Х.Дўстмуҳаммад, Н.Эшонқул ҳикоялари мисолида тадқиқ қилади ва “Янги босқич ўзбек ҳикоячилигида миллий характер яратишнинг бадиий-эстетик тамойилларини ҳозирги ўзбек насрининг кўзга кўринган ва ўзига ҳос йўлдан бораётган, айниқса, ёш вакиллари ижоди мисолида кузатиш ўзбек адабиётшунослиги ва танқидчилигининг истиқболли йўналишларидан биридир, дейишга асос беради”, - деган хулосага келади[5]. Хуллас, истиқлол йиллари яратилган минглаб ҳикояларда жаҳон адабиёти тажрибаларидан кенг кўламда ижодий фойдаланиш, анъана ва ўзига хослик, бадиий маҳорат ва услуб турфалиги намоён бўлмоқда.

Замонавий ўзбек насрида бир қатор ҳикоялари билан ўқирманлар кўнглидан жой олган адиб Луқмон Бўрихон ижодида ҳам анъанавий сужет ва ижодкорнинг ўзига хос услуби йетакчилик қилади. Жумладан, “Қўноқ”, “Тун қаъридаги шуъла”, “Токчадаги тумор”, “Қўшяпроқ”, “Чўлдан келган ташвиш” каби ҳикоялари шу тоифага мансубдир. Албатта, бир қаторда санаб ўтилган ушбу ҳикояларнинг ҳар бири алоҳида ёндашувга арзийди. Ҳар бирининг ўзига хос услуби, йўналиши бор. Умумий ҳолатда махсус тадқиқотларга эҳтиёж туғдиради. Аммо, юқорида қайд этганимиздек, улардаги умумийлик, ягона реалистик пафос ўзбек халқининг бугунги турмуши манзараларини қай йўсинда ифодалашида кўринади. Ёзувчининг кўпгина ҳикояларида ўзбек халқининг турмуш тарзи, урф-одатлари, қадриятлари, бугунги нуқтаи назардан образлар руҳияти асосида очиб берилган. Луқмон Бўрихон миллатнинг ўз давридаги суратини чизиб бера олди [6]. Адабиётшунос Умарали Норматов таъкидлаб ёзади, "Маълум бўляптики, биз бир вақтлар менсимайроқ тилга оладиган оилавий, маиший турмуш икир-чикирлари деб аталган соҳада ҳам шахснинг бисоти, ҳаёти маъносини очиш, кашф етиш имкониятлари кўп". Асосли таъкидланганидек, ҳаётда езгулик, инсон бахти йўлида ички ва ташқи тўғаноқлар кўплигидан ўқувчи изтироб чекади.

Хулоса ва таклифлар. Шаклан ихчам ва ижодий имкониятлари чекланган жанр сифатида ҳикоя ҳаётий тафсилот, сюжет соддалиги ва характер мантиғини омухталаштиради. Унда инсон феъл-атвори муҳим қирраларини ҳам индивидуаллаштириш, ҳам умумлаштириш иқтидори, тасвир йўсини ва ифода мустақиллиги уйғунлиги, талқин ва таҳлил ўрин алмашинувлари мунтазамлиги, ривоя техникаси ва йиғиқ тасаввур синтези ҳал қилувчи вазифа бажаради. Аслида "ҳикояда характернинг айрим чизгиларигина намоён бўлади, шу боис воқеанинг ўзи аҳамиятли мазмун-моҳиятни намоён этиши учун яроқли бўлиши лозим" [7]. Энг муҳими, ҳикоя адабий-тарихий жараёнга доир уч замон хусусиятини мужассам эта оладиган ўзига хос бадиий жанр ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР

1. Йўлдошев Қ. Дунё билан бўйлашиб. // “Жаҳон адабиёти” журнали. 2007. 11-сон
2. Дўстмуҳаммедов Х. Ҳозирги ўзбек ҳикоячилигида бадиий тафаккурнинг янгиланиши (80-йиллар охири 90-йиллар аввали ҳикояларимисолида). Фил..фанл.номз.авторефератн.-Тошкент.1995. Б.21.
3. Дониёрова Ш.Ш. Холмирзаев ҳикояларининг бадиий-услубий ўзига хослиги. НДА. – Тошкент, 2000. – 23 б.;.
4. Сатторова Г. 90-йиллар ўзбек ҳикоячилиида миллий характер муаммоси: НДА, – Тошкент, 2002. – 25 б.; Матякупов С. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида инсон концепцияси ва шахс бадиий талқини. НДА. – Тошкент, 2006.
5. Сатторова Г. Миллий характер ва бадиий талқин. – Тошкент. “Фан”. 2007. Б. 9.
6. Mahmudov Y. Hikoya badiiyati. T. Turon zamin ziyo. 2017. 13 б
7. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. T. Sharq. 2004

O‘ZBEKISTON MILLIY NIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК:801.8

Эъзоза САБИРОВА,
Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети катта ўқитувчиси
E-mail: ezozasabirova118@gmail.com

фил.ф.ф.д (PhD) Ф.Юлдашев тақризи асосида

ЭТИМОЛОГИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ ЮРИДИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ

Аннотация

В данной статье исследуются этимологические особенности юридических терминов, приведенных в «Толковом словаре узбекского языка» (издания 1981, 2006 и 2020 годов). Термины группируются по этимологическому происхождению и вычисляется степень релевантности терминологических единиц этим языкам. Подчеркивается, что в толковых словарях, предназначенных для широкого круга пользователей и отражающих основное лексическое богатство языка, необходимо показывать терминологические особенности чисто узбекских единиц. Высказываются мнения о необходимости отражения в словарной статье сведений о генетическом происхождении терминологических единиц, включенных в толковые словари узбекского языка. Благодаря таким описаниям подчеркивается, что пользователи языка могут предоставить ценную информацию и сформировать выводы о словарном запасе языка и уровне собственных внутренних возможностей.

Ключевые слова: право, этимологический признак, этимологическое происхождение термина, производное слово, двухтомный толковый словарь, пятитомный толковый словарь.

ETYMOLOGICAL DESCRIPTION OF LEGAL TERMS

Annotation

This article examines the etymological features of legal terms given in the Explanatory Dictionary of the Uzbek Language (editions of 1981, 2006 and 2020). The terms are grouped by etymological origin and the degree of relevance of terminological units to these languages is calculated. It is emphasized that in explanatory dictionaries, which are intended for a wide range of users and reflecting the main lexical richness of the language, it is necessary to show the terminological features of purely Uzbek words. Opinions are expressed about the need to reflect in the dictionary entry information about the genetic origin of terminological units included in the explanatory dictionaries of the Uzbek language. Through such descriptions, it is emphasized that language users can obtain valuable information and form conclusions about the vocabulary of the language and the level of internal capabilities of the language.

Keywords: law, etymological feature, etymological origin of the term, derivative word, two-volume explanatory dictionary, five-volume explanatory dictionary

ҲУҚУҚШУНОСЛИККА ОИД ТЕРМИНЛАРНИНГ ЭТИМОЛОГИК ТАВСИФИ

Аннотация

Ушбу мақолада “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да (1981, 2006 ва 2020 йилдаги нашрлар) берилган ҳуқуққа оид терминларнинг этимологик хусусиятлари тадқиқ этилган. Юридик терминологияга хос бўлган ўзлашма қатлам терминлари этимологик келиб чиқишига кўра гуруҳланган ва терминологик бирликларнинг мазкур тилларга тегишлилик миқдори ҳисобланган. Кенг фойдаланувчилар аудиториясига мўлжалланган ва тилнинг асосий лексик бойлигини ўзида акс эттирувчи изоҳли луғатларда соф ўзбекча бирликларнинг терминлик хусусиятини кўрсатиш лозимлиги таъкидланган. Ўзбек тилининг изоҳли луғатларига киритиладиган терминологик бирликларнинг генетик келиб чиқиши ҳақидаги маълумотларнинг луғат мақоласида акс этиши зарурати ҳақида фикрлар баён этилган. Бу каби тавсифлар орқали тилнинг сўз бойлиги ҳамда ўз ички имкониятлари қай даражада эканлиги ҳақида тилдан фойдаланувчилар учун қимматбаҳо маълумотлар бериши, хулосалар шакллантириши ёритилган.

Калит сўзлар: ҳуқуқ, этимологик белги, терминнинг этимологик келиб чиқиши, олинма сўз, икки томли изоҳли луғат, 5 жилдли изоҳли луғат.

Кириш. Ўзбек тилининг изоҳли луғатларидаги ҳуқуқий терминларнинг этимологик тавсифи. Инсон – энг олий қадрият, унинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш жараёни демократия тамойилларига кўра халқаро тан олинган тизим асосида амалга оширилади. Яъни дунёнинг исталган бурчагида ҳуқуқий жараёнларда иштирок этувчи шахслар (прокурор, судья, айбланувчи, ҳуқуқбузар каби.) ва уларнинг хатти-ҳаракатига оид (вето, апартеид, кассация каби.) тушунчалар умумийлиги шу тушунчаларни ифодаловчи терминларнинг ҳам жуда кўп тилларда бир хил бўлишига сабаб бўлади. Шу жиҳатдан олиб қаралганда, ҳуқуқий терминологияда олинма сўзларнинг салмоғи катта бўлиши табиий. Аммо бу миллий тилда мавжуд сўзларнинг ҳуқуқий тушунчаларни ифодалай олиш қобилиятини паст даражада баҳолашга сабаб бўла олмайди. Чунки ҳуқуқий терминологиянинг бирликлари, асосан, мамлакат маданияти, сиёсати ва мафкураси билан чамбарчас боғлиқ ҳолда шаклланади [1] (тарафкашлик, астойдил пушаймон бўлиш каби.).

Ўзбек тилининг катта ҳажмли ҳуқуқий терминологиясида асосий ва умумий деб қаралган – ўзбек тилининг изоҳли луғатига киритилган ҳуқ. пометали терминларнинг этимологик хусусияти бўйича таснифи қуйидагича:

– соф ўзбекча;
– арабий;
– форсий;
– рус тилидан ёхуд рус тили орқали ўзлашган (интернационал);
– француз тилидан ўзлашган;
– немис тилидан ўзлашган.

Қуйида 5 жилдли ЎТИЛда мавжуд ҳуқуқий терминларнинг юқоридаги тасниф бўйича таҳлилини кўриб ўтамиз:

Соф ўзбекча терминлар: битим, босқинчилик, бошпана, иш, кечирим, куч, кўрсатма, олди-сотди, оқловчи, сўз, сўроқ, сўроқсиз, тенглик, тергамоқ, тергов, тергов қилмоқ, терговсиз, терговчи, тинтув, тузук, қароқчилик, қидирув, қўрқитиш.

Араб тилидан олинган (асоси арабча) сўзларнинг термин сифатида берилиши: ажрим, айб, айбдор, айбламоқ, айбланувчи, айблов, айбловчи, айбнома, далил, даъво, жабрланувчи, жавобгар, жавобгарлик, жиноий, жиноят, ижро, истеъфо, маслаҳатчи (халқ маслаҳатчиси), мерос, холис, шуурли, шуурсиз, шуурсизлик, қонун, ҳимоя, ҳукм, ҳуқуқ, ҳуқуқий.

Форс тилидан олинган (асоси форсча) сўзларнинг термин сифатида берилиши: бадарға, безорилик, гувоҳ, гувоҳлик, порахўрлик, товон.

Француз тилидан олинган сўзларнинг термин сифатида берилиши: арбитраж, бикамерализм, пролонгация, реплика, ультиматум.

Немис тилидан олинган сўзларнинг термин сифатида берилиши: арест, нейтралитет.

Лотин тилидан олинган сўзларнинг термин сифатида берилиши: аккредитация, аккредитив, акт, алиби, биметаллизм, бонус, вето, де-факто, де-юре, иммунитет, кассация, квалификация, легитим, легитимация, меморандум, персона (персона грата, персона нон-грата), протест, реабилитация, реквизитлар, рецидив, санкция, эксгумация, экстерриториаллик.

Юнон тилидан олинган сўзларнинг термин сифатида берилиши: аналогия, бипатрид.

Бундан ташқари, ўзбек тилида тил бойишининг ички имкониятлари асосида ёки турли тилдан ўзлашган сўзларнинг комбинациясидан ёхуд уларни жуфтлаш ёрдамида ҳосил бўлган терминлар ҳам мавжуд: араб+форс: даъвогар, жавобгар, айбнома; араб+форс+ўзбек: жавобгарлик; араб+лотин: жиноий-процессуал; араб+ўзбек: ҳуқуқбузар; қадимги рус+ўзбек: судланганлик, судланувчи; -лик аффикси ёрдамида ўзбекчалаштирилган терминлар ҳам шулар жумласидан (экстерриториаллик).

Инглиз тилидан янги терминларнинг фаол ўзлаштирилиши туфайли XX асрнинг сўнгги ўн йиллигида муҳим ўзгаришларга учраган турли тизимлар (шунингдек, унга киритилган терминлар)дан фарқли равишда ҳуқуқшунослик соҳаси ва унинг атамалари тубдан ўзгартирилмаган [2].

Таъкидлаш жоизки, француз, немис, лотин, юнончадан олинган сўзлардан деярли барчасининг ўзбек тилида термин сифатида қўлланиши рус тили орқали рўй берган. Мазкур терминларнинг талаффуз ва имло масалалари ҳам айнан рус тили орқали ўзлаштирилган.

2 томли ЎТИЛда мавжуд ҳуқуқий терминларнинг таҳлили қуйидаги натижаларни берди.

Соф ўзбекча терминлар: бошпана, ёқламоқ, иш, куч, оқловчи, сўз, сўроқ, сўроқсиз, тергамоқ, тергов, терговсиз, терговчи, тузук, эгри, қораламоқ, қораловчи.

Араб тилидан олинган (асоси арабча) сўзларнинг термин сифатида берилиши: ажрим, айбдор, айбламоқ, айбланувчи, айблов, айбловчи, далил, даъво, жабрланувчи, жавобгар, жиноий, жиноий-процессуал (араб+рус) жиноят, ижро, маслаҳатчи (халқ маслаҳатчиси), шуурли, шуурсиз, шуурсизлик, ҳимоя, ҳукм, ҳуқуқ, ҳуқуқий.

Форс тилидан олинган (асоси форсча) сўзларнинг термин сифатида берилиши: бадарға, гувоҳ, гувоҳлик.

Рус тилидан олинган сўзларнинг термин сифатида берилиши: алиби, арбитраж, арест, иммунитет, кассация, квалификация, коллегия, регресс, рецидив, санкция, судланганлик, судланувчи, экстерриториаллик.

Ўзбек тилининг 2 томли изоҳли луғатида лотин, француз, немис, грек тилларидан ўзлашган барча терминлар рус тили орқали ўзлашганлиги таъкидланган ва, аввало, рус тили, сўнгра сўзнинг асл келиб чиқиш манбаи бўлган тил кўрсатилган:

АЛИБИ [р<лат]: юр. Айбланувчининг жиноят содир бўлган пайтда бошқа жойда бўлиши (бу ҳол унинг жиноятга алоқаси йўқлигини тасдиқловчи далилдир) [3].

АРЕСТ [р<нем]: арест солмоқ юр., фин. мулк ёки пулдан фойдаланиш ҳуқуқидан вақтинча маҳрум этмоқ, мол-мулкни хатлаб, печатлаб қўймоқ [4].

Кўриш мумкинки, икки томли ва беш жилдли ўзбек тилининг изоҳли луғатларида ҳуқуқий (юр. ва ҳуқ. пометали) терминларнинг генетик хусусиятлари талқинида фарқлар мавжуд. Хусусан, беш жилдли ЎТИЛда ҳуқуқий терминларнинг қайси тилдан олинганлиги ҳақида аниқроқ тасаввур олиш мумкин. Унда соф ўзбек тилидан олинган сўзларнинг термин сифатида қўлланиш ҳолати ҳуқ. пометали терминлар умумий миқдорининг 24 %ини ташкил этади. Араб тилидан ўзлашган сўзларнинг термин сифатида берилиши 30 %, лотин тилидан ўзлашган сўзларнинг термин сифатида изоҳли луғатда пометаланиши 23 %дан иборат. Форс, француз ва немис тилларидан олинган терминологик бирликлар эса мос равишда ушбу 5 жилдли ЎТИЛдаги ҳуқуқий терминларнинг 6 %, 5 % ва 2 %ини ташкил этади.

Худди шу таҳлил 2 томли ЎТИЛда қуйидагича: араб тилидан ўзлашган терминлар 41 %, соф ўзбекча сўзлар 30 %, ундан кейинги ўринда 24 % рус тили ва у орқали ўзлашган терминлар ва кам миқдорда 6 % форс тилидан ўзлашган терминлардан иборат.

2 томли ЎТИЛда соф ўзбекча терминлар 30 % ни ташкил этган бўлса, 5 жилдли изоҳли луғатда 24 фоизни ташкил этади. Таъкидлаш жоизки, ўзбек тилидаги сўзларнинг термин сифатида қўлланиши кейинги ЎТИЛда бироз салмоқли (умумий миқдорга нисбатан камроқ натижани қайд этса ҳам): битим, босқинчилик, кечирим каби сўзлар термин сифатида келтирилган.

Ҳар иккала ЎТИЛда ҳам генетик жиҳатдан араб тилига мансуб бирликлар етакчилик қилади. Бу сўзларнинг кўп қисми умумтуркийлик хусусиятига эга эканлигини инкор этмаган ҳолда соф ўзбекча сўзларнинг салмоғини ошириш халқимизнинг ўз тилидан кенгроқ ва соҳа тили сифатида фойдаланиш қамровини оширишига хизмат қилишини таъкидлаш лозим.

Бугунги кунда қўлланилаётган генетик жиҳатдан соф ўзбек тилига оид терминлар навбатдаги изоҳли луғат учун манба бўлишига ишонамиз. Зеро, терминга айланиб улгураётган тарафкашлик, гаров, қариндош-уруғчилик, сўкиш, ҳақорат қилмоқ каби бирликлар луғатларда акс этиб, қонунчилик амалиётида қўлланиб, ҳуқуқий жараёнларга фаол кириб борганда тилимизнинг кенг имкониятларини намоён қилган бўламиз.

Ҳуқуқшуносликдаги асосий тушунчалар айнан ҳуқуқий лексика томонидан очиб берилади, у муайян ҳаракатлар қонунийлигини баҳолашнинг кўплаб мезонларини ўз ичига олади, қонуннинг жорий қилинишини ҳар хил преседенцияларни яратадиган ва қимматли хусусиятларни ўз ичига олган тизим сифатида тавсифлайди. Ушбу тушунча ва таърифлар ижтимоий-маданий тузилма сифатида қабул қилиниши лозим.

Лексикондаги терминлар тил тизимида алоҳида ўрин тутадиган ўзига хос қатлам. Бунинг сабаби шундаки, у умумистеъмол лексикадан яққол ажралиб турадиган услубий, семантик, структур ва сўз шаклланишига оид ўзига хос хусусиятларга эга. Замонавий ижтимоий ҳаётда ҳуқуқий тушунчалар ролининг ошиши йилдан йилга тобора равшанлашиб бормоқда ҳамда шу билан шахслар

ўз ҳуқуқларини чуқурроқ билиб бораётгани ва халқаро алоқаларни янада кенгайтираётганлигини бизга кўрсатмоқда.

Терминларнинг генетик-этимологик хусусиятларига тааллуқли маълумотларнинг изоҳли луғатда берилиши тилнинг жорий лексик ҳолати шаклланишига қайси тиллар таъсири ва алоқадорлиги ҳақидаги тасаввурлар пайдо бўлишига сабаб бўлишини инобатга олиб айтиш мумкинки, кенг фойдаланувчилар аудиторияси учун мўлжалланаган изоҳли луғатларда терминологик бирликларнинг халқ тилидан йироқ бўлган вариантлари фаол деган хулосага олиб келмаслик тилимизга ҳурматнинг бир кўриниши бўла олади.

Бугунги кунда илмий асосланган янги сўз ва атамаларни истеъмолга киритиш, замонавий атамаларнинг ўзбекона муқобилларини яратиш ва бир хилда қўлланишини таъминлаш [5] ишларини жадаллаштириш вазифаси муҳим масалалардан бўлган ҳозирги вазиятда юқорида биз томонимиздан келтирилган ҳуқуқий терминларнинг этимологик таҳлили ва хулосаларимиз ўзбек тилининг янги изоҳли луғатини яратиш жараёнидаги амалиётда қўлланиши фойдадан холи эмас.

АДАБИЁТЛАР

1. Свиридова Е. Н. За точность и единство терминологии в юриспруденции // Проблемы права, 2009. – №11. – С. 20–28.
2. Даниленко В. П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. – М., 1977. С.17.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томли. 1-том. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1981, Б.40.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томли. 1-том. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1981, Б.52.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони. ПФ-5850-сон. 21.10.2019.
6. Кўчимов Ш.Н. Юридик тил назарияси ва амалиёти. Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатияси университети. – Тошкент, 2013.
7. Кўчимов Ш.Н. Ҳуқуқий нормаларни ўзбек тилида ифодалашинг илмий-назарий муаммолари (лингво-юридик таҳлил): Филол. фанлари доктори дис. … автореф. – Тошкент, 2004.

O‘ZBEKISTON MILLIY NIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK 81-42

Xusniddin XAITOV,
Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o‘qituvchisi
GulDU mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: Husniddinhayit1989@gmail.com

GulDU dotsenti f.f.n O.Fayzullayeva taqrizi asosida

PHONETIC CHANGE IN THE EPO TEXT EXPLANATION OF DIALECT WORDS

Abstract

This article presents a presentation of opinions on the dialectal interpretation of phonetically modified dialect words in the vocabulary of Fazil Yoldosh oglu and Abdunazar Bakhsh's variants of the Alpomysh epic. In the text of the epic, examples of dialect words that have undergone phonetic changes are selected, and each of them is given a descriptive explanation. Phonetically modified dialect words in the epic text are also analyzed as a type of dialectism based on a scientific and theoretical approach.

Key words: epic, folklore dialectology, epic vocabulary, dialect word with phonetic change, dialectism, dialect analysis, dialect description, explanation.

ФОНЕТИЧЕСКОЕ ИЗМЕНЕНИЕ В ТЕКСЕ ЭПОСА ОБЪЯСНЕНИЕ ДИАЛЕКТНЫХ СЛОВ

Аннотация

В данной статье представлено изложение мнений о диалектной интерпретации фонетически измененных диалектных слов в лексике вариантов Фазиля Ёлдош оглы и Абдуназара Бахша эпоса «Алпомыш». В тексте эпоса подобраны примеры диалектных слов, претерпевших фонетические изменения, и каждому из них дано описательное объяснение. Также анализируются фонетически измененные диалектные слова в эпическом тексте как тип диалектизма, основанный на научно-теоретическом подходе.

Ключевые слова: эпос, фольклорная диалектология, лексика эпоса, диалектное слово с фонетическим изменением, диалектизм, диалектный анализ, диалектное описание, объяснение.

DOSTON MATNIDA FONETIK O‘ZGARISHGA UCHRAGAN DIALEKTAL SO‘ZLARNING IZOHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada “Alpomish” dostoni Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Abdunazar baxshi variantlari leksikasidagi fonetik o‘zgarishga uchragan dialektal so‘zlarning dialektal izohiga oid fikr-mulohazalar bayoni keltirilgan. Doston matnida fonetik o‘zgarishga uchragan dialektal so‘zlardan misollar ajratib olinib, har biriga tavsifiy izoh berilgan. Shuningdek, doston matnidagi fonetik o‘zgarishga uchragan dialektal so‘zlar dialektizmning bir turi sifatida ilmiy-nazariy yondashuv asosida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: doston, foklor dialektologiyasi, doston leksikasi, fonetik o‘zgarishga uchragan dialektal so‘z, dialektizm, dialektal tahlil, dialektal tavsif, izoh.

Kirish. O‘zbek shevalarida mahalliy-hududiy ruhiyat va tasavvur aks ettiruvchi xususiyatlar borki, ularni folklor asarlarini o‘rganishda ham kuzatish mumkin. Jumladan, xalq dostonlari matni dialektal mazmun va mohiyat jihatdan barcha xususiyatlarni o‘zida saqlab qolgan, tilimizning jozibasini aks ettirgan dialektal merosimiz ekanligini aytish mumkin. Xususan, “Alpomish” dostoni matniga xos dialektal so‘zlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ularning nafaqat leksik-semantik, morfologik xususiyatlari, balki fonetik tavsifidan ham dialektal ma’noga ekanligi ayonlashmoqda.

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** “O‘zbek shevalaridagi so‘zlarni boshqa sheva va adabiy til bilan qiyoslaganda, shunday fonetik holatlar ko‘zga tashlanadiki, bir so‘z ayni ma’nosini saqlagan holda ulardagi ayrim unli yoki undosh tovushlar farq qiladi, lekin u ma’noning mosligiga putur yetkazmaydi” [1]: Biroq dostondagi fonetik holatlar ma’nolarga putur yetkazmasa-da, aksariyat nashr ishlarida mahalliy-hududiy tasavvur va ruhiyat beradigan jihatlari tahrirlanib, ayniqsa, dialektal fonetik xususiyatlardan voz kechilganligini ko‘rish mumkin. “Hamid Olimjondan tortib, dostonning deyarli barcha noshirlari asarni chop etishda undagi sheva belgilarini kamaytirishga imkon boricha uringanlar. Bu hol ko‘p o‘rinlarda matn tarovatiga jiddiy zarar yetkazgan. [2]:

- **Tadqiqot metodologiyasi**. Baxshidan jonli ijro davomida yozib olingan matnda fonetik o‘zgarishlarga uchragan dialektizmlarni aynan berilmay, shevaga xos so‘zlarning fonetik xususiyati yo‘qotilganligi ko‘rinadi. “Foentika hamma lingvistik vositalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Jumladan, leksikada so‘zlarning ma’nolari shu so‘zlarning tovush sostavlariga aloqadordir [3]. Bu holatni “Alpomish” dostoni matnida kuzatish mumkin.

Dostonning Fozil Yo‘ldosh varianti va Abdunazar baxshi variantlarida ham bu hol kuzatilsa-da, biroq fonetik o‘zgarishlarga uchragan dialektal so‘zlarning ancha qismi saqlanib qolingaligi bilan e’tiborli.

Qalmoq borib, qo‘nsam Chilbir dashiga.
Kalma shahodat musurmonning tiliga,[4]

Misradagi dash dialektal so‘zi tarkibidagi [t] undoshi tushirilishi dialektal xususiyatni shakllantirgan: “Dash – dasht, dala” [6]. “DASHT [f-t] 1 Ekilmay yotgan suvsiz yer; cho‘l. 2 Keng, ochiq maydon; dala” [7].

Qalmoq elda jaylov olib yuramiz,
Qursin Boybo‘rini nima qilamiz? [4]

Jaylov dialektal so‘zida [y] undoshining [j] undoshiga aylanishini shevaviy hodisa deyish mumkin. “Jaylov – yaylov, mol o‘tlaydigan joy, kenglik” [6]. “Dash, dasht – 1. Suvsiz qaqrab yotgan dashtlik”[8]. “YAYLOV chorva o‘tlaydigan maydon; o‘tloq, o‘tlov” [5].

Yurakdan kechirib oh bilan voyni,
Kiygizdi ustiga yaxshi sarpoyni[4].

Fonetik o‘zgarishga uchragan dialektal so‘z – sarpoy tarkibidagi [y] tovushi orttirilshi dialekltal xususiyfatning ifodasi. “Sarpoy – sarpo” [6] “SARPO [f-t] 1 etn.To‘y va boshqa rasmiy marosimlarda to‘yga taalluqli kishilarga tqadim etiladigan bosh-oyoq kiyim yoki to‘n, do‘ppi, qiyiqcha va sh.k. 2 Umuman kiyim-kecha, kiyimbosh” [5]. Bu leksik birlikning shevaviy xususiyatidan kelib chiqqan holda leksik-fonetik dialektizm deyish har jihatdan o‘rinli.

–Hali y il erta, tari-tarmoq eksang ham ovqatligingni olib qolasan; bu yilgi beradigan har nima podsholik chiqimdan ham o‘tdim, – dedi[4].

“Tari-tarmoq – tariq yoxud shunga o‘xshash tez pishar donli o‘simliklar” [6]. Mazkur gapda tari-tarmoq dialektal so‘zida [q] undoshi tushishi natijasida shevaviylashish hodisasi yuz bergan. Qipchoq shevalarida “so‘z oxirida k, q undoshlari tushib qoladi: sariq – sari” [1]. Ko‘rinib turibdiki, leksik birlikning dialektal tavsifi shu birgina tovush bilan bog‘liq. Tezpishar donli o‘simliklar leksik birlikning dialektal ma’nosini ifodalagan.

Oti Alpomish yorim bordir,
Elda zo‘raborim bordir,
Qatordagi norim bordir,
Shundayin qaysarim bordir[4].

Barchin tilidan Alpomishga berilayotgan tavsifda zo‘raborim fonetik o‘zgarishga uchragan so‘z “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da: “ZO‘RAVOR dial. Zo‘ravon” [7] dialektal so‘z ekanligi qayd etilgan. Zo‘rabor leksik birligi tarkibida [v] undoshi [b] undoshiga, shuningdek, zo‘ravor shakli oxiridagi [r] undoshi esa [n] undoshiga o‘zgarishi natijasida fonetik o‘zgarishga uchragan dialektal so‘zni shakllantirgan.

Sen menga nah urib, lopi urasan,
Juda ham akangni nomard bilasan,[4]

LOF [f-t] 1 Haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, haddan tashqari bo‘rttirilgan yolg‘on gap; mubolag‘a. 2 Ortiq ko‘pirtirib maqtanish” [7]. “Lopi – yolg‘on, maqtanish, katta gapirish, lof urish” [6]. Doston matningn ba’zi o‘rinlarida ushbu dialektal so‘z lof holatida ham uchraydi. Bizningcha, doston nashrga tayyorlananish davomida ushbu dialektizm tahrirlanib, adabiy holatga keltirilgan. Chunki baxshi sheva vakili ijroda adabiy tilga rioya qilmaydi, aksincha, tinglovchilar uchun xalqchil va tushunarli bo‘lishi uchun ham dialektal ruhiyatdan chiqib ketmaydi.

Solib qo‘ygan bul to‘shagim jiyildi,
O‘ylab ko‘rsam, ko‘rgan tushim qiyindi(r), [4]

“Jiyilmoq – yig‘ilmoq, jam bo‘lmoq” [6]. Mazkur misrada jiyildi dialektal so‘zi fe’l so‘z turkumiga mansub bo‘lib, [j] undoshi [y] undoshi o‘rnida qo‘llanilishi bilan shevaviylashgan. Doston matnida xuddi shu tarzda eng ko‘p qo‘llanilgan, tahrirda misraning keyingi misradagi so‘zlar bilan qofiyadoshligini saqlanishi uchun ham dialektal so‘z holatida qoldirilgan deyish mumkin.

Bu so‘zni aytib turib edi, Qorajon ham jovchi bo‘lib borib qoldi[4].

“Jovchi – sovchi”[6]. “SOVCHI etn. Uylanuvchi yigit tomonidan qiz ko‘rish va qiz tomon roziligini so‘rash uchun vakil qilingan kishi” [5].

“Sovchi” degan so‘zdan to‘yning hidi keladi. Elda har kim ham sovchi bo‘lavermaydi. Ko‘rib-kechirgan, so‘zga chechan “so‘zchi”lar bu ishni uddalashadi. Bu so‘z aslan “so‘zchi” degan ma’noni anglatgan. Qadimgi tilimizda “sav” – “so‘z” degani. Darhaqiqat, birovning eshigiga sovchilikka borgan odam quad bo‘lishni istayotgan tarafning so‘zlarini olib boradi. Shuning uchun ham unga “so‘zchi” – “sovchi” deyilgan. Qoshg‘ariy izohiga ko‘ra “savchi” so‘zining bir qancha ma’nolari bor. Ba’zi manbalarda payg‘ambarlar ham “sovchi’ deb atalgan. Chunki ular ham ham xudoning so‘zini odamlarga yetkazishgan” [9]. Doston matnida sovchi fonetik o‘zgarishda, ya’ni jovchi dialektal so‘z maqomini olgan deyish mumkin.

Tortib olib bo‘lmasa, o‘g‘irlab olib bo‘lmasa, sotib olib bo‘lmasa, xudo bizga bermasa, qayoqdan qilamiz taraddi?![4].

“Taraddi – taraddud, iloj, imkon, chora” [6]. “TARADDUD [a] 1 Biror ishni, maqsadni amalga oshirish uchun ko‘riladigan tayyorgarlik, urinish, harakat” [5]. Yana bir fonetik o‘zgarishga uchragan dialektal so‘z – taraddi bo‘lib, oxirgi bo‘g‘inida tovush o‘zgarishi va tushishi bilan shevaviylashgan. Matnda chora, iloj dialektal ma’nosida kelayotganligini ko‘rish mumkin.

Toshloqda chopadi nazari tulpor,
Bo‘ynin so‘zib irg‘ir edi jonivor,[4]

“CHO‘ZMOQ 1 Tortib uzaytirmoq, uzaytmoq” [5]. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da: “CHO‘ZG‘IN dial. Cho‘ziq” [5] deb qayd etilgan. Ushbu dial izohi cho‘zg‘in shevaga xos so‘z ekanligini ifodalaydi. Ikkinchi satrdagi so‘zib dialektal leksik birligidagi [ch] tovushi [s] tovushiga o‘zgargan, shu ma’noda fonetik o‘zgarishga uchragan dialektal so‘z deyish mumkin.

Uchida chichqonlar bolalab yotgan,
Izdan tushgan pishak oltoyda yetgan, [4]

“SICHQON 1 Har turli yerlarda yashashga moslashgan kemiruvchi sutemizuvchi hayvon” [5]. Shevaga oid bunday holat, ya’ni [s] undoshining [ch] undoshiga o‘zgarishi doston matnidagi boshqa so‘zlarda ham uchraydi. Masalan: soch – choch. Bu fikrlar esa chichqon dialektal leksik birligini shevaviylashganlini ko‘rsatadi.

Borgandan tegadi bodom qobog‘ing,
Qullu bo‘lsin, akajon, arg‘umog‘ing,
Chopar ot o‘ynatib bundan borasan,[4]

Qullu bo‘lsin leksik birligi quyidagicha sharhlangan: “QULLUQ s.t. Minnatdorchilik ifodalovchi so‘z, rahmat, minnatdorman” [5]. “QUTLUG‘ 1 Qut-baraka, baxt keltiruvchi; qut-barakali” [5]. “Alpomish dostonining izohli lug‘ati”da: “Qulluq bo‘lsin qilmoq – qutlamoq, muborakbod etmoq” [6] tarzida tahrirdagi so‘z kiritilgan. Doston matnidagi ushbu dialektizm barakalayman, baxt keltirsin dialektal ma’nolariga ega. Qut – baraka, qutli – barakali ma’nolarini, shuningdek, qutlug‘ tushunchasi baxt-saodatni ham ifodalaydi. Qut asosidagi qo‘shimcha shakl ta’sirida [t] undoshi [l] undoshi o‘zgarishi hamda so‘z oxirida [q] undoshining tushib qolishi dialektal tavsif hosil qilish bilan birgalikda dialektal shaklga ham ega bo‘lgan.

Men sho‘rlidan ko‘ngli cho‘rchib yurmasin,
Nima bo‘lsa bu so‘zimni bilmasin[4].

“CHO‘CHIMOQ 1 Bexos tashqi ta’siridan sakrab, sapchib tushmoq, seskanmoq. 2 ko‘chma Qo‘rqmoq, hadiksiramoq, shubhalanmoq” [5]. Cho‘rchib leksik birligida [r] undoshi orttirilishi dialektal holat, qo‘rqib, umuman, qo‘rqmoq ma’nosida qo‘llanilgan.

Bularning ishini xaloyiq bilmas,
Ikkovi bir-birin hech parvoy qilmas[4].

“PARVO [f-t] Kimsa yoki narsaga bo‘lgan diqqat-e’tibor, qiziqish, nazar-pisand” [7]. Misradan ko‘rinib turibdiki, leksik birlikda [y] undoshi orttirilgan. Qipchoq shevasidagi ayrim so‘zlarda unli tovushdan keyin bu [y] undoshi orttirilishi kuzatiladi. Bu holat dostonning Abdunazar baxshi ijrosidagi variantidagi ayrim misollarda ham uchraydi.

Aytib o‘tayin poyma-poy,
Yaratgandir yakka Xudoy.
Dunyo ekan ko‘hna saroy,
O‘tib borar shoh-u gadoy[10].

Yuqoridagi misrada gadoy so‘zida ham [y] undoshi orttirilgan. Parchada Xudo so‘zida ham [y] undoshi kelayotgani ham dialektning belgisi deyish mumkin. Shu ma’noda dostonning har ikki varianti matnidagi [y] undoshi orttirilib qo‘llangan leksik birliklarni fonetik o‘zgarishga uchragan dialektal so‘z qatoriga kiritish o‘rinli deb bilamiz. Bu dialektal so‘zlar jadvalga joylashtirilganda fikr-mulohazalar o‘rinli va asosli ekanligi aniq ko‘rinadi.

t/r	Fonetik o‘zgarishga uchragan dialektal so‘zlar		Dialektal ma’no	Adabiy til shakli
1	dash	dəsh	dala, kenglik	dasht
2	jaylov	jəyləv	chorva yoyib boqiladigan hudud	yaylov
3	zo‘rabor	zərəbər	zo‘rlik ishlata oladigan kishi	zo‘ravon
4	cho‘rchib	chərchib	qo‘rqib	cho‘chib
5	parvoy	pərvəy	e’tibor	parvo

Doston leksikasidagi lingvistik unsurlar, avvalo, dialektal xususiyat bilan bog‘liq. Dialektal matn sifatida asosiy shevaviylashish hodisasi jarayonida fonetik o‘zgarshilar muhim ta’minlovchi vosita ekanligini aytish mumkin. Biroq nashr ishlarida aksariyat bunday shevadagi so‘zlarni adabiylashtirilishi dialektal xususiyatlarni yo‘qolishi va ayrim xatolarning yuz berishiga sabab bo‘lgan. Xususan, olim Q.Yo‘ldoshev ham bu haqida fikr bildirgan.

Boysarining ikki jildav to‘pi bor,
Har ko‘chganda to‘p bo‘shatib jo‘nadi, [4]

Ushbu misradagi jildav so‘zini olim jildam ekanligini, ildam so‘zidan oldin [j] undoshi orttirilib qo‘llanilishini va jildav emasligini aytib o‘tgan. Bu ham yuqoridagi aytilgan fikrlarimizga yaqinligi bilan e’tiborli. “ILDAM Tez harakat qiladigan, boshqalardan tezroq yuradigan; chaqqon”. “ILDAM-JILDAM Tez harakat qiladigan, tez yuradigan, chaqqon” [7]. Chunki bu shevada aksariyat unli tovush bilan boshlanuvchi so‘zlardagi birinchi tovushdab oldin [j] undoshi orttirilish kuzatiladi.

Tahlil va natijalar. “Yuqoridagi ko‘rsatib o‘tilgan so‘zlarning ma’no o‘zgarishi asosan bir so‘zninggina talaffuziga bog‘liq emas, akasriyat holda shu so‘z tarkibidagi (o‘zakdagi yoki birinchi bo‘g‘indagi) birigina unlining talaffuziga bog‘liq [11]. Shu ma’noda o‘zakdagi yoki birinchi bo‘g‘indagi birigina unlining talaffuzi bilan dialektal ma’no hosil bo‘lishini ko‘rish mumkin. Demak, doston matnidagi fonetik o‘zgarishlar ham dialektal xususiyatlarni ta’minlovchi muhim omillardan biri. Bu esa fonetik o‘zgarish bilan bog‘liq leksik birliklarni fonetik dialektal so‘z turi sifatida baholash imkonini beradi. Chunki doston leksikasi tarkibidan: “Bu xildagi fonetik o‘zgarishga uchragan yuzlab, minglab misollarni keltirish mumkin” [12]. Dostonning leksik tarkibida foentik o‘zgarishlarga uchrab shevaviylashgan so‘zlarni ham e’tibordan chetda qoldirmasdan imkon qadar izohi bilan dostonga bag‘ishlangan alohida lug‘atda berilishi o‘rinli bo‘ladi. Shu ma’noda dialektal leksikogrfiyaga oid tadqiqotlarda dialektizmning bu turini ham kiritish shevaga oid tavsiflarni yo‘qolib ketmasligini ta’minlashga xizmat qiladi. Chunki doston matnidagi fonetik o‘zgarishga uchragan bunday dialektal so‘zlar birgina tovush bilan farqlanishi shevaviy jihatdan muhim sanalanishini aytish mumkin. “Dostonda sheva unsurlari badiiyatni tayin etuvchi asosiy omil bo‘lgan” [2].

“Xulosa qilib aytganda, milliy til, adabiy til va mahalliy dialektlar orasida domiy o‘zaro munosabat va bog‘liqlik bo‘lishi bilan bir qatorda, ular orasida ma’lum farqlar va o‘ziga xos chegaralar ham mavjudki, bunday farq va chegaralar haqida har bir filolog aniq tasavvurga ega bo‘lishi kerak” [10]. Bizningcha, ma’lum farqlar va o‘ziga xos chegaralar bilan shevaviy xususiyatga ega bo‘lgan leksik birliklar fonetik dialektizmlarga xos bo‘lib, doston poetikasida ham alohida o‘rni bor. “Baxshilarning yuksak san’atkorliklari shundaki, jo‘ngina maishiy unsur yordamida g‘oyat nozik, tasvirlash mushkul holat ifodalanadi. Ayni vaqtda, sheva imkoniyatlaridan foydalanib, yuksak poetik samaradorlik ham ta’minlanadi” [2]. Dostonda bunday dialektal so‘zlar to‘liq tahrirlanib yuborilganda poetik samaradorlik ham ta’minlanmas, asarning dialektal xususiyati sezilmas edi. Biroq o‘rganilgan dialektal so‘zlarning tavsifidan bunday leksik birliklar anchasi tahrir bo‘lganligini ta’kidlab, qolganlarini doston shevasiga oid lug‘atda berish o‘zbek shevashunosligi va eposning keyingi nashrlari uchun muhim deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkient: “NAVRO‘Z”, 2016. – B. 25.
2. Йўлдошев Қ. “Алпомиш” талқинлари ёки достон бадийяти ҳамда миллат маънавияти ҳақида айрим фикрлар. –Т.: “Маънaчият”, 2002. — 168 б.
3. Афзалов Ш. Ўзбек тилининг Паркент шеваси. Филология фанлари кандитати даражасини олиш учун ёзилган диссертация –Тошкент:, 1952. –Б. 42.
4. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. “Alpomish” dostoni. “SHARQ” nashriyot matbaa aksiyadorlik jamiyati bosh tahririyati. – Toshkent:, 2010. –B. 12,19, 22, 26, 36, 63, 71, 78, 80, 95, 114, 143, 153, 158.
5. Маъруфов З. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва: Рус тили, 1981. II жилд. –Б. 24, 58, 64, 122, 385, 388, 476, 616, 627.
6. Мирзаев Т, Эшонқул Ж, Фидокор С. “Алпомиш” достонининг изоҳли луғати. – Тошкент:, “Elmus-Press-media”, 2007. –Б. 26, 34, 37, 39, 58, 79, 88, 138.
7. Маъруфов З. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва: Рус тили, 1981. I жилд. –Б. 215, 311, 435, 572.
8. Назаров. Лақайлар: баъзи сўзлар ва ибораларнинг диалектологик мазмуни. –Тошкент:, 2005. –Б. 39.
9. Шукур Э. Бобо сўз изидан. –Тошкент:, “MASHUR-PRESS”, 2018. –Б. 62.
10. Поёнов А. “Алпомиш” достони. –Тошкент:, Akademnashr, 2018. –Б. 16.
11. Дониёров Х, Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стил. –Тошкент:, Фан, 1988. –Б. 15, 76.
12. Enazarov T. Dialektologiya metodologiyasi. –Toshkent:, Innovatsiya-Ziyo. 2020. –B. 35.

O‘ZBEKISTON MILLIY NIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

Orifa XUDAYBERDIYEVA,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
E-mail: orifa.xudayberdiyeva@mail.ru

ToshDO‘TAU professori, fil.f.d. B.R.Mengliyev taqrizi asosida

GENERAL ISSUES OF GENDER SPECIFICITY OF NON-LITERARY LEXICAL ELEMENTS IN PERSONAL CORRESPONDENCE

Abstract

There are many scientific studies devoted to gender differences in writings in world linguistics. In particular, the lexical features of men's and women's speech are deeply analyzed. This article discusses the lexical features of women's and men's correspondence, based on scientific research in world linguistics. Lexical features are based on examples taken from personal correspondence on Telegram and Instagram social networks.

Key words: gender, lexical features, masculinity, femininity, personal correspondence, vulgarism, taboo, euphemism.

ОБЩИЕ ВОПРОСЫ ГЕНДЕРНОЙ СПЕЦИФИКИ НЕЛИТЕРАТУРНЫХ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЭЛЕМЕНТОВ В ЛИЧНОЙ ПЕРЕПИСКЕ

Аннотация

В мировой лингвистике имеется множество научных исследований, посвященных гендерным различиям в письменности. В частности, глубоко анализируются лексические особенности мужской и женской речи. В данной статье рассматриваются лексические особенности женской и мужской корреспонденции, основанные на научных исследованиях мирового языкознания. Лексические признаки основаны на примерах, взятых из личной переписки в социальных сетях Telegram и Instagram.

Ключевые слова: гендер, лексические признаки, мужественность, женственность, личная переписка, вульгаризм, табу, эвфемизм.

SHAXSIY YOZISHMALARDAGI NOADABIY LEKSIK UNSURLARNING GENDER XOSLANISHINING UMUMIY MASALALARI

Annotatsiya

Dunyo tilshunosligida yozuvlardagi gender farqlarga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar talaygina. Ayniqsa, erkak va ayollar nutqining leksik xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. Ushbu maqolada ayollar va erkaklar yozishmalaridagi leksik xususiyatlar haqida fikr yuritilgan bo‘lib, dunyo tilshunosligidagi ilmiy tadqiqotlarga tayanilgan. Leksik xususiyatlar telegram va instagram ijtimoiy tarmog‘idagi shaxsiy yozishmalardan olingan misollar orqali asoslangan.

Kalit so‘zlar: gender, leksik xususiyat, maskulinlik, femininlik, shaxsiy yozishma, vulgarizm, tabu, efemizm.

Kirish. Ayollar va erkaklar o‘rtasidagi lingvistik farqlar har doim insoniyatning o‘ziga xos qiziqtirgan mavzusi bo‘lib kelgan va yillar davomida o‘rganilgan til farqlari maqollarda ham o‘z aksini topgan: Er lafzidan qo‘y bo‘g‘zidan; Er so‘zi – el so‘zi; O‘tarchining nashtari yeng uchida, Zahar xotin nashtari til uchida; Xotin so‘zini qondirar, Er urug‘idan tondirar; Ota qarg‘ishi — o‘q, Ona qarg‘ishi — do‘q; Erning so‘zi bitta; Ikki xotinlikning qulog‘i tinmas; Kelin kimxob kiyar, Qaynona qarg‘ab kuyar; Kelinning tili yo‘q, Qaynonaning — iymoni; Xotinning qaqildog‘i — tegirmonning shaqildog‘i; Erdan — xato, xotindan — uzr, Xotindan — xato, erdan — jazo[1]. Maqollarning mazmuni umumlashtirilganda erkaklarning bir so‘zligi, ya’ni qat’iyligi, ayollarning esa ko‘p gapirishga moyilligi yuqori ekanini anglash qiyin emas. Dunyo folklingvistlari tadqiqotlarida ham ta’kidlanganidek erkaklar ayollarga nisbatan so‘kish so‘zlari va tabularni ko‘proq ishlatadilar.

-Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Jespersenning ta’kidlashicha, ayollar dag‘al va qo‘pol ifodalardan instinktiv ravishda qochadilar va nozik, yashirin va bilvosita ifodalarni afzal ko‘radilar. Fleksner o‘zining “Amerika jargonlari lug‘ati” ga kirish so‘zida ta’kidlaganidek, amerikada jargonlarning aksariyati erkaklar tomonidan yaratilgan va faol qo‘llaniladi[2]. Lakoff, shuningdek, erkaklar ayollarga qaraganda kuchliroq haqorat so‘zlarni ishlatishini ta’kidlaydi, ammo “uning dalillari shunchaki taassurotga asoslangan”ligini Jennifer Coates qayd etib o‘tadi[3]. Kramer Nyu Yorkerdan olingan multfilmlarni tahlil qildi. U multfilm yaratuvchilar o‘zlarining erkak qahramonlarini ayol qahramonlarga qaraganda ancha erkinroq so‘kinadigan qilib yaratgan. U talabalarga multfilmlardan olingan taglavhalarni erkak yoki ayol ekanligini aniqlashni topshirdi. Ko‘pgina taglavhalar uchun so‘zlovchining jinsi bo‘yicha aniq raqamlar (kamida 66 foiz tasdiq) mavjud edi.

Ayollar tili juda nafis, odobli, hayoli degan e’tiqod juda keng tarqalgan va ko‘p asrlar davomida mavjud bo‘lib kelgan. Vulgarizm madaniy konstruktsiyadir va dalillar shuni ko'rsatadiki, bu o'rta asrlarning yangi saroy an'anasi bo'lib, u zo'ravonlikni yaratib, vulgarlikni ham yaratgan. Lakoff o‘z pozitsiyasini keyinchalik shunday sarhisob qiladi: “ayollar rangsiz yoki qo‘pol iboralarni ishlatmaydilar, ayollar evfemizm bo‘yicha mutaxassisdirlar”[4]. So‘kish va qo‘pol so‘zlardan qochish ayol notiqlar uchun ideal holat hisoblanadi. Ko‘rinib turibdiki, odamlar uzoq vaqt davomida ayollar va erkaklar so'kish va boshqa tabu iboralarni ishlatishda farq qiladi deb o'ylashgan.

Muloqotda ayollar ko‘proq ijtimoiy-emotsional e‘tiborni namoyon qiladilar, aloqani rivojlantirish va saqlash, his-tuyg‘ularini ifoda etish uchun muloqotdan foydalanadilar. Erkaklar esa muloqotdan muammolarni hal qilish, muammolarni muhokama qilish, o‘z fikrlarini bildirish va faktlar haqida xabar berish vositasi sifatida foydalanadilar (Eckert&McConnell-Ginet, 1992; Holmes, 1995; Lakoff, 1973; Mulac, Bradac&Gibbons, 2001; Tannen, 1990) . Bu tendensiyalar ayollarning gender stereotiplariga ko‘proq g‘amxo‘rlik va munosabatlarga yo‘naltirilganligi va

erkaklarning ko‘proq mustaqil sifatiga mos keladi (Carli, 2001; Eckert&McConnell-Ginet, 1992; Lakoff, 1990; Zimmerman, Holm&Haddock, 2001). Bu shuni ko‘rsatadiki, ayollar va erkaklar ko‘pincha o‘zaro munosabatlarda o‘zlarining stereotipik gender rollarini bajaradilar. Bundan tashqari, erkaklarga nisbatan ayollar ko‘proq odobli, hayoli shakllardan foydalanishlari (Holmes, 1995), ko‘proq maqtov va xushomadga moyillik (Holmes, 1988), his-tuyg‘uga berilgan va mavhum fikrlardan foydalanish, ko‘p savol berish (Carli, 1990; Mulac&Lundell, 1994; Mulac, Lundell&Bradac, 1986; Thomson&Murachver, 2001), boshqalarning javobi uchun qisqa javoblarni taklif etish (ha, hm, ok kabi; Aries, 1982; Holmes, 1992; Mulac, Wiemman, Widenmann&Gibson, 1988), ko‘proq mubolag‘adan foydalanish (Aries, 1982; Crosby&Nyquist, 1977; Fitzpatrick, Mulac&Dindia, 1995) holatlari aniqlangan . Ayollardan farqli ravishda, erkaklar ko‘proq fikr bildirishadi (Aries, 1982; Tannen, 1990; Thomson&Murachver, 2001); uzoqroq gapirish orqali suhbatda hukmronlik qilish (Herring, Johnson&DiBenedetto, 1995; Swacker, 1975; Goddard&Patterson, 2000), faktlar, miqdorlar va geografik joylashuvga ko'proq murojaat qilish (Aries, 1982; Mulac va b., 1988; Zimmerman&West, 1975), suhbatni bo‘lish (Carli, 1990; Mulac va b., 1988; Zimmerman&West, 1975), fikrga qarshilik qilish ehtimoli ko‘proq (Carli, 1990) va nutqning to‘g‘ridan to‘g‘ri, vositasiz shakllaridan foydalanishlari aniqlangan (Mulac va b., 2001; Mulac va b., 1988)[5].

Bundan tashqari, og‘zaki suhbatdan farqli o'laroq, yozish ko'proq vaqt talab qiladigan va uzoq davom etadigan jarayondir. Bu kontentni yanada ongli ravishda qurish imkonini beradi. Lekin bu so‘zlovchining jins kabi individual xususiyatlarini ochib berish darajasini o‘zgartirishi mumkin. Yuqoridagi farqlarga qaramay, bolalar va yoshlar tomonidan yozilgan yozuvlar yuzma-yuz suhbat va elektron pochta orqali aks etadigan jinsga bog'liq til effektlarini ko'rsatishi aniqlangan. Masalan, xushmuomalalik elementlarini kiritish (Rubin&Greene, 1992), hissiyotlarga ishoralar (Levine&Geldman-Caspar, 1997; Mulac&Lundell, 1994; Mulac, Studley& Blau, 1990), haqiqiy, shaxsiy tajribalar (Marschall, 1997; Peterson, 2001) erkaklarga qaraganda ayollarga xosdir. Bundan tashqari, ayollar erkaklarga nisbatan ko‘proq ta’sirchanlikni ifodalovchi belgilarni qo‘llaydi (masalan, yozuvda undov belgisi, tagiga chizish kabi punktuatsion belgilardan foydalanish: Colley&Todd, 2002; Janssen&Murachver, 2004), qisqa tuzilgan gaplardan foydalanishi (Hiall, 1977; Mulac va b., 1990; Rubin&Greene, 1992) aniqlangan. Boshqa tomondan, erkaklar ko‘proq geografik ishoralardan foydalanishlari (Janssen&Murachver, 2004), miqdorga ishora qilish (Mulac&Lundell, 1994), tasvirlar (Janssen&Murachver, 2004; Rubin&Greene, 1992), yo‘nalish ravishlari (Janssen&Murachver, 2004) dan foydalanishi aniqlangan [5].

-Tadqiqot metodologiyasi. Internetning jadal rivojlanishi vaqt va makonda ma‘lumot almashishning ko‘plab usullarini yaratdi. Onlayn ijtimoiy tarmoqlar (masalan, Twitter, Facebook, Twitter, Instagramm, Telegramm,) e-tijorat yangiliklar guruhlari (Trendyol, Aliexpress, Amazon) va boshqalar ko‘proq mashhurlikka erishmoqda. AMD tomonidan baholangan statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2009 yil oktyabr oyi holatiga ko‘ra internet foydalanuvchilari soni 1,69 milliardni tashkil etadi[6]. Biroq, bu o‘sish turli xil noto‘g‘ri foydalanishlarni ham o‘z ichiga oladi. Onlayn muloqot aldamchi hujumlar, yolg‘on ma’lumotlarni olish va hokazolarga nisbatan himoyasizdir. 2008 yilda Internetda jinoyatlar bo‘yicha shikoyat qilish markazining (Annual Report of Internet Crime Complaint Center) yillik hisobotida aytilishicha, 2008 yilda onlayn jinoyatlar 33,1% ga oshgan[7]. Ushbu vaziyatni yumshatish maqsadida milliy xavfsizlik va huquq-tartibot idoralari terrorizmdan, bolalarni jinoyatchilardan va hokazolardan himoya qilish uchun yolg‘on hujumlarning oldini olish va jo‘natuvchilarning shaxsini kuzatish bo‘yicha loyihalarni ishga tushirdi. Anonimlik onlayn hamjamiyatlarda muhim xususiyatdir. Anonim yozuvlarning jinsini aniqlash yuzasidan metodika ishlab chiqilgan[8] ,ammo ushbu metodika krill alifbosida yozilgan qo‘lyozmalar ustidagina bajariladi. Odatda, odamlar kibermakonda ismi, yoshi, jinsi va manzili kabi o'zlarining haqiqiy shaxsini ko‘rsatmaslika harakat qiladi. Ko‘p internetdan qing‘ir maqsadlarda foydalanishda yoki jinoyat holatlarida jinoyatchilar anonim serverlar yordamida o‘z manzillarini yashirishga va o‘zlarining haqiqiy shaxsini yashirishga harakat qilishadi. Qisqa internet matnidan muallifning jinsini aniqlash muammosi, muallifni aniqlash/atributsiya muammolarining boshqa turlaridan quyidagilar bilan farq qiladi:

gender identifikatsiyasi mavhumlikning yuqori darajasidir; mualliflik atributidan farqli o'laroq, nomzod mualliflar to'plami oldindan mavjud emas

Internet matnli xabarlarining hajmi odatda mualliflik atributi o'rganiladigan kitoblar kabi an'anaviy matnli hujjatlarga nisbatan kichikdir.

An'anaviy matn hujjatlaridan farqli o'laroq, internet matnlarida kulgichlar kabi maxsus lingvistik elementlar mavjud

Internet matnlarining formati yoki tuzilishi real vaqt rejimidagi cheklovlar tufayli turli foydalanuvchilar va vaziyatlarda farq qilishi mumkin, masalan, internet chat lahzali xabar almashish va hokazo[7].

-Tahlil va natijalar. 20-asr boshlariga murojaat qilsak, biz daniyalik ingliz tili professori Otto Jespersenning so‘z boyligini o‘zgartirish masalasida yozganlarini ko‘ramiz. Uning ta’kidlashicha, yangi va yangi iboralarni ayollardan ko‘ra erkaklar kiritadilar va shuning uchun tilni yangilovchilar erkaklardir. Bu zohiriy nomuvofiqlikni androsentrik qoida bilan izohlash mumkin. Qoidaga ko'ra, lug'aviy o'zgarishlardan norozi bo'lgan davrda ayollar efemistik so‘zlarni kiritishda aybdor deb topilgan[9]. Shuni ta’kidlash kerakki, amerikalik tilshunos Robin Lakoff “Til va unda ayollarning o‘rni” asarida ko‘p odamlar uchun XX asrda gender farqlariga lingvistik qiziqishning boshlanishini ko‘rsatadi. Jespersonning so‘zlariga ko‘ra, ayollar erkaklardan ko‘ra ko‘proq ravishlarni ishlatishda farq qiladilar. Uning ta’kidlashicha, bu o‘ziga xos xususiyatdir: ayollarning giperbolaga bo‘lgan muhabbati ko‘pincha intensivlik ravishlariga nisbatan modaga olib keladi va ular ko‘pincha ularning asl ma‘nosiga e‘tibor bermasdan ishlatadilar.

Ushbu jadvalda erkak va ayollarning telegram va instagram ijtimoiy tarmog‘idan olingan shaxsiy yozishmalaridagi lingvistik xususiyatlari keltirilgan.

1.1

1	odobli, hayoli shakllardan foydalanish	Salom qales Szga misol tashlasam ishlab berasmi vaqtz bulsa agar
2	ko‘proq maqtov va xushomadga moyillik	Manam toyda koynegimi 800$ ga oganman makiyaj priceska 100$ bogan
3	mavhum fikrlardan foydalanish	иложини топсак борамиз
4	ko‘proq mubolag‘adan foydalanish	Vuyy udarrr vashshi xalq kutyotuvdi qanchaga qildi makiyajini deb rossa o‘ylab sorashyotudi rahmat aytilar, biram xursandman

	Fikr bildirish	Shunday gruppada uqimayotganlarni chiqarib tashlash kerak
	Uzoqroq gapirish	
	faktlar, miqdorlar va geografik joylashuvga	75 kun ovozli chat qilibmizmi
	suhbatni bo‘lish	Bo‘pti gap yo‘ 2003 chiqib ketamiz
	fikrga qarshilik qilish	Nega boshqalarni orqasidan gap qilayapsan Nega katta ketayapsan Qupol gap qima hammang

1.2

	Xususiyat	Ayol talabalar yozishmalaridan
1	xushmuomalalik elementlarini kiritish	Дилшод сз тури гапирдз мен гапизга карши чикмадим проста барбир бу бизни кулимиздамасда Yaxshi niyat qiling hammamiz o'tamiz nasib O'ylamang hammasi yaxshi boladi Shunda 6-variantni 3-siga yordam berolasizmi
	hissiyotlarga ishoralar	тури айолга хар доим этибор бериш кк Voooooy Mohiyey qayer dan topasaney Mening Universitetim□□ 1 chisini xitoynikidan oluvdm endi nima qilaman Yo'q men uchun qurilgan
	haqiqiy, shaxsiy tajribalar	Deksametazon gormon, vrach buyurmasa shunchaki beravermang. Allergiyaga qarshi boshqa dorilaram boru Lordes tabletkadan yarimta bering. Bir kunda bir marta. Effekti zo‘r
	ta’sirchanlikni ifodalovchi belgilarni	- Hamma joyni birin ketin yopadi ekan otgan yilgidan bu yil kasalanganlar Soni kop ekan Aytganiz kelsinee Darhol tavba qilengee - Bu degani hamma joy Yana online bo'ladi degani - Undaay bo'lmasin Mohijon Voy tavba asatafulilloh

- Хулоса ва таклифлар. Xulosa qilib aytganda, ayollar va erkaklar nutqidagi farqlarnin ba’zilari umumiy xususiyatga ega. Ya’ni, qaysi madaniyat vakili bo‘lsa ham, dini, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar bir xillikka ega. Masalan, ayollarning efemistik so‘zlardan foydalanishi, erkaklarning faktlarga asoslangan nutqni afzal ko‘rishi kabi. Lekin, ba’zi xususiyatlar borki, ular nafaqat millat , din jihatdan farqlanadi, balki turli vaziyatlarda turlicha namoyon bo‘ladi. Bu insonning murakkab psixologik holati bilan bog‘liq.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbek xalq maqollari. https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi/uzbek-xalq-maqollari
2. Fleksener, Stuart B. Preface to Dictionary of American Slang. Thomas Y. Crowell, New York, 1960.
3. Jennifer Coates. Women, men and language. Routledge, London and New York, 2013. P 3-28.
4. Robin Lakoff. Language and women’s place. Harper Colophon Books, 1975. P 85.
5. Matthew L.Newman, Carla J.Groom, Lori D.Handelman, James W.Pennebaker. Gender differences in Language Use: An analysis of 14.000 text samples. https://www.researchgate.net/publication/253291274
6. Na Cheng, R.Chandramouli, K.P.Subbalakshmi. Author gender identification from text. journal homepage: www.elsevier.com/locate/diin
7. Кулагин П.Г., Колонутова А.И. Экспертная методика дифференциации рукописей на мужские и женские. М. ВНИИ МВД СССР, 1970.
8. Anna Janssen. Tamar Murachver .The relationship between gender and topic in Gender-preferential language use. Written Communication 2004; 21; 344 . p 346.
9. Otto Jespersen. Language: Its nature, development and origin, 1921. New york. 246 p
10. Jennifer Coates and Deborah Cameron, Women in their speech communities (New perspectives on language and sex). Routledge, London and New York. 2014. P 186.

O‘ZBEKISTON MILLIY NIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК: 82 - 1/29

Ҳалима ЮЛДАШЕВА,
Қўқон давлат педагогика институти мустақил изланувчиси
E-mail: Halimaxonim@gmail.com

ТошДЎТАУ профессори Н.Жабборов тақризи асосида

THE IMPORTANCE OF THE FOLK STYLE IN THE EKSPRESSION OF THE NATIONAL SPIRIT

Abstract

The article analyzes the issues of traditioh and literary successionin Uzbek classical literature on the example of Erkin Vahidov. In Erkin Vahidov’s poetry, the traditionalism of the individual and society is studied on the basis of the poet’s work and classical poetry.

Keywords: poetry, national spirit, criticizm of virtues, vices, artistic interpretation.

ЗНАЧЕНИЕ НАРОДНОГО СТИЛЯ В ВЫРАЖЕНИИ НАЦИОНАЛЬНОГО ДУХА

Аннотация

В статье проанализированы вопросы национального духа в лирических произведениях Эркина Вахидова. Произведения поэта воплотили в себе своеобразные традиции, мечты народа, его заветные желания.

Ключевые слова: поэзия, национальный дух, национальный характер, анализ, литературный проповедь, поэтическое выражение.

МИЛЛИЙ РУҲ ИФОДАСИДА ХАЛҚОНА УСЛУБНИНГ АҲАМИЯТИ

Аннотация

Мақолада Эркин Воҳидов лирикасида миллий руҳ ифодаси масаласи таҳлил этилган. Шоир шеърлари миллат руҳини мужассам этган ўзига хос анъаналар, қадриятлар, миллатнинг орзулари, армонлари талқини мисолида тадқиқ қилинган.

Калит сўзлар: шеърият, миллий руҳ, миллий характер, таҳлил, бадиий талқин, поэтик ифода.

Кириш. Эркин Воҳидов мумтоз услубда ҳам, халқона услубда ҳам юксак бадиият намуналарини ярата олган шоир. Шоирнинг халқона услубдаги шеърлари миллий руҳиятни ифодалашда, айниқса, алоҳида аҳамиятга эга. Негаки, “...халқона усулдаги назм намуналари шеъриятимизнинг илдизлари миллатимизнинг қадим кечмишига бориб туташадиган асл ўзанларидан мудом қувват олаётгани далилидир” [3] Эркин Воҳидовнинг халқона услубдаги лирик асарлари, биринчидан, теран мазмун ва юксак бадиият уйғунлашиб кетгани, иккинчидан, шоирнинг ҳақ сўзни айтиш жасорати яққол намоён бўлгани, учинчидан, виждон амри билан яшаб, қалби буюрганини ёзгани ойдин кўриниб туриши жиҳатидан алоҳида ажралиб туради. У ҳаётда иймон-эътиқоди буюрмаган, ижодий тутумига зид ишларни қилмасликни – “бундан улуғ бахт йўқ” [1], деб ҳисоблади. Адабиёт аҳли ҳамиша қалб озодлиги, эрки учун курашган. Шундай замонлар бўлдики, рост сўзлаган тиллар пушаймонликдан гунг бўлди. Шоирнинг халқона услубдаги шеърларида ўзини алдаган миллат армонлари бор кўлами билан, ўзига хос тарзда акс этди.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Эркин Воҳидов ижоди хусусида кўплаб адабий-танқидий асарлар ёзилган, илмий тадқиқотлар амалга оширилган. Адабиётшунос Фахриддин Шодиев фикрича: “Бу ижодкор Ватан учун, халқ учун Қақнус бўлиб порлайди. ...бу улкан ижодкор ҳақида, унинг соф ўзбекча асарлари борасида Гёте жилдлари каби юздан ортиқ шарҳлар битиш мумкин [8].

Ҳақиқатан, шоир ижоди ҳар бир давр китобхони учун янгидан янги фикрлар уммонини, ўзига хос қарашлар тизимини тақдим эта олади. Воҳидов Эркин исмли зукко болакайнинг халқининг, миллатининг фахрига айланган Эркин Воҳидов даражасига етишида илоҳий истеъдод соҳибига одамийлик илмидан дарс берган яқинларининг бағрикенглиги, шарқона китобхонлик кечаларининг шукуҳи, донишманд кексаларнинг дуолари асосий омил бўлган. Шоирнинг яқин дўсти, адабиётшунос олим Раҳматилла Иноғомов хотирлашича: “Улуғ ўзбек алломаи давронларидан Алихонтўра Соғуний “Ўзбегим”, “Инсон ўзинг” қасидаларини тинглагач: “Бундай шеър янги давр адабиётида ҳали ёзилган эмас. “Ўзбегим” халқнинг кўзини очадиган, ўзлигини танитадиган улуғ шеър бўлибди! – деганлар”. 1973 йилда “Инсон ўзинг”ни Эркин Воҳидов ўзи ўқиб берганда, Алихонтўра Соғуний: “Ўлманг, болам, баракалла, гўзал қасида ёзибсиз, дунё, ҳаёт фалсафасини унга жо-бажо қилибсиз. Инсоннинг бағоят қудрати-ю ожизлиги ҳақидаги фалсафани бир шеър бағрига сингдирибсиз, омон бўлинг”, - дея дуолар қилган. Шоирдаги талантдан ва тиришқоқликдан ташқари, мўътабар зотларнинг дуолари ҳам муқаррар равишда муҳим ўрин тутган” [5].

Яна бир учрашув Сирдарёнинг Боёвут туманида бўлиб, унда кекса отахон “Ўзбегим”ни шоирнинг ўз оғзидан қайта-қайта тинглагач: “Ўғлим, сўзларинг шунчаки сўз эмас, сенга Худойимнинг назари тушган, ...икки дунёда азиз-у мукаррам бўл” [5], дея дуо берган. Миллатсеварликни миллатчилик деб бошда ёнғоқ чақилаётган ўша кезлардаёқ миллат ўз шоирига холис баҳосини берган эди. Бу шоир жасоратига, маҳоратига, иқтидорига миллатнинг мангу миннатдорчилиги изҳоридир.

Иброҳим Ғафуров “Мангу латофат” рисоласида: “Миллат танқиди билан майдонга чиққан зиёлиларимизнинг ҳаммаси дунё мамлакатларини кўриб келдилар. Жаҳонда бораётган шиддатли ўзгаришлардан хабардор бўлдилар. Ўз ҳоллари ва аҳволларига назар солдилар. Шунда уларнинг кўзларига аламли, ачинарли, ҳақиқати аччиқ бир мамлакат намоён бўлди. Улар миллатнинг ўзагига қарадилар. Ўзак соғлом эканини кўрдилар. Соғлом ўзакни қудратли ва яшовчан қилиш учун фақат ва фақат тарбия – миллий туйғулар ва миллий

онгнинг мақсадга кучли йўналтирилган тарбияси зарурлигини англадилар” [11], - деб айни ҳақиқатни ёзади.

Ана шу соғлом ўзакни миллат ғурурланса арзийдиган юксакликка кўтариш шоирнинг энг олий, эзгу мақсади эди. У халқининг юрагида ўт-оташ бўлиб ёнаётган бир парча эканини таъкидлашдан чарчамайди. Шоир ўзининг “юрак бўлиб туғилган исён” эканини айтиб, халқининг асрлардан буён заҳа бўлиб ётган дардига малҳам бўлмоқни истайди. Ушбу туйғу “Дарддошлик” шеърида, айниқса, таъсирли ифодаланган:

...Ҳаёт бешафқатдир, вақт эса қаттол,
Табиатга ўтмас зулм-у даъволар.
Биздан мерос қолар наҳотки беҳол
Нашаванд далалар, сувсиз дарёлар?!
Йўқ! Ҳеч ишонмайман! Имон бор! Халқ бор!
Метин иродалик ва олтин бошлик [1] –

Миллатнинг келажаги нурли, гўзал бўлиши кўп жиҳатдан унинг олдинги сафида турган аҳли ирфон – зиёлилар қатламига боғлиқ. Бироқ шоир “Сен менга тегма” шеърида ёзгани каби “Ҳар ким ўзига ўлжа излаб, “сен менга тегма, мен сенга” тарзида ҳаёт кечирса, қарғалар булбулга қўшиқ ўргатса, жамият ҳаёти таназзулга юз тутиб бораверади. Бундай бедодликдан ҳар қандай “соғлом ўзак” ҳам зарарланиб, асл ҳолига қайтиши мушкул бўлади.

Шоир ижоди бўйича бу каби тадқиқотлар кўп яратилган. Уларда миллий руҳ ифодаси масаласига муайян даражада муносабат билдирилган ўринлар мавжуд. Ушбу илмий мақоланинг шу пайтгача яратилган тадқиқотлардан асосий фарқи миллий руҳ ифодасида халқона услубнинг ўрни биринчи марта алоҳида тадқиқ қилинаётгани билан белгиланади.

Тадқиқот методологияси. Мақолани ёзишда шоир асарларидаги халқона услуб негизларини аниқлаш ва илмий асослаш учун бевосита унинг ҳаёт йўли билан боғлиқ – биографик, кечинмалари, руҳиятидаги эврилишларни кўрсатишда – психобиографик, шоир шеърларини ижтимоий воқелик билан уйғунликда текшириш учун – социологик ҳамда таҳлил мезонларини тўғри белгилашда – аналитик методлардан фойдаланилди.

Тадқиқот методологиясини белгилашда ўзбек ва жаҳон адабиётшунослигида эришилган илмий ютуқлар, устоз олимлар тадқиқотларидаги бадиий матн тадқиқига ёндашув мезонлари, илғор илмий-назарий тажрибалар асос вазифасини ўтади.

Таҳлил ва натижалар. Шеъриятда ҳаёт ҳақиқатини рўй-рост ифодалаш имконсиз бўлган даврда, бундай ёндашув муаллифнинг бошига оғир кунлар тушишига сабаб бўлган кезларда шоир фикрни тагматнда, бадиий тасвир воситалари орқали бериш йўлидан боради. Бундай мураккаб ва зиддиятли вақтларда “Барча рост ҳам дегулик эмас” (Алишер Навоий)лигини ҳисобга олган ҳолда халқ достонлари ва эртакларига поэтик деталлардан моҳирона фойдаланади. Жумладан, шоир “туш” детали воситасида асл ҳақиқатларни қуйидагича бадиий талқин этишга эришган:

Девпечак учун
Баланд сўрилар.
..Асал қутида
Қовоқарилар.
Кийиниб укпар,
Чўп ушлаб қўлга,
Қўшиқ ўргатар
Қарға булбулга.
...Қўй сўйиб, ёзиб
Тўкин дастурхон.
Қашқирни този
Қилмоқда меҳмон. [2]

Ҳаётда эса бори қалб ишлар оёғидан чалган замонлар. Чўчиб уйғонган шоирнинг кечки мажлисда айтар сўзлари – нордон гаплари, унга жавобан берилажак жавоб юриши – булар ҳаммаси юрагини эзади, ҳақ сўзни айтиш имкони бўлмаган бир пайтда шоир ўзи учун энг “соз”и – кўр-у кар бўлишга қарор қилади:

Энг сози – мен кар,
Кўрмайди кўзим.
Дедим: ҳар қалай
Терс тўнни кийма.
“Мен сенга тегмай,
Сен менга тегма”.

Лекин шоирнинг йигитлик ғурури, инсонлик масъулияти юрагидаги ўтни алангалатади:

“Агар ҳалолсан,
Тилингни тийма!
Битсин, йўқолсин –
“Сен менга тегма!”

Миллатимизнинг маъруф адиби Ғафур Ғуломнинг “Қирқ ёлғонда уч ёлғон” эртагига ўхшаш қиссаси барчага маълум ва машҳур. Асардаги севимли қаҳрамон Шум бола тимсолини Эркин Воҳидов янги бўёқларда чизади, “замонавий” Шум бола янги даврга мослашган, унинг “талаблари” ҳам ўзгача: энди у ёлғончилиги билан эмас, балки ростгўйлиги билан кишиларни ташвишга солади. Чунки бу рост-у ҳақиқатлар жамиятнинг яшаш тарзига айланган, бу тузум шундайки, унда:

Алдаганни бало урмас,
Алданган ҳам ўлмайди.
Шарт эмас Шум бола бўлиш,
Ёлғон бу кун осондир.
Газет тўла, китоб тўла,
Мажлис тўла ёлғондир.
Битта йиғин – котибият,
Битта йиғин – раёсат.
Ёлғон эди давлат иши,
Ёлғон эди сиёсат”... [1]

Одамзод табиатидаги ёлғонга мойилликнинг жамият миқёсида ҳаёт тарзига айланишидан ортиқ фожиа йўқ. Шоирнинг ўзи суҳбатларидан бирида бу ҳақиқатни қуйидагича ифодалаган: “Қизиғи, биз яшаган тузум ёлғон экани-ю ёлғонга қурилганини кўплар билган. Ўзимиздаги энг катта раҳбарлар ҳам буни қалбан ҳис қилган. Мажлисдаги гап бошқа, чойхонадаги гап бошқа эди” [9].

Юқоридаги мисраларда Эркин Воҳидовнинг халқ дарди билан ҳамнафас бўлгани, оддий меҳнаткаш инсонларнинг бошида синган калтак унинг танини зирқиратгани, қалбига озор етказгани таъсирли талқин этилган. Профессор Нурбой Жабборов Навоий ҳазратларининг элпарварлик руҳида ёзган мисраларини таҳлил этар экан, мана бундай ёзади: “Ўзи мансуб бўлган улуғ элга меҳр қўйиш, эл-улус бахтини ўз бахти, ғамини ўз ғами деб билиш шахс камолотининг муҳим шартларидандир. Комиллик тимсоли бўлган ҳазрат Навоий асарларида бу ғоя етакчи мавқеда туради. Биргина мисол:

Эрур чун олам ичра жоҳ фоний, яхши от боқий,
Бас эл комин раво айла ўзунгни комрон кўргач.

Яъни мансаб, мартаба-ю, мол-дунё – вақтинчалик, яхши ном эса абадий. Шундай бўлгач, ўзингни комрон кўрган, яъни баланд мавқега эришган чоғингда ўзгалар ҳожатини раво айламоқни одат қил – мана, улуғ донишманд нима демоқчи! Аслида, ҳақиқий элпарварлик ҳам шуни тақозо этади” [4].

Эркин Воҳидов “Дарддошлик”, “Дангасалар”, “Нега япон юз йил яшар...”, “Ўзбек Навоийни ўқимай қўйса”, “Сен менга тегма”, “Ҳазрати Хизр ва замон аёли”, “Ақл топмадинг” каби шеърларида миллат тараққиётига ғов бўлиб, уни арзимас ташвишлар билан юксак чўққилар сари интилишдан чалғитувчи икир-чикирлар билан банд бўлмасликка чақиради. Жумладан, Кўз-кўз қилиб уй

қурган, том ёпса-да нафс оғзин ёполмаган, қўли ҳеч китоб ушламаган қаҳрамонига хитоб қилиб, мана бундай ёзади:

Яшамадинг дунёда ҳисоб,
Пул топдинг-у ҳикмат топмадинг,-

“XX аср бошида маърифатпарвар шоирларимиз миллат оёғига занжир ўлароқ, уни жаҳолатга тортган кўпгина урф-одатларга қарши кескин курашган. Улар бу нуқсонларни миллат юзига очиқдан очиқ, аччиқ тилда айтган” [9,5], деган шоирнинг ўзи ҳам ана шу йўлда собитқадам бўлгани алоҳида аҳамиятга эга..

Эркин Воҳидов қалбини изтиробга солган миллат тараққиётига ғов бўлиб, маърифат гулшани ўрнига ғафлат ўчоғи атрофида куймаланаётган элга ачиниш туйғуси мана бу тарзда шеърга айланган:

Қумурсқадек тирикликдан ўзга ғами бўлмаган,
Дил олами, ишқ олами, руҳ олами бўлмаган,
Имонни ҳам, виждонни ҳам қурбон қилган ҳалқум деб,
Сени хаёл қилдимми мен куйганимда халқим деб?[1]

“Қумурсқа” шеъриятда аксар ижобий образ сифатида талқин этилган. Тирикликдан ўзга ғами бўлмаган бу жонивор ушбу шеърда ачинишга лойиқ кимсаларнинг, тўғрироғи, улкан орзулардан бенасиб яшаётган миллатнинг мажозий образи. Энг аянчлиси, фақат тирикчилик ғамида яшагани боис у дил олами, ишқ олами ва руҳ оламидан бенасиб қолган. Ҳалқуми – нафси йўлида иймонни ҳам, виждонни ҳам қурбон қиладиган даражада тубанлашган. Бу эса, шоир қалбидаги изтиробнинг бош сабаби: “Сени хаёл қилдимми мен куйганимда халқим деб?” Бу ўринда шоир катта аҳамиятга молик фикрни таъсирли ва оҳорли ифодалашда “ҳалқум” ва “халқим” сўзларидаги шаклдошлик ва оҳангдошлик ҳамда кучли тазоддан маҳорат билан фойдаланади.

Иймонни ҳаёт дастурининг бош мезонига менгзаш – азал-азалдан ўзбек халқининг асл табиатини белгилаган. Ана шу неъматдан мосиво, ўзи тушган тубанликнинг нақадар фожиали эканини англашга ҳам қодир бўлмаган айрим замондошларининг хатти-ҳаракатларидан изтироб чекади шоир. Улар жон фидо қилиб “халқим” дейишига арзимаслигидан куйиб-ёнади.

Умрида ҳеч қилган эмас мулкдан ўзга бир ният,
Сени дея тиладимми юракларга ҳуррият? [2]

Эркин Воҳидов шеъриятга юксак мезонлар асосида ёндашган. Ижод аҳли олдига баланд талабларни қўйган. Муҳими, бу талаблар айнан шоир лирикасидаги халқона услубнинг адабий-эстетик асосларини ташкил этади. “Шеърият дунё даражасига, адабиёт даражасига чиққан пайтдагина катта шеърият бўлади, деб ўйлайман, – деб ёзади ижодкор. – Шеърият умумхалқ мулкига айланса, уни деҳқон ҳам ўқиса, академик ҳам сеҳридан баҳраманд бўлса, ҳар бири ўзлари даражасида тушуниб етса, мен ўша шеъриятни ҳурмат қиламан” [10].

Адабиётнинг улкан уммонларидан баҳра топган ва миллий адабиётимизни ҳам жаҳон адабиёти саҳналарида жаранглашга лойиқ деб билган шоир: “Мен халқимга ҳамиша камолот тилайман. Шу замонда яшаб турганлар орасида юксак фикрлилардан бўлишини, шундай даражага эришишини ва китобга, жаҳон адабиётига муносабати, маданиятга муносабати юксак бўлишини орзу қиламан”, дейди. Бу тилак бутун ўзбек миллатини асрлар оша руҳлантириб, баланд чўққиларга ундайди.

Хулоса ва таклифлар. Эркин Воҳидов шеърияти миллий руҳ теран мазмун ва бетакрор бадиий тасвир воситалари орқали талқин этилгани билан алоҳида ажралиб туради. Бунга эришишда шоир мумтоз ифода услуби ва халқона услубдан санъаткорона фойдаланган. Миллий руҳ ифодасида, айниқса, халқимизнинг асл табиати, муаззам тарихи, ўлмас қадриятларини ифодалашда алоҳида ўрин тутувчи халқона улубнинг аҳамияти катта эканини таъкидлаш керак.

АДАБИЁТЛАР

1. Воҳидов Э. Адолат туйғуси. //Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1986 йил 17- сон.
2. Воҳидов Э. Асарлар. 3- жилд. Тошкент: Шарқ, 2016.
3. Жабборов Н. Замон, мезон, шеърият. – Тошкент: Ғафур ғулом номидаги НМИУ, 2015.
4. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. Тошкент: Адабиёт, 2021.
5. Иноғомов Р. Шоирлик қисмати. – Тошкент: Университет, 1999.
6. Inson o’zing. – Тошкент: O’zbekiston, 2022.
7. Орипов А. Сўз сеҳри. /Эркин Воҳидов сабоқлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2016.
8. Shodiyev F. Erkin Vohidov ijodida Navoiy timsoli talqini. / “Erkin Vohidovning so’z qo’llash mahorati” mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Guliston, 2020.
9. Эркин Воҳидов ва Шуҳрат Муҳиддин суҳбати. “Бу обод кунларга етдик соғ –омон...” //Тафаккур, 2011, 3-сон.
10. Эркин Воҳидов сабоқлари. Сўзбоши. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2016.
11. Ғафуров И. Мангу латофат 2-китоб. – Тошкент: Sharq, 2008.

O‘ZBEKISTON MILLIY NIVERSITETI XABARLARI, 2022, [1/8/1]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 811.212

Rano YUSUBOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.d.
yusubovarano49@gmail.com

NavDPI professori, f.f.d. N.Q.Murodova taqrizi asosida

BADIIY MATNGA LINGVOPOETIK YONDASHUV MASALASI

Annotatsiya

Badiiy matnning lingvistik xususiyatlarini o‘rganish usullarining xilma-xilligi sohaning mustaqillikka erishgunga qadar murakkab yo‘lni bosib o‘tishiga olib keldi. Ilmiy paradigmalarning almashinuvi natijasida maqsad va vazifalar ham o‘zgarib, yanada konkretlashtirilib borilaverdi. Shunga ko‘ra, ushbu maqolada lingvopoetikaning yuzaga kelish sabablari, mohiyati, maqsad va vazifasi, obyekti va predmeti, badiiy matnda muallif idiostili, tilga xos bir necha funksiyaning badiiy matnda ifodalanishiga doir qarashlar bayon qilingan.

Kalit so`zlar: lingvopoetika, badiiy matn, estetik vazifa, stilistika, antropotsentrik paradigma, badiiy etalon, poetonim, badiiy pragmatik intensiya, til funksiyalari.

ВОПРОС ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОГО ПОДХОДА К ХУДОЖЕСТВЕННОМУ ТЕКСТУ

Аннотация

Разнообразие методов изучения языковых особенностей художественного текста привело к тому, что отрасль прошла сложный путь, пока не обрела независимость. В результате смены научных парадигм цели и задачи также менялись и становились все более конкретными. Соответственно, в данной статье изложены причины возникновения, сущность, цель и задача, объект и предмет лингвопоэтики, авторский идиостиль в художественном тексте, взгляды на выражение в художественном тексте нескольких специфических для языка функций.

Ключевые слова: лингвопоэтика, художественный текст, эстетическая задача, стилистика, антропоцентрическая парадигма, художественный эталон, поэтоним, художественная прагматическая интенция, языковые функции.

THE QUESTION OF A LINGUOPOETIC APPROACH TO A LITERARY TEXT

Abstract

The variety of methods for studying the linguistic features of a literary text has led to the fact that the industry has gone through a difficult path until it gained independence. As a result of the change of scientific paradigms, goals and objectives also changed and became more and more specific. Accordingly, this article describes the causes, essence, purpose and task, object and subject of linguopoetics, the author's idiosyncrasy in a literary text, views on the expression of several language-specific functions in a literary text.

Keywords: linguopoetics, artistic text, aesthetic task, stylistics, anthropocentric paradigm, artistic standard, poetonym, artistic pragmatic intention, language functions.

Kirish. Insoniyat tarixi inqirozlar, ishlab chiqarish inqilobi, ijtimoiy ziddiyatlar, siyosiy kurashlar, milliy-madaniy qadriyatlar, mifologik qarashlar, din va ateizm oppozitivligi, ilm-fan yutuqlarisiz taraqqiy eta olmas edi. Yana bir xususiyat bor: bashariyat san’atsiz ham mukammalasha olmas edi. Shu bois insoniyat madaniyati tevaragida asrlar bo‘yi ilm-fan bilan bir qatorda, san’at va hayot bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib, inson shaxsiyatini tarkib toptirib, mukammallashtirib, sayqallab borgan. Bu borada insoniyat iqrori M.M.Baxtin tilida original tarzda ifodalangan: “San’at va hayot bir emas, lekin mas’uliyatim ostida ular menda birlashishlari kerak” [1]. Demak, badiiy asarni lingvopoetik jihatdan o‘rganish masalasi mohiyatiga ko‘ra azaliy davom etadigan masala bo‘lib qolaveradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Filologik fanlar kontekstida lingvopoetikaning o‘rnini aniqlash uchun badiiy adabiyot tilini o‘rganishga oid ilmiy yondashuvlar evolyustiyasini kuzatish lozim bo‘ladi. Bunday yondashuvning dastlabki harakatlari Aristotel tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, Aristotel badiiy adabiyot tilini aniq va chuqur o‘rgangan. U nafaqat badiiy adabiyot janrlarini batafsil tavsiflab, troplarni belgilagan, notiqlikning nazariy asoslarini ko‘rsatib bergan, balki adabiy ijodning mohiyati va maqsadlarini ochib berishga harakat qilgan [2].

XX asr boshlarida tilning estetik vazifasi va bu vazifaning badiiy adabiyot tilida namoyon bo‘lishi yozuvchining individual mahorati bilan bog‘liqligi masalalariga tilshunoslar,, faylasuflar, adabiyotshunoslar birdek alohida diqqat qaratishgan, bu o‘rinda Karl Fossler, Benedetto Kroche, Leo Shpitser, O. Valsel. G. Vyolflin, V.Dibelius va boshqa ko‘plab olimlarning qarashlarini tilga olish mumkin. Italyan faylasufi B.Kroche tilning estetik vazifasiga to‘xtalib, til allaqachon mustaqil sanalgan pozitsiyasidan chiqib, endi ifoda etishning umumiy estetik vazifasiga aylanayotganligi masalasiga to‘xtalgan [3]. Nemis tilshunosi Leo Shpitser yozuvchi tilining individual xususiyatlariga e’tibor qaratib adabiyotshunoslar lingvistik bilimlarning yetishmasligidan, tilshunoslar estetik bilimlarning yetishmasligidan qiynalishlari oqibatida ushbu fanlar chegarasida joylashgan uslubni o‘rganishda ikkala tomondan ham teng darajada zarar ko‘rilayotganligini ta’kidlagan [4], uning izohicha, har bir yangilik ijodiy individuallik manbaidir, aslida sintaksisda uslub bilan bog‘liq hech nima yo‘q, sintaksis va hatto grammatika muzlatilgan stilistikadan boshqa narsa emas [4].

G.O.Vinokurning ta’kidlashicha, nafaqat tilni o‘rganish, balki tilni yaratish kerak; nafaqat til birliklarini tartibga solish, balki ushbu birliklar o‘rtasida yangi aloqalarni yaratish ham til egalari ixtiyorida. Ammo yaratuvchanlik – til madaniyatining eng yuqori bosqichi, hozircha bu yirik masshtab haqida faqat orzu qilish mumkin[5]. Bugunga kelib lingvopoetika bir qator o‘zgarishlarga, yuksalishlarga yuz tutdi, ijodkor idiolekti, pragmatik maqsadi samarasi o‘laroq, lingvopoetika antropotsentrik paradigma sohalari bilan

kesishgan holda tadqiq qilinmoqda, natijada lingvopoetikaning zamonaviy metod va usullari yuzaga keldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Lingvopoetika soha sifatida shakllangunga qadar badiiy asarni filologik tadqiq qilish turli maqsad va metodlarda amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlarda shakl mazmundan yoki mazmun shakldan uzilgan holda yoxud matn uning muallifi pragmatikasidan ayro holda o‘rganilganki, bu tematik tahlillar ustuvorligini ko‘rsatadi, natijada tadqiqot obyekti bo‘lgan matnni shakl va mazmun birligida kompleks o‘rganish vazifalar doirasidan uzoqlashib qolgan. Ana shu vazifalarning yechimi o‘laroq, filologiyaning yangi sohasi – lingvopoetika yuzaga kelgan. Rus tilshunosi A.A.Lipgart badiiy matnni lingvopoetik tadqiq etish yo‘nalishi matnning g‘oyaviy-badiiy mazmunini ta’minlash va estetik effekt yaratishda lingvistik birliklarning qiyosiy ahamiyati va stilistik vazifalarini aniqlashtirishga yo‘naltirilganligini ta’kidlaydi [6]. Shunday qilib, lingvopoetika filologiyaning lingvistik birliklarning estetik xususiyatlarini badiiy kontekst asosida o‘rganadigan sohasidir. Lingvopoetikaning asosiy tadqiqot obyekti muallif badiiy idrokining til birliklari vositasida avtomatlashtirilgan mexanizmi sanaluvchi badiiy matndir. Har qanday badiiy matnda qahramonning kechinmalari va istaklari olami, turli tomondan qaralganda ham, muallifning obyektiv hissiy-ixtiyoriy munosabati, ya’ni muallifning qarashlari, istaklari bilan halqa kabi o‘rab olingan holda tugatiladi [1]. Badiiy matn tahlili idiostil tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ushbu tushuncha muallifning istalgan lingvistik vositalarni tanlashi asosida badiiy matn ifoda shaklini pragmatik niyatiga mos tarzda shakllantirishidir, idiostil muallifning til oldidagi imtiyozlaridan foydalana olish darajasini belgilaydi. Poetik matnda ayrim ijodkorlar badiiy niyatlarini ifodalash uchun poetik yuk olgan nomni (poetonim) yaratadilar, natijada poetonim ijodkor she’riyatining badiiy etaloniga aylanadi. Onomapoetikaning aynan ushbu ko‘rinishi kamunum hodisa sifatida, masalan, Usmon Nosir va Abduvali Qutbiddinda kuzatiladi. Usmon Nosirning ***Nasima***, Abduvali Qutbiddinning ***Osima*** ramziy poetonimlarini qo‘llashlari ularga xos betakror idiostilni belgilab beradi. Usmon Nosirda: *Yo‘q, hali hammasi o‘tganmas, Ko‘p hali hayotdan nasibam. Silligim bezarar, hech gapmas, Borini ko‘raman,* ***Nasimam****, Yo‘q, hali hammasi o‘tganmas!* A.Qutbiddinda: *Sendan ko‘rgan kunim,* ***Osima****, Sendan neki topgan bo‘lsam, tasalli, Bir qoshiq qonimdan kechgan gulxayri O‘zingsan, jabrimga Sabring masalliq.*

Lingvistika sohasiga oid har bir fanning o‘rganish obyektida, avvalo, til va inson munosabati yotadi, mavjud har bir fan ushbu munosabatga o‘zining predmetidan kelib chiqqan holda yondashadi. O‘z davrida V.V.Vinogradov alohida filologik fanni – badiiy adabiyot tili fanini yaratish zarurligi, badiiy asar tilini o‘rganuvchi filologiya sohasi sifatida lingvopoetikaning predmeti va vazifalari to‘g‘risidagi g‘oyani rivojlantirdi. Lingvopoetikaning predmetini til birliklari shakl va mazmunining badiiyatga transforma qilinishi natijasida badiiy to‘liqlikni ta’minlashini badiiy matnlar misolida o‘rganish tashkil qiladi.

Soha nomidan ma’lumki, lingvistika va poetika masalalari mushtaraklikda, bir-biridan uzilmagan tarzda o‘rganiladi, aks holda, til birliklarini qo‘llashdagi individuallik, ijodkorga xos idiostil, natijaviy maqsad mohiyati ochilmay qoladi. Filologiyaning muhokamasi fanni anglash, avvalo, matnni tushunishga qaratilgan ekan, o‘rganish va talqin qilishning asosiy obyekti bo‘lib xizmat qiluvchi badiiy matn o‘quvchidan tortib tadqiqotchiga qadar idrokiy faollikni talab etadi. Shu sabab ham lingvopoetika filologiyaning badiiy kontekstda lingvistik birliklarning estetik xususiyatlarni o‘rganadigan bo‘limi sifatida ko‘rsatiladi. Badiiy matnni idrok etishga yo‘l badiiy mazmun va obrazli ifodani bir butun sifatida idrok etish orqali ochiladi. Har bir badiiy matnda o‘quvchi idroki lingvistik tafakkurning bir balandligidan ikkinchi balandligiga tomon yuqorilab boraveradi – yangi bosqichga ko‘tariladi. Tilning turli sath birliklari o‘zgarib, yangilanib, sayqallanib, estetik ifoda imkoniyatlarining yangi eshiklarini ochib beradi. Shunday o‘rinlarda, ayrim til birliklari lingvopoetik tahlil mavzusiga aylanadi, o‘rganilayotgan asarda til birliklari har doim muallifning pragmatik maqsadini ifodalash uchun ko‘zlanganligiga duch kelinadi.

Ta’kidlanganidek, stilistika ham badiiy matnning ekspressivligini aniqlash uchun potensial darajada zarur bo‘lgan til birliklarini o‘rganadi. Badiiy matnda fonetik, leksik-frazeologik, turli sintaktik birliklarning, affiksal morfemalarning ifoda xususiyatlari, tarixiy istiqboli (eskirgan va yangilik bo‘yog‘iga ega til birliklari, individual okkazionalizmlar), estetik qimmatiga e’tibor qaratiladi, biroq badiiy uslub (badiiy matn) stilistikaning o‘rganish obyektlari qatoridan joy olgan bir kichik obyekt sanaladi, stilistika til birliklarining nafaqat badiiy uslubda, balki barcha uslublarda qo‘llanish imkoniyatlarini o‘rganadi. To‘g‘ri, stilistika ko‘chimlar, stilistik figuralar va boshqa an’anaviy vositalarning ekspressivlikni hosil qilish jihatlarini badiiy matn misolida o‘rganish bilan chegaralanmaydi. Balki badiiy matnda ekspressivlikni yuzaga chiqarish imkoniyati yuqori bo‘lgan jami til birliklarining estetik qimmatini o‘rganadi. Lingvopoetikaning o‘rganish obyekti – to‘laligicha badiiy matn, ya’ni badiiy matn tarkibiy qismi murakkab semantik, funksional-grammatik va antropotsentrik uyushuvchanlik xarakteriga ega bo‘lgan hodisa sifatida, muallif pragmatikasi idiostilini belgilovchi yaxlit kommunikativ-estetik tuzilma sifatida o‘rganiladi. Stilistikadan farqli o‘laroq, lingvopoetikada til birliklarining estetik imkoniyatlari matn persepsiyasi doirasida, muallif va retsipiyentning matnni idrok qilish qobiliyatidan ajratilmagan holda o‘rganiladi. Badiiy matn derivatsiyasi mustahkam sistemali, ierarxik munosabatga ega, natijada tanlangan forma va semantika muallifning yangi va yangi badiiy pragmatik intensiyalari yig‘indisini vujudga keltiradi.

O‘zbek tilshunosligida lingvopoetikani chuqur tadqiq etgan M.Yuldashev badiiy asar tilini o‘rganishda keng tarqalgan ikki asosiy yo‘nalishni kuzatish mumkinligini X.Doniyorov va S.Mirzayevlarning «So‘z san’ati» deb nomlangan kitobidagi quyidagi ta’rif bilan keltiradi: “Tildagi o‘sish-o‘zgarishlarni o‘rganishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadigan aspekt – lingvistik aspekt, yozuvchining umumxalq tiliga bo‘lgan munosabati, til boyliklaridan foydalanishi, yozuvchi mahorati, stili haqida xulosa chiqaruvchi aspekt – stilistik aspekt” [7,3]. Badiiy matnni stilistik aspektda o‘rganish tilning vazifalarini ham chegaralab qo‘ydi, natijasi o‘laroq, tilning kommunikativ va estetik vazifasidan boshqa vazifalari e’tibordan chetda qoldi. Badiiy matn – matn turlari ichida g‘oyat murakkab nutqiy tuzilma, til birliklarini qo‘llash uchun qat’iy shartlar, qoidalar mavjud emas, badiiy ehtiyoj sabab anomaliya holati ustuvorlik qiladi, biroq badiiy kontekstda ham anormal qo‘llanishlarda me’yorga amal qilish talab etiladi.

Lingvopoetikaning yuzaga kelishi til funksiyalarining maqomini konkretlashtirish bilan ham bog‘liq. To‘g‘ri, til funksiyalarining xilma-xilligi biri ikkinchisini namoyon qilish, imkoniyatini yuzaga chiqarish, o‘zaro ehtiyoj sababidan degan fikrni asoslaydi. Sababi insoniyatning kommunikativ va kognitiv faoliyatida voqelikni anglash (bilish), borliqni idrok etishning muhim vositasi sifatida bevosita til muvaffaqiyatli global taraqqiyotni ta’minlab beradi. Ushbu faoliyat lisoniy materialning ichki (semantik) va tashqi (forma) jihatdan chegaralanmaganligiga bog‘liq ravishda sifatni belgilaydi. Har qancha e’tirof etmaylik, tilning doimiy takrorlanib kelingan ikki yirik funksiyasi – kommunikativ va estetik funksiyaga e’tibor qaratish bilan chegaralanish qolgan funksiyalarni xiralashtirdi, holbuki, tilshunoslikda tilning ko‘p vazifaviyligi haqidagi qaydlar o‘tgan asr boshlaridan buyon ta’kidlab

kelinadi, shu sabab tilning qolgan funksiyalarini e’tibordan qochirib bo‘lmaydi.

T.Bushuy, Sh.Safarov tilning eng muhim, asosiy funksiyalari sifatida quyidagilarni ko‘rsatishadi: “1) til odamlar orasida eng muhim aloqa vositasidir; 2) u insoniyatning ijtimoiy tarixiy tajribasini saqlash uchun xizmat qiladi; 3) til tafakkurning asosiy elementi vazifasini bajaradi.” [8]. Bu o‘rinda tilning kommunikativ, akkumulyativ, kognitiv funksiyalari nazarda tutilgan. Andre Martine tilning quyidagi uch muhim funksiyasini keltiradi: kommunikativ funksiyasi (insonlar o‘rtasida o‘zaro bir-birini tushunishni ta’minlaydi), fikrning asosi bo‘lish funksiyasi (kognitivlik) hamda ekspressiv funksiyasi (aytilgan fikrga munosabatini bildirish) [9]. V.A.Avrorin tilning kommunikativ (aloqa quroli, vositasi), ekspressiv (fikrlarni ifodalash), konstruktiv (fikrlarni shakllantirish), akkumulyativ (ijtimoiy tajriba va bilimlarni to‘plash, saqlash) vazifalarini farqlash lozimligini ta’kidlaydi [10].

Odatda, *funksiya* tushunchasiga falsafiy nuqtai nazardan yondashilib funksiyaning ikki muhim jihati ajratib ko‘rsatiladi: yashirin va maqsadli. Maqsadli jihat funksiyani ma’lum bir lisoniy vositalarning maqsadlari yoki yo‘nalishlari sifatida odatiy tushunishga mos keladi. Yashirin jihat esa til vositalarining muayyan maqsadni amalga oshirish qobiliyatini ifodalaydi [11]. R.O.Yakobson har bir tilning eng muhim funksiyalari adresant, kontekst, xabar, aloqa, kod va adresat kabi olti faktorga muvofiq namoyon bo‘lishini ta’kidlab, tilning referentiv (kommunikativ), emotiv (ekspressiv), konativ (ko‘rsatma beruvchi), fatik (nufuzli, namunali, etalon), metatil (izohlash), poetik funksiyalari bevosita keltirilgan olti faktor fonida o‘rgangan. Olimning ta’kidicha, tilning poetik funksiyasi og‘zaki va yozma adabiyot vazifasi bo‘lmasa-da, biroq uning markaziy belgilovchi funksiyasidir, shuningdek, nutq faoliyatining boshqa turlarida ham ushbu funksiya ikkinchi darajali, qo‘shimcha funksiya sifatida mavjud bo‘ladi [12]. Ko‘rinadiki, R.O.Yakobson tilning emotiv (ekspressiv) va poetik funksiyalarini farqlab ko‘rsatgan. Tilning emotiv funksiyasi nafaqat badiiy matnda, balki so‘zlashuv nutqida ham birdek namoyon bo‘ladi, shu sabab R.O.Yakobson emotiv funksiyani adresantga yo‘naltirilgan, so‘zlovchining nima haqida gapirayotganiga bevosita munosabatini ifodalashdan ko‘zlagan maqsadini o‘rganuvchi funksiyasi sifatida fonetik, grammatik va leksik sathlarda bo‘yoq-dorlikning namoyon bo‘lishi bilan yuzaga chiqadi, deb ko‘rsatgan [12]. Poetik funksiya aynan badiiy matnda yuzaga chiqishi bilan belgilanadi va ijodkor idiostili va badiiy intensiyasiga muvofiq til sathlaridagi har bir birlikning alohida tanlangan shakllarining – ekvivalentlarining qo‘llanishiga asoslanadi.

Yuqorida keltirilgan til funksiyalari har qanday tilning eng muhim, asosiy funksiyalari hisoblanadi. Ammo tilning funksional imkoniyatlari bu bilangina cheklanmaydi. A.E.Mamatov tilning eng muhim 100 ta funksiyasini izohlab beradiki [13], demak, inson kommunikativ, kognitiv, estetik faoliyatining turli-tumanligi, aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan til tizimining ichki murakkabligiga va bajaradigan funksiyasining xilma-xilligiga munosabati bilan ham bog‘liqdir.

Xulosa va takliflar. Bugun lingvopoetika sohasining antropotsentrik yo‘nalish bilan kesishgan holda o‘rganilayotganligi natijasida sohaning predmeti, maqsad va vazifalari yangicha tus oldi. Olamning lisoniy manzarasi obrazli tasvir etilgan badiiy matnni lingvopoetik tahlil etishdan maqsad til birliklarining ijodkor individual ijodiy manerasiga xos xususiyatlarini belgilash, ijodkorning olamni idrok etishi va uni badiiy matnda aks ettirishi muammosi tahlilida uning lisoniy ongi, tafakkuri, milliy-madaniy mansubligi, til imkoniyatlaridan foydalana olish qobiliyatlari kabilarni tekshirish va badiiy matnni lingvokognitiv, lingvopragmatik, lingvopsixologik aspektda tadqiq qilishdan iborat. Demak, badiiy matnda til sathlariaro til va madaniyat, til va psixologiya, til va tafakkur, til va jamiyat, umuman olganda, til va lisoniy shaxs munosabati hamkorligini o‘rganish maqsad qilinadi.

ADABIYOTLAR

1. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. -М.:Искусство, 1986.
2. Аристотель. Собрание в 4-х томах, т.2. – М.: Мысль, 1978.
3. Кроче Б. Эстетика как наука о выражении и как общая лингвистика / пер. с ит. В. Яковенко. Ч.1. — М., Издание М. и С. Сабашниковых, 1920.
4. Шпицер Л. Словесное искусство и наука о языке //Проблемы литературной формы. –Л.: Academia, 1928.
5. Винокур Г.О. Филологические исследование лингвистика и поэтика. –М.:Наука, 1990.
6. Липгарт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика (на материале англ. лит. 16 – 20 вв.): Дисс. ... д-ра филол.наук: [в 2 т.]. – М., 1996.
7. Qarang: Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik thlili asoslari. -T:Fan, 2007.
8. https://n.ziyouz.com. kutubxonasi. Bushuy T., Safarov Sh.Til qurilishi:tahlil metodlari va metodologiyasi. –T.: Fan, 2007.
9. Мартине А. Основы обшей лингвистики [в:] Новое в лингвистике. – М., 1963.
10. Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка., -Л., 1975.
11. Бондарко А.В. Функциональная грамматика. – Л.: Наука, 1984.
12. Якобсон Р.О. Лингвистика и поэтика // Структурализм: «за» и «против»,- М.: Прогресс, 1975.
13. Маматов А.Э. 100 наиболее важных функций языка – Tilning eng muhim 100 ta funksiyasi. -T.: Bayoz, 2014.